

NASHR KO'RSATKICI 1404



URGANCH
INNOVATION
UNIVERSITETI



INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch_iu



@uriu.xz



(91) 436-20-22
(90) 436-20-22
(88) 909-22-20



@uriu



Xorazm viloyati Urganch
shahri "Mustaqillik" MFY
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2025 (11)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 11-son

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

I.Xaydarov – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.Qurbonov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.E.Xodjamberdiev – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Mahamadyunusov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

B.Abdirimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

M.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

A.P.Axunov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O‘.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
 № 11 (32), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA: TARIX

M.ESHMURODOV. Antik davr Xorazm vohasida ijtimoiy munosabatlar masalalari.	6
T.MATYAQUBOV. Quyi Amudaryo hududida tosh asri tarixshunosligi masalalari.	14
N.KAMOLOVA. Xonliklar davri dehqonchilik an'analari masalasining o'rganilish darajasi.	18
D.RAJABOVA. Jadid va islohotchi Islom Xo'ja siymosi Abdulla Boltayev esdaliklarida.	25
U.BEKMUHAMMAD. Qurbon Bereginning bosh muharrir va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati.	30
O.TOHIRJON. Ular chet elda o'qigan edilar (xiva xonligi misolida).	37
SH.SHOYIMOV. Ikkinchi jahon urishi davrida temir yo'llarning harbiy va siyosiy ahamiyati.	44
O.XAMIDOVA. O'zbek milliy teatrining shakllanish jarayoni.	49
E.TAJIMIRZAYEV. Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish jarayoni: tuzilmaviy o'zgarishlar va kadrlar siyosati (1957-yil).	57
A.KAMILOV. Turkistonda milliy masala muammolarining tadqiq etilishi.	63
M.MARIMOV. Xorazm okrugida kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari.	71
X.KURBANOV. "Mehnat armiyachilari"ning O'zbekistondagi sanoat korxonalariga safarbarligi.	78
X.BOBOQULOVA. O'zbekistonda qizil yarim oy jamiyatining tashkil topishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari.	86
M.XASANBOYEVA. Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davriga bo'lgan e'tibor.	91
O.QODIRJONOV. O'zbekiston Respublikasida irrigatsiya va melioratsiya sohasiga doir amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati (Andijon viloyati misolida).	97
M.RASULOVA. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik: shakllanishi va rivojlanish tarixi (1991-2020 yy).	102
F.TOLIPOV. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarixini tadqiq etishning ayrim masalalari.	108
S.SOBIROV. Muzey faoliyatiga nigoh.	117
I.ABDUXAMIDOV. O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi masalalarining tarixshunosligi.	123
G. Ibrohimova. Xorazmdagi siyosiy jarayonlar va hokimiyatdagi o'zgarishlarning davlat boshqaruvi va xalq hayotiga ta'siri.	130

FILOLOGIYA

N.SA'DULLAYEVA. Xorazm shevalarida faol qo'llanuvchi etnografizmlar.	139
G.RAXIMOVA. Qayta takrorlashning o'ziga xos turlari.	144
K.YUSUPOVA. Fonetik vositalarning ekspressivlikni ta'minlashdagi o'rni va uning pragmatik vazifalari.	150
A.XAMIDOV. Murod Muhammad Do'st romanlarida o'zbek xalqiga xos til birliklari va ularning madaniy talqini.	155
D.RUSTAMOVA. XX asr manbalarida navoiy g'azallarining matni xususida.	161
S.TOG'AYMURODOVA. O'zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so'zlarni o'rganilish tarixi.	168

A.ARAL. Alisher Navoiy ijodida fors adabiyoti bilan poetik mushoira.	176
M.QO‘CHQOROVA. Behbudiyshunoslik qirralari.	187
Z.RAXIMOVA. Toponimik makonni alohida hudud misolida o‘rganish.	193
S.SAMANDAROVA. Umr kitobining bosh sarlavhasi.	197
M.ANKABAEVA. Navoiy gumanistik qarashlarida insonparvarlik g‘oyalarining muhim xususiyatlari.	201
R.ANYOZOVA. O‘zbek tilida hasharot nomlarining leksik-semantik guruhlanishi.	208
SH.YUSUPOVA. Ogahiy tarixiy asarlarida -fom va -gun o‘zlashma sifat yasovchilarining etimologik va lingvopoetik xususiyatlari.	213
D.BEKCHANOVA. O‘zbekistonda yechimlar jurnalistikasi kontekstida hududiy internet nashrlarining funksional tahlili.	219
S.SHARIPOVA. Xorazm og‘zaki ijodiyoti leksikasida mifonimlarning shakllanish omillari.	230
K.OLIMBOYEVA. O‘zbek shevalarini o‘rganishda yangicha yondashuvlar.	235
M.TO‘RABOYEVA. Badiiy matnda tibbiy lingvistik birliklarning qo‘llanilishi.	241
D.RAJAPOVA. O‘zbek tilining elektron lug‘atlarini yaratishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar.	245
T.ESHCHANOV. Ogahiy leksikasida ildiz va affikslar o‘zaro munosabatining semantik modellari.	250
R.G‘ayratova. Oziq-ovqat nomlari tarjimasida madaniy moslik va ekvivalentlik masalalari.	257

TARIX

ANTI-K DAVR XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR MASALALARI



**Madamin
ESHMURODOV,**

**Urganch innovatsion
universiteti rektori,
filologiya fanlari doktori,
dotsent. Turon Fanlar
akademiyasi akademigi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: *Miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar Xorazm vohasi tarixi juda sust yoritilgan. Bu eng avvalo, shu davrlarga oid yozma manbalarning kamligidan bo‘lsa, ikkinchidan shunga bog‘liq ravishda bu davr tarixi ilmiy jihatidan chuqur tahlil qilinmagan. Mazkur maqolada, Xorazm vohasi antik davr tarixining eng kam o‘rganilgan masalalaridan biri, ijtimoiy tarix masalasi tahlil qilingan.*

Аннотация: *История Хорезмского оазиса IV – IV веков нашей эры освещена слабо. Во-первых, это связано с отсутствием письменных источников, относящихся к этим периодам, а во-вторых, в связи с этим история этого периода не была глубоко научно проанализирована. В данной статье анализируется один из наименее изученных вопросов истории античного Хорезма – социальная история.*

Annotation: *The history of the Khorezm oasis of the 4th – 4th centuries AD is poorly illuminated. Firstly, this is due to the lack of written sources relating to these periods, and secondly, in connection with this, the history of this period has not been deeply scientifically analyzed. This article analyzes one of the least studied issues in the history of ancient Khorezm - social history.*

Kalit so‘zlar: *antik, Avesto, Tuproqqal’a, hujjatlar, ijtimoiy munosabatlar, oila, patriarxal qulchilik, vorislik.*

Ключевые слова: *античный, Авеста, Топраккала, документы, общественные отношения, семья, патриархальное рабство, наследство.*

Key words: *antique, Avesta, Toprakkala, documents, social relations, family, patriarchal slavery, inheritance.*

Xorazm vohasida XX asrning 30-yillaridan boshlangan arxeologik tadqiqotlar natijasida voha tarixining turli sohalariga oid juda ko‘plagan ma’lumotlar to‘plandi. Ammo shunday bo‘lsa-da, Xorazm vohasida antik davrda kechgan ijtimoiy munosabatlar masalasi, voha tarixining eng kam o‘rganilgan sahifasi bo‘lib qolmoqda. Bu mavzuni o‘rganish masalasi dolzarb muammolardan bo‘lib, barcha yozma manbalar va arxeologik, numizmatik va etnografik

tadqiqotlar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida mavzuga oid muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Antik davrga oid yozma manbalarning kamligi bu masalani tahlil qilishni qiyinlashtiradi, albatta. Lekin, bu borada qo'shni xalqlar va elatlar antik davr ijtimoiy munosabatlar tarixini o'rganish mumkin.

Antik davr Xorazm vohasi aholisining ijtimoiy turmush tarzi, oila va nikoh munosabatlari hamda ijtimoiy tabaqalar kabi masalalar juda sayoz o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Bu borada yozma manbalar ma'lumotlari juda kam. Agar mavjud yozma manbalarni tasniflash lozim bo'lsa, bu borada, eng avvalo, "Avesto" matnlarini ko'rib chiqish asosida boshqa hududlarda mavjud manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, "Avesto" eng qadimgi manba sifatida ko'proq ahamoniylardan oldingi davrlar ijtimoiy tuzumini qisman yoritadi [Авеста: 544]. Yunon – rim manbalari (Kvint Kurtsiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) hamda Xorazm vohasiga qo'shni tarixiy hududlar to'g'risida ko'proq ma'lumotlar bersa-da, lekin aynan Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar xususida ma'lumotlar keltirilmaydi [И.В. Пьянков: 38-56].

Xorazm vohasida antik davrda kechgan ijtimoiy jarayonlar xususida ko'proq ma'lumotlar olish lozim bo'lgan manba bu - Xorazmning so'nggi antik davr poytaxti Tuproqqal'adan topilgan hujjatlar hisoblanadi [В.А.Лившиц: 251-286].

Numizmatik manbalar ham asosan so'nggi antik davr tarixiga oid bo'lib, ammo, bu tur manbalar ham ancha kam topilgan. Faqat arxeologik tadqiqotlar yordamidagina bu masalaga oid nisbatan to'liqroq ma'lumotlarni olish mumkin. Jumladan, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati davomida miloddan avvalgi IV – milodiy IV asrlar Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy munosabatlar tarixiga oid bir qator tadqiqotlar nashr etildi [С.П.Толстов: 54-71; ТХАЭЭ: 265-309; Е.Е.Неразик, 1966: 8-12; Е.Е.Неразик, 1976: 13-57; ТХАЭЭ: 251-286; Б.И. Вайнберг: 136-141].

S. Yatsenko va A.N. Gertman tadqiqotlarida Xorazm vohasidan topilgan turli buyumlarda aks etgan tamg'alar va kiyim-kechaklar tasvirlari asosida voha antik davr ijtimoiy munosabatlar tarixiga oid bir qator ma'lumotlar keltirib o'tilgan [С.А.Яценко, 2001: 190; С.А.Яценко, 2006: 644; А.Н.Гертман: 136-150].

Antik davr Xorazm vohasida ijtimoiy hayot masalalarini ochishda Xorazm vohasidan topilgan turli mazmundagi bitiklar va tamg'alar eng asosiy manbalar hisoblanadi. Ular ichida ayniqsa, so'nggi antik davr yodgorligi hisoblangan Tuproqqal'adan topilgan Xorazm yozuvi va tilidagi hujjatlar juda muhim hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, bu yozuvlar so'nggi antik davrlarga, ya'ni milodiy II-III asrlarga oiddir.

Tuproqqal'a hujjatlariga ko'ra, barcha jamiyatlarda bo'lgani kabi, antik Xorazm jamiyatining asosini ham patriarxal oilalar tashkil qilgan. Jumladan, xonadon yoki oila (BYT') atamasi yog'ochga bitilgan barcha hujjatlarda aks etgan [В.А.Лившиц: 265]. Bu hujjatlar mazmuniga ko'ra, mamlakatdagi har bir patriarxal oila yoki xonadon ro'yxatga olib borilgan. Ammo, bu ro'yxatlarning siyosiy va iqtisodiy tad'bir sifatida olib borilganligi ma'lum bo'lsa-da, aniq qay maqsadda olib borilganligi borasida turli fikrlar mavjud. Jumladan, mazkur hujjatlarni o'qib chiqqan B.A.Livshits bu ro'yxatlar aholidan soliq undirilishini tartibga solish uchun qilinganligini (jumladan, V.B. Xenning fikricha shunday [W.B.Henning:166-179]) shubha ostiga olib, davlat harbiy salohiyatini aks ettirish uchun yoki xalq qo'shinini shakllantirish uchun olib borilganligini ta'kidlagan [В.А.Лившиц: 282]. Bu fikrni tadqiqotchi Y.A. Rapoport ham qo'llab-quvvatlagan [Ю.А. Рапопорт: 37-38]. Har qanday holatda ham, bu hujjatlar Xorazmda antik davr ijtimoiy tabaqalari hamda qulchilik munosabatlari haqida muayyan ma'lumotlarni beradi.

Hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, antik davrda Xorazmda muayyan ijtimoiy qatlamlar guruhi shakllangan. Jumladan, bu ijtimoiy qatlamlar, katta patriarxal oila boshliqlari: zodagonlar (qishloq yoki shahar zodagonlari), turli kasb egalari bo'lgan shahar yoki qishloqlarning oddiy a'zolari, qullar. Umuman, bu ijtimoiy guruhlar hujjatlarda zodagonlar va ozod jamoa vakillari hamda ularga tobe uy qullaridan iborat katta patriarxal oila (xonadon) sifatida aks etgan. Ammo, bu xonadonlar vakillarining har qaysisining alohida qullari bo'lgan. Masalan, 'BDn' ZK 'NTTYH – "Bu (uning) xotinining xizmatkorlari (bandilari) qullari", 'BDn' ZK 'MYH - "bu (uning) otasining qullari" kabi jumlar buni yaqqol ko'satib turibdi. Bundan tashqari, hujjatlarda saroy xo'jaligining ham alohida qullari bo'ganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar mavjud [В.А.Лившиц: 265].

Hujjatlardagi ma'lumotlardan ma'lumki, Xorazmda ham butun Sharq mamlakatlaridagi kabi, katta patriarxal oilalar bo'lib, bu oilaning boshlig'i ota oila a'zolariga nisbatan deyarli cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, uylanish, bolalarga

nisbatan munosabatda, meros masalasida uning mavqeyi eng yuqori bo'lgan. Shu jihatdan Tuproqqal'a hujjatlarida ham, ayniqsa, "xonadonlar ro'yxatlari"da ro'yxat boshida oila boshlig'ining keltirilishi bejiz emas. Oila boshliqlaridan keyin merosxo'r katta og'illar ismi keltirilgan. Jumladan, 5 ta "xonadonlar ro'yxati"dan 4 tasida katta oila – xonadon tarkibidagi erkaklar zikr etilgan [О.И.Смирнова: 73], ular xonadon boshligi - otaning uch avlodi (o'g'li yoki o'z o'gli bo'lmasdan, balki o'g'il qilib saqlab olingan o'g'il, shu holatda ba'zida kuyov va erkak nabira) va uy qullarini o'zida aks ettirgan. Uy sohibining faqat ismi hujjatning birinchi qatorida keltirilgan bo'lib, xonadon – BYT' (so'nggi xorazmiy tilida pdk) so'zidan so'ng qayd etiladi [В.А.Лившиц: 266].

I, II va IV hujjatlarda ikkita erkak ismi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bular oila boshlig'i yoki vorisi bo'lib, bu xonadon merosxo'ri katta o'g'ilning hali uylanmaganligini, yoki hali u ota xonadonidan alohida bo'lib chiqmaganligini ko'rsatadi [В.А.Лившиц: 266].

Hujjatlar tahlilidan yana shuni ko'rishimiz mumkinki, agar xonadonda otaning balog'atga yetgan o'g'illari bo'lmasa, ba'zi hollarda uy sohibi va uning o'g'lidan so'ng kuyovlar ham ro'yxatga olinganligi kuzatiladi [В.А.Лившиц: 266]. Bu holat ayniqsa, xonadon egasining og'il farzandi bo'lmagan taqdirda, otadan keyin albatta kuyovning ismi qayd etilganligining guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, III hujjatda uy sohibidan so'ng, o'g'il farzandlar ismining ko'rsatilmaganligi bu xonadonda balog'atga yetgan o'g'il bolaning yo'qligini ifodalaydi. Bu ro'yxatda zikr etilgan kuyov mazkur xonadonda "ichkuyov" bo'lganligi hamda oilada o'g'il bolalar yo'qligini ham anglatgan. Qolaversa, oiladagi qizning odat bo'yicha kuyovning oilasiga kelin bo'lib tushishi munosabati bilan turmushga chiqqan o'sha qizni ham, kuyovni ham "xonadonlar ro'yxati"ga kiritish mumkin bo'lmagan [В.А.Лившиц: 266].

Hujjatlarda oila boshlig'i xotining, o'zi umuman oila ayollarining hamda qizlarining huquqlari ancha cheklanganligini ko'rish mumkin. Hujjatlarda oila boshlig'ining bir necha xotini bo'lganligi, hatto otaning oila cho'risiga (hujjatlarda u asira sifatida ko'rsatilgan) ham uylanishi mumkinligi aks etgan ma'lumotlar mavjud. Jumladan, I hujjatida "asiraning o'g'liga tegishli qul" so'zi tilga olingan [В.А.Лившиц: 266]. Bu jumla yana shunisi bilan qiziqki, Sharqning boshqa hududlaridagi antik jamiyatlarda bunday xildagi qul turi, ya'ni, o'zi asira, bandi yoki aniqrog'i qul-cho'rining quli, degan qul turi uchramaydi. Umuman, bu

asira uy sohibining norasmiy nikohidagi xotini bo'lib, undan tug'ilgan farzand xuddi Xiva xonligidagi kabi, cho'ri xotinining o'g'li ham oilaning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilingan hamda meros olish hamda o'z quliga ega bo'lish huquqiga ega bo'lgan [Ф.Ж. Таджиева: 103-104].

Rasmiy yoki norasmiy ko'pxotinlilik antik davr Xorazm jamiyatiga ham xos bo'lganligini III hujjatdagi “‘BDn’ K’ŠBKYN” so‘zi, ya’ni, rasmiy yoki norasmiy nikohdagi xotinlaridan (joriya yoki kanizak ham bo‘lishi mumkin) qaysi biriningdir quli ekanligini anglatadi. Ammo, oromiy alifbosidagi yozuvlar xorazmlik kotiblar yoki mirzolar tomonidan ancha buzib ishlatilganligi uchun B.A.Livshits bu so‘zning asl ma’nosini aniqlay olmaganligini ta’kidlasa-da, bundan baribir ayni shu ko'pxotinlilik mazmuni aks etgan [В.А.Лившиц: 266].

Hujjatlarning keyingi satr boshini xonadon qullari – ‘BDn’ va yangi ismlar ro‘yxati egallaydi. Bu qullar uy sohibi, uning o‘g‘illari va kuyoviga tegishli bo‘lgan. I, II, IV hujjatlardagi ‘BDn’ ZK ‘NTTYH jumlasini “bu xotinining qullari” deb talqin qilinadi [В.А.Лившиц: 266]. Ya’ni, bu qullar uy sohibasiga tegishli qullar bo‘lgan. Hujjatlarga ko‘ra, hatto uydagi balog‘at yoshidagi farzandlardan tashqari kichik yoshdagi bolalarga qarovchi qullar ham bo‘lgan, lekin ular uy sohiblariga tegishli bo‘lishgan ko‘rinadi. ‘BDn’ KNYWRTYH jumllalarida xuddi shu holat aks etgan [В.А.Лившиц: 266]. Ehtimol, bu o‘rinda uy sohibining nevaralari, uyda qolgan qizining farzandlari (BRY- BRTYH)ga taalluqli yoki uylangan, lekin oiladan bo‘lak chiqmagan o‘g‘lining farzandlariga tegishli qullar ham deyish mumkin bo‘ladi. Faqat bu qullar uy sohibining voyaga yetmagan farzandlariga tegishli bo‘lmagan [В.А.Лившиц: 266]. Chunki voyaga yetmagan farzandlarga qul tutish ruxsati bo‘lmagan.

“Xonadon ro‘yxati”dagi keying uy-xonadon BYT’ va undagi qullar – ‘BDn’, uy sohibasi - ‘NTTYH va xorazmiy tilidagi z’mk - “kuyov” atamallari S.P.Tolstov va V.B. Xenninglar tomonidan o‘qib chiqilgan [В.А.Лившиц: 265; С.П. Толстов: 217-220; W.B.Henning: 178], bu ro‘yxatlar ma’lum bir tartib asosida amalga oshirilganligini aytish mumkin. V.B. Xenning bir necha shaxs ismlarining o‘qilishi va ‘yt–“kelgindi” so‘zini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan edi. Matnlar orqali xonadondagi “o‘g‘il” va “qiz” KNYWRTYH (*BRY-BRTYH) va “asiraning o‘g‘li” – BRY’TKYH (*BRY-’MTYH) kabilar ham aniqlandiki [W.B.Henning:171-174, 176], bu patriarxal oila a’zolari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi.

Hujjatlardagi qullar sonining ozod kishilarga qaraganda ko'pligi boshqa Sharq antik jamiyatlariga xos holat. Jumladan, Parfiya davlatida ham ozod kishilardan ko'ra qullar sonining ko'pligi manbalarda aks etgan. Ya'ni, Parfiyada ham patriarxal oilaning erkin a'zolariga nisbatan xonadon qullari sonining ko'pligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Pompey Trogning Parfiya qo'shini xususidagi ma'lumotiga ko'ra: "miloddan avvalgi 53-yilda Karr yonidagi jangda Rim lashkarboshisi Krassga qarshi Parfiya lashkarboshisi Suren II ming otliq jangchi bilan peshvoz chiqib, bu qo'shinning faqat 1000 jangchisi o'gir qurollangan hamda ozod kishilardan yoki zodagonlardan iborat bo'lgani holda, qolgan 10000 jangchi shaxsan Surenning qullaridan iborat bo'lgan".

Miloddan avvalgi 36-yilda Parfiya davlati Rim lashkarboshisi Antoniyga qarshi 50000 kishilik qo'shin yuborgan bo'lib, bu qo'shinda faqat 400 ozod kishi bo'lgan [Я.А. Манандян: 3].

Umumiy holatda, I hujjatda jami 21 ta erkak ismi: uy sohibi, ikki o'g'li, kuyovi va 17 ta quli, shu jumladan, 12 tasi uy sohibiga, o'g'illari va kuyoviga, 2 tasi uy sohibiga, 2 tasi nevaralariga, 1 tasi asiraning o'g'liga tegishli bo'lgan. II hujjatda esa 15 ta erkak ismi keltirilgan: uy sohibi, kuyov va 12 ta qul, shu jumladan 10 tasi uy sohibiga, uning o'g'illariga va kuyoviga, 2 tasi uy sohibasiga tegishli bo'lgan. III hujjatda 17 ta erkak ismi keltiriladi: uy sohibi, kuyov va 15 ta qul, shulardan 12 ta uy sohibi va kuyovga, 3 tasi K'ŠBKYN qaysidir bir xotiniga (joriyasiga) tegishli hisoblangan. IV hujjatda 15 ta erkak ismi: uy sohibi, 2 ta o'g'il va 12 qul keltiriladi, ulardan 8 tasi uy sohibi va uning o'g'illariga va 4 tasi uy bekasiga qarashli bo'lgan. Bu ro'yxatlarda asosan badavlat oilalar ko'rsatilgan [В.А.Лившиц: 266-267]. Tuproqqal'a hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazmda o'rtahol oilalarda qullar soni oz bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, 5-hujjatda 4 ta erkak ismi ismi qayd etilib, ular uy sohibi va 3ta quldan iborat. Qullarning biri uy sohibiga, biri uy bekasiga va birisi uy sohibi onasiga tegishli bo'lgan.

Hujjatlardan Xorazmda qulchilik manbasi kam hollardagina urushlar bo'lganligini ko'rish mumkin. Chunki hujjatlardagi ro'yxatlarda keltirilgan qullarning ismlaridan ular asli xorazmiylar bo'lgan, degan xulosaga olib keladi. VI hujjatda keltirilgan ismdan, ya'ni Xrīdak ismi "sotib olingan" ma'nosini beradiki, antik davr Xorazmda qullar oldi-sotdi ham qilinganligi boshqa hududlardagi kabi oddiy hol bo'lgan. Ammo, Tuproqqal'a hujjatlarida qul

atamasi bir xilda kelgan. Ya'ni, Xorazmda boshqa hududlardan farqli ravishda qullar bir nechta nom bilan nomlanmagan. Masalan, Sug'd va Parfiya hujjatlarida qulchilikning bir necha ko'rinishlari (jumladan So'g'dda: βntk – bantak - qul, $np'k$ – nipak – garovgir bandi, $wn''k'$ - vanak-asir, Parfiyada: bandak va anshahrik kabi) bo'lgani holda bu Xorazm hujjatlarida uchramaydi. Hatto sug'diy hujjatlardagi kabi $\delta'yh$ - ayol cho'rilar yoki doylalar [О.И. Смирнова: 77; А.Г. Периханян:15] ham qayd etilmagan. Buning sababi hujjatlar ilk xorazmiy tilida bitilgan bo'lib, so'nggi xorazmiy tilida qullarning bir nechta turlari keltirilgan. Ikkinchidan, Tuproqqal'a hujjatlarida asosan erkak aholi ro'yxati keltirilgan bo'lib, bu davrda Sug'ddagi kabi "doya" yoki "cho'ri"lar, ya'ni ayol qullarning bo'lganligi tabiiy holdir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Xorazm antik davr jamiyatida uy qulchiligi hukmron bo'lib, bu butun O'rta Osiyo, qolaversa, Sharqqa xos bo'lgan ijtimoiy hodisa edi. Tuproqqal'a hujjatlari, aniqrog'i "xonadon ro'yxati"ni tuzish qaysi maqsadda amalga oshirilganligi borasida turli fikrlar mavjud bo'lib, bu hujjatlarni o'qib chiqqan V.A. Livshitsning bu hujjatlarni tuzishdan maqsad katta yoshdagi erkaklar sonini bilish va ulardan harbiy hamda davlat ishlarida foydalanish bo'lganligi borasidagi fikri haqiqatga yaqin. Chunki bu hujjatlarda asosan erkaklar ismi keltirilgan[B.A.Лившиц: 266-267].

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Авеста // В. С. Соколова. Опыт морфологической транскрипции и перевод / И. А. Смирнова. Подготовка материалов к изданию и редактирование. – СПб.: Наука, 2005 – 544 с.
2. Вайнберг Б.И. Хорезмийская эра // Древние цивилизации Евразии. История и культура. М.: Восточная литература, 2001. С. 136–141.
3. Гертман А.Н. Знаки на кирпичах и некоторые вопросы организации древневосточного строительства (по материалам древнего Хорезма) // Приаралья в древности и средневековья. К 60-летию Хорезмской археологической-этнографической экспедиции. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1998. – С.136-150.
4. Кой-Крылган-кала - памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в.н.э. / отв. ред.: С. П. Толстов, Б. И. Вайнберг // ТХАЭЭ. – М.: «Наука», 1967. Т.V. – 347 с.

5. Лившиц В. А. Документы // Топрак-кала: Дворец / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. 14. Отв. ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. – Москва: Наука, 1984. – 303 с.
6. Манандян Я.А. Заметки о феоде и феодальном войске Парфии и Аршакидской Армении. – Тифлис : Науч.-исслед. ин-т кавказоведения, 1932. – 19 с.
7. Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. — М.: «Наука», 1966. – С. 8-12
8. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.). Из истории жилища и семьи // ТХАЭЭ. — М.: «Наука», 1976. Т. IX. – С. 13–57
9. [Периханян А. Г.](#) К вопросу о рабовладении и землевладении в Иране парфянского времени // Вестник древней истории 4 (42). 1952. – С.13-27.
10. Пьянков И. В. Хорезм в античной письменной традиции // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезм в мировой истории и культуре. – Душанбе: Дониш, 1983. С. 38-56.
11. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории Хорезма в древности // Приаралья в древности и средневековья. К 60-летию Хорезмской археологической-этнографической экспедиции. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1998. – С.28-41.
12. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1970. — 288 с.
13. Таджиева Ф.Ж. Хива хонлигида кулчилик муносабатларининг моҳияти ва ижтимоий оқибатлари. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2022. – 159 б.
14. Толстов С.П. Датированные документы из дворца Топрак-кала и проблема «эры Шака» и «эры Канишки» // Проблемы востоковедения. 1961. №1. – С. 54-71
15. Топрак-кала. Дворец. Результаты исследований // Труды Хорезмской Археолого-Этнографической экспедиции. Т. XIV / Отв.ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. М.: Наука, 1984. 304 с.
16. Яценко С.А. Знаки-тамги ираноязычных народов древности и раннего средневековья. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – 190 с.: ил.
17. Яценко С.А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). – М.: Рос. гос. гуманитарный ун-т. Восточная литература, 2006. – 664 с.
18. Henning W.B. The Choresmian documents. – Asia Major, new series, London, 1965, v. XI, pt.2. – Pp.166 –179.

TARIX**QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH ASRI TARIXSHUNOSLIGI
MASALALARI**

**Matyaqubov Toxirjon,
Abu Rayxon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
tadqiqotchisi**

UO‘K 902.34

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasida tosh asri turar-joylarining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, tosh asri tarixshunosligidagi muhim masalalar ham yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируются этапы развития поселений каменного века в Хорезмском регионе. Также освещаются важные вопросы историографии каменного века.

Annotation: The article analyzes the stages of development of Stone Age settlements in the Khorezm region. It also covers important issues in the historiography of the Stone Age.

Kalit so‘zlar: Tolstov S.P., Vinogradov A.V., Xorazm, Zarafshon, Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryo, Qizilqum, Sirdaryo, Janbos-4, Saksovul.

Ключевые слова: Толстов С.П., Виноградов А.В., Хорезм, Зарафшан, Ташкент, Фергана, Сурхандарья, Кызылкум, Сырдарья, Джанбос-4, Саксавул.

Key words: Tolstov S.P., Vinogradov A.V., Khorezm, Zarafshan, Tashkent, Fergana, Surkhandarya, Kyzyl-Kum, Syrdarya, Janbos-4, Saksavul.

Xorazm vohasining tabiiy geografik hududiga nazar solsak, uning tevarakatrofi Qizilqum va Qoraqum bilan o‘ralgan, sochma, to‘lqinsimon qum uyumlari, barxanlar, qirlardan iboratligiga amin bo‘lamiz. Albatta, bunday rang-barang tekislik vohaning Qizilqum va Qoraqum oralig‘ida joylashganligi, yer osti tebranishlarining bir necha marta takrorlanib turishi natijasidir.

Xorazm vohasining o‘ziga xos geografik, geomorfologik xususiyatlari tosh asrdan buyon hozirgi kungacha aks etgan. Ya’ni, Xorazm vohasi o‘rta va janubiy Zarafshon, Surxon vohasi, Toshkent, Farg‘ona hududlarida geografik jihatdan farqlanishini Amudaryo, uning irmoqlari, harakati natijalari bilan izohlash mumkin. “S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida qayd qilinishicha, odamzod voha hududini 40-12 ming yilliklarda o‘zlashtirib, etnik jarayonni boshlab bergan” (1).

Mazkur mavzuda tosh davrini so‘nggi bosqichida faoliyat olib borgan neolit davriga oid manzilgohlarda aholining joylashishi, turar-joylarning tuzilishi, olib borgan xo‘jalik sohalarini kashf qilinishi, shu asosda zaminimizning muayyan hududlarida etnik munosabatlar tarixini o‘rganish imkoniyati mavjud.

Xorazm vohasida XX asrning 30 yillari oxiridan boshlab, Neolit davri urug‘ jamoalari xo‘jaligiga oid tarixiy-ma‘lumotlar Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida uchraydi. Misol tariqasida, ilmiy faoliyatini qadimiy Xorazm qal‘alarini tadqiq qilish orqali moziydagi jarayonlar manzarasini kitobxon ko‘z oldida gavdalantira oladigan arxeolog S.P.Tolstov asarlari orqali tasavvur qilish mumkin. Bu borada ayniqsa professor S.P.Tolstovning “Qadimiy Xorazm” nomli monografiyasida neolit davriga oid ma‘lumotlar ilk bor ilmiy jamoatchilikka taqdim qilingandi.(2).

Nafaqat Xorazm vohasi, balki insoniyat tamaddunining ham eng muhim bosqichlari kechgan hudud bo‘lganligi arxeologning asarlarida o‘z tsdig‘ini, tadqiqini topgan. “Bu borada S.P. Tolstovning “Qadimiy Xorazm” asarida Oqchadaryo irmog‘i atroflarida suv havzalari miqdori ko‘paygan turar-joylar qurilishi keng yoritilgan. Shuningdek “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab” nomli S.P.Tolstovning yana bir mashhur monografiyasida ham Oqchadaryo, umuman olganda neolit davridagi jarayonlar batafsil tahlil etilgan” (3).

Mazkur tadqiqotlarda Oqchadaryo havzasida ilk etnik makon sifatida Janbos-4 manzilgohida o‘rnashgan axolining turmush tarzi, amaliy mashg‘ulotlari arxeologik materiallar orqali o‘z isbotini topgan..

“S.P.Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya 1945-1968 yillar mobaynida Amudaryo o‘ng sohili hududida neolit davriga oid manzilgohlarda (xususan Janbos nomi bilan qayd etilgan manzilgohlarida) qazishma ishlarini olib borishi natijasida, mazkur tarixiy davr jamiyatida kechgan jarayonlarni yoritishga xizmat qildi. (4).

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining yana bir faol olimlaridan A.V.Vinogradovning monografiyasida ham Janbos-4 manzilgohi, shuningdek Uzboy, Sariqamishbo‘yi, Tuyamo‘yin, Shimoliy Oqchadaryo hududlarini o‘zlashtirilishi masalalari keng yoritilgan. (5).

Xususan, A.V.Vinogradovning “Neolit davri yodgorliklari” (Moskva, “Nauka” nashriyoti, 1968) va “O‘rta Osiyodagi qadimiy ovchilar va baliqchilar manzilgohlari” (Moskva “Nauka”nashriyoti”1980) nomli arxeologik

materiallarga tayanilgan asarlarida Qizilqumning joylashishi, tabiiy muhit va iqlim sharoiti tahlil qilingan va bu hududning qadimiy Xorazmdagi jarayonlarga ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, janubiy-g'arbiy Qizilqum hududlari geomorfologik holatiga oid arxeologik xulosalari batafsil izohlab o'tilgan.

A.Vinogradovning tadqiqotlarida Oqchadaryo havzasidagi Janbos-4 manzilgohida yashagan urug' jamoalarining uch tarixiy davriga oid xulosasi o'rin olgan. Nafaqat Jonbos nomidagi qal'alar, balki Qavat, Ko'nyak, Tajikqazg'an nomlari bilan arxeologlar qayd qilgan manzilgohlardagi jarayonlar ham tadqiq etilgan. Shuningdek bu davrdagi aholining boshqa hudud xalqlari bilan o'rnatgan aloqalari, ularga ta'siri ham arxeologik ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

A.Vinogradov asaridagi yana bir muhim jihat, unda Amudaryo chap sohilidagi neolit davriga mansub turar-joylar-Qushbuloq, Qarriqizil, Sulton Sanjar hududlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar ham qayd qilingan.

Tadqiqotchi o'z asarlarida Sirdaryo va Amudaryo o'rtasida joylashgan urug' jamoalari xo'jaligiga oid ma'lumotlarni "Kaltaminor" madaniyatiga jalb qilgan holda tahlil qilgan.



Umuman olganda S.P.Tolstov, A.Vinogradovlarning Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari asosidagi asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar nazariy-qiyosiy jihatdan tosh asri, neolit davrini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat, arxeolog olimlarning asarlarida Sulton Uvays tog'i etaklarida- Burli-3 manzilgohida joylashgan ibtidoiy ovchilarning eneolit davrigacha bosib o'tgan tarixiy tajribasi tahlil qilinadi. S.P.Tolstov, A.Vinogradov asarlari orqali, bundan 40 ming yil avvalgi etnik jarayonni olib borgan ajdodlarimizning jamiyatni

rivojlantirish sohasida olib borgan bunyodkorlik faoliyatlarini tasavvur etish, shular asosida muayyan xulosalar qilish mumkin. Shu jihatdan qaraganda neolit davridagi jarayonlarni tahlil qilish, barpo etilgan qal'alar, ulardagi hayot tarzini o'rganishda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tadqiqotlarining o'rni katta. Ushbu tadqiqotlarga asoslanib yozilgan S.P.Tostov, A.Vinogradov asarlari esa neolit davri tarixshunosligida alohida ajralib turuvchi, tahliliy monografiyalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм-М.:МГУ, 1948.
2. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации-М-Л, 1948.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса-Яксарта, ИВЛ РАН, Наука 1962.
4. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г // КСИИМК-М.:Наука, 1946. Вып. XII.
5. Виноградов А.В. Неолитические памятники-М:Наука, 1968.

TARIX**XONLIKLAR DAVRI DEHQONCHILIK AN'ANALARI
MASALASINING O'RGANILISH DARAJASI**

Kamolova Nargiza,
Urganch innovatsion
universiteti dotsenti.
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori.

UO'K 94:63 (575.171)

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo xonliklari davrida dehqonchilik an'analari, agrar tizim, yer-suv munosabatlari hamda irrigatsiya siyosatining tarixiy shakllanish jarayoni arxiv hujjatlari va yozma manbalar asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются земледельческие традиции, аграрная система, земельно-водные отношения и историческое формирование ирригационной политики в среднеазиатских ханствах на основе архивных документов и письменных источников.

Annotation: The article analyzes the agricultural traditions, agrarian system, land-water relations, and the historical formation of irrigation policy in the Central Asian khanates based on archival documents and written sources.

Kalit so'zlar: An'anaviy dehqonchilik, sug'orish tizimi, Xorazm vohasi, O'rta Osiyo xonliklari, obikor va la'lmi ekinlar, qishloq xo'jaligi tarixi.

Ключевые слова: Традиционное земледелие, ирригационная система, Хорезмский оазис, среднеазиатские ханства, посе́вы обикор и лалми, история сельского хозяйства

Key words: Traditional farming, irrigation system, Khorezm oasis, Central Asian khanates, obikor and lalmi crops, agricultural history

XXI asrda jahon aholisi sonining jadal sur'atlar bilan ortishi insoniyat oldiga ekologik izlanishlar, oziq-ovqat xavfsizligi va ochlik kabi qator global muammolarni kun tartibiga chiqardi. Bu holat dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada oshishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, mavjud tabiiy resurslardan, ayniqsa yer fondidan samarali va oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vaziyat, o'z navbatida, ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarni har tomonlama o'rganish va ularning tajribasini zamonaviy amaliyotga tadbiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Shuningdek, zamonaviy

qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, aqlli issiqxonalar, “Internet of Things” tizimlari va yerni samarali ishlatish yo‘nalishida, mahsuldor chorvachilik va sifatli sut mahsulotlari ishlab chiqarish va yer hamda tabiiy muhitga salbiy ta’siri kam bo‘lgan pestitsid va o‘g‘it ishlab chiqarish masalalari bugungi zamonaviy qishloq xo‘jaligi oldida turgan asosiy masalalar sanaladi.

Bugungi kunda AQSh, Yevropa, Tayvan, Xitoy va Yaponiya kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda dehqonchilik sohasida ilmiy maktablar va ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat yuritib, “Agro-Green International Co.”, “Green Agro Technology Co.”, “Rumelco-Agro” kabi yirik xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar doirasidagi ilmiy izlanishlar nafaqat qishloq xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga, balki tarixiy dehqonchilik madaniyatini qayta tiklash va undan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga ham xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda bu kabi loyihalar doirasida O‘rta Osiyo mintaqasi ham tadqiqot obyekti sifatida alohida e‘tiborga olinmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi ko‘plab ilmiy ishlanmalar va tarixiy manbalar natijalari mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi tarixi Xorazm va Buxoro vohasi, Farg‘ona vodiysining la‘lmi va obikor dehqonchilik an‘analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mintaqadagi dehqonchilik madaniyatini ulardan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois, mazkur hududlarning an‘anaviy sug‘orma dehqonchilik tizimini o‘rganish nafaqat mintaqaning tarixiy taraqqiyotini anglash, balki jahon dehqonchilik tarixidagi ilk agrotexnikaviy tajribalarni tiklash va tahlil qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O‘rta Osiyoda xonliklar davri tarixi bo‘yicha turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, mintaqalarning ma‘muriy boshqaruv tizimi, vaqf va xonlik hujjatlari, shuningdek, siyosiy hamda etnik tarixga oid masalalar ilmiy izlanishlar markazida bo‘ldi. Biroq, xonliklar davridagi an‘anaviy dehqonchilik va sug‘orish tizimi tarixi, uning iqtisodiy va



ijtimoiy hayotdagi oʻrni masalalari haligacha yaxlit holda toʻliq ilmiy tahlil etilmagan.

Soʻnggi asrlarda kuzatilgan ekologik oʻzgarishlar, xususan, Orol dengizining qurishi, unga yaqin voqea aholisining turmush tarziga hamda ularning dehqonchilik faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Mintaqaning tabiiy muvozanatini taʼminlab turgan ushbu dengizning qurishi Xorazm va unga yaqin hududlarda ekin maydonlarining shoʻrlanishi, tuproq unumdorligining pasayishi va suv resurslarining kamayishiga olib keldi. Ushbu jarayonlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy asosda oʻrganish, ularni bartaraf etish yoʻllarini aniqlash bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar yoʻnalishdagi olimlar oldida turgan muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Keyingi oʻn yilliklarda Orolboʻyi va mintaqaviy ekologik hamda agrar tizimlarni oʻrganishga qaratilgan koʻplab ilmiy tadqiqotlarning olib borilayotgani ham bu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Oʻrta Osiyo xonliklarining iqtisodiy yuksalishi va barqaror rivojlanishi esa bevosita qishloq xoʻjaligida anʼanaviy dehqonchilik usullaridan samarali foydalanish, suv resurslarini oqilona taqsimlash hamda keng koʻlamli sugʻorish tizimlarining shakllanganligi bilan bogʻliq edi. Ushbu tizimlar mintaqaning agrar salohiyatini belgilab bergan boʻlib, ular Oʻrta Osiyo xonliklari tarixida dehqonchilik madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mazkur mavzuni oʻrganish jarayonida adabiyotlarni quyidagi tartibda guruhlash mumkin boʻladi:

1. Arxiv hujjatlari.
2. XVII–XIX asrlarga oid mahalliy yozma manbalar.
3. XVIII–XIX asrlarda Yevropa va Rossiya sayyohlari, diplomatlari hamda olimlari tomonidan qoldirilgan qaydlar.
4. Sovet davri tarixshunoslari va manbashunoslari tadqiqotlari.
5. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar.

Tadqiqot uchun zarur boʻlgan materiallarning asosiy guruhini XIX asrga oid mahalliy yozma manbalar tashkil etadi. Mazkur davrda yaratilgan yozma

manbalar o'sha davrdagi davlatning siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Mamlakat taxtiga yangi kelgan har bir hukmdorlar mamlakat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida amalga oshirgan birlamchi islohotlari doirasida dehqonchilik yerlarini kengaytirish hamda yangi sug'orish tizimlarini barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu islohotlar jarayoni xonlik tarixshunoslari va muarrixlari tomonidan muntazam qayd etib borilgan bo'lib, bu yozuvlar keyinchalik muhim tarixiy manbalar sifatida shakllangan. XIX asrgacha yaratilgan mahalliy manbalar mualliflari o'z davrining yirik ziyolilari va bilimdon mutaxassislari qatoriga kirgan. Ular orasida Muhammad Rizo Ogahiy (1) va Mahmud ibn Vali (2), Ahmad Donish (3) kabi tarixnavis olimlarning asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

XVIII asrning o'rtalariga kelib, rus va yevropaliklarning Markaziy Osiyo mamlakatlariga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortdi. Bu davrda rus va yevropalik tadqiqotchilar, sayohatchilar hamda missionerlar mintaqani har tomonlama o'rganish maqsadida tarixiy kartografiya, geografiya va qishloq xo'jaligi sohalarida izlanishlar olib bora boshladilar. Dastlab ma'muriy va ilmiy hisobotlar shaklida tayyorlangan bu ilk kuzatuvlar keyinchalik ilmiy ahamiyatga ega manbalar sifatida tarixshunoslikda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Jahon tarixshunosligida o'zbek davlatchiligi tarixining xonliklari davriga oid an'anaviy dehqonchilik tizimi haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar aynan shu davr tadqiqotlari natijasida shakllangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar bevosita xonliklar davridagi dehqonchilik tarixiga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlar bo'lmasa-da, ular mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va tabiiy-geografik hayoti haqidagi ma'lumotlar tarkibida mazkur masalaga doir muhim fikr va kuzatuvlarni o'zida mujassam etgan.

A Vamberi (4), Yu.Bregel (5), M.Ivanin (6), O.Shkapskiy (7), Girshfeld va Galkin (8) shular jumlasidandir. 1873-yilda yozilgan "Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения" (9) (muallifi noma'lum) nomli asarda Xorazm vohasining an'anaviy dehqonchiligi, ekin turlari va yerga ishlov berish



yuzasidan kompleks ma'lumotlar berilgan. P.Nebolsinning (10) asarlarida ham dehqonchilikka qisman to'xtalib o'tilgan. Mintaqaning dehqonchilik texnikasi haqida I.Krauze (11) va L.Kostenkolarning (12) asarlaridan bilishimiz mumkin. V. V. Bartold (13), G. Baziner (14) va I. Masalskiylarning (15) asarlarida mazkur tadqiqot mavzusiga oid ayrim masalalar qisman yoritilgan bo'lib, ularda Xiva xonligi hududidagi mavjud sug'orish tarmoqlari va kanallar haqida ma'lumotlar uchraydi. Ammo mazkur asarlarda mintaqa dehqonchilik tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish vositalari hamda mehnat qurollari, soliq tizimi, chorvachilik va savdo munosabatlarida qishloq xo'jaligining ulushi haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar keltirilmagan.

Sovet davri mualliflarining tadqiqotlari, asosan, monografiyalar, ilmiy maqolalar shaklida to'plam va ilmiy jurnallarda nashr etilgan(16). Mazkur mualliflarning ilmiy ishlarida xonlik davridagi yerga egalik munosabatlari, an'anaviy dehqonchilik tizimi, sug'orish inshootlari bo'yicha tahliliy xulosalar berilgan bo'lsa-da, bu tadqiqotchilar o'z asarlarida dehqonchilik an'analari tarixini yaxlit tizim sifatida o'rganmaganlar.

Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar quyidagilardan iborat bo'lib, A. Narziqulovning "Dehqon, bog'bon va chorvadorlar taqvimi" (17), H. Karomatovning "O'zbekistonda mozīy e'tiqodlari" (18) hamda Muhammad Alixon G'afurning "Xorazm safari kundaliklari" (19) asarlarida bu mavzuga oid ayrim jihatlar yoritilgan. Shuningdek, N. Kamolova, (20), K. Xudayberganov, U. Abdurasulov (21), B. Sarimsoqov va Sh. Turdimov (22), Q. Yoqubov va N. Allayevalarning (23) monografiyalari, ilmiy jurnallar hamda to'plamlarda chop etilgan maqolalarida ham ushbu masalaga to'xtalib o'tilgan.

O'rta Osiyoning mahalliy aholisi qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'i bilan bog'liq yerga ishlov berish, obikor va la'lni sug'orish va hosil yetishtirishda mohir ziroatchilarga aylanishining negizida ularning iqlim va tabiiy shart-sharoitdan kelib chiqib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanganliklari keyinchalik ham yerning mineralogik holatini saqlab qolish uchun yerdan foydalanishda ekologik omillarni asrab-avaylashga katta e'tibor berganliklari

kabi omillar mavgudligini aniqlab, ekin yerlarni muttasil ravishda o'g'itlash, sug'orish, partov tizimi, almashlab ekish ishlarini amalga oshirganliklari ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Огаҳий. Жоме ул-воқеоти султоний. Жилд № 6. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 207 б.
2. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Ахмедова Б.А. – Ташкент: Фан, 1977. – 166 с.
3. Дониш А. История мангитской династии. Перевод И. Наджафовой. Дониш. 1967. – 143 с.
4. Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва: Восточная литература, 1868. – 362 с.
5. Брегель Ю. Хорезмские туркмены в XIX веке. 2 часть. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961. – 111 с; Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. – Москва: Наука, 1967. – С. 28.
6. Иванин М. Хива и река Аму-Дарья. – Москва: Санкт-Петербург: Типография товарищества “Общественная польза”, – № 5, 1873. – 64 с.
7. Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. Къ аграрному вопросу на нижней Аму-Дарье. – Ташкент: Типо-Литография, 1900. – 138 с.
8. Гиршфельд, Галкин. Военно-статистическое описание хивинского оазиса. Часть II. – Ташкент: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1903. – 271 с.
9. Наши соседи въ Средней Азии. Хива и Туркмения // Всемирный путешественник. – Санкт-Петербург: Типография товарищества “Общественная польза”, – № 5, 1873. – 138 с.
10. Небольсин П. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом. – СПб., 1856. – 375 б.
11. Краузе И. Хивинское земледелие. ИИРГО. Т. X. 1874 г. – №1. – С. 40-46.
12. Костенко Л. Хивинское ханство в сельскохозяйственном отношении. Военный сборник. 187. – № 4.
13. Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. Сочинения. Т. II. Ч.I. – 180 с.

14. Базинера Г. Путешествие через киргизскую степь в Хиву в 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – СПб., 1849 – 282 с.

15. Масальский В.И. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Туркестанский край. – Тошкент, 1913. Часть XI. – 747 с.

16. Магидович И. Хорезм // Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 2. – Тошкент, 1926. – С. 142.; Шастал И. Орография и ирригация Хорезма // Территория и население Бухары и Хорезма. – Ташкент, 1926. – С. 3-20.; Штернберг Л. Первобытная религия в свете этнографии. – Ленинград: Институт народов Севера, 1936. – 572 с.; Сазонова М. Материалы к истории и земледельческой техники в Хорезме. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1952. Часть I. – 671 с.; Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1959. – 326 б.; Йўлдашев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1959. – 337 б.; Баялиева Т. До исламские верования и их пережитки у киргизов. – Фрунзе: Издательство “Илм”, 1972. – 170 с.; Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент: Фан, 1974. – 343 с.

17. Нарзикулов А. Деҳқон, боғбон ва чорвадорлар таквими. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 62-б.

18. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлари тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2008. – 664 б.

19. Муҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундаликлари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009. – 235 б.

20. Камолова Н. Хоразм воҳасида деҳқончилик анъаналари тарихи (XIX аср – XX аср бошлари). – Бухоро: 2022. – Б. 96.

21. Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII-XIX в.) // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 2006. – № 2-3. – Б. 83-89; Абдурасулов У. Тайны хивинского двора: политическая борьба в Хиве в период Российского протектората // Восток Свыше. Духовный, литературно-исторический журнал. Вып. XXXVIII. – № 3 июль-сентябрь. – Т., 2015. – С. 38-56.

22. Саримсоқов Б., Турдимов Ш. Элимизнинг қадимий байрами. – Тошкент: 1990. – № 3. – Б. 34-35.

23. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 496 б.

TARIX

JADID VA ISLOHOTCHI ISLOM XO‘JA SIYMOSI ABDULLA BOLTAYEV ESDALIKLARIDA

UO‘K 94(575.171)



Dinora Rajabova,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi katta ilmiy
xodimi, tarix fanlari
bo'yicha falsafa
doktori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada A.Boltayev tomonidan yozilgan va uning nevarasi O.Abdullayevning shaxsiy arxivida saqlanayotgan esdaliklar asosida Xorazm jadidlari faoliyati tahlil etiladi. Xususan, Islom Xo'janing jadidlar harakatidagi roli, uning ma'rifatparvarlik faoliyati va bu harakatga munosabati ushbu materiallar asosida yoritiladi.

Аннотация: В данной статье на основе мемуаров А. Болтаева, хранящихся в личном архиве его внука О. Абдуллаева, анализируется деятельность хорезмских джадидов. В частности, на основе этих материалов освещается роль Ислама Ходжи в джадидском движении, его просветительская деятельность и отношение к этому движению.

Annotation: This article analyses the activities of the Khorezm Jadids based on the memoirs of A. Boltaev, stored in the personal archive of his grandson O. Abdullaev. In particular, these materials shed light on the role of Islam Khoja in the Jadid movement, his educational activities and his attitude towards this movement.

Kalit so'zlar: A.Boltayev, Xorazm jadidlari, tarix, esdalik, manbashunoslik, maorif, teatr, ijtimoiy-siyosiy qarashlar.

Ключевые слова: А. Болтаев, хорезмские джадиды, история, мемуары, источниковедение, просвещение, театр, социально-политические взгляды.

Key words: A. Boltaev, Khorezm Jadids, history, memoirs, source studies, education, theatre, socio-political views.

Xorazm jadidlari XX asr boshlarida milliy uyg'onish harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan. Ularning ma'rifatparvarlik faoliyati, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan urinishlari Xorazm vohasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonda Islom Xo'ja kabi davlat arboblarning roli alohida ahamiyatga ega. Xorazm jadidlari


harakati tarixini o'rganishda manbalarning xilma-xilligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada tarixchi A. Boltayevning esdaliklari, shuningdek, Islom Xo'janing hayoti va faoliyatiga oid boshqa tarixiy hujjatlar alohida o'rin tutadi.

A. Boltayevning esdaliklari Xorazm tarixi, xususan, jadidlar harakati va Islom Xo'janing bu harakatdagi roli haqidagi noyob ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. A. Boltayevning o'zi ham Xorazm jamiyatining ilg'or vakili sifatida jadidlar bilan yaqin aloqada bo'lgan va Islom Xo'janing faoliyatini kuzatgan. Shu bois, uning esdaliklarida Islom Xo'janing shaxsiy fazilatlari, jadidlar bilan aloqalari, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Masalan, A. Boltayevning qo'lyozma daftarlarida Islom Xo'janing ta'lim sohasidagi islohotlari, yangi maktablarning ochilishi, ularning o'quv dasturlari va Islom Xo'janing ushbu sohalarga qilgan sarmoyalari haqida batafsil ma'lumotlar uchraydi [1].

Islom Xo'ja o'z mablag'lari hisobidan yangi uslubdagi maktablar ochib, zamonaviy bilimlarni targ'ib qilgan. Esdaliklarda bu maktablarning o'quv dasturlari, o'qituvchilarning saviyasi va o'quvchilarning qiziqishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, 1912-yilda Islom Xo'janing 30 ming rubl miqdoridagi mablag'i hisobidan Xivada Yevropa uslubida ikki qavatli bino qurilgani, u yerda rus-tuzem maktabi joylashgani va unda Rossiyadan taklif qilingan ikki nafar o'qituvchi 100 dan ortiq bolalarga ta'lim bergani haqida ma'lumotlar mavjud. A. Boltayev №79-daftarda qayd etganidek, bu maktablarda matematika, geografiya va tarix fanlariga alohida e'tibor qaratilgan, bu esa jadidlarning ta'limga bo'lgan qarashlari bilan hamohang edi [2].

18-sonli daftarda A. Boltayev 1910-yilda Islomxo'janing yangi xon Asfandiyorxonga taqdim qilgan xonlikda yangilanishlar qilish borasidagi dasturida aynan maorif tizimida ham qator yangiliklar joriy qilish lozimligi borasidagi fikrni qo'llab-quvvatlagan: “Emdi 1910-yilda Muhammad Rahimxon o'lib o'rnig'a o'g'li Asfandiyorxon bo'lg'on yili Rossiyadin General G'alkin Xivadin Islom Xo'ja va Husayn Muhammad Devonbegilar ittifoq etib, avvalgi o'tgan xonlar vaqtida odat bo'lib kelgan eski tartiblarni qoldurib toza tartib birlan

Xiva xonliqini idora qilish to'g'risida bo'lg'on tozadin tuzulgan darsturul amal [3].



To'qqizlanchi: O'quv ishlari to'g'risida. Fuqarolarni o'qitmoq taraddudida Xiva xoni qadimdin kelayotgan tartibg'a muvofiq yaqin vaqtlarda madrasa bino etib kichik maktablarda o'quv rivoji bo'lmoqig'a yorlig' yetkurmaqchidur, mazkur maktablarda usul jadid tariqasida turkiy savodini ham musulmon dinining ta'limini va o'rischa tilni hamda kalta mazmunda aytilgan jug'rofiya ham tarixlarni o'qitiladur. Xiva xonining mazkur hohishlari yer

solg'utning tartiblari o'ring'a kelib, Xiva xazinasig'a ko'proq daromad yetushgan vaqtg'acha tavaqquf etib turiladur"[4].

Islom Xo'ja teatr san'atini jamiyatni o'zgartirish vositasi deb bilgan va uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Garchi to'g'ridan-to'g'ri dalillar mavjud bo'lmasa-da, Islom Xo'janing jadidlar teatrlarini qo'llab-quvvatlagani taxmin qilinadi. A. Boltayev №79-daftarda teatrning jamiyatdagi roli va unga jadidlarning munosabati haqida ma'lumotlar beradi, bu esa Islom Xo'janing bu sohaga qiziqishini anglatadi. Islom Xo'ja jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, qashshoqlik va bilimsizlik kabi muammolarni hal etishga qaratilgan turli xayriya tadbirlarini qo'llab-quvvatlagan. Mazkur daftarda jadidlarning kambag'allarga yordam ko'rsatish, yetimlarni ta'minlash va boshqa ijtimoiy faoliyatlari haqida

ma'lumotlar keltiradi, bu esa Islom Xo'janing bunday tadbirlarni qo'llab-quvvatlaganini tasdiqlaydi.

A. Boltayevning esdaliklarida Islom Xo'janing jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga munosabati haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar kam uchraydi. Biroq, Islom Xo'janing amalga oshirgan islohotlari va uning milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatni rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallash, ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi g'oyalarni qo'llab-quvvatlashi uning jadidlar bilan hamfikir bo'lganidan dalolat beradi.

1911-yilda Xon Asfandiyorning vaziri Islom Xo'ja bo'lib, u yer solig'ining yangi turini joriy etish maqsadida ekin maydonlarini qayta hisoblab chiqdi, paxta ekinlari ekilgan maydonlar va hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan xo'jaliklar sonini aniqlashtirdi. Islom Xo'ja tomonidan tuzilgan ushbu ro'yxatdan Abdulla Boltayev o'zining 18-raqamli qo'lyozma daftariga ko'chirib yozgan [5].

Shu bilan birga, esdaliklarda Islom Xo'jaga nisbatan yuqori lavozimli amaldorlar, ruhoniylar va yirik yer egalarining qarshiligi haqida ma'lumotlar



mavjud. Bu esa, Islom Xo‘janing jadidlar g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashi ularning noroziligiga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi.

A.Sa’dullayev, A.Satliqov va O.Abdullayevning “Said Islomxo‘ja (siyosiy, madaniy-ma’rifiy faoliyati)” nomli tadqiqotida A. Boltayevning esdaliklaridan foydalanilishi tarixni o‘rganishga muhim metodologik yondashuvni anglatadi. Esdaliklar og‘zaki tarixning bir shakli sifatida rasmiy hujjatlarda mavjud bo‘lmagan o‘tmishdagi voqealar va shaxslar haqida noyob ma’lumotlarni olish imkonini beradi [6].

A. Boltayevning esdaliklari Xorazm jadidlari harakatini va unda Islom Xo‘janing tutgan o‘rnini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Esdaliklarda Islom Xo‘janing ma’rifatparvarlik faoliyati, jadidlar bilan aloqalari, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini qo‘llab-quvvatlashi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Ushbu manbani chuqur o‘rganish orqali Xorazm tarixining ushbu davrini yanada to‘liq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ражабова Д. Абдулла Балтаев: «О трагической смерти Ислам Ходжи». 2023-7/3 Вестник Хорезмской академии Маъмуна. С: 64-67.
2. Boltayev A. №3-daftar. O. Abdullayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo‘lyozma. 99-varaq.
3. Boltayev A. №79-daftar. O. Abdullayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo‘lyozma. 36-varaq.
4. Boltayev A. №10-daftar. O. Abdullayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo‘lyozma. 99-varaq.
5. Boltayev A. №18-daftar. O. Abdullayev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo‘lyozma. 96-varaq.
6. Ражабова Д. Общая площадь посевных земель Хивинского ханства, составленная в 1911 году визирем Ислам Ходжой (из материалов А.Балтаева). Theory and analytical aspects of recent research international scientific-online conference part 20: december 9th 2023. R:192-196.
7. A.Sa’dullayev, A.Satliqov va O.Abdullayev. Sayid Islomxo‘ja (siyosiy, madaniy-ma’rifiy faoliyati). – T. 2005. 120-b.

TARIX**QURBON BEREGINNING BOSH MUHARRIR VA JAMOAT ARBOBI SIFATIDAGI FAOLIYATI**

**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

UO‘K 94(575.171)“1900/1924”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qurban Bereginning nafaqat Xorazm, balki O‘zbekistonda matbuot sohasiga qo‘shgan hissasi, shuningdek jamoat arbobi sifatida jamiyatdagi jarayonlardagi faoliyati ham tadqiq qilinadi.

Аннотация: В данной статье исследуется вклад Курбона Берегина в развитие печати не только в Хорезме, но и в Узбекистане. Также рассматривается его деятельность как общественного деятеля и участие в социальных и политических процессах своего времени.

Annotation: This article examines Qurban Beregin's contribution to the development of the press not only in Khorezm but also in Uzbekistan. It also explores his activities as a public figure and his role in the social and political processes of his time.

Kalit so‘zlar: Xiva, Toshkent, matbuot, publitsistika, tarix, jamiyat, partiya, jurnal, qatag‘on davri, sotsializm.

Ключевые слова: Хива, Ташкент, печать, публицистика, история, общество, партия, журнал, период репрессий, социализм.

Key words: Khiva, Tashkent, press, journalism, history, society, party, journal, period of repression, socialism.

Tarixni o‘rganishda arxeologiya, etnografiya, toponimika, lingvistika, numizmatika singari fanlarning qanchalik ahamiyati katta bo‘lsa, matbuotning ham moziy bag‘riga yashiringan sirlarni ochishda shunchalik darajada o‘rni bor. Zero, o‘tayotgan har bir kun o‘tmishga aylanganidek, shu davrni o‘z sahifalariga muhrlagan matbuot ham vaqt o‘tib, tarixni boshqa manbalarga taqqoslab tadqiq qiladigan muhim manbaga aylanadi. Shu ma’noda “Sharq yulduzi”dek katta salohiyatga ega jurnal ham o‘z sahifalarida moziy bag‘ridagi xazinadek qimmatlidir.

Garchi jurnal tashkil etilish va shakllanish davrlarida turlicha nomlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, u nafaqat matbuot tarixida, balki O‘zbekiston tarixidagi muhim manba darajasiga yetgan nashr, degan e’tirofga loyiq.

Jurnalga bosh muharrirlik qilgan va unda faoliyat ko'rsatgan har bir xodimning, tabiiyki, bunday darajaga yetishishida o'ziga yarasha o'rni bor va ular nomi nafaqat mazkur nashr bilan bog'liq kitoblarga, balki matbuot tarixiga oid ilmiy tadqiqot ishlariga, Vatan tarixiga oid qo'llanmalarga ham qayd etilishi aniq. Jurnal yuksalishida o'z o'rniga ega va XX asrning 20-30-yillarida jurnalist, muharrir, noshir va jamoat arbobi sifatida tanilgan shaxs Qurbon Beregin edi.

Qurbon Beregin xalqimiz tarixidagi eng mash'um yillar-1935-1937-yillarda "Sovet adabiyoti" jurnaliga bosh muharrirlik qilgan ijodkor bo'lib, agar jurnalning o'sha sonlariga nazar salsak, ko'plab badiiy barkamol asarlar chop etilganiga guvoh bo'lamiz.

"Zulfiyaxonim Isroilova, Madamin Davron singari ijodkorlarning dastlabki she'rlari, Usmon Nosirning dostoni, Hamid Olimjonning "Fitratning adabiy ijodi", Maqsud Shayxzodaning "Qilich va qalam" maqolalari, Majid Fayziy, Parda Tursin hamda Oydinning hikoya va ocherklari aynan Qurbon Beregin nazaridan o'tkazib chop etilgan ijod namunalari edi.

Shuningdek, o'z davrining mashhur ijodkorlaridan Abdulla Qodiriyning "G'irvonlik Mallavoy aka" ocherki, Husayn Shamsning "Huquq" romani, shuningdek, A.S.Pushkin, L.Tolstoy, M.Gorkiy, A.V.Lunacharskiy, Sulaymon Stalskiy, A.Avdeenko qalamiga mansub turli janrlardagi asarlar ham Qurbon Beregin bosh muharrirlik davrida jurnalda nashr etilgan" (1).

Beregin bosh muharrir va O'zkompartiyaning madaniy-oqartuv bo'limi mudiri sifatida 1935-yilda eng yaxshi asarlar tanlovini o'tkazadi va Abdulla Qahhorning "Sarob" romaniga jurnalning ikkinchi mukofotini berishni ma'qul topadi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning "Obid ketmon" qissasi, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va R.Rahimiyning "Xoin" pyesasini nashrga tavsiya qilib, adabiy jamoatchilik hukmiga havola qilishi uning davr dovullaridan cho'chimagan jasoratli inson ekanligini ham ko'rsatadi. Negaki, Cho'lpon, Qodiriylarga nisbatan aksilinqilobiy yorliq yopishtirilib turgan tahlikali zamonda ular ijodini yoritish, shaxsiga nisbatan hurmat ko'rsatishga qatag'on shamollari esib turgan paytda hamma ham botinaolmasdi. Qurbon Bereginning tabiati, siyratida esa bunday matonat, jasorat bor edi.

"Tabiiyki, bosh muharrirlikdek zahmatli, mas'uliyatli ish, yosh bo'lishiga qaramay, katta tajriba orttirgan Qurbon Beregin uchun oldindan tanish soha edi. Negaki, u 1927-1929-yillarda "Inqilob quyoshi" (hozirgi "Xorazm haqiqati" gazetasi)ga bosh muharrirlik qilgan va matbaachilik hamda matbuot bo'yicha

tajribaga ega ijodkor bo‘lib shakllangandi. Shuningdek, qadimiy vohadagi “Qizil Xorazm”, “Bo‘l tayyor”, “Xorazm xabarlar”, “Yoshlar ovozi”, “Ishchi tovushi”, “Maorif” kabi hozirda tarix sahifalaridan joy olgan nashrlarda o‘z maqolalari bilan qatnashib, davr muammolari, ularning yechimini siyosat maydoniga ko‘ndalang qo‘ygan publitsist sifatida tanilgandi. “Madaniy qurilish vazifalari”, “Shodli kunlar”, “Grajdanlar urushining tarixi to‘g‘risida”, “Savod uchun kurash”, “mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari”, “Yoshlar matbuoti”, “Ishchilar harakati”, “Xalq maorifi jabhasida”, “Madaniy inqilobning muhim masalalari” singari ko‘plab maqolalari Bereginning o‘tkir qalami davr muammolarini yoritishda g‘oyatda tig‘siz bo‘lganini ko‘rsatadi” (2).

“Qurbon Beregin tarjimon sifatida Xorazmda yashagan boshqird yozuvchisi A. Tagirovning “Soldatlar” qissasini o‘zbek tiliga tarjima qilishdan tashqari, Pushkinning “Dubrovskiy”, “Kapitan qizi”, “Bekat nazoratchisi” qissalari, M.Gorkiyning “Ona”, M.Sholoxovning “Ochilgan qo‘riq”, M.Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” romanlariga o‘zinining ijodkorlik tajribasi asosida muharrirlik qildi va nashr ishlarini tezlashtirishga hissasini qo‘shdi” (3).

Tarixchi Bahrom Irzayev arxiv hujjatlarini o‘rganishiga ko‘ra, “Beregin 1924-yil yanvarda Xorazmda ro‘y bergan voqealar tasviriga bag‘ishlangan roman ham yozgan”. Afsuski, ushbu roman bizgacha saqlanib qolmagan.

Ma‘lumki, qatag‘on dovullari shiddat bilan esa boshlagan 1937-yilda Qurbon Beregin O‘zkompartiya bo‘lim mudiri vazifasida faoliyat ko‘rsatayotgan jamoat arbobi edi. Ma‘lumki, o‘sha yilning 10-17-iyun kunlarida bo‘lgan O‘zbekiston kompartiyasining 7-qurultoyida o‘sha davr ruhiga xos jamiyatdan “xalk dushman”larini izlash masalasi ko‘rib chiqiladi va Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat va Usmon Nosir kabi milliy ruhda asarlar yaratgan ijodkorlarga “xalq dushmani” tamg‘asi uriladi. Q.Beregin ana shu qurultoyda jasorat bilan yuqoridagi ijodkorlarni aybsiz deya himoya qilishga urinadi. Afsuski, uning bu jasorati qimmatga tushdi...

Ha, afsuski, ana shunday fidoyi va o‘zini xalq xizmatkori deb bilgan inson ham 5 sentabr kuni “yot unsur” sifatida Yozuvchilar uyushmasi a‘zolidan chiqariladi va shu kunning o‘zida qamoqqa olinadi. O‘sha kuni ijodkor yashab turgan Toshkent shahar Uezdnaya ko‘chasidagi 23-uyda tintuv o‘tkazilib, Bereginga tegishli jamiki buyum, yozgan asarlari, ijod namunalari olib ketiladi. Turmush o‘rtog‘i Onajon, 9 yoshli qizi Muhabbat va 4 yoshli Maratlar uni o‘sha kuni oxirgi marta ko‘rishlari ekanligini bilishmas, qamoqqa olinishni tasodif deb

bilishar va uni qo'yib yuborishlariga ishonishardi. Afsuski, bu ishonch sarob bo'lib chiqdi..."

Beregini bilan 1937-yilning 3-oktabrida o'tkazilgan dastlabki so'roqda Akmal Ikromov talabi bilan Ziyosaid, G'oziy Yunusning asarlarini sahnaga qo'yishga bosh bo'lgani, endigina qamoqdan kelgan G'ulom Zafariyni ishga joylashtirgani, Qodiriy, Elbek, Cho'lpon asarlariga taqriz yozib, ularni nashr ettirgani, gonorar to'lattirganlik "aybi" qo'yiladi. Keyingi so'roqlarda esa Yozuvchilar uyushmasini Cho'lpon, Qodiriy, Elbek, Rahmat Majidiy singari aksilinqilobiy millatchilar bilan "to'ldirib yuborganlik" kabi ayb ham qo'shiladi.

Natijada shu va boshqa ayblovlari asosida 1938-yilning 4-oktabr kuni O'zSSR NKVD qoshidagi "Uchlik" sudi soat 00.40.dan 01.05 gacha davom etadi va Qurbon Bereginni otuvga hukm qiladi. Hukm shu kunning o'zidayoq ijro etiladi. Shu tarzda o'z davrining taniqli ijodkori 34 yoshida qatag'on qurboni bo'ldi. Agar uning hayoti erta so'nmaganida, undan ko'plab badiiy, publitsistik asarlar meros bo'lib qolardi.

Xo'sh, 34 yoshigacha respublikaga jamoat arbobi, noshir, bosh muharrir, publitsist sifatida tanilgan Qurbon Beregin asli kim edi va uning xalqimiz oldidagi tarixiy xizmatlari qanday bo'lgan, degan savolga ham qisqacha javob berib o'tsak.

XX asrning 20-30-yillarida, nafaqat Xorazm, balki O'zbekiston miqyosidagi jamoat arbobi, jurnalist, muharrir, noshir va tashkilotchi shaxs sifatida tanilgan inson xivalik Qurbon Ollaberganov bo'lib, u o'z davri matbuotida va ijtimoiy siyosiy faoliyatida Qurbon Beregin sifatida tanilgan edi. Uning 1935-yil 22-oktabrda Toshkentda o'z qo'li bilan yozgan rus tilidagi tarjimai holida, 1904-yilning dekabrda Xiva shahrida kambag'al hunarmand oilasida tug'ilgani yozilgan. Asli Qurbon Ollabergan o'g'li oilasining kelib chiqishi Xonqa bekligining Navxos qishlog'idan bo'lib, otasi Ollabergan Xudoybergan oxun 1902-yilda Xivaga ko'chib borgan edi. Xivadagi madrasani bitirib, oxun unvoni bilan toliblarga dars bergan Ollabergan tabiiyki, o'z o'g'li Qurbonning ham ilm olishiga e'tibor qaratdi.

Natijada ilmga ishtiyoqmand Qurbon 1912-13-yildan boshlab Xivadagi eski maktabda, so'ngra jadid maktabida, 1917-yildan esa madrasada tahsil oldi. Shu bilan birga tegirmon va moyjuvozlarni ta'mirlashtirish ishlari bilan shug'ullandi. 1920-yilda Xiva xonligi tugatilib, Xorazm Xalq Respublikasi tashkil etilgach, Xiva, Yangi Urganch shaharlarida bolalar uylari barpo

etiladi. Ushbu bolalar uy-maktablariga ko'plab iqtidorli bolalar qatori Qurbon Ollaberganov ham jalb etiladi. Natijada, tabiatan iqtidorli va tirishqoq bo'lgan Qurbon ushbu ikkala maktabda ham tahsil olib, jamoat ishlarida faol qatnashadi. Shuningdek, Xorazm Yoshlar ittifoqiga a'zo bo'lib kiradi. 1921-yilda Qozon shahridagi harbiy-siyosiy maktabda tahsil oladi. Qisqa muddatli kursda o'qib kelgach, Xivadagi Yoshlar tashkilotida umumiy bo'lim mudiri sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'zi singari kambag'al bolalarni maktablarga jalb etish, iqtidorli yoshlarni esa Moskva, Qozon, Boku, Toshkent shaharlariga o'qishga yuborishga boshchilik qildi. Aynan Bekjon Rahmon, Boboovun Salimov, Qurbon Bereginlarning sa'y-harakatlari bilan Maryamxon Sultonmurodova, Olimjon Qodiriy singari yoshlar Germaniyada tahsil olishga yuborilgan edi.

“Shu bilan birga, 1922-yilda o'zi ham Moskvadagi sharq mehnatkashlari universitetida tahsil olib qaytadi. Tahsilni qisqa muddatda tamomlab kelgach, Xivada Yoshlar tashkilotida siyosiy oqartuv bo'limi mudiri bo'lib ishlaydi. 1923-24-yillarda Toshhovuz shahrida Yoshlar tashkilotini tashkil etishga bosh bo'ladi. Shuningdek, 1924-yilda Hazorasp tuman partiya komiteti sekretari bo'lib ham faoliyat ko'rsatadi. 1925-yilga kelib o'z davrining fidoyi, jamoatchisi sifatida tanilgan Qurbon Ollaberganov Xorazm okrug (viloyat) Yoshlar tashkilotining mas'ul kotibi etib tayinlanadi va volost(tuman)larda Yoshlar tashkilotini tuzish, savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etishga rahbarlik qiladi. Shu yillarda u matbuotda Qurbon Beregin taxallusi bilan keng taniladi.

Iqtidorli jurnalist Qurbonni 1927-yil fevralida “Inqilob quyoshi” (hozirgi “Xorazm haqiqati”) gazetasiga bosh muharrir qilib tayinlashadi. Bu vazifada u ijodkor yoshlarni gazeta atrofiga to'pladi. Ularga zarur shart-sharoit yaratib berishga intildi.

U 1928-29-yillarda sobiq ittifoqda ommaviy ravishda o'tkazilgan xotin-qizlarning paranji tashlashi va ularni jamoa xo'jaligi, zavodlarga jalb etuvchi-“Hujum” kompaniyasini o'tkazish, qishloqlarda kolxozlar tashkil etishga bosh bo'ladi. Ana shu yillarda Q. Beregin Gurlan tumanida yer-suv islohotini o'tkazuvchi komissiya raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatdi. Ayni paytda okrug (viloyat)dagi jarayonni kuzatib va shu kompaniya tashkilotchisi sifatida “Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari” (T, 1930) nomli kitob ham yozib nashr qildirdi” (4).

Q.Beregin Xorazm okrug partiya qo'mitasining targ'ibot-tashviqot va siyosiy-oqartuv bo'limi mudiri lavozimida ham faoliyat ko'rsatdi. Bu paytda vohaga tashrif buyurgan O'zbekiston rahbarlari - A.Ikromov, F.Xo'jayev, Y.Oxunboboyevlar Q.Bereginning tashkilotchi va notiqligini ko'rib, uni Maorif xalq komissar(vazir)ligiga ishga taklif etishadi. Shu tariqa Q.Beregin 1929-yildan respublikada maktab, oliy o'quv yurtlari, muzey, kutubxona, klub, madaniyat uylarini tashkil etishga bosh bo'ldi. O'sha yili Q.Beregin O'zbekiston Davlat Ilmiy Kengashiga a'zo sifatida yoshlardan yetuk ilmiy xodimlar tayyorlashga, iqtidorli yoshlarni Moskva, Boku, Qozon, Leningradda o'qitishga, ilmiy izlanishlar olib borishlariga o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, O'zbekistonning iqtidorli yoshlarga rahbarlik qilib Bokuga bordi va u yerda iste'dodli yoshlarni o'qishga joylashtirib, ularga sharoit yaratishga intildi. Shu bilan birga, Maorif xalq komissarligi bo'lim mudiri sifatida O'zbekiston hududlarida yangi maktablar tashkil etish, maktablarni darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashga harakat qildi. Shuningdek, Q.Beregin jurnalist sifatida matbuotda maqolalari bilan qatnashibgina qolmay, 1931-yil iyuldan "Madaniy inqilob" (hozirgi "Ma'rifat" o'qituvchilar gazetasi) ga bosh muharrirlik qila boshlaydi. 1931-yil oktabr oyidan esa O'zbekiston Davlat nashriyoti raisi qilib tayinlanadi. U bu lavozimda respublikada tipografiya, nashriyotlar tashkil etishga, o'zbek adiblarining kitoblarini chop etishga bosh bo'ldi. Maktab, institutlarni kitoblar bilan ta'minlashga, tarjima asarlarni ko'paytirishga intildi. 1935-yilda Q.Beregin hozirgi "Sharq yulduzi" (o'sha vaqtda "O'zbekiston sho'ro adabiyoti", "Sovet adabiyoti" deb nomlangan) jurnalining bosh muharriri qilib tayinlandi.

U bosh muharrirlik faoliyatini O'zbekiston kompartiyasi markazqo'midagi matbuot sho'basi bo'limi instruktori, keyinchalik madaniy oqartuv bo'limiga mudirlik bilan qo'shib olib bordi.

Q.Beregin jamoat arbobi sifatidagi faoliyati davomida Yozuvchilar uyushmasining birinchi qurultoyini o'tkazishga, uyushmani tashkil etishga bosh bo'ldi va hay'at a'zosi qilib saylandi. Uning bu davrdagi eng katta ishi 1937-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasini tashkil etishga bosh bo'lgani va Rossiyada dekadaning muvaffaqiyatli o'tkazilganidir. Ana shu tashkilotchiligi uchun Q.Beregin "Hurmat belgisi" ordeni bilan taqdirlandi.

Afsuski, ana shunday jamoat arbobining umr shami 1938-yil oktabrida so‘ndi va 1956-yil 31-mayda Q.Beregin ham aybsiz ekanligi inobatga olinib, vafotidan so‘ng oqlandi.

Q.Beregin o‘z davrining ta’lim, madaniyat, noshirchilik, matbuot, adabiyot namoyondasi sifatida tanilgan jamoat arbobi edi va uning nomi abadiylashtirishga arzirli, yoshlar uchun esa fidoyi faoliyati ibrat namunasi sifatida ko‘rsatishga namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Sharq yulduzi” jurnali, 1991-yil, 5-6 sonlar.
2. U.Bekmuhammad. “Xorazm va xorazmliklar. Uchinchi kitob”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro, 2022-yil, 65-bet.
3. N.Karimov. “Qurbon Beregin”, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent, 2006-yil, 45-bet.
4. Xorazm matbuoti, matbaachilik, noshirlik tarixi va buguni. “Ogahiy nashriyot matbaa”, Urganch, 2025-yil. 60-bet.

TARIX

ULAR CHET ELDA O‘QIGAN EDILAR (XIVA XONLIGI MISOLIDA)



**O'KTAMOV
TOHIRJON,**
Namangan davlat
universiteti Tarix
yo‘nalishi talabasi

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva xonligi yoshlarining xorijiy davlatlarda ta’lim olish uchun jo‘natilish jarayoni, bundan ko‘zlangan maqsadlar, kutilgan natijalar haqida fikr yuritiladi. Xorijiy davlatlarda o‘qib, vataniga qaytgan xivalik yoshlarning keyingi hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar beriladi.

Аннотация: В статье рассматривается процесс отправки молодёжи Хивинского ханства на учёбу за рубеж, поставленные ими цели и ожидаемые результаты. Приводятся сведения о дальнейшей жизни и деятельности молодых хивинских студентов, вернувшихся на родину после обучения за рубежом.

Annotation: This article discusses the process of sending young people from the Khiva Khanate to study in foreign countries, the goals they set for them, and the expected results. Information is provided about the subsequent life and activities of young Khiva students who returned to their homeland after studying in foreign countries.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, “Yosh xivaliklar”, Muhammad Rahimxon II, Muhammad Aminaddin o‘g‘li, Xusayn Qo‘shaqov, Rahmat Majidiy, Xusaynbek Matmurodov, Bekjon Rahmonov, Maryam Sultonmurodova.

Ключевые слова: Хивинское ханство, «Молодые хивинские студенты», Мухаммад Рахимхан II, Мухаммад Аминдин оглу, Хусайн Гошаков, Рахмат Маджиди, Хусайнбек Матмуродов, Бекжон Рахмонов, Марьям Султанмуродова.

The keywords: Khiva Khanate, “Young Khiva Students”, Muhammad Rahimkhon II, Muhammad Amindin oglu, Husayn Qo‘shaqov, Rahmat Majidiy, Husaynbek Matmurodov, Bekjon Rahmonov, Maryam Sultanmurodova.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishi natijasida ilgʻor fikrli ziyolilar yoshlarni chet el mamlakatlariga borib taʼlim olishining tarafdori boʻlishdi. Xonlik Rossiya mustamlakasiga aylanishiga qaramasdan, madaniy hayot taraqqiyoti davom etaverdi. Bu ishlarga Xiva xonlari ham oʻz hissalarini qoʻshishdi. Xususan, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1864-1910) oʻlkadagi madaniy hayot taraqqiyotiga xayrihoh hukmdorlardan edi. Uning davrida madaniy sohada koʻplab ishlar amalga oshirildi, ilm-fanga homiylik qilindi. Muhammad Rahimxon Feruz buyrugʻi bilan 1874-yilda Erondan kitob bosish uskunalari olib kelingan. Shu tariqa Oʻrta Osiyoda birinchi matbaa toshbosma – litografiya faoliyati yoʻlga qoʻyilgan (8).

1891-yili Xivada shifokorlik shaxobchasi ochilib, aholiga yordam koʻrsatila boshlangan. Feruz davrida Xivada yangi usul maktablari ham ochila boshlandi. 1889-yili Orenburgdan kelgan tatar ziyolisi Abdulgʻaniboy Xusainov tomonidan Xivada yangi usul maktabi ochilgan. Bu maktab dastlab tatar bolalari uchun faoliyat koʻrsatgan. Muhammad Rahimxon II ning saroyida 1884-yili maktab tashkil etilgan. Bu maktabda xonning oʻziga yaqin kishilarning farzandlari oʻqigan. Ushbu maktabni ochishdan maqsad maktab yoshlaridan tarjimonlar tayyorlash boʻlgan. Unda musulmon muallimlar bilan birga rus oʻqituvchisi ham dars bergan. Xiva xonligiga kirib kelgan maʼrifiy va inqilobiy gʻoyalar, shuningdek, Muhammad Rahimxon II ning yangilikka moyilligi, madaniyat va maorifga homiyligi xonlikning oʻzida yangilik yaratishga turtki boʻlgan (3).

XIX asr soʻngida Rossiya, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlarda boʻlgan ilgʻor fikrli xon amaldorlari va sarmoyadorlar xorijdagi oʻzgarishlardan bahramand boʻlish bilan birga oʻz yaqinlari va farzandlarini ana shu mamlakatlarga taʼlim olishga yuborganlar. Masalan, Xiva xonligining Xonqa tumani hokimi Aminaddin Yoqub 1872-yili xon elchilari safida Hindistonga borgan va safar davomida dunyo oʻzgarishlaridan katta taassurot bilan qaytgan. U oʻgʻli Muhammadni 1893-yili taʼlim olish uchun Fransiyaga yuborgan.

Otasi uni dastlab Xivadagi Arabxon madrasasida va To'rkoi'dagi rus-tuzem maktabida (Asfandiyor to'ra ham shu maktabda o'qigan edi) o'qitgan. Ilmga bo'lgan iqtidori bois Muhammad Aminaddin o'g'li Arabxon madrasasidagi ta'limdan so'ng Istanbulga borib tahsilini davom ettirgan. U yerdagi o'qish jarayonida Turkiyaga kirib kelgan fransuz madaniyati va ilm-fani haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan. Bu davrda xonlikda yerlarni sug'orishda suv muammosi asosiy masalalardan bo'lganligi bois, u suv xo'jaligi sohasida bilim olish uchun Fransiya boradi. Muhammad Aminaddin o'g'li 1893 – 1897-yillarda Fransiyaning Tuluza shahridagi Irrigatsiya kollejida ta'lim olgan (5).

Xiva xonligidagi ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishi va yangi usul maktablarining ochilishida taraqqiyparvar amaldorlar, ayrim boy va savdogarlarning ko'magi katta bo'lgan. Xonlikdagi boylar va davlatmand shaharliklar XX asr boshlarida musulmon xalqlaridagi o'zgarishlardan o'rnak olib, 1904-yili "Jamiyati hayriya"ni tuzdilar. Bu hayriya jamiyatining asosiy vazifasi Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil etishga qaratilgan edi.

Muhammad Rahimxon II Feruz farmoniga muvofiq 1904-yilning 10-noyabrida Urganchda yangi usul maktabi ochilgan. Unda Turkiyadan kelgan Xusayn Qo'shaqov yoshlarga ta'lim bergan. Maktabda qisqa vaqtda o'quvchilar soni 55 taga yetgan. Xusayn Qo'shaqov tashabbusi bilan 1906-1907-o'quv yilida ilg'or ma'rifatparvar kishilar va oqsoqollar istak va yordamlari bilan Urganchda qizlar maktabi ochilgan. Feruz Urganchga borib, maktab ishi bilan tanishib, Xusayn Qushaqovga sarpo kiygizgan, xazina hisobidan yordam ajratgan (1).

Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xo'jayli, Qo'ng'iro't, To'rtko'l, Gurlan va Shovotda ham yangi uslubdagi maktablar ochishga kirishilgan. Bu maktablarda Xusayn Qo'shaqov bilan birgalikda Komila Qo'shaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar o'qituvchilik qilganlar. Xiva jadidlari yangi uslubdagi maktablar ochish bilan birga, ular uchun darsliklar yaratish borasida ham katta ishlarni amalga oshirdilar. Boboaxon

Salimov maslakdosh do'sti, Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olayotgan Mulla Bekchon Rahmonov bilan hamkorlikda "Alifbe" va "O'qish kitobi" darsliklarini yaratdilar.

Chet elda ta'lim olgan xivalik yoshlardan yana biri Rahmat Majidiy Orenburgdagi "Xusayniya" madrasasida tahsil olgan. Ammo uning madrasa ta'limi 1917-yil oktyabr voqealari sabab oxiriga yetmay qoladi. Shunday bo'lsa-da, madrasa uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bir qator xivalik yoshlar Istanbulga borib tahsil olganlar. Jumaniyoz Sharipovning "Xorazm" nomli romanida yozilishicha: "Xusaynbek Matmurodov xivalik yoshlardan bo'lib, Turkiyada ta'lim olgan. Istanbuldagi faoliyati davrida ana shu sarmoyadorlar bilan tanishgan". Xusaynbek Matmurodov Xiva xonligidagi faoliyati davrida ana shu sarmoyadorlar bilan doimiy aloqada bo'lgan (3). U xonlikdagi "Yosh xivaliklar" tashkiloti Nozirlar kengashi raisi bo'lgan (2). Ammo Xusaynbek Matmurodovning "Yosh xivaliklar" tashkilotidagi faoliyati ayanchli yakunlanadi. 1918-yili "Yosh xivaliklar" tashkilotining yetakchilaridan Xusaynbek Matmurodov, Ishoqxo'ja Ibrohimxo'ja o'g'li, Abdusalomxo'ja Islomxo'ja o'g'li, Tolib Mahsum Avazxo'ja o'g'li xonning buyrug'i bilan Junayidxonning o'g'li Eshshi tomonidan qumda Kurtko'l degan joyda qatl qilinadi.

Yana bir Xiva yoshlaridan bo'lgan Bekjon Rahmonov 1913-1918-yillarda Turkiyaning Istanbul shahridagi semenariyada o'qiydi. Bu oliy ta'lim muassasasi ko'pgina xorijiy tillarni, diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatar edi. Bekjon Rahmonov Istanbuldagi ta'limni tamomlab Xivaga qaytgach, xonlikdagi maorif tizimini rivojlantirish yo'lida muallimlik qildi. Uning keyingi hayoti siyosat bilan bog'langan. U "Yosh xivaliklar" tashkilotida maorif va madaniyat vaziri bo'lgan. (3). Mulla Bekjon Rahmonov 1920-yildan nashr etila boshlangan "Inqilob quyoshi" gazetasining muharriri bo'lib ishlagan. Uning tashabbusi bilan 1921-yil sentyabrda Xivada xalq universiteti tashkil qilingan. U 1925-1926-yillarda Xorazm viloyati maorif mudiri bo'lib ishlagan. Mulla Bekjon Rahmonov

Xorazmda birinchi bo‘lib 1924-yilda lotin alifbosida darslik yaratgan. Uning hayoti fojeali yakun topgan. 1929-yilda OGPUning josuslari tomonidan Urganchdan uncha uzoqda bo‘lmagan hududda Amudaryoda paraxod ichida maxfiy ravishda o‘ldirilgan (9).

Chet elda ta‘lim olgan xivalik yoshlardan yana biri Maryam Sultonmurodova (1905-1972) edi. Sultonmurodova Maryam Jumaniozovna 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug‘ilgan (7). Otasi Jumanioz Sultonmurodov taraqqiyparvar inson sifatida 1911-yilda qizi Maryamni Urganchda yangi usuldagi jadid yoki mahalliy tilda aytilgan no‘g‘oy (tatar) maktabiga bergan. Maryam u yerda besh yil o‘qigach, oilasi ko‘chishi sabab To‘rtko‘ldagi jadid maktabida ta‘limni davom ettirdi. U Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida o‘qidi, so‘ngra oliy ma‘lumot olish maqsadida Orenburg tatar pedagogika institutiga o‘qishga kirdi. 1922-yil oktabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritilgan. Xorazm Xalq Respublikasining Moskvadagi muxtor vakilligi xodimi Karim Safayev yordamida Maryam xorij uchun pasport olib, Leningradga yo‘l olgan (6).

Leningrad portidan Xayriniso Majidxonova va To‘lagan Mo‘minovlar bo‘lgan guruh bilan paroxodda Germaniyaning Shtesin shahriga borganlar. Maryam Sultonmurodova avvaliga Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o‘qigan. So‘ng Darmshtadt shahridagi “Viktoriya” o‘qituvchilar seminariyasiga kirib, ikki yil ta‘lim olgan. 1926-1927-yillarda esa Potsdamdagi “Fraunshul” ayollar maktabida amaliyot o‘tagan. 1927-yil yozgi ta‘til vaqtida dugonasi Xayriniso Majidxonova bilan Fransiya poytaxti Parijga sayohat qilar ekan, ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafo Cho‘qaylar bilan qisqa muddatli uchrashuvi keyinchalik qatag‘on etilishi uchun asosiy bahona bo‘ldi. Maktabdagi amaliyoti izidan Maryam Berlindagi

professor Genrix Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini ham o'qib bitiradi va 1928-yil SSSRga qaytadi (6).

Maryam yurtga qaytgandan keyin Germaniyada ta'lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida 1929-yil fevralda O'zbekiston Sog'liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo'lib ishga kirishga muvaffaq bo'ladi. 1929-yil oxirida Asqar Axmadbekov bilan oila qurib, to'rt yil Kattaqo'rg'onda yashagan. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga qaytib, O'rta Osiyo davlat universitetida, "Guliston" va "Yorqin turmush" jurnallarida ishlagan.

Ammo uning bu tinch hayoti ko'pga bormagan. Bu davrdagi butun ittifoqda bo'layotgan qatag'on to'liqini Maryamni ham chetlab o'tmadi. 1937-yilda Maryam "nemis josusi", "fashizm tarafdori" sifatida ayblanib, 10 yil qamoq jazosiga hukm qilindi (7). Tintuv jarayonida uning pasporti, diplomlari, mehnat daftarchasi, xatlari, kitoblari, 35 ta shaxsiy suratlari xatlanib tortib olindi (6). Shu tariqa Maryam 6 oylik qizi Anora bilan qamoqxonaga tushdi. U jazoni dastlab Toshkent, so'ng Qozon va Suzdal qamoqxonalarida o'tadi. Keyin uzoq Kolima oblastiga yuborilib, Magadandagi "Dalstroy" qurilishida 1947-yil 13-sentabrgacha azob-uqubat chekdi. 1947-yilda qamoqdan chiqib, ona yurti Xorazmga keladi va Urganch tumanida hamshiralik qila boshlaydi.

Biroq, uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal unga vatanga xiyonat, aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zolik ayblovlari qo'yildi. Bu ayblovlar natijasida Maryam uzoq Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilindi va u yerdan 1954-yilda qaytib keldi. Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi (6). U surgundan qaytib kelgandan keyin, umrining oxirigacha o'zi tug'ilgan Chandirqiyot qishlog'ida yashadi va 1971-yilda vafot etdi. Undan xalqimizga "Rahmat desinlar", "Majnuntol", "Qalbim nidosi", "Mehr ko'zda", "Karvonlar kelganda", "Kutilmagan baxt", "Betamiz yigit" nomli hikoyalari meros bo'lib qoldi (6).

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida “Yosh xivaliklar” tashkilotining tuzilishi natijasida xonlikda madaniy jihatdan o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu jarayonda Xiva xonlari va bir qator davlat amaldorlari ham ishtirok etdi. Ta’lim jarayonida islohotlar qilindi. Xivalik yoshlar chet ellarda o‘qish uchun jo‘natildi. Bu jarayon tepasida “Yosh xivaliklar” tashkiloti turdi. Ammo ushbu tashkilotning faoliyati ayanchli tarzda yakunlandi, a’zolarining ko‘pchiligi fojeali tarzda o‘ldirildi. Buning natijasida chet ellarda ta’lim olayotgan yoshlar qiyinchiliklarga duch keldilar va vatanga qaytishga majbur bo‘ldilar. Vatanga qaytganidan keyin ham ular osoyishta hayot kechirmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: “Ғофур Ғулом”, 1991. 101-бет.
2. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. 3-kitob. – Т.: “Sharq”, 2011.
3. Йўлдошев А. Чет элларда ўқиган туркистонлик ёшлар. – Т.: “Фан”, 2024. 65-70-бетлар.
4. Йўлдошев Ж., Хасанов С. Жадид тарихшунослиги асослари // Халқ таълими. – Тошкент. 1992.
5. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Тошкент: “Abu Matbuot-Konsalt”, 2007, 271-бет.
6. Mamatqulov D., Irzayev B. Tanilmagan ayol jadidlar: Hayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova. – Toshkent, 2024. 58-67-betlar.
7. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент, 2006. 104-108-бетлар.
8. Холиков К., Худойбергенов К. Хоразм кўнғирот иноқлари шажараси. – Тошкент: “Академнашр”, 2021. 249-бет.
9. www.jadid.uz.

TARIX**IKKINCHI JAHON URISHI DAVRIDA TEMIR YO‘LLARNING
HARBIY VA SIYOSIY AHAMIYATI**

**SHAHRIZOD
SHOYIMOV,**
Mirzo Ulug‘bek
nomidagi O‘zbekiston
milliy universiteti
magistranti

UO‘K: 947 (575.1)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida Sovet rahbariyatining mudofaa tizimida temir yo‘l transportining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Temir yo‘llarning qo‘shinlarni tez safarbar etish, frontni zarur resurslar bilan ta‘minlash hamda front va orqa o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlashdagi hal qiluvchi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

***Аннотация:** В статье анализируется роль железнодорожного транспорта в системе обороны СССР во время Второй мировой войны. Подчеркивается решающее значение железных дорог для быстрой мобилизации войск, своевременного снабжения фронта необходимыми ресурсами и укрепления связи между фронтом и тылом.*

***Annotation:** This article analyzes the role of railway transport in the Soviet defense system during the Second World War. It highlights the crucial importance of railways in the rapid mobilization of troops, timely supply of the front with essential resources, and strengthening the link between the front and the rear.*

***Kalit so‘zlar:** siyosat, urush, transport, temir yo‘llar, jang, fashist, poyezd, mintaqa, korxona.*

***Ключевые слова:** политика, война, транспорт, железные дороги, бой, фашист, поезд, регион, предприятие.*

***Key words:** politics, war, transport, railways, battle, fascist, train, region, enterprise.*

1941-yil 22-iyunda mamlakatimiz tarixidagi eng og‘ir davrlardan biri – sobiq ittifoq hududlariga hujum boshlandi. Ikkinchi jahon urushi davrida sovet va o‘zbek xalqining mislsiz jasorati insoniyatning xotirasida abadiy yashaydi. Tarixning muhim bir davrida, nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat taqdiri xavf ostida bo‘lgan bir paytda, sobiq ittifoq xalqlari ozodlik va mustaqillikni himoya qildi va Yevropa va Osiyo xalqlarini fashistik qullik tahdididan ozod qilishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Shu tarzda jahon sivilizatsiyasi qutqarildi.

Sovet rahbariyati vatanni himoya qilishga doimiy ravishda e‘tibor qaratdi, temir yo‘llarga katta ahamiyat berdi. Temir yo‘l transporti urushda eng muhim moddiy omil ekanligi ta‘kidlandi. Yaxshi ishlaydigan va uzluksiz temir yo‘l

transporti qo‘shinlarning yuqori jangovor qobiliyatini ta‘minlashi, frontni zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash va og‘ir urush yillarida ham xalq xo‘jaligi va aholining transport ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi kerak edi.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi davrda temir yo‘l ishchilari o‘z kuchlarini iqtisodiy rivojlanish va mamlakatning mudofaa qobiliyati ehtiyojlarini qondirishga qaratdilar. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan temir yo‘l ishchilari transportni front ehtiyojlariga moslashtirish kabi qiyin vazifaga duch kelishdi. Temir yo‘llar yig‘ilish punktlaridan harbiy qismlarga va qo‘shinlar konsentratsiyasiga safarbarlik yuklarini, shuningdek, aholi va korxonalarni mamlakatning orqa hududlariga evakuatsiya qilishni amalga oshirdi.

1941-yil 24-iyun kuniyoq temir yo‘llarda harbiy poyezdlar jadvali joriy etildi[1], bu esa qo‘shin poyezdlarining ustuvor harakatlanishini, liniya quvvatidan maksimal darajada foydalanishni va stansiyalar ishining uzluksiz ishlashini ta‘minladi. Poyezdlar soni ikki baravar oshirildi va shoshilinch bo‘lmagan yuklarni majburiy tushirish amalga oshirildi. Shu bilan birga, marshrutlash maydonchalari va diviziya stansiyalarida poyezdlarni uzluksiz qayta ishlashni ta‘minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Harbiy missiyani qayta qurish bo‘yicha jadal sa‘y-harakatlar front chizig‘idagi temir yo‘llarda ham amalga oshirildi. Hatto urush boshida ham mamlakatning g‘arbiy mintaqalaridan Ural, Sibir, Volga mintaqasi, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqqa aholi va korxonalarni ommaviy ravishda evakuatsiya qilish zarurati tug‘ildi. Bunday yuklarning birinchi to‘lqini Belorussiya, Dnepr, Oktyabr, Janubi-g‘arbiy, Odessa, Moskva-Kiyev, Janubiy va G‘arbiy temir yo‘llariga to‘g‘ri keldi. Evakuatsiya yuklari umumiy yuk oqimining taxminan yarmini, ba‘zi liniyalarda esa 80% gacha bo‘lgan qismini tashkil etdi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq temir yo‘llar juda katta yukni ko‘tardi. Ular qo‘shinlarni safarbar qilish va jamlash, shuningdek, butun xalq xo‘jaligini urush asosida qayta tashkil etish bilan bog‘liq ulkan yuk tashishlarni amalga

oshirdilar. Sanoatni ko‘chirish va aholini evakuatsiya qilish uchun qisqa vaqt ichida misli ko‘rilmagan hajmdagi ishlar bajarildi. Buning uchun taxminan 1,5 million vagon kerak bo‘ldi. 2593 ta yirik sanoat korxonasi, millionlab tonna moddiy boyliklar, don, oziq-ovqat va boshqa tovarlar qiyin sharoitlarda, g‘arbdan sharqqa minglab kilometrlar masofaga tashildi va 18 million kishi evakuatsiya qilindi[2].

Evakuatsiya boshlanganidan 1941-yil iyul oyining o‘rtalarigacha SSSRning Yevropa qismidagi 17 ta temir yo‘lga minglab korxonalardan demontaj qilingan uskunalarni o‘z ichiga olgan 65 977 ta evakuatsiya yuki yuklandi. Temir yo‘l qo‘shinlari va harbiy transport agentliklari evakuatsiyada katta yordam ko‘rsatdilar. Masalan, Maxsus temir yo‘l qo‘shinlari korpusi 25 400 ta vagon, 692 ta lokomotiv va ko‘p miqdordagi relslarni orqa tomonga tashidi.

Aholini evakuatsiya qilish qiyin sharoitlarda, ko‘pincha dushman bombardimoni ostida amalga oshirildi. Moskvadan ikki million, Leningraddan 1,7 million va Kiyevdan 350 ming kishi evakuatsiya qilindi. 1941-yil iyunidan 1942-yil fevraligacha taxminan 10,4 million kishi evakuatsiya qilindi. Bu evakuatsiyalar uchun 1,5 million vagon (30 000 poyezd) kerak bo‘ldi. Evakuatsiyaning ikkinchi to‘lqini 1942-yil yozida, dushman mamlakat janubi va janubi-g‘arbiy qismida hujum boshlaganida sodir bo‘ldi. Bu davrda Donetsk, Janubi-sharqiy, Stalingrad, Shimoliy Kavkaz va Orjonikidze temir yo‘llari bo‘ylab 150 ta yirik korxona va taxminan 8 million kishi tashildi[3].

Barcha transport turlari orasida temir yo‘llar evakuatsiyaning asosiy yukini o‘z zimmasiga oldi. Ko‘p sonli korxonalar va uskunalarining, shuningdek, millionlab odamlarning ko‘chirilishi tarixda misli ko‘rilmagan edi va uni eng hayratlanarli tashkiliy va insonparvarlik ishlaridan biri deb hisoblash mumkin. Nihoyatda og‘ir sharoitlarda temir yo‘l ishchilari mavjud liniyalarni to‘ldirish va yangilarini qurishda davom etdilar. Ular orasida 1941-yil oxirida qurib bitkazilgan strategik ahamiyatga ega Sorokskaya (Belomorsk) - Obozerskaya liniyasi ham bor edi.

1941-yilda Buyuk Moskva halqa temir yo‘lining qismlari va Stalingraddan Vladimirovkagacha bo‘lgan Volga aylanma liniyasining birinchi bosqichi ham qurib bitkazildi. Kotlas - Vorkuta va Kizlyar - Astraxan liniyalarida ishlar tez sur‘atlar bilan davom etdi. Jami 793 km yangi liniyalar va 137 km almashtirish yo‘llari foydalanishga topshirildi[4].

1942-yilda Leningrad yaqinida Hayot yo‘lining kichik, ammo muhim qismi - Voybokalo-Kobona-Kosa qurilishi yakunlandi va Stalingrad yaqinida Petrov Val-Ilovlya va Sviyajsk-Ulyanovsk liniyalari ochildi. Orqa hududlarda ham yo‘llar qurildi. Jumladan, ko‘mir tashish uchun Kartali-Akmolinsk temir yo‘li va Emba neftini tashish uchun Orsk-Guryev liniyasi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Ashxobod temir yo‘li, Trans-Sibir temir yo‘li va bir qator transport markazlarining quvvatini oshirish choralari ko‘rildi.

1941-1942-yillarda qabul qilingan transportga oid qarorlar nafaqat Ikkinchi jahon urushi sinovidan o‘tdi, balki keyinchalik ularning tinchlik davridagi ahamiyatini ham tasdiqladi. Transport operatsiyalarini tashkil etishning umumiy tamoyillari, shuningdek, sanoatda boshqaruv usullari va uslubi, mamlakatimizning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda, temir yo‘l transportining iqtisodiyotdagi hal qiluvchi rolini belgilab berdi. Qisqa vaqt ichida harbiy texnika bilan yaxshi jihozlangan beshta armiya noyabr oyi oxirida temir yo‘l orqali Moskvaga ko‘chirildi.

Sovet temir yo‘l ishchilari va o‘zbek mehnatkashlari fashist bosqinchilariga qarshi muqaddas umumxalq kurashining har bir bosqichida mardonavor mehnat qilishdi. 1941-yil kuzida Moskva jangiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida Ural, Sibir va Uzoq Sharqdan diviziyalarni olib kelayotgan poyezdlar po‘lat magistrallar bo‘ylab harakatlanishdi. Temir yo‘l ishchilari qamal qilingan Leningradga yaqin joylarga qurol-yarog‘ va oziq-ovqat yetkazib berishda ajoyib jasorat ko‘rsatdilar. Qo‘shinlar va o‘q-dorilarni tashiydigan poyezdlar Stalingradda dushman kuchlarini mag‘lub etish uchun dushman o‘qi ostida harakatlandi. 1943 va 1944-yillardagi hujumkor operatsiyalar paytida,

shuningdek, 1945-yildagi so'nggi janglar paytida ulkan qo'shin harakatlari amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushi davrida frontga 20 million vagondan iborat 443 000 dan ortiq poyezd yetkazib berildi[5].

Qiyin sharoitlarda temir yo'l transporti mamlakatning transportga bo'lgan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirdi. Sovet davlati qiyin davrlarni boshdan kechirayotgan edi. Ikkinchi frontning yo'qligidan foydalanib, fashistlar qo'mondonligi bosib olingan Yevropa mamlakatlaridan diviziyalarni yo'q qilib, o'z kuchlarida sezilarli ustunlikka erishdi va 1942-yil yozida Sharqiy frontga hujum boshladi. Fashistlar Qrim yarim orolini egallab oldilar, Xarkov yaqinidagi qo'shinlarimizning qarshiligini yengib o'tdilar va janubi-sharqda Kavkazning neft mintaqalarini va Don va Kubanning boy qishloq xo'jaligi hududlarini egallashni maqsad qilib hujum boshladilar. Keyin ular shimolga burilib, mamlakat markazini Ural, Sibir va O'rta Osiyodan uzib qo'yishdi.

Bir nechta tarmoq yo'nalishlarida katta tirbandlik sharoitida temir yo'l ishchilari murakkab ommaviy transportni mohirona boshqardilar va harbiy qo'mondonlik talablariga va frontdagi o'zgaruvchan vaziyatga qarab qo'shin poyezdlari va transportlarining harakatini tezkorlik bilan tartibga soldilar. Qarorlar haqiqiy texnik imkoniyatlarga asoslanib qabul qilindi va temir yo'l ishchilarining ijodiy tashabbusi va fidoyi qahramonona mehnatiga tayandi. Xulosa qilib aytganda, ikkinchi jahon urishida nafaqat temir yo'llar, balki turli xil transport vositalari ham juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аксёненко, Н. Е. Железные дороги России: от реформы к реформе / Н. Е. Аксёненко, Б. М. Лапидус, А. С. Мишарин. - М. Транспорт, 2001. - 335 с.
2. Железнодорожники в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг. / под ред. министра путей сообщения Н. С. Конарева. - 2-е изд., доп. - М. Транспорт, 1987. - 591 с.
3. Жуков, Г. К. Воспоминания и размышления / Г. К. Жуков. – М. АПН, 1970. - 736 с.
4. Аксененко Н., Бернгард Ф. История железнодорожного транспорта России. 1994.
5. Новиков С., “Советские железнодорожники в Великой отечественной войне”. Госполитиздат. 945.

TARIX

O'ZBEK MILLIY TEATRINING SHAKLLANISH JARAYONI



**OMINAXON
XAMIDOVA,**
Andijon davlat
universiteti talabasi

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek milliy teatrining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Shu bilan birga, o'tmish teatr an'analari bilan bugungi zamonaviy teatr o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, sahna san'atining shakl va mazmun jihatidan yangilanishi, hamda tarixiy tajribaning hozirgi teatr rivojiga ta'siri tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается процесс становления узбекского национального театра, его исторические корни и этапы развития. Анализируется неразрывная связь театральных традиций прошлого с современным театром, обновление исполнительского искусства по форме и содержанию, влияние исторического опыта на развитие современного театра.

Annotation: This article covers the process of formation of the Uzbek national theater, its historical roots and stages of development. At the same time, the inextricable link between the theatrical traditions of the past and the modern theater of today, the renewal of the performing arts in terms of form and content, and the influence of historical experience on the development of the current theater are analyzed.

Kalit so'zlar: og'zaki dramaturgiya, Andijon teatri, "Turon" teatr truppasi, "O'lka o'zbek namuna truppasi".

Ключевые слова: устная драматургия, Андижанский театр, театральная труппа "Турон", "национальная узбекская образцовая труппа".

Key words: oral dramaturgy, Andijan theater, "Turon" theater troupe, "National Uzbek model troupe".

Tarixiy manbalardan ma'lumki, insoniyat sivilizatsiyasining shakllanish jarayonida san'at va madaniyatning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etgan. Xususan, har bir xalqning milliy badiiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda san'atning turli tarmoqlari, ayniqsa teatr san'ati muhim ijtimoiy va ma'naviy vazifani bajargan. Teatr inson tafakkurining, his-tuyg'ularining, estetik didi va ma'naviy qadriyatlarining ifodasi sifatida qadim zamonlardan buyon insoniyat madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi Yunoniston hududida vujudga kelgan teatr [1] san'ati dastlab diniy marosimlar, mifologik voqealar va xalq e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik u jamiyat hayotidagi eng muhim ma'naviy-ma'rifiy institutlardan biriga aylandi. Teatr orqali inson tabiatining murakkabligi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, ahloqiy qadriyatlar hamda estetik ideallar badiiy shaklda ifoda etildi. Shu bois, teatr san'ati nafaqat badiiy ijodiy faoliyat turi, balki xalq ruhiyatini, milliy ongini va ijtimoiy g'oyalarni shakllantiruvchi kuch sifatida e'tirof etiladi.

Asrlar davomida teatr san'ati insoniyat tafakkurining yuksalishida, ma'naviy uyg'onishda hamda estetik tarbiya jarayonida muhim rol o'ynab kelgan. Uning badiiy imkoniyatlari turli tarixiy davrlarda xalq hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu ma'noda teatr san'ati nafaqat estetik zavq manbai, balki milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni yangi bosqichlarga ko'tarish jarayonida ham beqiyos ahamiyatga ega hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Teatrning ahamiyati haqida Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919-yillar) [2] “Teatr bu ibratxonadir” [3], degan fikrni ilgari surgan edi.

Ayniqsa, millatning mentalitetini “ko'rgazmali” badiiy ifodalashda teatrning imkoniyatlari nihoyatda katta [4. –B. 9.]. XVIII va XIX asrning birinchi yarmigacha teatrning asosiy repertuari og'zaki dramaturgiya hisoblangan edi. O'zbek professional teatri repertuarining turlari juda xilma-xil bo'lib, katta-kichik xalq og'zaki komediyalaridan, pantomima spektakllar, satirik va yumoristik hikoya va latifalar, hajviy yoki pantomima raqslar, qiziq lapar va qo'shiqlar, tanqid, askiya va hokazolardan iborat bo'lgan. Bu esa shuni ko'rsatadiki, o'zbek yozma dramaturgiyasi dunyoga kelgunga qadar o'zbek teatrida spektakl formasida o'ynalgan xalq og'zaki pyesalari mavjud edi. O'zbek xalq og'zaki dramaturgiyasi asosan xalq komediyalaridan iborat bo'lib, bu davrda hali unda Yevropa dramaturgiyasining drama, tragediya, musiqali drama kabi murakkab janrlari kirib kelmagan edi [5. –B. 63.]. O'zbek xalq og'zaki dramaturgiyasi obektiv hayotiy voqelikni hajviy shakllarda aks ettiradi. Undagi asarlar hajmlari

turlicha. Masalan, ular 10 minutdan 2 soatgacha o'ynalgan, epizodlar soni 1 tadan 20 tagacha bo'lgan. Ularda komediyalar, pantomimalar, parodiyalar, imitatsiyalar, kulgili hikoyalar va o'yinlar bo'lib, goho ayrim laparlar xalq aktyorlari ijrosida she'riy spektaklga aylanib turganini hisobga olmaganda, asosan nasr shakliga egadir. Biroq, xalq aktyorlari qo'shiqlardan, kuylar va o'yinlardan keng foydalanganlari sababli ularning pyesa-spektakllari sintetik xususiyatga ega bo'lgan [8. –B. 20.].

1918-yilning ikkinchi yarmida Andijondagi birinchi teatr-havaskorlik truppasi Hamza Hakimzoda Niyoziyning sa'y-harakatlari bilan asosan mahalliy aholi vakillari istiqomat qiluvchi eski shaharda tashkil topdi. Ushbu teatrning nomi esa “Qizil g'uncha” deb atalgan [12. –B. 122-136.]. Bu truppaga andijonlik san'atkorlardan To'xtasin Jalilov, Abduvahob Azimov, Isoq Qori Karimov, Muhiddin Hoji Najmiddinov, Orifjon Toshmatov, Mirzajon Alimov, To'ychi Aminov kabilar uyushgan edi. Sal keyinroq Fotih Boybekov tashabbusi bilan Andijonning yangi shahar qismida ham o'zbek va tatar yoshlari ishtirokida yana bir to'garak tuzildi. Bunda F. Boybekovning singlisi Komila Boybekova, muallima qizlardan Afifa Shokirova, Abdishukur Zavyalov, Sayfi Bahrom singari havaskorlar ishtirok eta boshladi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda yashagan o'zbek ayollari ham ijtimoiy sohada faol bo'lganlar. Lekin har ikki truppa ham kontsertlar bilan ko'zga ko'rinsa-da, spektakllar qo'ya olmas, shu sababli ijodiy ishni yo'lga qo'yib yuborish uchun ularni birlashtirish talab etilardi. 1918-yilning oxirida Andijon maorif bo'limi va komsomol komiteti shu tadbirni amalga oshirdi. Fotih Boybekov birlashgan truppaga rahbar qilib belgilandi. Uni ba'zilar “Qizil g'uncha” truppasi ta'sirida “Qizil gul” truppasi desalar, ba'zilar “Birlashgan Andijon truppasi” deb atar edilar.

1919-yilning boshida truppa o'zining birinchi kontsertini namoyish qildi. Ana shu truppa hozirgi Ohunboboyev nomidagi Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatrining asosi hisoblanadi. Truppaning istiqboli va ijodiy yo'lini belgilab beruvchi hodisa 1919-yilning oxirida yuz berdi. Andijonga Hamza



Hakimzoda keldi, “Sharq kechasi” teatrlashtirilgan tomoshasini va ba’zi spektakllarni tayyorlab, barcha havaskorlarni “Birlashgan truppa” atrofida uyushtirdi va uni muntazam ravishda ishlovchi davlat teatriga aylantirdi [7. –B. 6.]. Teatrning g’oyaviy-badiiy yo’nalishi Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati bilan aloqadordir. Hamza teatrni tashkiliy jihatdan oyoqqa bostirish barobarida uning ijodiy istiqboli, g’oyaviy-tarbiyaviy vazifalari haqida ham g’amxo’rlik qildi, o’zining “Farg’ona sayyor” truppasida ko’rsatilgan asarlarini andijonliklar sahnasida ham qo’yilishiga yordam ko’rsatdi. 1919-yilning oxiri, 1920-yilning boshida “Boy ila xizmatchi” dramasini Hamzaning o’zi qo’yib berdi. Bu asar Andijon truppasi kollektivi uchun bebaho tajriba maktabi bo’ldi. Hamzaning o’zi G’ofir rolida, Abduvahob Azimov boy rolida chiqdi. Hamza spektaklning yaratilishi davomida aktyorlar bilan asarni sahnalashtirish, rol ustida ishlash bo’yicha ko’pdan-ko’p suhbatlar, amaliy mashqlar o’tkazdi [7. –B. 10.].

Jadid teatri. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida Turkiston zaminidagi ilg’or fikrli ziyolilar ongida milliy uyg’onish yaqqol namoyon bo’ldi. Yangicha ma’rifatchilikning ilk jarchilari bo’lgan jadidlar keng miqyosli amaliy faoliyatlari bilan o’z g’oyalarining jamiyat hayotida mustahkamlanib barqaror bo’lishi, oxir-oqibatda milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga o’sib o’tishi uchun zamin yarata boshladilar. Bu davr Turkistonda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojida yangi bosqich edi [6. –B. 118].

Jadidlar tijorat va boshqa mablag’ manbalarini yaratish orqali jadid maktablari to’xtab qolmasligi, gazetalarning muntazam chiqib turishi, alohida iste’dodli mahalliy bolalarni xorijga tahsil uchun yuborish kabi ezgu ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan birga teatr sohasini rivojlantirish kabi muhim ishlarni bir chetga surmadilar ham. Teatr jadidlar nazarida, avvalo, “ulug’lar maktabi”, “ibratxona” bo’lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma’rifat, ilm olish g’oyasini targ’ib etishi ko’zda tutilgan edi. Ikkinchidan esa, ma’rifiy va ko’ngilochar tomoshalar orqali mablag’ topib, uni ma’orif, matbuot ehtiyojlariga sarflash ham ko’zlangan edi. Turkistonga tatar, ozarbayjon, rus sayyor teatr jamoalarining kirib

kelishi o‘zbek milliy teatr san’atining tezroq rivojlanishi va Yevropaga xos bo‘lgan boshqa turdagi janrlarning kirib kelishiga turtki bo‘ldi [6. –B. 119.].

1913-yilda Munavvarqori rahnamoligida musulmon drama san’ati havaskorlari jamiyati - “Turon“ teatr truppasi tuzildi [13]. 1914-yil 27-fevralda Toshkentda “Kolizey” teatri binosida o‘zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘sha kuni sahnada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi namoyish etildi [14]. “To‘y”, “Zaharli hayot”, “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov” pyesalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko‘pxotinlik, majburiy nikoh oqibatlari kabi muammolar yoritildi. Milliy teatr san’ati odamlarga millatda mavjud bo‘lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushunturuvchi oyna bo‘lib xizmat qildi [9. –B. 228.].

“Turon” truppasi 1915-yildan boshlab tarjima asarlari qatopmi milliy dramaturgiyamizning yangi-yangi namunalarini muntazam sahnalashtirib bordi. 1915-1916-yillar davomida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Hoji Muinning “Mazluma xotin” pyesalari truppa repertuaridan joy oladi. Shu yillari o‘z milliy rejissyorlarimiz ham yetisha boshladi. Nizomiddin Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Badriddin A‘lamov kabilar bu sohaning ilk qaldirg‘ochlari bo‘ldilar. “Turon” truppasi shu yillarda teatr san’atining yana bir janri — musiqali drama teatrining ham poydevorini qura boshladi. Toshkentga bu davrda mashhur Ozarbayjonning tragik aktyori, rejissyor, xonanda Sidqiy Ruhullo boshchiligidagi ozar musiqali teatr truppasi gastrollarga keldi [6. –B. 223.]. Bu truppa ozarbayjon musiqiy dramasi asoschilaridan bo‘lgan Uzeyirbek Xojibekov bilan hamkorlikda “Layli va Majnun”(Fuzuliy dostoni asosida), “Asli va Karam” (ozar xalq milliy dostoni bo‘yicha), “U o‘lmasin, bu o‘lsin” kabi qator musiqiy spektakllar yaratib, shuhrat qozongan edi. Ana shu spektakllar bilan ular Turkistonning yirik shaharlarida tomoshalar, musiqiy kechalar o‘tkazdilar. Ayniqsa, Toshkentdagi gastrol katta ahamiyat kasb etdi. Yerli teatr namoyandalaridan Abdulla Avloniy Sidqiy Ruhillo bilan ijodiy hamkorlikka kirishadi. Bu hamkorlik natijasi o‘laroq, 1916-yilning

30-dekabrida “Kolizey” teatrida ozar va o‘zbek aktyorlari ishtirokida “Layli va Majnun” musiqiy dramasi namoyish etiladi [6. –B. 224.].

Turkiston hududida teatr va dramaturgiya rivoji yanada jadalroq odim otishi ham mumkin edi. Afsuski, bu jarayonga juda qattiq qarshilik qilgan kuchlar paydo bo‘ldi. Sahna san’atimizning, jadid ziyolilari orzularidagi kabi, bir necha ming aholi soniga to‘g‘ri keladigan qator teatr-ibratxonalari vujudga kelishida eng katta to‘siqlardan biri mustamlaka istibdodi bo‘lsa, ikkinchisi diniy jaholat va mutaassiblik edi [6. –B. 225.].

1917-yilgi oktabr to‘ntarishidan so‘ng “Turon” teatri hukumat ixtiyoriga olinib, unga davlat teatri maqomi berilgan. Turli davrda turli nomlar bilan yuritilgan. Mannon Uyg‘ur teatrning yetakchisi, badiiy rahbari bo‘lgan [10. –B. 673.].

O‘lka o‘zbek namuna truppasi. Turkiston respublikasi Maorif Xalq Komissarligi teatr bo‘limining qaroriga binoan 1920-yilning 17-dekabrida Toshkentda “O‘lka o‘zbek namuna truppasi” tuzildi. Bu kun o‘zbek sovet teatri tarixiga hozirgi Hamza nomidagi O‘zbek Davlat akademik drama teatrining tashkil topgan kuni bo‘lib kirdi. Teatrga badiiy rahbar qilib Mannon Uyg‘ur tayinlandi. Oradan ko‘p o‘tmay truppaga eski shahardan maxsus bino ham ajratib berildi. Teatrning yangi nomi ijodiy kollektiv oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Xususan, truppaning “O‘lka o‘zbek namuna truppasi” deb atalishi uning butun Turkiston o‘lkasida eng ilg‘or truppa ekanligini va o‘z san’ati bilan boshqa barcha ijodiy kollektivlarga namuna bo‘lishi lozimligini ko‘rsatar edi. Bu nihoyatda mas’uliyatli va shu bilan birga, sharaflı vazifa edi. Uyg‘ur “O‘lka o‘zbek namuna truppasi” tashkil etilgandan keyin tarqatib yuborilgan boshqa kollektivlarning talantli artistlarini teatrga jalb qilib, uning sastavini asosan yoshlar bilan boyitdi. Shundan keyin teatr ko‘pgina jiddiy asarlarni sahnalashtira oladigan bo‘ldi. Jumladan, 1921–1922-yillar mavsumida Hamzaning “Iffat qurboni”, G‘. Zafariyning “Halima” va o‘zbek teatri tarixida birinchi marta g‘arb klassik dramaturgiyasining nodir asarlaridan F. Shillerning “Qaroqchilar”, “Makr va muhabbat” pyesalari qo‘yila boshlandi. Uyg‘ur yigirmanchi yillarning boshlarida

Turkistonning boshqa shaharlarida teatrlar tashkil qilish ishlarida faol qatnashdi. Chunonchi, u 1921-yilning oxirida Buxoro teatrida ishladi. Uygʻur Buxoroga kelgan paytda uning oldida murakkab vazifalar turardi. U shahardagi barcha yosh havaskorlarni yagona ijodiy kollektivga birlashtirishi, ularni aktyor sanʼatining boshlangʻich qonun-qoidalariga oʻrgatishi, bir soʻz bilan aytganda, butun ishni boshdan boshlashi lozim edi. Uygʻur bu murakkab vazifani muvaffaqiyat bilan ado etdi [11. –B. 37.].

Yangi oʻzbek demokratik teatri. Yangi oʻzbek demokratik teatri va dramaturgiyasi shakllanishidagi dastlabki qadamlar Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiy faoliyatida koʻrindi. U XX asr boshida Qoʻqonda demokratik dramaturgiyaga va teatrga va jadid maktabiga asos soldi [15. –B. 309]. Bu oqimga Abdulla Avloniy ijodi va uning teatr sohasidagi tashkilotchilik faoliyati ham kiradi. Garchi uning Toshkentda tashkil qilgan truppasi oʻzining dastlabki tashkiliy davrida oʻzbek milliy ziyolilari taʼsirida boʻlib, gʻoyaviy qarama-qarshiliklar ichida yashagan boʻlsa ham, 1916-yilning oxiridan boshlab u demokratik teatr sifatida takomil topa boshladi va oʻzbek demokratik teatri shakllanishi pallasida maʼlum darajada hissa qoʻshdi [5. –B. 299.].

Bugungi kunda oʻzbek teatri jadidlar boshlab bergan maʼrifatparvarlik anʼanalarini davom ettirib, zamonaviy texnologiyalar, sahna yechimlari va dramaturgiya shakllari bilan boyimoqda. Teatr sahnalarida milliy tarix, maʼnaviyat, insonparvarlik, yoshlar tarbiyasi kabi dolzarb mavzular yangicha talqinda yoritilmoqda. Bu jarayon teatr sanʼatining faqat madaniy koʻngilochar vosita emas, balki jamiyatning maʼnaviy yangilanishida faol ishtirok etayotgan kuch ekanini koʻrsatadi. Oʻzbek teatrining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon boʻlib, u ogʻzaki ijoddan jadidlar harakatigacha, jadidlikdan sovet teatriga, sovet davridan esa mustaqillik davridagi zamonaviy teatr sanʼatigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtgan. Bugungi teatrlarimiz ana shu boy tarixiy merosga tayanib, tomoshabin qalbida milliy gʻurur, badiiy zavq va maʼnaviy uygʻonish tuygʻularini tarbiyalashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Encyclopaedia Britannica. URL: <https://www.britannica.com/art/Western-theatre/Ancient-Greece>
2. SPUTNIK O'zbekiston. URL: <https://oz.sputniknews.uz/20231015/mahmudxoja-behbudiy-biografiya-39977022.html>
3. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti. URL: <https://www.urdu.uz/uz/news/893>
4. Umarov M. Mannon Uyg'ur va Milliy teatr estetikasi – Toshkent: “Musiq”, 2006.
5. Раҳмонов М. Ўзбек театр тарихи – Тошкент: “Фан”, 1968.
6. Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам № 1, Тошкент: “Университет”, 1999.
7. Турсунбоев С. Андижон театри. Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1970.
8. Қодиров.М. Ўзбек театр анъаналари – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1976.
9. Usmonov Q., Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2016.
10. Турон // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004.
11. Исмоилов Э. Маннон Уйғур. Тошкент: “Бадий адабиёт”, 1965.
12. Dilnoza G'aniyeva. Farg'ona vodiysi shaharlarida madaniy-ma'rifiy muassasalar tarixidan // Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – Toshkent. Vol. 2, No. 5. May 11. 2023.
13. Daryo.uz. URL: <https://daryo.uz/2018/03/04/ozbekistonda-ilk-bor-harbiy-teatr-turon-tashkil-etildi/>
14. Gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2014/01/23/theatre/>
15. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: “Akademnashr”, 2019.

TARIX

SIRDARYO VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONI: TUZILMAVIY O‘ZGARISHLAR VA KADRLAR SIYOSATI (1957-yil)



**Elyorbek
Tajimirzayev ,
Andijon davlat
pedagogika instituti
“Tarix” kafedrası
dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**

UO‘K: UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada 1957-yilda Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish jarayonidagi tuzilmaviy o‘zgarishlar va kadrlar siyosati masalalari arxiv hujjatlari asosida statistik ma’lumotlar orqali yoritilib berilgan.

Аннотация: В статье на основе архивных документов с использованием статистических данных освещены структурные изменения и вопросы кадровой политики в процессе реорганизации системы здравоохранения в Сырдарьинской области в 1957 году.

Annotation: This article examines the structural changes and personnel policy issues in the process of reorganizing the healthcare system in Syrdarya region in 1957, based on archival documents and statistical data.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, shifoxona, kadrlar siyosati, shifokor, feldsherlar, hamshiralar, akusher, tuman.

Ключевые слова: здравоохранение, больница, кадровая политика, врач, фельдшеры, медсестры, акушерка, район.

Key words: healthcare, hospital, personnel policy, doctor, feldshers, nurses, midwife, district.

1950-yillar ikkinchi yarmida O‘zbekiston SSRda qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, aholiga yaqin va uzluksiz tibbiy yordam ko‘rsatish, boshqaruv tizimini soddalashtirish hamda kadrlar salohiyatini maqsadli yo‘naltirish masalalari respublika sog‘liqni saqlash siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 1957-yilda SSSR Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zbekiston SSR hukumatining qator qaror va ko‘rsatmalariga asosan amalga oshirilgan qishloq sog‘liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish islohoti mamlakat miqyosidagi institutsional o‘zgarishlarning muhim bosqichi bo‘ldi.

Ushbu islohotning asosiy maqsadi – tuman sog‘liqni saqlash bo‘g‘inlaridagi ortiqcha ma’muriy tuzilmalarni qisqartirish, tibbiy muassasalar faoliyatini

markazlashtirish va kadrlar resurslarini samarali taqsimlash edi. Bu jarayonda tuman sogʻliqni saqlash boʻlimlari tugatilib, ularning vazifalari toʻliq holda tuman kasalxonalariga oʻtkazildi.

Sirdaryo viloyati misolida ushbu islohotning amaliy natijalari yaqqol koʻzga tashlanadi: tuman kasalxonalari bosh shifokorlar rahbarligidagi boshqaruv markazlariga aylandi, kadrlar tizimi qayta shakllantirildi, oʻrta tibbiy personalning ulushi ortib, tibbiy xizmatning amaliyotga yoʻnaltirilganligi taʼminlandi. Xususan, Xovos tumanidagi oʻzgarishlar orqali 1957-yilgi maʼmuriy islohotlarning amaliy ahamiyati va qishloq tibbiyotidagi yangi institutsional model qanday shakllanganini koʻrish mumkin.

1957-yilda Oʻzbekiston SSR miqyosida amalga oshirilgan qishloq sogʻliqni saqlash tizimini qayta tashkil etish islohotlari doirasida Sirdaryo viloyati ham tuman boʻgʻinini qayta tashkil etish ishlarini amalga oshirdi. Bu jarayon 1957-yil 16-maydagi SSSR Sogʻliqni saqlash vazirining koʻrsatmasi va respublika hukumatining tegishli qarorlariga asosan yoʻlga qoʻyildi. Viloyatdagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi hisobot 1957-yil 6-avgustda berilgan №0269-sonli topshiriq ijrosi sifatida tayyorlangan boʻlib, u islohotning amaliy bosqichini aniq aks ettiradi [1:43].

Birinchi navbatda, viloyatdagi barcha tuman sogʻliqni saqlash boʻlimlari tugatildi, ularning vazifalari toʻliq ravishda tuman kasalxonalariga oʻtkazildi. Bu qaror maʼmuriy boshqaruv zanjirini qisqartirish, faoliyatni markazlashtirish va tibbiy muassasalar oʻrtasidagi muvofiqlashuvni kuchaytirish maqsadida qabul qilingan. Yangi tizimda tuman kasalxonalari bosh shifokorlar tomonidan rahbarlik qilinadigan boshqaruv markaziga aylandi. Ayrim tumanlarda bosh shifokor lavozimi hali joriy etilmagan boʻlsa-da, bu vazifa vaqtincha ilgari sogʻliqni saqlash boʻlimi rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

Sirdaryo viloyati boʻyicha amalga oshirilgan qayta tashkil etish natijasida kadrlar tarkibida maʼlum qisqartirish kuzatilgan boʻlsa-da, tizimning ishlash samaradorligi saqlanib qolgan. Viloyatdagi tumanlar boʻyicha kadrlar tarkibida muayyan mutanosiblik saqlangan. Tumanlar kesimida shifokorlar ulushi oʻrtacha

12–15 foizni tashkil etib, bu sog‘liqni saqlash tizimida vrachlar va o‘rta tibbiy personal o‘rtasidagi ish taqsimoti mutanosibligini anglatadi.

Orjonikidze tumanida eng ko‘p xodimlar (95 nafar) faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning 28,5 nafari shifokor, 48,5 nafari o‘rta tibbiy personal va 18 nafari quyi tibbiy xizmatchilar hisoblanadi. Bu tuman sog‘liqni saqlash tizimining quvvati va xizmat ko‘rsatish hajmi katta bo‘lgan hududlardan biri ekanligini ko‘rsatadi [1:43].

Yuqori Chirchiq tumanida jami 44 nafar tibbiy xodim faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning asosiy qismini o‘rta tibbiy personal (34 nafar) tashkil etgan [1:43]. Bu holat qishloq tibbiyotida o‘rta ma‘lumotli kadrlar asosiy tayanch kuch sifatida ishlaganini ko‘rsatadi.

Guliston, Parkent va Ohangaron tumanlarida kadrlar tarkibi bir-biriga yaqin bo‘lib, o‘rta tibbiy personal soni shifokorlarga nisbatan 2–3 barobar ko‘p [1:43]. Bu tumanlarda qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish asosan feldsherlar va hamshiralar orqali amalga oshirilganini anglatadi.

Mazkur ma‘lumotlar 1957-yilda amalga oshirilgan reorganizatsiya natijasida sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruv va kadr siyosatidagi asosiy tendensiyalarni ochib beradi. Ma‘muriy apparat qisqartirilib, mehnat resurslari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tibbiy xizmatga yo‘naltirildi. O‘rta tibbiy personalning ulushi yuqori, bu esa tuman darajasida tibbiy xizmatning ommaviyligi va amaliy yo‘nalishini ta‘minlagan. Shifokorlar soni cheklangan bo‘lsa-da, ular rahbarlik va tashkiliy-uslubiy faoliyatda yetakchi rolni bajargan.

Tibbiy kadrlar tarkibining nisbiy muvozanati saqlangan holda sog‘liqni saqlash tizimining ish samaradorligi oshgan. Bu jarayon sog‘liqni saqlash tizimini soddalashtirish va uning kadr salohiyatini amaliy yo‘nalishga moslashtirish yo‘lidagi muhim bosqich bo‘lgan. Shu yilda amalga oshirilgan qishloq sog‘liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish natijasida Xovos tumanida ham tibbiy muassasalarning boshqaruv tuzilmasi va kadrlar tarkibida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi tugatilib, uning vazifalari tuman



kasalxonasi bosh shifokori rahbarligi ostida markazlashtirildi. Bu tizim tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, boshqaruv zanjirini qisqartirish va joylarda tashkilotchilik samaradorligini oshirishni maqsad qilgan islohotning tarkibiy qismi edi.

1957-yilda Xovos tumani sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar tarkibi o‘zaro mutanosib ravishda shakllantirilgan. Tumanda jami xodimlar soni - 59,5 nafarni tashkil etib, shifokorlar umumiy xodimlar tarkibining taxminan 21 foizini (12,5 nafar) tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich qishloq tumanlari uchun o‘rtacha darajadagi ta‘minotni anglatadi [1:44]. Bu holat Xovos tumanida shifokor kadrlar yetarli miqdorda joylashganini va tibbiy muassasalarda mutaxassislik xizmatlarini ta‘minlash imkoni bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘rta tibbiy personal soni 23,5 nafar bo‘lib, ular umumiy xodimlarning 40 foizdan ortiq qismini tashkil etgan. Bu toifaga feldsherlar, hamshiralar, akusherlar va laboratoriya xodimlari kiradi [1:44]. O‘rta tibbiy personalning ulushi yuqori bo‘lishi tuman sog‘liqni saqlash tizimining amaliy faoliyatga yo‘naltirilganligini, ya‘ni tibbiy yordam ko‘rsatishda asosiy yuk aynan feldsher va hamshiralar zimmasiga tushganini anglatadi.

Quyi tibbiy personal (sanitarlar, dezinfektorlar, yordamchi xodimlar va h.k.) soni 20,5 nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu umumiy tarkibning qariyb 34–35 foiziga teng [1:44]. Ular tibbiy muassasalarda sanitariya-gigiyena ishlarini ta‘minlash, tozalik, asbob-uskunalarni dezinfeksiya qilish va tibbiy jarayonlarning xavfsizligini kafolatlashda muhim o‘rin tutgan. Tuzilmaviy jihatdan olib qaralganda, Xovos tumanida tibbiy kadrlar tizimida muvozanat saqlangan: shifokorlar rahbarlik va tashxis qo‘yish vazifalarini bajargan bo‘lsa, o‘rta va quyi tibbiy xodimlar amaliyot, sanitariya va profilaktika ishlarining asosiy ijrochilari bo‘lgan.

Ilmiy nuqtai nazardan, bu ma‘lumotlar 1957-yildagi reorganizatsiyaning asosiy natijalaridan biri tuman sog‘liqni saqlash tizimining institutsional jihatdan barqarorligi ta‘minlanganligidadir. Ya‘ni, ma‘muriy qisqartirishlar amalga

oshirilganiga qaramasdan, kadrlar muvozanati saqlangan va tibbiy xizmat tizimi uzluksiz faoliyat ko'rsatgan.

Shu bilan birga, Xovos tumanida shifokorlar sonining nisbatan yuqori bo'lishi ushbu hududda tibbiy xizmatning ixtisoslashgan shakllari (akusherlik-ginekologiya, pediatriya yoki epidemiologiya)ni rivojlantirish imkonini bergan. Bu holat, ayniqsa, 1950-yillar oxirida qishloq aholisi salomatligini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlarining amaldagi ijrosi sifatida ahamiyatlidir.

1957-yilda Sirdaryo viloyati va uning tarkibidagi tumanlarda amalga oshirilgan sog'liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish islohoti respublika tibbiy xizmatini markazlashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Tuman sog'liqni saqlash bo'limlarining tugatilishi va ularning vazifalarini tuman kasalxonalariga o'tkazish natijasida boshqaruv zanjiri qisqartirildi, tibbiy muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatlari kengaydi. Bu bilan ma'muriy apparatdan bo'shagan resurslar to'g'ridan-to'g'ri tibbiy xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirildi.

Kadrlar siyosatida shifokorlar va o'rta tibbiy personal o'rtasidagi mutanosiblik saqlangan bo'lib, bu qishloq tibbiyotining uzluksiz faoliyatini ta'minladi. Xovos tumani misolida ko'rilganidek, o'rta tibbiy xodimlar – feldsherlar, hamshiralar va akusherlar asosiy amaliy yukni zimmalariga olgan bo'lsalar, shifokorlar tashkiliy va tashxis qo'yish faoliyatida yetakchi rol o'ynaganlar.

Xulosa qilib aytganda, 1957-yilda Sirdaryo viloyatida qishloq tibbiy tizimini qayta tashkil etish islohotlari, shubhasiz, sog'liqni saqlash tizimini markazlashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Biroq, ushbu jarayonda amalga oshirilgan o'zgarishlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham kuzatildi, ular soha rivojiga ma'lum darajada to'siq bo'lgan.

Birinchi navbatda, ma'muriy tizimning ortiqcha markazlashuvi joylardagi tashabbuslarni cheklab qo'ydi. Ilgarigi tuman sog'liqni saqlash bo'limlari tugatilib, barcha boshqaruv vakolatlari tuman kasalxonasi bosh shifokori qo'lida jamlanishi natijasida qaror qabul qilish jarayonlari sekinlashdi, byurokratik to'siqlar ko'paydi va past bo'g'indagi tibbiy muassasalar mustaqil harakat qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Bu, ayniqsa, chekka qishloqlar va kichik tibbiy punktlarda o'z samarasini ko'rsatgan, ya'ni aholi bilan tezkor ishlash, joydagi muammolarni hal etish imkoniyati ancha cheklangan.

Shu tariqa, 1957-yilda Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan tibbiy tizimni qayta tashkil etish islohotlari ko'plab ijobiy natijalar bilan bir qatorda salbiy oqibatlarga ham ega bo'ldi. Markazlashuv, kadrlar yetishmovchiligi, moliyaviy cheklovlar va profilaktika ishlarining sustlashishi bu jarayonning asosiy muammolari sifatida namoyon bo'ldi. Biroq, aynan shu kamchiliklar keyinchalik yangi islohotlar, ya'ni qishloq vrachlik punktlari va feldsher-akusherlik punktlari tizimini qayta rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qildi. Bu holat tarixiy jihatdan 1957-yilgi islohotlarni tajriba maydoni sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi (O'z ITTH MA), R.59-fond, 1-ro'yxat, 33-ish.
2. History of the healthcare system in the Uzbek SSR (1924 1974) — Ergasheva M. Soattullayevna, 2024.
3. The healthcare system in the Khorezm region during the Soviet era (1945–1985) — Qur'anboyeva Sevinchoy Maqsud kizi, 2025.
4. Historical evolution of healthcare systems of post Soviet countries — Y. Semenova (2024).
5. Health system in the cities of Uzbekistan: status and issues (1950–1980) — Anora Zayniddinovna Togaeva, 2021.
6. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik — N.Q. Komilova, 2018
7. Healthcare system in Uzbekistan and its legal framework — I. X. Matkarimovna, 2018.
8. A Look at the History of the Development of Medical Care in Uzbekistan Before the October Revolution — M. S. Ergasheva, 2022.

TARIX

TURKISTONDA MILLIY MASALA MUAMMOLARINING TADQIQ ETILISHI



**Kamilov Abdusalim,
Farg‘ona davlat
texnika universiteti
“Ijtimoiy fanlar
va sport” kafedrasi
mudiri, t.f.n.**

UO‘K: UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston ASSR Millatlar ishlari xalq komissarligining tashkil etilishi va dastlabki faoliyati yoritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются создание и первые этапы деятельности Народного комиссариата по делам национальностей Туркестанской АССР.

Annotation: This article examines the establishment and initial activities of the People’s Commissariat for Nationalities of the Turkestan ASSR.

Kalit so‘zlar: Turkiston MSSR, Oktabr inqilobi, Turkiston MSSR Millatlar ishlari, Oliy Majlisga Murojaatnoma, Namoz Pirimkulov, Dukchi Eshon.

Ключевые слова: Туркестанская МССР, Октябрьская революция, Туркестанская МССР по делам национальностей, Обращение к Верховному Собранию, Намоз Пиримкулов, Дукчи Эшон.

Key words: Turkestan MSSR, October Revolution, Turkestan MSSR for Nationalities, Address to the Supreme Assembly, Namoz Pirimkulov, Dukchi Eshon.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi yurtimizda yashayotgan ko‘pmillatli xalqimizning asriy orzusi edi. Mustaqillik xalqimizga o‘tmishga xolis, ilmiy nazar bilan qarash imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”[1] vazifasi belgilab berildi. Demak, Vatanimizning barcha davrlarini tadqiq etish uchun obyektiv nuqtai nazardan yondoshish kerak.

Podsho Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi mahalliy aholini ijtimoiy-iqtisodiy sohada mustamlaka qilinishiga olib keldi. Lekin, mahalliy aholi mustamlakachilar siyosatiga qarshi noroziliklarini namoyon etganlar. Masalan, Abdurahmon Oftobachcha boshchiligida Qo‘qonda, Dukchi Eshon boshchiligida Andijonda, Namoz Pirimkulov boshchiligida Zarafshon vohasida, va ayniqsa, 1916-1918-yillardagi O‘rta Osiyoda yuz bergan milliy-ozodlik harakatlari bunga misoldir.

XX asrning birinchi o'n yilligida mahalliy aholi o'rtasida milliy o'zlikni anglash uchun sharoitlar mavjud edi. Buni tashkil etilayotgan siyosiy guruhlar va partiyalar misolida ko'rish mumkin. 1917-yil Fevral inqilobi natijasida tashkil topgan Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti ko'pdan-ko'p va'dalar bergan edi. Lekin bularning barchasi qog'ozda qoldi. Rahbar organlarda asosan yevropa millatiga mansub shaxslar faoliyat olib bordiki, mahalliy aholi bu sohaga yaqinlashtirilmadi. Turkiston xalqlarining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan. Bu soha dehqonlari imperiyada markazga "sodiq odamlar" hisoblanadi.

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining asosiy xom-ashyo bazasi bo'lib xizmat qilar edi. Xom-ashyoni tashib ketish uchun temir yo'llar qurilishiga e'tibor kuchaytirildi. Mahalliy xalq ommasi sanoat ishlab chiqarishi va temir yo'lda ishlashga juda kam jalb etildi.

Podsholik Rossiyasi "xalqlar turmasi" edi. Chunki chorizmning siyosati asrlar davomida millatlarni bir-biriga to'qnashtirish, ularni ezish, chekka o'lkalardagi mahalliy aholining tili, urf-odatlarini kamsitish va hayot tarzini ruslashtirishga qaratib kelindi. Mavjud boshqaruvning mustabid harbiy-mustamlakachilik tuzumi mahalliy aholini davlat haqidagi tushunchalarini ezg'ilashga, madaniyatini toptashga, ona tilini surib chiqishga, ularda itoatkorlik ruhini saqlab qolishga qaratilgan edi.

Rossiyaning Turkiston o'lkasi ko'p millatlilik bilan boshqa hududlardan ajralib turar edi. Turkiston o'lkasida 35,77% aholini o'zbeklar, 44,36%ni qozoqlar va qirg'izlar, 6,73%ni tojiklar, 4,98%ni turkmanlar, 3,75%ni ruslar, 2,36%ni qoraqalpoqlar, 2,15%ni boshqa millat vakilari tashkil qilar edi [2].

Turkiston general-gubernatorligi tugatilgan vaqtda o'lkada 5250 ming kishi yashardi. Shulardan, 41% - o'zbeklar, 19% - qozoqlar, 8% - tojiklar, 5% - turkmanlar, 1,5% - qoraqalpoqlar, 25,5% - ruslar va boshqa millat vakillari edi[3]. Jami aholining 80% ga yaqini qishloq xo'jaligi ishlari bilan band edi [4].

Oktabr inqilobi g'alabasiga O'rta Osiyo xalqlari katta umid bog'lagan edilar. Oktabr inqilobi mamlakatimizda milliy masalani hal etib berishi, sotsialistik jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida barcha millat va elatlarning haqiqiy tengligini ta'minlab berishi kerak edi. Chunki asrlar davomida ezilgan xalq mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lishni orzu qilardi. Afsuski, hayotda bunday bo'lmadi. O'lka xalqlari uchun bir tuzum o'rniga erkinlik, ozodlik, tenglik shiorlarini dastak qilib olgan boshqa bolshevikcha tuzum keldi, xolos.

Turkiston respublikasida esa O'lka Sho'rolarining V qurultoy qaroriga ko'ra 1918-yil 30-aprelda Millatlar ishlari xalq komissarligi tuzildi. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor edi. Bu, birinchidan, ilgari ezilgan, qoloq bo'lgan xalq ommasining siyosiy dunyoqarashini shakllantirish, ikkinchidan, o'lkada yashovchi turli millat va elatlarning teng huquqligini amalga oshirish,

uchinchidan, o'lkada milliy kadrlarni tayyorlash edi. Chunki imperiya davrida O'rta Osiyoda mahalliy aholidan sanoat ishchilari deyarli shakllantirilmadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, chorizm mahalliy millat ishchilarini yetishtirishdan manfaatdor emas edi.

Demak, ko'p millatli Turkiston respublikasida bu masalani to'g'ri hal etish uchun hali aniq yo'l-yo'riq yo'q edi. Ammo, bunday komissarlikning faoliyat ko'rsatishi zarur edi. Chunki, Turkiston o'lkasida yashovchi millatlarni to'g'ri taraqqiyot yo'liga olib chiqish lozim edi. Buning uchun esa kadrlarni chetdan emas, balki shu yerning o'zida tayyorlash zarur edi.

Shunday qilib, Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligi hali hech qanday dasturulamalsiz tashkil topdi. Oradan yaqin uch oy vaqt o'tib, 1918-yil 23-iyulda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti milliy ishchilar seksiyasiga Komissarlik bilan birga uning qoidalarini qayta ko'rib chiqishni ko'rsatib o'tdi [5].

1918-yil 10-avgustda Turkiston MSSR MIK Millatlar ishlari komissarligining qisqacha Nizomini tasdiqladi.

Qarorda quyidagilarga ham alohida e'tibor berildi: Komissarlik qoshida o'lkadagi har bir millat uchun markaziy bo'limlar tuziladi. Uni ana shu millatga mansub kishilar boshqaradi. O'z-o'zidan bu bo'limlarning mudirlari komissarlik qoshidagi kollegiya a'zolari hisoblanadilar. Bo'limlarning mudirlari shu millat mehnatkashlari o'lka syezdi tomonidan saylanadi. Joylardagi millatlar ishlari bo'limlarida milliy seksiyalar tuziladi. Bu yerda shu narsa xarakterliki, qaysi viloyat bo'lishiga qaramay, u yerda qancha millat yashasa shuncha milliy seksiyalar tuziladigan bo'ldi.

Bular komissarlikning vazifalarini belgilashga qaratilgan birinchi harakat edi. Unda albatta, dastlabki oylardagi faoliyat tajribasi hisobga olindi.

Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligini xalq komissari boshqaradi. U respublika askar, ishchi, dehqon va musulmon deputatlari Sho'rosi syezdi tomonidan tayinlanadi. Komissarlikning dastlabki rahbari S.Ashurxo'jayev bo'lgan.

Komissarlik Turkiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi millatlardan proletariat va Sho'ro hokimiyati dasturini yoqlovchi kambag'al dehqonlar saylangan a'zolaridan iborat kollegiya orqali ish olib boradi.

Komissarlik qoshida quyidagi bo'limlarni tashkil etish mo'ljallagan:

1. Statistik bo'lim.
2. Tashkiliy-targ'ibot bo'limi.
3. Madaniy-oqartuv bo'limi.

Davr taqozo etganda yangi bo‘limlar komissarlik qarori va Markaziy Komitet tasdig‘i bilan tashkil etiladi.

Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligi faoliyatini faollashtirish uchun viloyatlarda ham shunday tarmoqlar tashkil etish zarur edi. Shu maqsadda Turkiston Respublikasi Millatlar ishlari Komissarining 1918-yil 18-iyundagi № 13-300 buyrug‘i bilan viloyatlar va uyezdlar deputatlar Kengashlari qoshida darhol Millatlar ishlari Komissarliklari tuzish taklif etilgan [6].

Bu ishni bajarish maqsadida Millatlar ishlari xalq komissari Ashurxo‘jayev 1918-yil 24-iyulda imzolagan Turkiston MIK tasdiqlagunga qadar “Turkiston Muxtor Respublikasi viloyat va uyezdlar millatlar ishlari komissarlari to‘g‘risida Vaqtincha qoidalar” joylarda ishni yuritishda asosiy zamin bo‘ldi.

Turkiston MSSRda ham targ‘ibot ishlarida asosiy kurash mahalliy tillarda chiqadigan davriy matbuot organlari sahifalarida olib borildi. Turkiston Kommunistik partiyasining I syezdi “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) ro‘znomasini mahalliy tilda chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shuning uchun, 1918-yil 20-iyunda Toshkentda Turkiston Kommunistik partiyasi va Millatlar ishlari xalq komissarligining organi – “Ishtirokiyun” (Kommunist) ro‘znomasining birinchi soni chiqdi. U asosan o‘zbek tilida (bir qismi qozoq tilida) avval haftada uch marta, 1919-yil 1-martdan har 3 kuni 3 (uch) ming nusxada chiqa boshladi [7]. Bundan tashqari respublikada 1918-1922-yillarda Turkiston MSSR Millatlar ishlari komissarligi mahalliy bo‘limlari Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Farg‘ona va boshqa shaharlarda quyidagi gazetalarni nashr etdi: “Mehnatkashlar tovushi”, “Xalq gazetasi”, “Farg‘ona axboroti”, “Ishchilar qalqoni”, “Erkinlik”, “Byulleten”, “Sadoi Farg‘ona”, “El bayrog‘i”, “Mehnat bayrog‘i” va boshqalar [8]. Bu gazetalarda yoritilgan maqolalar xalq ommasining dunyoqarashi, siyosiy tafakkuri oshishiga yordam berdi.

Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligi o‘z faoliyatining birinchi davrida har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o‘lkaning tub aholisi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga katta e‘tibor berdi. Buning uchun respublikaning uzoq qishloqlari va frontda ishlash uchun targ‘ibotchilar tayyorlana boshlandi. Bu haqda komissarlikning Turkiston MSSR XKSga yuborgan ma‘lumotnomasida: “Hozirgi davrda umumiy qoidalar shunday, musulmon ommasi o‘rtasida targ‘ibot ishlari kechiktirib bo‘lmaydigan zarurat hisoblanadi”[9], deyiladi. Shu maqsadda komissarlik 1918-yil may oyi o‘rtalaridan to 20-sentabrgacha uyezdlarga 16 yo‘riqchini jo‘natdi, sentabr-noyabr oylarida esa Toshkent uyezdining qishloq va ovullariga 36 tashviqotchi jo‘nab ketdi.

Komissarlik faoliyatida yana bir muhim ish shu bo‘ldiki, u partiya va sho‘ro idoralari hujjatlarining mahalliy aholi uchun tushunarli tilda yozilishiga intildi.

Jumladan, Turkiston Sho‘rolari MIKga kelayotgan buyruqlar turk tiliga tarjima qilinishi va “Ishtirokiyun” ro‘znomasida bosilishi aytilgan [10].

Turkiston muxtor respublikasi uchun asosiy qonun – Konstitutsiya qabul qilinishi kerak edi. Turkiston Sho‘rolarining 1918-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan VI favqulodda syezdi bu masalani ko‘rib chiqdi va hal qildi.

Syezdda qabul qilingan Turkiston respublikasining Konstitutsiyasi Rossiya federatsiyasi Konstitutsiyasi qoidalariga mos edi.

Turkiston MSSRning yangi Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 20 bob, 111 moddadan iborat bo‘ldi. Konstitutsiya qabul qilingani to‘g‘ri, lekin undagi moddalarning bunday bo‘rttirib ko‘rsatilishi hayotiy mantiqqa to‘g‘ri kelmas edi.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilar ekanmiz, bu davrda Turkiston o‘lkasidagi millatlar masalasiga tarixiy haqiqat bilan yondosha olamiz. Ko‘p millatli Turkiston o‘lkasida mustaqil davlat qurish sari qo‘yilgan qadam – “Qo‘qon muxtoriyati”ni qulatilishda arman millatiga mansub dashnoqlardan foydalanildi. Muxtoriyatlar esa muxtor hukumatning milliy ozodligini himoya qilish uchun musulmonlarni milliy armiya safiga kirishga da‘vat etdi. Darhaqiqat, yonatrofdagi qishloq ahlari bunga kira boshladi. Natijada Sho‘ro qo‘shinlari bilan orada qon to‘kildi. Qo‘qon voqealarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan xalq ommasi “bolsheviklar” muxtoriyatchilar aytgani singari bosqinchi, xudosiz, musulmonlarning dushmani ekanligiga hech shubha qilmaydigan bo‘lib qoldi. Chunki, Qizil Armiya qo‘shinlari Farg‘ona vodiysi qishloqlarini yondirib, odamlarini ayovsiz qirdilar.

Lekin, komissarlik faoliyatining birinchi davri ancha qiyin kechgan. Chunki, birinchidan, tashkiliy ishlar, ayniqsa, Sho‘ro hokimiyatining dastlabki davri bo‘lganligi uchun og‘ir edi, ikkinchidan, markazdagi organlarning aynan shu komissarlikka amaliy yordami yetarli darajada bo‘lmadi. Shunday bo‘lsa ham ko‘p millatli Turkistonda mehnatkash xalq ommasi o‘z milliy ozodligi, huquqi uchun kurashdi. Lekin chet el xuruqi va fuqarolar urushi bu masala yechimini yanada qiyinlashtirib yubordi.

Bu davrda Markaz bilan Turkiston o‘rtasidagi aloqa uzilib qoldi, ikkinchidan, aloqa yo‘qligi tufayli Turkkomissiya faoliyatida chalkashlikka yo‘l qo‘yildi. Mana shunday vaziyatdan foydalangan buyuk davlatchi shovinistlar Turkistonda milliy siyosatni bo‘g‘ishga harakat qildilar.

Yuqorida tilga olingan buyuk davlat shovinistlari Turkistonda milliy masalada o‘z siyosatlarini o‘tkazish uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar. Ular o‘lkadagi millatlar o‘z taqdirini belgilash uchun o‘zlari kurash olib borishidan manfaatdor emas edilar. Shuning uchun Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq

komissarligini tugatish masalasini Turkiston Respublikasi Sho'rolari VIII syezdiga ko'tarib chiqdilar.

Lekin, deyarli bir yarim yil faoliyat ko'rsatgan Turkiston MSSR millatlar ishlari xalq komissarligi hech bir asossiz tarqatib yuborildi. Bu esa nafaqat Turkiston MSSRda, balki O'rta Osiyoda milliy masalani hal etishni ataylab orqaga surishga qaratilgan harakat edi. Komissarlik oldida hali bajarish lozim bo'lgan keng ko'lamdagi vazifalar turardi. Lekin bu komissarlikning rahbarlik faoliyatida ayrim shaxslarning o'z ishini tushunib yetmaganligi ham mana shunday ahvolga kelishiga sabab bo'ldi.

Oradan hech qanday vaqt o'tmay, 1920-yil 21-sentabr kuni Turkiston Respublikasi sho'rolar Markaziy ijroiya komiteti №105-sonli qaror qabul qildi. Unda Turkiston Respublikasi Sho'rolari MIK Sho'rolar X syezdi hohish- istagini bajarishda Turkiston MIK milliy bo'limlari faoliyatini kuchaytirish va yangilash uchun va Turkiston Respublikasi millatlari va elatlarining qardoshlarcha hamkorligini amaliy ta'minlash uchun: Umumiy asoslarda faoliyat ko'rsatuvchi Millatlar ishlari xalq komissarligi tuzilsin, deb qaror qabul qildi [11].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Turkiston o'lkasi o'z milliy tarkibiga ko'ra bir millatli emas edi. Uning aholisini o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va boshqalar tashkil qilar edi. Ular ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida edilar, lekin tarixiy taqdir tufayli birlari bilan chambarchas bog'langan edilar.

Turkiston MSSRning boshqa viloyatlarida ham aholi tarkibi shunday edi. Shuning uchun Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligiga oz sonli millatlar bo'limida 1922-yilda quyidagi seksiyalar faoliyat ko'rsatgan: eron-ozarbayjon, latish, arman, polyak-litov, ukrain, tuzem-yahudiy, tojik, nemis, yahudiy, koreys, tatar, dungan-taranchi². Bu bilan komissarlik o'zining faoliyatida taqdir taqozosi bilan o'lkada yashayotgan turli millat vakillarining hayot sharoitlarini ham nazardan chetda qoldirmadi. Shundaylardan biri - arman millatiga mansub kishilar edilar. Ular o'lkaning Samarqand viloyatida ko'pchilikni tashkil qilar edilar. Shuning uchun ular o'zlarining ona tilida gazeta chiqarishga harakat qildilar. Shu maqsadda Arman seksiyasi Samarqand viloyati ijroiya komitetiga o'lka Millatlar ishlari komissarligidan Toshkent shahriga arman nashr bosma harfini so'rab berish uchun murojaat qildi.

Turkiston MSSR Millatlar ishlari xalq komissarligining faoliyati taraqqiyotning turli jabhalarini hal etishni o'z ichiga olardi. Shulardan biri yosh avlodni yetuk, barkamol bo'lib yetishishiga bo'lgan e'tibori edi. Jumladan, komissarlikning 1922-yil 14-maydagi kollegiya majlisida "Ko'mak" to'garagining ustavi muhokama qilindi [12]. Bu to'garakning asosiy vazifasi shundaki, hohlovchi o'zbek o'quvchilarini o'qishni davom ettirishlari uchun

RSFSRdan tashqariga jo'natish bilan shug'ullanadi. Bu mahalliy millat vakillariga nisbatan juda katta yordam edi. Turkiston o'lkasi uchun chet el tajribasini o'rgangan mana shunday yosh mahalliy millat vakillari kerak edi.

Komissarlik garchi qiyin bo'lsa ham, o'lkadagi mahalliy millat vakillaridan rahbar kadrlar yetishmasa ham, millatlar taqdiri uchun astoydil kurashchi bo'la olar edi. Turkiston o'lkasining faqat ichki hayot uchun emas, balki tashqi hayotda ham boshqa milliy respublikalar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari o'sdi va mustahkamlandi.

Shu sabablar asosida Turkiston MSSR Millatlar ishlari Xalq komissarligining faoliyat ko'rsatishiga hojat qolmadi. Shu sababli komissarlik o'zining 1922-yil 14-iyul qarorida: Turkiston MIK Prezidiumining 4-iyuldagi 102-qarori bilan o'lka Xalq komissarligi sifatida tarqatilgan deb hisoblansin, degan qaror qabul qildi [13].

Komissarlik faoliyati to'xtatilishining obyektiv sabablari ham bor edi. Turkiston o'lkasidagi milliy masala shunchalik chalkash ediki, joylardagi mahalliy xalq ommasi uni to'liq tushunib yetmadi. Buning uchun komissarlik o'sha hududdagi organlarda ish yuritishni ko'pchilik aholi mahalliy tilga o'tkazishga harakat qildi. Lekin u yerlarda zarur vositalar mutlaqo yo'qligi uchun bu masalani hal etish nihoyatda mushkul edi.

Demak, Turkistonga markazdan sun'iy ravishda olib kelingan Oktabr voqealari tufayli o'lka xalqlari mustaqillik uchun kurash boshladilar. Lekin, O'rta Osiyo xalqlari asosiy qismining e'tiqodi islom dini edi. Shariatda musulmonlar tubandagi uch narsadan saqlanishga buyurilgan edi. Bular: o'jizlik, qo'rqqoqlik, dangasalik edi. Ammo partiyaviy buyruqbozlik tamoyiliga asoslangan rahbariyat halq ommasining bunday qarashlari ro'yobga chiqishiga doimo qarshi kurashib keldi. Hattoki, Oktabr voqealaridan keyinoq tashkil topgan Qo'qon islomlashtirilgan muxtoriyatini uch kun ichida Qizil qo'shinlar bilan vahshiylarcha taladilar. Bu voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan xalq ommasining Sho'ro hukumatiga ishonchi so'na boshlashi, uni o'z taqdiri uchun qo'lga qurol olib kurashga chorladi. Shu kungacha tarixda "bosmachilik" harakati deb kelingan milliy ozodlik harakati boshlandi.

Shunday qilib biz, endi o'sha davrdagi voqealar jarayonini o'zgartira olmaymiz, xalqlar taqdiri uchun, mustaqillik uchun kurashib qurbon bo'lganlarni qaytara olmaymiz. Lekin, biz shu kungacha tarixda "oq dog'lar" deb kelingan voqea-hodisalar, shaxslar faoliyatini davr ruhida o'rgana olamiz. Ularning ma'naviy-va ruhiy merosini o'rganish orqali mustaqillik sari qadam qo'ygan O'rta Osiyo davlatlari tarixiga adolatli sahifalar kirita olamiz.



Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi. 29-dekabr, 2018-y. №271-272 (7229-7230) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. История Узбекской ССР, т. I, кн. 2, Ташкент, Изд. АН УзССР, 1956, С. 101; Ишанов А.И. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг). Ташкент, Изд. АН УзССР, 1955, С.125.
3. Гафурова К.А. Борьба за интернациональное сплочение трудящихся Средней Азии и Казахстана в первые годы Советской власти (1917-1924 гг) М., Наука, 1972, С.83.
4. Среднеазиатский экономический район. Ташкент, 1922, С.32.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-f. I-ro‘yx. 1060-hujj. 6-6 orq. b.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, 36-f. I-ro‘yx. 15-hujj. 37-b.
7. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сборник документов. Т.2. Тошкент. Изд. ВН УзССР. 1963. С. 291-292, 333-345.
8. Макарова Г.П. Народный комиссариат по делам национальностей РСФСР. 1917-1923 гг. (Исторический очерк) М. Наука. 1987. С. 82.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, 25-f. I-ro‘yx 121-hujj. 5-b.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, 17-f. I-ro‘yx. 1060-hujj. 57-b.
11. O‘zbekiston Milliy arxivi, 36-f. 1-ro‘yx. 63-hujj. 5-b.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi, 36-f. 1-ro‘yx., 108-hujj. 59-orq.b.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, 36-f. 1-ro‘yx. 108-hujj. 59-orq.b.

TARIX

XORAZM OKRUGIDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI



Marimov Muzaffar,
Urganch davlat
pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi.

UO‘K: UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning birinchi choragida sobiq Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosatining Xorazm okrugida kechgan jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1925–1932-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR, xususan, Xorazm vohasida yakka xo‘jaliklarning tugatilishi, kolxoz va sovxozlarning tashkil etilishi, “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish” siyosatining amaliy oqibatlari yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируются процессы коллективизации, проводившиеся в бывшем Советском Союзе в первой четверти XX века в Хорезмской области. В статье рассматриваются ликвидация единоличных крестьянских хозяйств, создание колхозов и совхозов, а также практические последствия политики «национализации земли и воды» в Узбекской ССР, в частности, в Хорезмском оазисе, в 1925–1932 годах.

Annotation: This article analyzes the processes of collectivization policy implemented in the Khorezm region in the first quarter of the 20th century in the former Soviet Union. The study covers the liquidation of individual farms, the establishment of collective and state farms, and the practical consequences of the policy of "nationalization of land and water" in the Uzbek SSR, in particular, in the Khorezm oasis in 1925-1932.

Kalit so‘zlar: Kollektivlashtirish, jamoa xo‘jaligi, kolxoz, dehqon xo‘jaligi, dekret, agrar siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, an‘anaviy xo‘jalik, uyezd.

Ключевые слова: Коллективизация, коллективное хозяйство, колхоз, крестьянское хозяйство, декрет, аграрная политика, социально-экономические последствия, традиционное хозяйство, уезд.

Key words: Collectivization, collective farm, kolkhoz, peasant economy, decree, agrarian policy, socio-economic consequences, traditional economy, uyezd (administrative district).

XX asrning birinchi choragi sobiq Sovet Ittifoqi tarixida keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davri bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri kollektivlashtirish siyosati edi. Bu siyosatning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini

to'liq davlat nazorati ostiga olish, yakka dehqon xo'jaliklarini tugatish hamda ularni jamoa xo'jaliklari – kolxoz va sovxozlarga birlashtirishdan iborat edi. Sovet hokimiyatining nazarida, bunday choralar mamlakatni tez sur'atlarda industriallashtirish va qishloq xo'jaligidan sanoat uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarni ajratib olish imkonini berishi kerak edi.

1928-yilda SSSRda kollektivlashtirish boshlandi. 4-5 yil davom etgan bu jarayonda avval boylarning, so'ng o'rtahollarning yerlari va mol-mulkleri tortib olindi. Ularning o'zi quloq deb atalib, surgun qilindi, o'ldirildi, qamoqxonalarga jo'natildi.

O'zbekiston SSR, xususan, Xorazm okrugi ham ushbu siyosatning faol tatbiq etilgan hududlaridan biri bo'ldi. 1925-yilda Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasining tugatilishi va O'zbekiston SSR tarkibida Xorazm okrugining tashkil etilishi bilan hududda tub ma'muriy-hududiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrda qishloq aholisi mutlaq ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ularning xo'jalik faoliyati asosan yakka tartibdagi dehqonchilikka asoslangan edi. Sovet hokimiyatining kollektivlashtirish siyosati esa bu an'anaviy xo'jalik

tizimiga jiddiy zarba berdi.

Xorazm okrugida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosatini o'rganishda bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur adabiyotlar ushbu jarayonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini yoritishda manba sifatida xizmat qiladi.

Jumladan, Umid Bekmuhammadning “Qatag'on qurbonlari” asarida Sovet davrida amalga oshirilgan majburiy siyosat, xususan, kollektivlashtirish va uning



natijasida yuzaga kelgan qatag'on hodisalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. P.Yusupovning "Yosh xivaliklar tarixi" asarida esa Xorazm mintaqasining XX asr boshlaridagi siyosiy va ijtimoiy hayoti tahlil qilinadi. Muallif kollektivlashtirish siyosatini Xorazmning mustaqil xo'jalik an'alariga zid bo'lgan jarayon sifatida baholab, mahalliy aholining noroziligi, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi va aholi tarkibidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qiladi.

I.Mo'minovning "История Хорезма с древнейших времен до наших дней" nomli monografiyasi Xorazm tarixining turli bosqichlarini, jumladan, sovet davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni keng yoritadi. K.Bereginning "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari" asari esa bevosita kollektivlashtirish siyosatining amaliy jihatlarini yorituvchi muhim hujjatli manba hisoblanadi.

Shuningdek, sovet davrida chop etilgan rasmiy dekretlar, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qarorlari, 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari ham tadqiqot uchun asosiy hujjatli manba vazifasini o'taydi. Ushbu rasmiy hujjatlar orqali kollektivlashtirish siyosatining qonuniy asoslari, "Yer va suvni natsionalizatsiya qilish" dekretining mazmuni va amalda qanday qo'llangani haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar va manbalar Xorazm okrugida 1925–1932-yillarda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosatining murakkab jarayonlarini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ular nafaqat siyosatning iqtisodiy natijalarini, balki uning ijtimoiy va ma'naviy oqibatlarini ham yoritadi. Bu esa mazkur tarixiy davrni har tomonlama tahlil qilish, Sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan agrar siyosatning asl mohiyatini anglash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqolani tayyorlashda tarixiy-qiyosiy tahlil, arxiv hujjatlarini o'rganish, statistik ma'lumotlar tahlili va ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish usullaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya

Qo‘mitasi qarorlari, 1926-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari, shuningdek, Sovet davrida qabul qilingan dekret va farmonlar asos qilib olindi.

1926-yil 17-dekabrda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olishda Xorazm okrugida jami 314 396 kishi istiqomat qilgani qayd etilgan. Shundan 89 301 nafari shahar, 284 895 nafari qishloq aholisi bo‘lib, aholining 11% I shaharlarda, 89% i esa qishloqlarda yashagan¹.

1924-yilda Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi tugatilgach, 1925-yil 13-fevralda O‘zbekiston SSR tashkil etildi va Xorazm okrugi uning tarkibiga kiritildi. Okrug dastlab uchta uyezddan iborat edi. Jumladan:

Gurlan uyezdi: Gurlan, Qipchoq, Qilichboy, Qiyot, Monoq, Mang‘it, Shovot, Xitoy rayonlari;

Yangi Urganch uyezdi: Yangi Urganch, Bog‘ot, Qiyot-Qo‘ng‘irot, Pitnak, Hazorasp, Xonqa rayonlari;

Xiva uyezdi: Oqdarband, Ostona, G‘ozovot, Go‘ja, Qo‘shko‘pir, Xiva, Yangiariq rayonlari².

1926-yildan boshlab uyezdlar tugatilib, okrug to‘g‘ridan-to‘g‘ri rayonlarga bo‘ysundirildi. Natijada Xorazm okrugida 10 rayon (Gurlan, Mang‘it, Shovot, Yangi Urganch, G‘ozovot, Xiva, Yangiariq, Xonqa, Bog‘ot, Hazorasp) va ularning tarkibida 187 ta qishloq tashkil etildi. Mazkur qishloqlarda ham 1929-yildan boshlab butun Sovet davlatida kuzatilgan jarayon singari, o‘ziga to‘q va o‘rtahol yer egalari mulki va yerlari tortib olinib, ularning asosida kolxozlar tashkil etila boshlandi.

1925-yil 2-dekabrda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining favqulodda sessiyasida “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida”gi dekret qabul qilindi³. Unga ko‘ra, o‘ziga to‘q va badavlat xonadonlarning yer-mulklari davlat tasarrufiga o‘tkazildi. 1926-yilda Jinoyat kodeksiga kiritilgan qo‘shimcha asosida esa yer maydonini yashirish yoki qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari

¹ Yusupov.P.X . Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch. “Xorazm”, 1999. – B.470

² U.Bekmuhammad. Qatag‘on qurbonlari.-Urganch:. ”Xorazm”, 2020, 7-8-bet.

³ Pravda Vostoka gazetasi. 1925, 10-dekabr.

haqida noto‘g‘ri ma’lumot bergan shaxslarga 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish va mol-mulkini musodara qilish jazosi belgilandi.

1928-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish to‘g‘risida”gi dekret asosida boy va o‘rtahol xo‘jaliklarning yer-mulklarini musodara qilish ishlari boshlandi. Natijada, 1928-yil davomida okrug bo‘yicha jami 532 ta xo‘jalik tugatildi. Ularning tarkibi quyidagicha edi:

sobiq xon amaldorlari – 200 ta;

ruhoniylar – 52 ta;

savdogarlar – 141 ta;

sudxo‘rlar – 13 ta¹.

1928-yildan boshlab o‘tkazilgan kollektivlashtirish 1931-yilga kelib o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsata boshladi. Qishloqlarda yashayotgan millionlab insonlar surgun qilingach, qolgan odamlarda ham sovet hukumatiga nisbatan kuchli nafrat uyg‘ondi. Majburiy kollektivlashtirish siyosati qishloq xo‘jaligida keng qarshiliklarga sabab bo‘ldi. O‘ziga to‘q va o‘rtahol dehqonlar o‘z yerlarini kolxozlarga topshirishni rad etib, turli norozilik, isyon va g‘alayonlarni uyushtirdilar. Shuningdek, yaqinda yer olib, dehqonchilik faoliyatini boshlagan batrak, chorikor va yarimchilar ham mulklarini topshirishga rozi bo‘lmay, yakka xo‘jalik shaklida ishlashni afzal ko‘rdilar.

Biroq, sovet ma’muriyati bu jarayonni kuch bilan amalga oshirdi. Xususan, 1929-yil 21-dekabrda Xorazm okrug partiya komiteti “Kolxoz qurilishi haqida” qaror qabul qilib, 1930-yil bahorgi ekin mavsumiga qadar har bir qishloqda kamida bittadan kolxoz tashkil etilishini majburiy tarzda belgiladi.

Shu qaror asosida 1929-yil dekabrda vohada atigi 20 ta kolxoz mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1930-yilda ularning soni 132 taga yetdi. O‘zbekiston SSR rahbariyati bunday tezkor o‘rishni “shoshma-shosharlik” deb baholadi. Ammo, siyosat davom ettirildi va 1932-yilga kelib Xorazm okrugida kolxozlar soni 703

¹ O‘zRMA, R-90-jamg‘arma, 4-ro‘yhat. 71-ish, 16-varaq.

taga yetdi. Faqat Gurlan rayonining o'zida 60 ta kolxoz, Hazoraspning Muxomon qishlog'ida esa 14 ta kolxoz tashkil etildi¹.

Natijada, qisqa muddat ichida Xorazm vohasida qishloq xo'jaligini jadal kollektivlashtirish jarayoni yuz berdi. Bu jarayon dastlab iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarishni markazlashtirish maqsadida olib borilgan bo'lsa-da, aslida u ko'plab ijtimoiy muammolarni, jumladan, dehqonlarning noroziligi, majburiy birlashmalar hamda an'anaviy xo'jalik tizimining izdan chiqishini keltirib chiqardi. Shu tariqa, kolxozlar sonining keskin o'sishi Xorazm okrugida agrar sohada chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning boshlanishiga zamin yaratdi.



Xorazm okrugida kollektivlashtirish siyosati qisqa vaqt ichida amalga oshirildi va bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, agrar tuzum o'zgartirilib, yakka xo'jaliklar tugatildi, ikkinchi tomondan, dehqonlarning iqtisodiy manfaatlari buzildi. O'zbekiston SSR rahbariyatining "shoshma-shosharlik" haqidagi tanqidiga qaramay, siyosat qat'iy davom ettirildi.

Natijada, kollektivlashtirish jarayoni Xorazm okrugining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish yasadi. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakli joriy

¹ У.Бекмуҳаммад. Қатағон қурбонлари.-Урганч:. "Хоразм", 2020, 10-бет.

etilib, davlat nazorati kuchaydi, ishlab chiqarish vositalari ustidan yakka egalik bekor qilindi. Shu bilan birga, dehqonlarning mehnatga bo‘lgan rag‘bati pasaydi, ishlab chiqarishning samaradorligi esa dastlabki yillarda keskin kamaydi. Kollektivlashtirishning ma‘muriy-buyruqbozlik asosida olib borilishi natijasida ko‘plab xo‘jaliklar iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi, ayrim hollarda esa ocharchilik va aholining boshqa hududlarga ko‘chib ketish holatlari ham kuzatildi. Shu tariqa, siyosatning rasmiy maqsadi — agrar sohada sotsialistik islohotlarni chuqurlashtirish bo‘lsa-da, amalda u Xorazm vohasida jiddiy ijtimoiy ziddiyatlar va iqtisodiy izdan chiqishlarga olib keldi.

Xorazm okrugida kollektivlashtirish siyosati Sovet davrining eng yirik agrar islohotlaridan biri sifatida amalga oshirildi. Uning natijasida qisqa muddat ichida yuzlab kolxozlar tashkil etildi, ammo bu jarayon kuch ishlatish, mulkni tortib olish va majburiylik asosida kechdi. Siyosatning oqibatlari iqtisodiy sohada samaradorlikni pasaytirgan bo‘lsa, ijtimoiy hayotda qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Shu bois, kollektivlashtirish siyosatini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy oqibatlari bilan ham muhim tarixiy jarayon sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmuhammad U. Qatag‘on qurbonlari.-Urganch:. “Xorazm”, 2020, 10-bet.
2. Yusupov.P.X . Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch. “Xorazm”, 1999. – B.470
3. Muminova I. M. Istoriya Xorezma s drevneyshix vremen do nashix dneey. - T.: “Fan”, 1976. - s.188
4. Beregin Q. Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari. – “Samarqand”, - T., 1930. - 44-bet.

TARIX**“MEHNAT ARMIYACHILARI”NING O‘ZBEKISTONDAGI SANOAT KORXONALARIGA SAFARBARLIGI**

Xurshid Kurbanov,
Navoiy davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi.
Tarix fanlari nomzodi,
dotsent.

UO‘K: 93/94

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondagi 150 dan ortiq sanoat korxonalari va qurilish obyektlarida faoliyat olib borgan “mehnat armiyachilari” tarixi tahlil qilinadi. Shuningdek, “mehnat armiyachisi” tushunchasiga izoh beriladi. Bu davrda safarbar qilingan ishchilarning samarali mehnati fashizm ustidan g‘alaba qozonilgan g‘alabani belgilab berganligi asoslantiriladi.

Аннотация: В статье анализируется история трудармейцев, работавших на более чем 150 промышленных предприятиях и стройках Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. Раскрывается понятие «трудармейцы». Утверждается, что эффективная работа мобилизованных рабочих в этот период предопределила победу над фашизмом.

Annotation: The article analyzes the history of labor army soldiers who worked at more than 150 industrial enterprises and construction sites in Uzbekistan during the Great Patriotic War. The concept of "labor army soldiers" is explored. It is argued that the effective work of mobilized workers during this period predetermined the victory over fascism.

Kalit so‘zlar: Urush, O‘zbekiston, sanoat, korxona, qurilish, ishlab chiqarish, safarbarlik, g‘alaba, ijtimoiy hayot, mehnat.

Ключевые слова: Война, Узбекистан, промышленность, предприятие, строительство, производство, мобилизация, победа, общественная жизнь, труд.

Key words: War, Uzbekistan, industry, enterprise construction, production, mobilization, victory, public life, labor.

SSSR Davlat Mudofaa Qo‘mitasining 1942-yil 14-oktabrdagi 2414-sonli “maxfiy” qarori bilan O‘zbekistondan 150 ming ishchi Rossiyaning yuzlab korxonalariga qurilish va sanoat ishlariga safarbar qilinadi. Ularning ishlab chiqarishdagi mehnat samaradorligi Ikkinchi jahon urushida fashitslar ustidan qozonilgan g‘alabani ta’minlab beradi. Ayni shu vaqtda O‘zbekistonga ko‘chirilgan 150 ta sanoat korxonalari uchun ham ishchi kuchiga ehtiyoj

kuchayadi. Quyida ana shu sanoat korxonalariga safarbar qilingan holat yuzasidan fikr yuritiladi.

O‘zbekiston Milliy arxivining 837-fondida O‘zbekiston SSR XKS Ishlar boshqarmasi huzuridagi ishchi kuchini ro‘yxatga olish va taqsimlash bo‘limi hujjatlari saqlanmoqda. Tadqiqot doirasida ushbu fondga saqlanayotgan 3226, 3275, 3619, 3737, 3760, 3745, 3746, 3777, 3779 va boshqa yig‘ma jildlar o‘rganildi, ilmiy iste‘molga olindi. Quyida ushbu hujjatlar tahlili asosida mushohada yuritiladi.

Avvalo, “mehnat armiyachilari” iborasi to‘g‘risida to‘xtalishni maqsad qildik.

Tadqiqodchi V.Berdinskix “mehnat armiyachilari” iborasini “ishchi kolonnalari” iborasi bilan sinonim ta’riflab, ularni majburiy tarzda ekspluatatsiya qilinadigan “ishchi kuchi” dan foydalanish tizimi sifatida baholaydi. Shuningdek, ularni “mehnat uchun safarbar qilinganlar” (trudmobilizovaniye – X.Q.) toifasi deb ham qayd qilgan.[1;347,350]

O‘zbekiston Milliy arxivning Xalq komissarlari soveti 837-fond, 32-ro‘yxat, 3760-yig‘ma jild hujjatlarida, ayniqsa qabul qilingan qarorlarda “trudovaya armiya” va “trudarmeytsi” iboralari ishlatilgan. Jumlan, XKSning 1943-yil 10-iyundagi “Mehnat armiyachilari faoliyat ko‘rsatayotgan qismlarda badiiy xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi” №706-son qarori bunga yaqqol misol bo‘ladi[2].

Qolaversa, O‘zbekiston XKSning 1943-yil 12-noyabrdagi №1600-son qarori “Sverdlovsk viloyatidagi mudofaa korxonalarida ishlayotgan o‘zbek mehnat armiyachilariga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qarorda ham buni ko‘rish mumkin[3].

Shuningdek, XKSning 1943-yil 9-dekabrdagi “Ikkinchi jahon urushi nogironlari va mehnat armiyachilarini Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston ASSRga qaytarishni moddiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi №1789-sonli qarorida, 17 dekabrdagi “Ozod qilingan hududlardan qaytayotganlar va mehnat armiyachilariga Toshkent stansiyasida xizmat ko‘rsatishni yaxshilash to‘g‘risida”gi №1834-son qarorlarida ham aynan mehnat armiyachilari (hujjatlarda - trudarmiya) iborasi ishlatiladi[4].

Tadqiqot doirasida tahlil qilingan hujjatlar asosida unga tarixiylik, ilmiylik asosida yondashib, “fanlararo bog‘liqlik” metodolgiyasidan foydalanildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy sanoat bilan bir qatorda yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatini ham rivojlantirish muhim edi. Ushbu turdagi korxonalar

uchun ham ishchi kuchini yetkazib berish masalasi hukumat yuqori organlarining qarorlari asosida hal qilingan. Jumladan, O‘zbekiston XKSning 1942-yil 8-iyundagi “Oziq-ovqat sanoati xalq komissarligi tasarrufidagi shakar zavodi qurilishiga mehnatga yaroqli ishsiz aholini safarbar qilish to‘g‘risida”gi №810-son qarori bilan Qo‘qon shahriga 250 nafar, Yangiyo‘l shahriga 200 nafar ishchilarni safarbar qilish belgilanadi. Safarbarlikni tashkil qilish SSSR Oliy Sovetining 1942-yil 13-fevraldagi Farmoni hamda SSSR XKSning 1942-yil 24-maydagi №754-son qarori asos qilib olinadi hamda 20-iyun sanasidan kechiktirmay bajarish belgilanadi[5].

SSSR XKSning 1942-yil 3-iyundagi №848-439-son qarori asosida O‘zbekiston XKSning 1942-yil 10-iyunda №818-son qarori qabul qilinadi. Unga ko‘ra, Toshkent shahrida bosh harbiy sanoat qurilishi (Glavvoenpromstroy) ishlariga 600 nafar mehnatga yaroqli ishsizlar safarbar qilinadi.

1942-yilning 26-noyabr kuni O‘zbekiston XKSning “Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasining sanoat, qurilish va transport sohalariga ishsiz aholini safarbar qilish ishlarining borishi to‘g‘risida” yig‘ilish bo‘lib o‘tadi va ushbu yig‘ilish №8-son bayon bilan rasmiylashtirilib, XKSning №1514-son qarori bilan tasdiqlanadi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan berilgan ma’lumotlarda Toshkent shahrida safarbarlik ishlari sust olib borilayotganligi, 16-noyabr holatida 10 ta korxonaga safarbar qilinishi belgilangan 4520 nafar ishchidan 2436 nafarigina ish joylariga yuborilganligi tanqid qilingan. Shuningdek, Toshkent shahri tarkibidagi rayonlarda 8 ta korxonadagi holat o‘rganilganda ham shu kabi kamchilik bo‘lib, safarbar qilinishi lozim bo‘lgan 3854 nafar ishchining 1941 nafari ish joylarida bo‘lgan. Qolgan ishchilarning esa faqatgina hujjatlari yetib kelgan, xolos. Bundan tashqari yana 6 ta yirik korxonalar o‘rganilganda, ularga safarbar qilinishi lozim bo‘lgan 4109 nafar ishchining 30 foizi, ya’ni 1218 nafari ish joyida bo‘lganligi aniqlangan. Ushbu holat yuzasidan ishchi guruh xulosasiga ko‘ra Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi rahbari Husainovga “xayfsan” berilgan. Bundan tashqari, ishsiz aholini o‘rganib chiqish va ishga safarbar qilish ishlarini jonlantirish, rejalarni 12 dekabrga qadar bajarish topshirig‘i berilgan. Ishga yaroqli ishsiz aholini safarbar qilishda erkaklar uchun 16-50, ayollar uchun 16-45 yosh qilib qat’iy belgilab qo‘yilgan[6].

1943-yilga kelib O‘zbekiston hududlaridagi yog‘-moy zavodlari qurilishiga ham ishchi kuchiga ehtiyoj ortadi. XSKning 18-martdagi №279-son qarori bilan Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududlaridagi zavodlarni ishga tushirish uchun jami

440 nafar ishchi safarbar qilinadi. Bunda Qoraqalpog‘istonning Chimboy, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli rayonlaridagi moy zavodlariga 270 ishchi, Xorazm viloyatining Mang‘it va Xiva moy zavodlari qurilishiga 170 ishchini safarbar qilishni nazorat qilish ijroiyy qo‘mita rahbarlari Seitov va Urazovlar zimmasiga yuklatiladi[7].

6-8-aprelda qabul qilingan №380-son qaror bilan Farhod GES qurilishini jadallashtirishda respublikaning turli hududlaridan qurilish materiallari, texnikalari, mexanizmlar, elektropayvandlash, qurilish, duradgorlik, temirchilik kabi uskunarlar va boshqa anjomlarni topish hamda yetkazish uchun mas’ullar belgilanadi. Jumladan, Farg‘onaga Ortiqboyev, Loginov, Alekseyev, Dorman; Andijonga Rodichev, Sibirsev, Bobrovoy, Irgashev; Namanganga Munko, Burdiashvili, Yuldashev, Bobrovnitskiy; Samarqandga Nigmatshoyev, Nosirov, Chernishev, Yakovlev; Buxoroga Mirzaaxmedov, Terexov, Vasilevskiy, Bobojonov; Toshkent viloyatiga Shubladze, Notkin, Kravchenko, Korshunovalar kabi ishchi guruh rahbari, yordamchisi, davlat nazorat va davlat plan qo‘mitasi vakillaridan iborat guruhlar tuziladi. O‘zbekiston KP(b) MK kotibi U.Yusupov tomonidan imzolangan ushbu hujjat asosida respublika hududlaridan bor ashyolarni elektrostansiyalar tarmog‘ini rivojlantirishga sarfarbar qilish bilan bir qatorda, inson kuchidan foydalanishni ko‘paytirish topshiriqlari belgilab beriladi.[8]

DMQning 1943-yil 16-oktabrdagi “Stanokqurilish xalq komissarligiga ko‘maklashish, stanoklar va uskunarlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish to‘g‘risida”gi №4347-sonli qarori bilan mamlakatda harbiy sanoatni rivojlantirish ishlari yanada jadallashtiriladi. Jumladan, O‘zbekiston XKSning 1943-yil 11-noyabrdagi “Stanokqurilish xalq komissarligi tasarrufidagi zavodlarga 130 nafar ishchini safarbar qilish to‘g‘risida”gi №1594-sonli qarori bilan 50 nafar ishchi Toshkent shahridagi karbonruda zavodiga, 50 nafar ishchi yuqori kuchlanishli elektr-tok zavodiga, 30 nafar ishchi boshqa zavodga taqsimot qilinadi[9].

DMQning 1943-yil 7-oktabrdagi №4268-son qarori hamda ishchi kuchini ro‘yxatga olish va taqsimlash qo‘mitasining 14-oktabrdagi №824-raqamli farmoyishi asosida O‘zbekiston XKSning 1943-yil 11-noyabrdagi “SSSR ko‘mir xalq komissarligi “O‘zbekshaxtastroy” trestiga ishlash uchun 1000 kishini safarbar qilish to‘g‘risida”gi №1590-son qarori bilan Sharg‘un shaxtalariga 350 nafar, Toshkent-Stalinugol shaxtalariga 650 nafar ishchini tasimlash belgilanadi. Sharg‘un shaxtalariga Surxondaryo viloyatidan 250 nafar, Buxorodan 100 nafar,

Toshkent-Stalinugol shaxtalariga esa Andijondan 200 nafar, Namangandan 200 nafar, Fargʻonadan 150 nafar va Toshkent viloyatidan 100 nafar ishchini safarbar qilish qaror bilan tasdiqlanadi. Ushbu topshiriqlarni 1943-yilning noyabr oyi davomida amalga oshirish viloyatlar Ijroiya qoʻmitalari rahbarlari Qodirov (Surxondaryo), Nazarov(Buxoro), Sattorov(Namangan), Usmonxodjayev (Fargʻona), Raxmatov(Toshkent), Musayev(Andijon)larga yuklatiladi. Topshiriqlarni bajarishda Oʻzbekiston XKSning 24-avgustdagi qarori bilan Shargʻun shaxtalariga safarbar qilingan 500 nafar ishchini hisobga olmaslik topshirigʻi qaroning alohida bandi bilan taʼkidlab qoʻyiladi.

Oʻzbekiston XKSning 1943-yil 11-noyabrdagi “SSSR Eltekroprom xalq komissarligi tasarrufidagi №682 hamda №191-son zavodlariga 225 kishini safarbar qilish toʻgʻrisida”gi №1591-son qarori bilan №682-zavodga 75 nafar, №191-zavodga 150 nafar ishchi taqsimot qilingan. Ishchilarni Toshkent shahridan roʻyxatga olish va bunda asosan ishsiz shahar aholisini safarbar qilish belgilangan. Shuningdek, zavod rahbariyatiga yosh bolalar uchun bolalar bogʻchasidan yetarli miqdorda joy ajratish masʼuliyati ham qaror bilan mustahkamlangan[10].

Harbiy davrda asosiy eʼtibor qurol-aslaha ishlab chiqarishga qaratilgan bir vaqtda Oʻzbekistondagi zavodlarni ham shunga moslashtirish va ishchilar bilan taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor qaratiladi. Jumladan, SSSR XKSning 1943-yil 26-oktabrdagi 20411-sonli hamda ishchi kuchini roʻyxatga olish va taqsimlash qoʻmitasining 1943-yil 28-oktabrdagi 990s-sonli farmoyishiga muvofiq Oʻzbekiston XKSning 11-noyabrda №1592-sonli qarori eʼlon qilinadi. Unga koʻra, 1943-yilning 4-choragida qurol-aslahalar ishlab chiqaruvchi №574-son zavodga 200 nafar ishchini safarbar qilish belgilanadi. Bunda shahar va qishloqdagi ishsiz aholi tarkibini Buxoro (75 nafar), Qashqadaryo (75 nafar) va Namangan (50 nafar) viloyatlaridan olish boʻyicha Nazarov, Begimqulov va Sattorovlarga topshiriq beriladi[11].

Bu vaqtda Toshkent viloyati hududlarida harbiy aslahalar ishlab chiqarishga moslashtirilgan zavodlar soni ham koʻpayib borgan. Birgina “Minomyot qurollari xalq komissarligi” tasarrufidagi zavodlarga 580 nafar ishchini safarbar qilish topshirigʻi beriladi. SSSR XKSning 1943-yil 9-oktabrdagi №1100-340s-sonli qarori asosida ishchi kuchini roʻyxatga olish va tasimot qoʻmitasining 1943-yil 3-noyabrdagi №1048s-sonli farmoyishi bilan Oʻzbekiston XKSning 1943-yil 23-noyabrdagi “Minomyot qurollari xalq komissarligi tasarrufidagi korxonalarga 580 nafar ishchini safarbar qilish toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilinadi. Unga koʻra,

150 kishi Toshkent shahridagi №708-zavodga, 100 kishi grammplastinka zavodiga, 300 kishi soat ishlab chiqaradigan №7-son zavodga, 30 kishi esa Darbazin karyeriga taqsimlanadi. Bungacha esa grammplastinka zavodiga 250 nafar, soatsozlik zavodiga 400 nafar ishchi safarbar qilingan edi[12].

Bu davrda harbiy texnika, transport harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan neft mahsulotlari ishlab chiqarish ham asosiy hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalardan edi. Shu sababli ushbu sohalarga ham ishchi kuchini safarbar qilish maqsadida bir qator davomli huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. 1943-yilning noyabr oyiga kelib Qo‘qon shahridagi 2 ta yirik trestga 550 nafar ishchiga ehtiyoj paydo bo‘ladi. O‘zbekiston XKSning 23-noyabrdagi №1654-son qarori bilan 350 ishchi “Farg‘onaozekerit” zavodiga Namangan viloyatidan, 200 ishchi esa “Kalininneft” trestiga Andijon viloyatidan safarbar qilinadi. Ishchilar uchun moddiy-maishiy sharoitlar yaratish ikkala trest rahbarlari (Apryatkin, Smolyaninov), ularning safarbarligini tashkil qilish Namangan (Sattorov) va Andijon (Musayev) ijroiya qo‘mita rahbarlari zimmasiga yuklatiladi[13].

Ikkinchi jahon urushi yillarida kimyo sanoati qurol-aslaha ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli kimyo sanoati korxonalarini ham ishchi kuchi bilan ta‘minlash masalasida bir qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan. Shulardan biri, SSSR XKSning 1943-yil 23-oktabrdagi №20223-sonli qarori bo‘lib, unga asosan O‘zbekiston XKSning 1943-yil 11-noyabrdagi №1593-son qarori qabul qilingan. Unga ko‘ra, Qo‘qon superfosfat zavodida kaustik soda va torf ishlab chiqarish uchun Farg‘ona viloyatidan 250 nafar ishsiz aholini safarbar qilish bo‘yicha topshiriq belgilanadi[14].

Bu davrda torf ishlab chiqarish ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u sanoat va kommunal xizmatlar, ayniqsa elektr stansiyalari va isitish uchun eng muhim energiya manbai hisoblangan. O‘zbekistondagi Qo‘qon superfosfat zavodi bilan bir qatorda asosiy harbiy sanoat maydoni bo‘lgan Ural hududlarida Uralmash, Novotrubniy, Uralvagon zavodlari issiqlik elektr stansiyalari uchun muhim qazilma bo‘lgan. Ushbu hududlardagi torf qazib olishda Sverdlovsk viloyatining Monetnoye hududining o‘rni alohida bo‘lgan. 1942-yilning o‘zidayoq torf ishlab chiqarish bo‘yicha SSSR XKSning 20 dan ortiq qarorlari e‘lon qilingan bo‘lib, elektrostansiyalar, tekstil sanoati, qurol-aslahalar, qurilish materiallari, aviatsiya sanoati, rangli va qora metallurgiya kabi bir qator xalq komissarliklari tasarrufidagi korxonalar faoliyati uchun zarur xom-ashyo hisoblangan. 1943-

1945-yillarda torf ishlab chiqarish uchun 11 500 nafar qo‘shimcha ishchi kuchi safarbar qilingan[15;57-58].

Urush yillarida texnikalarning harakatlanishi uchun temir yo‘llar, avtomobil yo‘llarining qurilishiga ham alohida e‘tibor berilib, bu sohadagi qurilishlarni jadallashtirish bo‘yicha bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Shulardan biri, O‘zbekiston XKSning 1943-yil 17-noyabrdagi “Aloqa yo‘llari xalq komissarligi tasarrufidagi korxonalarga 270 ishchini safarbar qilish to‘g‘risida”gi qarori bo‘lib, unga ko‘ra, 70 nafar ishchini Qorovulbozor g‘isht zavodiga, 200 nafarini Toshkent temir yo‘l qurilish korxonalariga yuborish belgilanadi. Qarorga muvofiq, ishchilar taqsimotini Qorovulbozor zavodiga Buxoro viloyatidan (70 nafar), Toshkentga esa Samarqand viloyatidan (200 nafar) amalga oshirish tasdiqlab beriladi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston XKSning 1943-yil 22-iyuldagi №918-son qarori bekor qilinadi[16].

DMQning 1943-yil 8-oktabrdagi №4292-son qarori asosida O‘zbekiston XKS tomonidan 1943-yilning 17-noyabrda qabul qilingan “SSSR rangli metallurgiya xalq komissarligi tasarrufidagi Langanqurilish korxonasiga 350 ishchini safarbar qilish to‘g‘risida”gi №1613-son qarori nafaqat O‘zbekiston, balki butun mamlakat uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu masala yuzasidan SSSR XKSning 1943-yil 26-oktabrdagi farmoyishi ham e‘lon qilingan bo‘lib, ushbu ishchilarni Samarqand viloyatidagi ishsiz shahar va qishloq aholisidan saralab olish maqsadga muvofiq deb topilgan. Samarqand viloyati ijroyai qo‘mitasi (Ortiqov) mas’ulligida ishchilarni transport vositasi va oziq-ovqat bilan ta‘minlash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston XKSning 1943-yil 24-avgustdagi №1156-son qaror bilan safarbar qilingan 500 nafar ishchi haqidagi qaror o‘z kuchini yo‘qotgan deb topiladi va yuboriladigan ishchilar yangi tarkibda bo‘lishi lozimligi talab qilinadi[17].

Mehnat armiyachilarining asosiy qismi korxonalarda faoliyat olib borsa-da, ularning bir qismi korxonalarni qurish ishlariga ham safarbar qilingan. O‘zbekiston XKSning 1943-yil 20-noyabrdagi №1624-son qarori bilan 125 nafar ishchi Quvasoy shifer zavodiga (50 nafar) hamda Xilkov asbest quvur zavodiga (75 nafar) ishlashga safarbar qilingan. Bu korxonalar qurilish materiallari xalq komissarligi tasarrufida bo‘lib, ishchilarni Farg‘ona hamda Toshkent viloyatlaridan ro‘yxatga olish belgilanadi. Bungacha ham qurilish materiallari korxonalariga ishchilar safarbar qilingan bo‘lib, O‘zbekiston XKSning 1943-yil 27-martdagi №330-son qarori bilan 2220 nafar ishchi g‘isht va ohak ishlab chiqarish zavodlariga safarbar qilingan. Jumladan, Toshkent shahridagi g‘isht

zavodlarga 1400 ishchi, Toshkent olovga chidamli g'isht zavodiga 110 ishchi, Samarqandga 110 ishchi, Kattaqo'rg'onga 120 ishchi, Jizzaxdagi ohak zavodiga 130 ishchi, Buxoroga 50 ishchi, Qo'qonga 100 ishchi, Andijonga 120 ishchi, Namanganga 80 ishchi taqsimot qilinadi va yuboriladi[18].

Umuman olganda, 1942-1945-yillarda O'zbekistondan 150 ming ishchi Rossiya hududlaridagi yuzdan ortiq korxonalarga safarbar qilingan bo'lsalar-da, ayni shu davrda O'zbekistonning ichki korxonalariga ham ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori edi. Tahlillarga ko'ra, bu davrda O'zbekiston hududidagi qariyb 150 ta korxonaga 360 mingdan ortiq ishchilar "mehnat armiyachisi" sifatida safarbar qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. Бердинских В. Спецпереселенцы. Политическая ссылка народов Советской России. – Москва: Новое литературное обозрение, 2005. – С. 347, 350.
2. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3760-йиғма жилд, 14-варақ.
3. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 426-варақ.
4. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3746-йиғма жилд, 162-варақ.
5. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3275-йиғма жилд, 59-варақ.
6. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3326-йиғма жилд, 112-варақ.
7. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3737-йиғма жилд, 105-варақ.
8. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3737-йиғма жилд, 327-варақ.
9. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 397-варақ.
10. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 387-варақ.
11. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 390-варақ.
12. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3745-йиғма жилд, 235-варақ.
13. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3745-йиғма жилд, 236-варақ.
14. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 393-варақ
15. Копенкина Л.В. Добыча торфа в годы Великой Отечественной войны (к 80-летию Великой победы) // Труды Инсторфа, № 31 (84). – С. 57-58.
16. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 494-варақ.
17. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3777-йиғма жилд, 490-491-варақлар.
18. ЎзМА. 837-фонд, 32-рўйхат, 3737-йиғма жилд, 189-варақ.

TARIX

O‘ZBEKISTONDA QIZIL YARIM OY JAMIYATINING TASHKIL TOPIHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI



**Boboqulova Xurshida,
SamDChTI
“Gumanitar fanlar va
axborot
texnologiyalari”
kafedrasi dotsenti**

UO‘K: 87.6.47

***Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining tashkil topish tarixi, huquqiy maqomi, ijtimoiy vazifalari hamda notijorat jamoat birlashmasi sifatidagi faoliyati tahlil qilinadi.*

***Аннотация:** В статье анализируется история создания Общества Красного Полумесяца Узбекистана, его правовой статус, общественные функции и деятельность как некоммерческого общественного объединения.*

***Annotation:** The article analyzes the history of the establishment of the Red Crescent Society of Uzbekistan, its legal status, social functions, and activities as a non-profit public association.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati, notijorat tashkilot, insonparvarlik, ixtiyoriylik, betaraflik, jamoat birlashmasi, tarixiy rivojlanish.*

***Ключевые слова:** Общество Красного Полумесяца Узбекистана, некоммерческая организация, гуманизм, добровольность, нейтралитет, общественное объединение, историческое развитие.*

***Key words:** Red Crescent Society of Uzbekistan, non-profit organization, humanitarianism, voluntarism, neutrality, public association, historical development.*

Insoniyat tarixida insonparvarlik, muruvvat va yordam ko‘rsatish qadimdan jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Shu g‘oyalar asosida shakllangan xalqaro harakatlardan biri Qizil Yarim Oy va Qizil Xoch jamiyatlari tizimidir. Bugungi kunda ushbu tizim butun dunyoda millionlab insonlarning hayotini saqlab qolish, ularning sha’nini himoya etish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi¹. Xususan, O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi Qizil Yarim Oy jamiyati (O‘QYOJ) notijorat, mustaqil va ixtiyoriy asosda tashkil etilgan jamoat birlashmasi hisoblanadi. Jamiyat insonparvarlik, ko‘ngillilik, neytrallik, mustaqillik va universallik tamoyillariga asoslanadi². U xalqaro gumanitar huquq normalarini keng targ‘ib etadi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatadi hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam tashabbuslarini amalga oshiradi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-sotsiologik tahlil, aksiologik yondashuv hamda institutsional tarixshunoslik prinsiplari tashkil etadi.

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining shakllanish va rivojlanish jarayonini o‘rganishda notijorat jamoat birlashmalari taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari, insonparvarlik g‘oyalari evolyutsiyasi va fuqarolik jamiyati institutlarining tarixiy tajribasi inobatga olindi. Jamiyat faoliyatini tahlil etishda tarixiy-falsafiy yondashuv orqali Qizil Yarim Oy harakatining insonparvarlik konsepsiyasi, betaraflik va ixtiyoriylik tamoyillarining falsafiy ildizlari o‘rganildi. Aksiologik metod asosida esa tashkilot faoliyatining asosini tashkil etuvchi qadriyatlar tizimi hayot, mehr-shafqat, tinchlik, hamjihatlik va ijtimoiy mas‘uliyat kabi insoniy fazilatlarning jamiyat ongidagi aks etishi tadqiq qilindi.

Tadqiqotda, shuningdek, tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining rivojlanish bosqichlari xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy harakati tizimidagi o‘xshash tashkilotlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari, mustaqil O‘zbekiston sharoitida shakllangan notijoratlik tamoyillari hamda gumanitar siyosatdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bundan tashqari, sivilizatsiyaviy tarixshunoslik yondashuvi asosida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati faoliyati milliy qadriyatlar, tarixiy an‘analar va xalqaro insonparvarlik harakati o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tashkilotning nafaqat ijtimoiy-huquqiy, balki ma‘naviy-aksiologik mohiyatini ham yoritishga imkon berdi. Shunday qilib, tadqiqotning metodologik asoslari O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining tarixiy shakllanishi, uning jamiyatdagi notijoratlik tamoyillarini mustahkamlashdagi o‘rni va insonparvarlik qadriyatlari tizimidagi ahamiyatini kompleks ilmiy yondashuv orqali ochib beradi.

Qizil Yarim Oy harakatining ildizlari XIX asr o‘rtalariga borib taqaladi. 1863-yilda shvetsariyalik insonparvar *Anri Dyunan* tashabbusi bilan “Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasi” tashkil topgan bo‘lib, u qurolli to‘qnashuvlar chog‘ida yaradorlarga millati, dini va irqidan qat’iy nazar, tibbiy yordam ko‘rsatish tamoyilini ilgari surdi. Musulmon mamlakatlarida esa diniy ramzlarga hurmat yuzasidan Qizil Yarim Oy belgisi qabul qilindi. O‘zbekistonda Qizil Yarim Oy jamiyati 1920-yilda tashkil topgan. Dastlab u “Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyati”ning mahalliy bo‘limi sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik, 1991-yilda mustaqillik e‘lon qilingach, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati o‘zining mustaqil notijorat tashkiloti sifatida faoliyatini davom ettirdi.[4-25]

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Qizil Yarim Oy jamiyati “Notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun asosida faoliyat yuritadi. Bu degani, jamiyat o‘z faoliyatidan foyda olishni emas, balki ijtimoiy, gumanitar va madaniy maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zlaydi. Jamiyat o‘z mablag‘larini faqat insonparvarlik maqsadlarida ishlatadi, ya‘ni aholiga tibbiy, ijtimoiy, ma‘naviy va moddiy yordam ko‘rsatish, yoshlar va ko‘ngillilar harakatini rivojlantirish, tabiiy ofatlar paytida yordam berish kabi sohalarga yo‘naltiradi.[1]

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati (O‘QYOJ) o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida doimo notijoratlik tamoyiliga amal qilib kelgan. Jamiyatning moliyaviy asoslari tarixan jamiyat a‘zolari, mahalliy homiylar va xalqaro hamkor tashkilotlar ko‘magiga tayangan. Tarixiy jihatdan qaralganda, jamiyatning moliyaviy manbalari bir necha bosqichda shakllanib borgan:

1925-1945-yillarning dastlabki davrida jamiyatning asosiy mablag‘ manbalari a‘zolik badallari va mahalliy homiylarning xayriya to‘lovlaridan iborat bo‘lgan. Urush yillarida jamiyat mablag‘lari, asosan, tibbiy yordam va gumanitar faoliyatga yo‘naltirilgan.

1946-1991-yillar sobiq ittifoq davrida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati moliyaviy jihatdan davlat tomonidan ajratilgan subsidiya va korxonalar, jamoat tashkilotlarining homiylik hissalarini orqali ta‘minlangan. Shu davrda jamiyat tibbiyot punktlari, qon topshirish markazlari, sanitariya madaniyatini oshirish tadbirlarini moliyalashtirib kelgan.

1991-yildan keyingi davr, ya‘ni mustaqillikdan so‘ng jamiyat o‘zining moliyaviy mustaqilligini mustahkamladi. Asosiy moliyaviy manbalar sifatida a‘zolik badallari, homiylik xayriyasi, xorijiy grantlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar yetakchi o‘rinni egalladi. Jamiyat shuningdek, o‘z faoliyati natijasida olingan qonuniy daromadlar hisobiga ham ayrim dasturlarni moliyalashtiradi, biroq ushbu daromadlar foyda sifatida taqsimlanmaydi, balki butunlay insonparvarlik loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltiriladi[3].

Statistik jihatdan qaraganda, 2000-2020-yillar davomida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining umumiy yillik byudjeti o‘rtacha 25 - 30 foiz a‘zolik badallari, 40 foiz xalqaro grantlar, 20 foiz homiylik xayriyalari, va 10-15 foiz ichki loyihaviy daromadlardan shakllangan. So‘nggi yillarda esa xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida xorijiy tashkilotlar tomonidan ajratilayotgan grantlar hajmi ortgan. Shunday qilib, jamiyatning moliyaviy manbalari tarixan

gumanitar qadriyatlar, ixtiyoriylik va notijoratlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanib kelmoqda. Bu holat O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining asosiy g‘oyasi insonparvarlik va foydasiz xizmat qilish prinsiplarini yanada yaqqol namoyon etadi[5].

1991-2024 yillar O‘zbekistonda Qizil Yarim Oy Jamiyatining asosiy faoliyat yo‘nalishlari insonparvarlik, g‘amxo‘rlik va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga asoslangan notijorat tashkilot sifatida jamiyatda gumanitar qadriyatlarni mustahkamlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Mazkur jamiyat o‘z faoliyati orqali nafaqat fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga ham munosib hissa qo‘shib kelmoqda[3].

Shuningdek, jamiyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri tabiiy ofatlar, epidemiyalar, yong‘inlar yoki boshqa favqulodda holatlar paytida aholiga tezkor yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Shu maqsadda Qizil Yarim Oy Jamiyati Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Jamiyatlari xalqaro federatsiyasi bilan hamkorlikda maxsus gumanitar dasturlarni amalga oshirib, yuzlab oilalarga oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak va vaqtinchalik boshpana bilan ko‘maklashgan[3].

Jamiyat faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga qaratilgan. Bu borada donorlikni rivojlantirish, birinchi tibbiy yordam ko‘nikmalarini o‘rgatish, yolg‘iz keksalar, nogironlar hamda kam ta‘minlangan oilalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar izchil yo‘lga qo‘yilgan. “Sog‘lom avlod uchun” kabi tibbiy-ijtimoiy dasturlar jamiyatning inson salomatligiga qaratilgan faoliyatini yanada kengaytirdi[5].

Yoshlar harakati va ko‘ngillilar faoliyati jamiyat tarkibida faoliyat yuritayotgan ko‘ngillilar va yoshlar qanoti gumanitar harakatning ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Ular qon topshirish, ekologik tadbirlar, favqulodda holatlarda ko‘mak ko‘rsatish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali jamiyatda ijtimoiy mas‘uliyat va birdamlik g‘oyalarini keng targ‘ib etmoqda.

Inson huquqlari va gumanitar qadriyatlarni targ‘ib etish. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati xalqaro gumanitar huquq, inson sha’ni va qadr-qimmati masalalariga oid bilimlarni ommalashtirish, tinchlik, bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash yo‘lida muntazam ravishda ma’rifiy va o‘quv



tadbirlarini tashkil etib keladi. Bu orqali jamiyat gumanitar tafakkurning rivojiga hissa qo‘shmoqda.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ekologik madaniyatni rivojlantirish. Jamiyat faoliyatining yana bir ustuvor yo‘nalishi aholining sog‘lom turmush tarziga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Donorlikni rag‘batlantirish, gigiyena va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan tadbirlar orqali Qizil Yarim Oy Jamiyati fuqarolarning salomatligi, farovonligi va ekologik ongini mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati o‘z faoliyati davomida jamiyatda insonparvarlik g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlashda muhim fuqarolik instituti sifatida shakllandi. U o‘z faoliyati orqali inson qadri, sog‘lom hayot va gumanitar mas‘uliyat tamoyillarining real ifodachisiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati Nizomi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent.: 2019.
2. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati Yoshlar qanoti faoliyati bo‘yicha ma‘lumotnoma. Toshkent.: 2025. <https://redcrescent.uz/uz/activities/>
3. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati tarixi. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati nashriyoti, Toshkent.: 2020. <https://redcrescent.uz/uz/about-us/history/>
4. IFRC (International Federation of Red Cross and Red Crescent Societies). *Annual Report on Uzbekistan Red Crescent Society Activities*. Geneva.: 2021.
5. “Sog‘lom avlod uchun” ijtimoiy dasturi doirasidagi hisobot. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati nashri, 2015.
6. “Sog‘lom turmush - sog‘lom kelajak” ekologik-ma‘rifiy tashabbusi. Qizil Yarim Oy Jamiyati axborot byulleteni, 2023

TARIX

MUSTAQILLIK YILLARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIGA BO'LGAN E'TIBOR



**Xasanboyeva Muhlisa,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
talabasi.**

UO'K: 93/94

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davriga qaratilgan e'tibor tahlil qilinadi. Tadqiqot Temuriylar davrida rivojlangan ilm-fan, madaniyat, me'moriy obidalar va diplomatik aloqalarni yoritadi. Shuningdek Zafarnoma, Oqsaroy va Ispaniya bilan bo'lgan elchilik aloqalari haqida ma'lumot beradi.

Аннотация: Статья посвящена анализу внимания к Амиру Тимуру и периоду Тимуридов в годы независимости Узбекистана. Рассматриваются развитие науки, культуры, архитектуры и дипломатические связи, с упоминанием Зафарнама, дворца Оксарой и дипломатических контактов с Испанией.

Annotation: The article analyzes the attention given to Amir Temur and the Timurid period during Uzbekistan's independence. It highlights developments in science, culture, architecture and diplomatic relations, with references to the Zafarnama, the Oqsaroy palace, and diplomatic contacts with Spain.

Kalit so'zlar: mustaqillik, millat, Zafarnoma, Oqsaroy, elchilik aloqalari, me'moriy obidalar, Ispaniya.

Ключевые слова: независимость, нация, Зафарнама, Оксарой, дипломатические связи, архитектурные памятники, Испания.

Key words: independence, nation, Zafarnama, Oqsaroy, diplomatic relations, architectural monuments, Spain.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat tarixining eng muhim va poydevor davrlaridan biri bo'lgan Amir Temur va Temuriylar merosini chuqur, xolis va ilmiy asosda o'rganishga keng imkoniyat yaratildi. Mustaqillik yillarida tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va xalqning ma'naviy negizlarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu jarayonda Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati, uning davlat boshqaruvi tamoyillari, bunyodkorlik siyosati, ilm-fan va madaniyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati eng ko'p o'rganilgan mavzulardan biriga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr kungi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "buyuk allomalarimiz, adib va avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va davlat arboblarmizning jasoratini yoshlar ongiga

chuqur singdirish”[1] zarurligi ta’kidlangani bejiz emas. Zero, Amir Temur faoliyati nafaqat o’z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida, balki bugungi milliy davlat qurilishida ham bebaho tarixiy tajriba maktabi sifatida e’tirof etiladi.

Amir Temur “Tuzuklari”da jamiyat taraqqiyoti uchun ilm, adolat, tartib va mas’uliyatni bosh mezon sifatida belgilangan [2]. Ilm egalari, donishmandlar, maslahatchilar va san’at ahliga ko’rsatgan yuksak ehtiromi uning davlat boshqaruvi konsepsiyasining markazida turgan. Mustaqillik yillarida mazkur tamoyillarni qayta o’rganish natijasida Temuriylar davlati siyosiy barqarorlikning, iqtisodiy taraqqiyotning va madaniy yuksalishning o’ziga xos modeli bo’lganligi ilmiy adabiyotlarda tobora keng tasdiqlanmoqda.

Shuningdek, Temuriylar davriga tegishli yozma manbalar — Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixo kabi tarixchi va elchilarning asarlari qayta tadqiq etilib, Sohibqironning diplomatiya, shaharsozlik, bunyodkorlik, harbiy strategiya va ijtimoiy hayotga bo’lgan yondashuvi chuqur ilmiy talqin etildi. Bu esa nafaqat tarixshunoslik fani uchun, balki mustaqil O’zbekistonning davlat imijini shakllantirish, milliy o’zlikni tiklash va ma’naviy uyg’onishni ta’minlash yo’lida muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilmoqda.

Shu bois, mustaqillik yillarida Amir Temur merosiga e’tibor kuchayishi tarixiy adolatni tiklash, yosh avlodda milliy g’urur va mas’uliyat tuyg’usini mustahkamlash, shuningdek, temuriylar davri madaniyati, me’morchiligi va ilm-fan merosining global o’rni va ahamiyatini ilmiy asosda qayta baholash imkonini berdi.

Ushbu tadqiqot O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng shakllangan tarixshunoslik davrida Amir Temur va Temuriylar davriga bo’lgan e’tiborni ilmiy-tarixiy jihatdan tizimlash va tahlil qilish maqsadida amalga oshirildi. Maqolaning empirik (daliliy) asosini mustahkamlash uchun quyidagi ilmiy-tadqiqot usullari va yondashuvlardan foydalanildi:

Tahlilning asosini o’sha davrga oid birinchi (asosiy) va ikkinchi darajali (qo’shimcha) manbalar tashkil etdi. Manbalar tanlanishida ularning ishonchliligi, davrga yaqinligi va tadqiqot mavzusiga bevosita aloqadorligi asosiy mezon bo’ldi.

Asosiy yozma manbalar: Sharafiddin Aliy Yazdiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur hayoti va faoliyatining keng qamrovli tarixiy manbasi sifatida, shuningdek, Amir Temurning davlat boshqaruvi prinsiplari, iqtisodiy va ijtimoiy

qarashlarini aks ettiruvchi “Temur tuzuklari” manbalari fundamental baza sifatida ishlatildi.

Xorijiy manbalar: yevropalik sayyoh va elchilarning yozib qoldirgan asarlari o‘rganildi. Xususan, Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur saltanatini mufassal va jonli tasvirlagan kundaliklari bu davrdagi ayollarning ijtimoiy huquqlari va me‘moriy obidalar (masalan, Oqsaroy) haqida xolis, tashqi nuqtai nazarni shakllantirish uchun jalb qilindi. Tanlangan manbalardagi ma’lumotlar o’sha davrning ijtimoiy-siyosiy kontekstidan kelib chiqqan holda tanqidiy tahlil qilindi.

G‘oyaviy yondashuv: mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsiyatiga berilgan e’tiborning maqsadi (milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish) aniqlandi.

Adolat konsepsiyasi: Amir Temurning adolatga bo‘lgan munosabati va u tuzgan tuzilmalarning (masalan: iqtisodiy qarashlar, ilm ahliga hurmat) zamonaviy davlatchilik saboqlari uchun ahamiyati ajratib o‘rganildi. Tadqiqotning xulosaviy qismida Temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi boshqa mamlakatlarga, xususan, Yevropaga nisbatan qiyosiy ravishda ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv Amir Temur davlati madaniy-ma’rifiy va ma’naviy sohalarida erishgan yuqori darajani global kontekstda baholash imkonini berdi.

Maqolaning Kirish va Xulosa qismlari tadqiqot natijalarini mantiqiy umumlashma qilishga asoslangan. Manbalar tahlilidan kelib chiqqan holda, o‘z tarixini, nasl-nasabini va merosini bilmaslikning kelajak uchun salbiy oqibatlari va bobokalonimiz faoliyatining bugungi O‘zbekistonni barpo etishdagi ilhomlantiruvchi rolini umumlashtirish amalga oshirildi.

O‘tkazilgan manbashunoslik va tarixiy-tanqidiy tahlil usullari asosida mustaqillik yillarida o‘rganilgan Amir Temur va Temuriylar davriga oid e’tiborning asosiy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topdi:

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur adolatni nihoyatda qadrlagan. Shu sababli uning saltanatida biror inson behuda ranjitilmagan, zulm ko‘rmagan. U ilm-fanni va ilm ahlini hurmat qilar, oliy maqsadi butun saltanatda madaniyat va san’atning gullab-yashnashiga erishish bo‘lgan.

Aholiga imkoniyatlar yaratish: Sohibqiron barcha odamlarga ishlash uchun imkoniyat yaratib bergan. U ilm-fan ravnaqi jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qilishini tushunib, noyob iste’dod va qobiliyat egalarini muhofaza qilish,

ularning ijodi uchun sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur sayyidlar, olimlar, mashoyixlarga va ayollarga ham cheksiz hurmatda bo'lgan [3]. U o'zining "Tuzuklari"da qayd etilgan o'n ikki toifa va tabaqaning ikkinchisiga aqlli kishilar va kengash sohiblarini kiritib, ularni e'tiborli shaxslar deb bilgan [4].

Ispaniya elchisi Klavixoning kundaliklarida (1404-yil 23-sentabr sanasi bilan) Amir Temur saroyida ayollarning haq-huquqlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Teng huquqlilik: Klavixo yozishicha, Bog'i Dilkushoda berilgan bazmda podshoning xotinlari avvalgi to'ylardagi singari yasana-tusan kiyinib bazmda hozir bo'lganlar va erkaklar bilan birga o'yin-kulgi qilganlar [5]. Bu ma'lumot Temur davrida ayollarga hech qanday cheklovlar yo'qligi va ularning erkaklar bilan teng huquqqa ega ekanligini ko'rsatadi. Amir Temur qurdirgan imoratlar Sharq me'morchiligi tarixida yuksak badiiy va tarixiy ahamiyatga ega asarlar hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Temuriylar davlatida yaratilgan obidalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Sohibqironning bunyodkorlik haqidagi buyrug'ida har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, yo'lovchi musofirlar uchun rabotlar va daryolar ustiga ko'priklar qurish zarurligi qayd etilgan. Bu davrdagi binolar o'zining salobati, mahobati, balandligi va oltindek tovlanib turadigan naqshinkor koshinlari bilan ajralib turgan. Devorlarga Qur'oni Karimdan oyatlar va mashhur suralar ham yozib qoldirilgan.

Oqsaroy: Temur Shahrisabzda ma'muriy-siyosiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan Oqsaroy nomi bilan mashhur saroy qurdirgan. Saroy peshtoqida bitilgan "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarga boq!", degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini anglatar edi. Klavixo Oqsaroyning mufassal tavsifini yozib qoldirgan [6].

Qadamjolar: Temur Buxoroda Chashmayi Ayub (1380-yil) yodgorligini, Shahrisabzda esa ziyorat va dafn marosimlari uchun Dor us-siyodat (sayyidlar, rahbarlar uyi, 1389–1400) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach, Shahrisabzda maqbara qurdirib, unda Xorazm me'morchiligi an'alaridan foydalangan [7].

Bog'lar: Sohibqiron davrida shahar atrofida o'n ikkita so'lim bog'lar qurilishiga ham e'tibor qaratilgan. Tarixchi Sharafiddin Aliy Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur obodonchilikka yaraydigan bir qarich yerning ham zoye bo'lishini ravo ko'rmagan. Temur nazarida yer mamlakatning muhim boyligi bo'lib, uni adolatli taqsimlash va samarali boshqarish davlat barqarorligini

ta'minlaydi, deb hisoblagan. U zabt etgan hududlarni vayronagarchilikka yo'l qo'ymagan, aksincha, yangi shaharlar, bog'lar, saroylar qurdirgan, xalqni tinch hayotga qaytarib, u yerlarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan [8].

Ushbu tadqiqotning natijalari mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davri merosini o'rganishga qaratilgan e'tiborning asosi nafaqat tarixiy qiziqishdan, balki amaliy davlatchilik saboqlaridan kelib chiqqanini tasdiqlaydi.

Amir Temur asos solgan imperiya o'z davrida jahonning eng yirik kuchlaridan biri bo'lganligi unga bo'lgan xalqaro qiziqish va hamkorlikka intilishni kuchaytirgan. Xorijiy elchilar, jumladan, ispan elchisi Klavixoning yozgan asarlari mustaqillikdan so'ng qayta o'rganilib, tarjima qilingan[9]. Klavixo kundaliklarining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat siyosiy voqealarni, balki ayollarning saroydagi yuqori ijtimoiy mavqei kabi hayotiy voqealarni ham bayon etadi. Bu topilmalar G'arb va Sharq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dinamikasini va Temuriylar davri jamiyatining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan adolatli iqtisodiy siyosatning markaziy o'rnini ko'rsatadi. Uning yerga bo'lgan munosabati va obodonchilikka e'tibori, yer mamlakatning muhim boyligi ekanligi va uni adolatli boshqarish davlat barqarorligini ta'minlashi haqidagi qarashlaridan kelib chiqqan. U zabt etgan hududlarda vayronagarchilikka yo'l qo'ymay, yangi shaharlar qurdirishi va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi uning strategik bunyodkorlik siyosatini namoyon etadi. Bu jihatlar Temur davridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot o'sha davrdagi boshqa mamlakatlarga, ayniqsa, Yevropaga nisbatan ancha ilgarilab ketganini tasdiqlaydi. Amir Temur qurdirgan me'moriy obidalar, ayniqsa, Shahrisabzdagi Oqsaroy nafaqat estetik qiymatga ega bo'lgan, balki hukmdor qudratini aks ettiruvchi siyosiy funksiyani bajargan. Saroy peshtoqidagi "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarga boq!", degan yozuv Temur davlatining siyosiy missiyasi va imperatorlik ambitsiyalarining moddiy ifodasi bo'lgan [10]. Mustaqillik davrida bu kabi obidalarni o'rganishga e'tiborning kuchayishi milliy qudrat va o'tmishdagi ulug'vorlik g'oyalarini tiklash bilan bevosita bog'liqdir.

Ushbu tadqiqot natijalari mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davriga bo'lgan e'tiborning chuqur ilmiy, ma'rifiy va amaliy-tarbiyaviy asoslarga ega ekanligini tasdiqladi. Maqolada qo'yilgan tadqiqot maqsadi – bu davr merosini o'rganishga qaratilgan e'tiborni tizimlash to'liq amalga oshirildi.

Ijtimoiy-siyosiy yutuqlar: Amir Temurning adolatga bo‘lgan e’tibori, ilm ahlini hurmat qilishi hamda o‘z tuzuklarida aql egalariga va kengash sohiblariga alohida o‘rin ajratishi orqali davlat boshqaruvida yuksak tamoyillarni o‘rnatgan. Klavixo kundaliklaridagi ma’lumotlar Temur davrida ayollarga hech qanday cheklovlar qo‘yilmaganini va ularning erkaklar bilan teng huquqqa ega ekanligini ko‘rsatadi.

Madaniy bunyodkorlik: Amir Temur qurdirgan Oqsaroy, Dor us-siyodat va Chashmayi Ayub kabi obidalar Temuriylar davri me’morchiligining nafaqat badiiy, balki siyosiy qudratni aks ettiruvchi funksiyasini ta’minlagan. Uning bunyodkorlik siyosati yerga bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarida ham aks etib, mamlakat boyligini adolatli taqsimlash va samarali boshqarish davlat barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tarixiy darslar: Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohalarida Yevropaga nisbatan ancha yuqori darajaga erishilganligi e’tirof etiladi. Bu davrda shakllangan tarixiy saboqlardan mustaqillik yo‘lida foydalanish zaruriyati ta’kidlanadi. O‘z tarixini, nasl-nasabini bilmagan millatning kelajagi bo‘lmasligi haqidagi g‘oya bobokalonimizning hayoti va faoliyati O‘zbekistonni barpo etishda ishonch, intilish, qat’iyat va kuch-quvvat baxsh etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Temur tuzuklari. – T.: 2020.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar: Amir Temur va Temuriylar davri. – T.: “O‘qituvchi”, 1994.
4. Fayzullaev A. Amir Temur: Hukmdor va islohotchi. – T.: “Ma’naviyat”, 2003.
5. Ahmedov B. Klavixo va uning kundaligi. – T.: 1999.
6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – T.: “Fan”, 1996.
7. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – T.: 1996.
8. Sharafuddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. – T.: 1997.
9. Temur tuzuklari. (Fors tilidan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasini So‘zboshi va mas’ul muharrir: Muhammad Ali). – T.: Sharq, 2005.
10. Tursunov Q. Amir Temur va Temuriylar saltanati: Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – T.: 2008.

TARIX

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIGA DOIR AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AHAMIYATI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)



**Qodirjonov Omadjon,
Andijon davlat
univeristeti 1-kurs
magistranti**

UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlardan hisoblangan irrigatsiya va melioratsiyaga oid chora-tadbirlarning kelib chiqish tarixi va unga doir amalga oshirilgan ishlarning ahamiyati keng ilmiy manbalarga tayangan holda yoritildi.

Аннотация: В данной статье рассматривается история возникновения мер по ирригации и мелиорации земель, которые входят в число многочисленных реформ, реализуемых в Республике Узбекистан, а также значение проводимой в них работы, основанной на обширных научных источниках.

Annotation: This article is written based on extensive scientific sources, focusing on the history of the origin of irrigation and land reclamation measures, which are among the many production measures being implemented in the Republic of Uzbekistan, and the importance of the work carried out on them.

Kalit so‘zlar: Irrigatsiya, melioratsiya, kanal, betonlash, vazirlik, islotoh, qadriyat.

Ключевые слова: Ирригация, мелиорация, канал, бетонирование, министерство, реформа, ценность.

Key words: Irrigation, land reclamation, canal, concreting, ministry, reform, ceremonial.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida toza ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab kundan-kunga shiddat bilan ortib bormoqda. Bunga sabab qilib esa global miqyosda aholi sonining tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotganini ko‘rsatishimiz mumkin. Aynan shu sababli ham butun dunyo miqyosida, jumladan, O‘zbekistonda ham toza ichimlik suvini asrash, uni isrof qilmaslik to‘g‘risida bir qator muhim ahamiyatga ega bo‘lgan targ‘ibot-tashviqot ishlari faol tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Biroq O‘zbekiston hukumati bu bilan cheklanib qolmasdan, ushbu sohaga doir muammolarni tag-tomiri bilan bartaraf etish maqsadida irrigatsiya va melioratsiya sohasini tartibga keltirish hamda bu orqali nafaqat bugungi kunda sodir bo‘layotgan muammolarni hal etish,

balki kelgusida bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarning ham oldini olishga harakat qilmoqda. Hukumatimizning uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan ushbu islohotlari esa hozirdanoq o'z samarasini bermoqda.

Bugungi kunga kelib global muammo darajasiga ko'tarilgan toza ichimlik suvi tanqisligi masalasi dunyo bo'ylab ko'plab davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va ekologik holatiga jiddiy xavf solmoqda. Bunga esa bir qator muhim omillar ta'sir etadi. Xususan, bunda aholi sonining ko'payib borishi va tabiiyki, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo'lgan talabning ortishi kabi omillarni ko'rishimiz mumkin. Bu ikki omil ham ichimlik suviga bo'lgan talabni ko'paytiradi. 2022-yilda jahon aholisi soni 8 milliard kishiga yetdi, bu shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisi atigi 12 yil ichida 1 milliarda ko'paygan [1]. Bu esa tabiiy ravishda suv va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Bilamizki, istalgan meva, sabzavot va boshqa turdagi iste'mol uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash uchun ham toza suv zarur, ichish uchun yaroqli suv esa barcha suvning juda ham kam qismini tashkil etadi. Shunday ekan, ushbu resursdan oqilona foydalanish va uni asrash butun dunyo miqyosida asosiy masalaga aylandi. Suv resurslarini boshqaradigan soha hisoblanuvchi irrigatsiya doimo zaruriy soha bo'lib kelgan va bugungi kunga kelib esa bu sohaga doir muammolar butun dunyo miqyosida, shu jumladan O'zbekistonda ham dolzarb masalaga aylandi.

Irrigatsiya lotin tilida irrigation – sug'orish [2. –B.] degan ma'noni bildiradi. Ushbu sohaga “yerni sun'iy usullar bilan sug'orish. U uzoq vaqtda, oz yoki umuman yomg'ir yog'maydigan hududlarda o'suvchi o'simliklarni suv bilan ta'minlaydi. Irrigatsiyada foydalaniladigan suv ko'l, daryo, ariq va boshqa manbalardan olinadi...” – deb ham ta'rif beriladi [3. –P. 456]. Biroq bugungi kunda ushbu sohaning vazifasi faqatgina sug'orish bo'libgina qolmay, suvni ma'lum bir hududdaan ikkinchisiga samarali tarzda tez va tejamkor uslubda yetkazish hamdir.

Insoniyat tomonidan dastlabki kanal va ariqlar qurila boshlangan davrlarda odamlar tomonidan kichik va u qadar uzun bo'lmagan kanallar qazilgan, biroq davrlar o'tib yangi yer maydonlariga bo'lgan talabning ortishi natijasida insonlar tabiiy suv havzalaridan ancha uzoqdagi bo'sh yotgan yerlarni ham o'zlashtirishga kirishadilar. Buning natijasida esa ancha uzun va katta kanallar qurila boshlanadi. Tabiiyki, kanallardagi suvning anchagina qismi harakatlanishi davomida yer ostiga singiydi [4. –P. 906.] va bundan tashqari quyosh nuri ta'sirida ma'lum

darajada bug‘lanadi [5]. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, insonlar tomonidan qazilgan kanallar sababli ma‘lum darajadagi suv yer qa‘riga singib ketadi. Bundan tashqari, bugungi kunga kelib sanoatning keskin rivojlanishi natijasida sayyoramizda havo haroratining keskin ko‘tarilishi ham sug‘orish tizimi uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda, jumladan, havo haroratining 1,5-2 °C ga ko‘tarilishi suv bug‘lanishini tezlashtiradi, bu esa tabiiyki, kanallardagi suvning isrof bo‘lishini ko‘paytiradi [6. –B. 95.].

Ushbu muammoning yechimi sifatida Xalqaro tajribada sinovdan o‘tgan kanallarni betonlash usulidan O‘zbekiston Respublikasida ham foydalanila boshlangan. Bunga faqatgina suv resurslarini saqlashgina sabab bo‘lmay, bu orqali kanallarni yilda bir necha marotaba tozalash va doimiy oqim ta’sirida yemirilishini oldini olish uchun ham qilinadi [4. –P. 906-907.] [5]. 2024-yildagi hisob-kitob ishlariga ko‘ra betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlari sababli yiliga 14 milliard kub metr suv yoki boshqacha qilib aytganda ushbu tarmoqlarda oquvchi suvning 36 foizi yerga singib ketmoqda [7]. Bunday katta hajmda suvning isrof qilinishi natijasida iqtisodiyot 5 milliard dollar daromadni boy bermoqda [8].

2023-yil 29-noyabr Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi [9]. Bu esa masalaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor amalda ko‘rsatadi. Shu jumladan, ushbu yig‘ilish natijasida suv xo‘jaligida “kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil” e‘lon qilinib [8], 2024-yil davomida 1500 km kanallarni betonlash vazifasi yuklandi [10]. 2023-yilga qaraganda ushbu yilda 4 barobar ko‘p kanallarni betonlash rejalashtirildi [8]. Shuningdek, O‘zbekistonning aholi eng zich joylashgan viloyati hisoblanuvchi Andijonda ham ushbu sohaga doir ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil “kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil” rejasi doirasida Andijon viloyatida davlat dasturlari asosida 46 mlrd so‘m mablag‘ evaziga 41 km magistral kanallar betonlashtirildi. Birgina misol, Andijon va Jalaquduq tumanlariga xizmat qiluvchi umumiy uzunligi 16,5 km bo‘lgan Qatortol kanalining Andijon tumaniga qarashli qismida betonlash ishlari olib borildi va bu yerdagi 120 fermerning suv bilan ta‘minlanishi shu yo‘l orqali yaxshilanib, ortiqcha suvning isrof bo‘lishi oldi olindi. 2025-yilda esa kanalning yana 3,5 km qismi betonlanishi reja qilindi [11].

2025-yilda rejalashtirilgan yana bir muhim loyiha bu Andijonsoyni betonlashtirish hisoblanadi. Negaki, ushbu kanal Andijon viloyatining deyarli 1/3 qismini, yoki boshqacha qilib aytganda Qo'rg'ontepa, Jalaquduq, Andijon, Oltinko'l tumanlarining qishloq xo'jalik yerlari va aholi tomorqalarini suv bilan ta'minlaydi. Ushbu kanalning ostki qismi shag'al va yirik tosh qatlamlaridan iborat, tabiiyki bunday qatlam suvni yerga yaxshi o'tkazadi va suv yo'qotish hajmini sezilarli darajada oshiradi. Aynan shuning uchun ham ushbu kanalning boshlanish qismida, ya'ni Xonabodda 8 km qismi betonlashtirilishi rejalashtirilib, 2025-yil 26-avgust holatiga rejaning yarmi bajarib bo'lindi. Kanalni betonlashtirilayotgan qismining eni 6 m va chuqurligi 2,10 m qilib qayta ta'mirlandi va nishabligi ham ancha yaxshi ta'minlandi, bu orqali kanal ixchamlashganiga qaramasdan, soniyasiga 50 kub metr hajmdagi suvni o'tkaza olish imkonini o'zida saqlab qoldi [12].

Viloyatda olib borilayotgan ishlar bu bilan cheklanib qolmay, boshqa kanallarni ham betonlash ishlari jadal tartibda olib borilmoqda. Bu orqali nafaqat suv resurslari, balki inson kuchi va mablag'i ham saqlab qolinadi, chunki oddiy kanal va ariqlarni 1-2 yilda tozalash zarur. Ayrimlarini esa yilda 2 marta ham tozalashga to'g'ri kelishi mumkin. Ammo betonlangan kanallar bilan bunday muammolarning oldi olinadi va agar tozalashga zarurat tug'lsa ham ushbu jarayon oson va tez amalga oshadi [5].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda irrigatsiya va melioratsiya sohasida xalqaro tajriba hamda zamonaviy texnologiyalarni inobatga olgan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, mavjud sug'orish tarmoqlarining texnik holatini yaxshilash, eskirgan inshootlarni rekonstruksiya qilish mamlakat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu jihatdan kanallarni betonlash jarayoni irrigatsiya tizimining barqaror ishlashini ta'minlash, suv yo'qotilishini kamaytirish va dehqonchilik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi faoliyatlar, avvalo, mustaqillik yillarida boshlangan kompleks suv xo'jaligi islohotlarining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lmoqda. Sovet davridan qolgan ko'plab sug'orish inshootlari va kanallar zamonaviy talablarga mos ravishda qayta qurilib, beton qoplamalar bilan mustahkamlanmoqda. Bu o'z navbatida suv resurslarini tejash, suv taqchilligi

sharoitida ularning taqsimotini optimallashtirish hamda ekologik muvozanatni saqlashda katta natijalar bermoqda.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. United Nations, Population <https://www.un.org/en/global-issues/population#:~:text=Day%20of%20Eight%20Billion,are%20in%20sub%2DSaharan%20Africa>.
2. Ирригация // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002.
3. Irrigation // The World Book Encyclopedia. Volume 10. –United States of America: a Scott Fetzer company, 1994.
4. Singh S., Varma R., Ray D.S. Study and Design of Cement Concrete Lining of Canal. // *Journal of Harbin Engineering University*. –Harbin. Vol. 44, No. 10. 2023.
5. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi Andijonsoy irrigatsiya tizim boshqarmasi bosh mutaxassisi Musayev Sh.H. dan 2025-yil 11-martda yozib olindi.
6. Yuldosheva, B. 1989–2007-yillarda O‘zbekistonda suv resurslarining holati va o‘zgarishlari. // Modern Science and Research. –Toshkent. Vol. 4, No. 2. 2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. <https://gov.uz/oz/suvchi/news/view/16939>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/6894>
9. Kun.uz. <https://kun.uz/news/2023/11/29/suv-xojaligida-kanallarni-betonlash-boyicha-zarbdor-yil-elon-qilindi>
10. Gazeta.uz. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/11/30/water/>
11. MY5 telekanali. Hudud informatsion dasturi: “Joriy yilda Andijon viloyatida kanallar va sug‘orish tarmoqlarini betonlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar” haqida lavha, —Toshkent, 2024-yil.
12. Andijon viloyat teleradiokompaniyasi. Andijon axborot informatsion dasturi: “Andijonsoy kanalini betonlash ishlari” haqida lavha. —Andijon, 2025 yil 26-avgust.

TARIX**O‘ZBEKISTONDA OILAVIY TADBIRKORLIK: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI
(1991-2020 yy)**

Madina Rasulova,
Toshkent davlat
texnika universiteti
“O‘zbekiston tarixi”
kafedrasi katta
o‘qituvchisi

UO‘K: 346,26 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston mustaqilligi yillarida oilaviy tadbirkorlikning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari xususida so‘z yuritilgan. Unda kichik biznes va tadbirkorlik negizida oilaviy tadbirkorlikning aholi bandligidagi o‘rni, yoshlar va ayollar mehnatini tashkil etish va rivojlantirishda kasanachilik, uy hunarmandchiligi va “Har bir oila tadbirkor” tamoyilining ahamiyati bayon qilingan.

Аннотация: Статья посвящена истории становления и этапам развития семейного бизнеса в годы независимости в Узбекистане. Описывается роль семейного бизнеса в трудоустройстве населения на основе малого бизнеса и частного предпринимательства, роль домашнего труда в организации и развитии молодежного и женского труда, домашних ремесел и принцип «Каждая семья - предприниматель».

Annotation: The article deals with the history and stages of development of family business in the years of independence of Uzbekistan. It describes the role of family business in the employment of the population on the basis of small business and entrepreneurship, the role of home-based work in the organization and development of youth and women's labor, home crafts and the principle of "Every family is an entrepreneur."

Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, uy hunarmandchiligi, kasanachilik, mulk, qonun, qaror, ayollar, biznes subyektlari, dastur, soliq, normativ-huquqiy asos.

Ключевые слова: семейный бизнес, малый бизнес, домашнее хозяйство, домоводство, собственность, право, решение, женщины, хозяйствующие субъекты, программа, налог. нормативно-правовая база.

Key words: family business, small business, home craft, home economics, property, law, decision, women, business entities, program, tax. regulatory framework.

Oilaviy tadbirkorlik dunyo mamlakatlarining katta qismida muhim iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi sifatida shakllangan bo‘lib, uning asosida oila mulkiga tayangan holda barcha a‘zolarining mulkiy manfaatlari ta‘minlanadi. O‘zbekiston tajribasida ham bu turdagi tadbirkorlik keng rivojlangan bo‘lib, oila

mulki va unga daxldor huquqlar mazkur faoliyatning poydevorini tashkil qiladi. Ushbu faoliyatda oila xo'jaligini boshqarib boruvchi shaxs tadbirkor sifatida qaraladi, oilaning qolgan a'zolari esa unda mehnat qiladigan fuqaro sifatida qatnashib, umumiy foydadan ulush olish huquqiga ega hisoblanadilar. Oilaviy tadbirkorlikka oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, soha rivojini institutsional jihatdan mustahkamlashga zamin yaratildi. Mamlakatimizda oilaviy biznes kichik va o'rta tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'ini sifatida shakllanib, ayniqsa kasanachilikning turli yo'nalishlari davlat dasturlari orqali qo'llab-quvvatlandi.

Oilaviy tadbirkorlikdagi erkinlik deganda oila a'zolari, qarindoshlar yoki ular bilan bog'liq shaxslarning ma'lum sohada foyda va daromad olishni maqsad qilgan iqtisodiy faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi tushuniladi. Bu erkinlik tadbirkorning hohishiga ko'ra faoliyatni boshlash yoki tugatish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari davrida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayonda kasanachilikning quyidagi yo'nalishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi: 1) do'ppido'zlik; 2) tikuvchilik (ichki va ishchi kiyimlari, qo'lqop, chopon kabi mahsulotlar); 3) pichoqchilik; 4) temirchilik; 5) gilamdo'zlik va boshqa hunarmandlik sohalari. Ushbu faoliyat turlari orqali uyda band bo'lgan erkak va ayollar ijtimoiy foydali mehnatga keng jalb qilindi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida oilaviy tadbirkorlikka e'tibor nisbatan kam bo'lgan bo'lsa-da, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hajmining o'sishi orqali mazkur soha sekin-asta rivojlanib bordi. Xususan, 1995-yilda shaxsiy xo'jaliklar hisobidan sut mahsulotining 75 foizi, go'sht mahsulotining 70 foizi, sabzavotning 65 foizi, mevaning 60 foizi va kartoshkaning 43 foizi mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ta'minlangan [1.23 b.]. Jumladan, 1996-yil ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlikdan bir oilaga to'g'ri kelgan o'rtacha daromad Qoraqalpog'iston Respublikasida 470,3 so'm, Andijon viloyatida 545,7 so'm, Buxoro viloyatida 373,6 so'm, Jizzaxda 2432,4 so'm, Qashqadaryoda 326,4 so'm, Navoiyda 1720,2 so'm, Namanganda 210 so'm, Samarqandda 785 so'm, Surxondaryoda 100,5 so'm, Sirdaryoda 502,9 so'm, Toshkent viloyatida 465,7 so'm, Farg'onada 3566,6 so'm, Xorazmda 417,2 so'm va Toshkent shahrida 2443,4 so'mni tashkil etgan.

Shu yilda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan oilalarning o'rtacha daromadi 9470 so'mni tashkil qilsa, ishchi-xizmatchi oilalar ushbu sohadan 4614 so'm miqdorida daromad olishgan [2.24 b.]. So'nggi yillarda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan hunarmandchilikni rivojlantirish sohasida mamlakatimizda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ayollar va yoshlarni kasanachilik mehnati orqali ish bilan band qilish hamda ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish ishlari aholi turmush darajasi va oilalar iqtisodini ko'tarishga hissa qo'shmoqda. Shu jihatdan, 2008-yilda mamlakatda kasanachilar tomonidan 34 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va turli xizmatlar ko'rsatilgan. Shuningdek, aholini, ayniqsa qishloq joylardagi aholini ish bilan ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan shug'ullanuvchi shaxslar sonini ko'paytirishga qaratilgan.

O'zbekistonda 2000-yillar oxiriga kelib oilaviy tadbirkorlik sohasida sezilarli sifat o'zgarishlari kuzatildi. Masalan, 2001-yilda respublikada 180 mingdan ortiq kichik oilaviy biznes subyektlari va 200 mingdan ortiq shaxsiy tadbirkorlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa [3.96 b], 2008-yilga kelib ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,2 % ni, 2009-yilda 50,1 % ni, 2010-yilda 52,5 % ni va 2011-yilda esa 54 % ni tashkil etib, 2000-yilga nisbatan 23 % ga o'sishga erishildi [4.78 b].

Oilaviy kichik biznes subyektlarining hududiy taqsimotini tahlil qilganda, ularning asosiy qismi xomashyo resurslari va mehnat qudratiga boy hududlarda shakllanayotgani ayon bo'ladi. Masalan, 2008-yilning 1-yanvariga qadar faqat Qashqadaryo viloyatida 75 mingga yaqin oilaviy kichik biznes subyektlari ro'yxatga olingan bo'lib, bu O'zbekistonda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Keyingi pog'onalarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlari (har biri 30 mingdan ortiq) joy olgan. Bu borada eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida (har biri 15 mingdan kam) qayd etilgan. Navoiy viloyatida oilaviy tadbirkorlikning orqada qolishi asosan sanoatning boshqa tarmoqlari rivojlangani va yirik komplekslar faoliyat ko'rsatishi bilan izohlanadi [5.74 b].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq hududlarda ayollar orasida ishsizlik muammosi sezilarli darajadadir. Masalan, 2000-yillar o'rtalarida respublikada umumiy ishsizlar orasida 18,2 ming kishi ayollar bo'lib, ularning 43,3 % i 18-30 yoshdagilar, 39,2 % i 30-50 yoshdagilar, 11,7 % i 16-18 yoshdagilar va 5,7 % i pensiyaoldi yoshi va undan katta yoshdagilarni tashkil etgan. Erkaklar orasida rasmiy ro'yxatda 14,0 ming kishi qayd etilgan bo'lib, ularning 40,5 % i 18-30

yoshdagilar, 36,7 % i 30-50 yoshdagilar, 11,7 % i 16-18 yoshdagilar va 11,1 % i pensiyaoldi yoshi va undan katta yoshdagilardan iborat bo'lgan [6.33 b, 14-15 betlar].

N. Rahimovanning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan respondentlar umumiy ayollar salmog'ining 45,4 % ini tashkil etadi. Muallifning fikricha, ularning asosiy maqsadi kasbiy karyerani rivojlantirishdan ko'ra iqtisodiy manfaatdorlik va tadbirkorlik faoliyatiga e'tibor qaratishdir. Shu borada respondentlarning 47,9 % i aynan shunday fikrda bo'lgan. Istiqbolda kasbiy malaka, lavozim va darajani oshirishga ko'proq shahar ayollari qiziqadi (52,1 %), qishloq ayollarida bu ko'rsatkich 44,2 %, 20-24 yoshli ayollarda 57,9 %, 24-29 yoshli ayollarda 59,7 % va turmushga chiqmagan ayollarda 60,9 % ni tashkil etadi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasi xodimalari orasida bu ko'rsatkich 60,0 %, boshqaruv apparati xodimalari orasida 70,6 %, tadbirkor ayollarda esa 60 % ni tashkil qiladi [7.26 b].

Umuman olganda, keyingi yillarda O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik sohasida sezilarli ijobiy natijalar qayd etilmoqda. Xususan, 2017-yilda respublikada xususiy xizmat ko'rsatish va qurilish sohalarida oilaviy tadbirkorlikda ish bilan band bo'lganlarning ulushi 36 foizdan 52 foizga o'sdi. Bandlikni ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlar hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari natijasida 3,8 millionta yangi ish o'rnini yaratildi, ularning 74 foizdan ko'pi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri keladi [8.47 b].

Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish maqsadida "Yagona darcha" tamoyili joriy etildi. Bu tizimga muvofiq, tuman va shahar hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari asosida "Yagona darcha" markazlari tashkil etildi. Ular 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishni boshladi va shu orqali oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

2019-yilda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va o'z mehnati orqali daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida ushbu tizim izchil davom ettirildi. Bu borada ko'zda

tutilgan vazifalarni moliyaviy ta'minlash uchun 7,2 trillion so'm yo'naltirildi. Masalan, faqat Andijon viloyatida 21 543 nafar fuqaroga banklar tomonidan 358 milliard 350 million so'm imtiyozli kredit ajratilishi natijasida ushbu xonadonlar barqaror daromad manbaiga ega bo'ldi [9.18-19 betlar].

2020-yilning 1-yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini olib qo'yish va fermer xo'jaligidan boshqa xo'jaliklarga o'tkazish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar egaligidagi yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun taqdim etish vakolatlari mahalliy xalq deputatlari kengashlariga berildi [10. №105 son].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, respublika Prezidentining "O'zini o'zi band qilgan aholi daromad solig'idan ozod qilinadi" degan tashabbusi oilaviy tadbirkorlar hamda oddiy fuqarolar uchun qator imkoniyatlar yaratdi. Mustaqillik yillari davrida O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar tashkil etildi, bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hamda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Oilaviy tadbirkorlik va uning yordamchi sohasi hisoblangan kasanachilikning rivojlanishi, ayniqsa, qishloq hududlarida ishsizlikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Eng asosiy jihati shundaki, mustaqillik yillarida ushbu sohaning qayta tiklanishi "Har bir oila – tadbirkor" dasturi orqali yangi ish o'rinlari yaratish, bandlikni ta'minlash va o'z mehnati orqali daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatishda davom etmoqda. Shu jarayonda davlat tomonidan belgilangan moliyaviy resurslar yo'naltirilishi ham soha rivojiga va qo'llab-quvvatlashga sezilarli hissa qo'shganligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ubaydullayeva R.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ayollar va mehnat // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar .-1999.-B.23-bet.
2. O'lmasov A. Oila iqtisodi. T., "Mehnat". 24-bet.
3. Golovanov A. Mustaqil iqtisodiy siyosat strategiyasi. // Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. T.. 2001. 96-bet.
4. Tolipov F. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tarixining ayrim jihatlari xususida. // "O'tmishga nazar". T., 2019. №12 son. 78-bet.
5. Majidov N, Namatov E . Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesning roli. T. 2009, 74-bet.

6. Ata-Mirzayev O, Ubaydullayeva R. va boshqalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston aholisining bandligi.// O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. Toshkent, 2006-yil. 33-bet. Yana qarang: Ганиева Г. Женский вопрос и проблемы женщин в Узбекистане (1991-2005) // Автореферат на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Т., 2006. С 14-15.

7. Рахимова Н. Повышение экономической активности женщин на рынке труда Узбекистана. // Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т., 2007. С 26.

8. Mahalla - xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markazi. Т.. 2015.47-b.

9. Davkarayev B. Xususiy tadbirkorlik - iqtisodiy taraqqiyotning muhim tayanchi. // Huquq va burch. №01(121)2016. 18-19-betlar.

10. O'zini o'zi band qilgan aholi daromad solig'idan ozod etiladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-may kuni tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. // "Xalq so'zi", 2020-yil, 20-may. №105.

TARIX**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASI TARIXINI TADQIQ ETISHNING AYRIM MASALALARI**

Fayzulla Tolipov,
Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari doktori.

UO‘K: 346,26 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tarixshunosligi masalalari turli soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar negizida, ya’ni tarix, iqtisodiyot va sotsiologiya yo‘nalishlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari misolida tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются вопросы историографии развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане на основе исследований, проведенных специалистами различных направлений, а именно, на примере научных исследований в области истории, экономики и социологии.

Annotation: The article analyzes the issues of the historiography of the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan on the basis of research conducted by specialists in various fields, namely, on the example of scientific research works in the fields of history, economics and sociology.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, tarixshunoslik, olim, tarixiy tahlil, mustaqillik, tadqiqot, mavzu, ayollar, bandlik, xorij, mulk, ajdodlar, sanoat, adabiyot, manba.

Ключевые слова: Малый бизнес, предпринимательство, историография, ученый, исторический анализ, независимость, исследование, тема, женщины, занятость, иностранец, собственность, предки, промышленность, литература, источник.

Key words: Small business, entrepreneurship, historiography, scientist, historical analysis, independence, research, topic, women, employment, foreign, property, ancestors, industry, literature, source.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Bu esa kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni yanada jadallashtirish, buning uchun esa sohani yanada kengroq, turli aspektlarda tadqiq etish imkonini berdi. Unga muvofiq soha rivojiga to‘siq bo‘luvchi barcha

cheklovlarni bartaraf etish, sohaga to'liq erkinlik berish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi hamda uning nazariy asoslari yaratildi. Bu esa O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy nuqtai nazardan ilmiy tadqiq etish, olib borilgan tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish imkonini berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahliliga ko'ra, muammoning xorijda hamda mustaqillik yillarida turli soha mutaxassislari tomonidan o'rganilishini yaratilgan nashrlar, jumladan tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquq, sotsiologiya yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlari va mavzuga taalluqli tahliliy materiallar tashkil qiladi. Shu bois mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil etish uchun mavzuga oid adabiyotlarni masalaning xorijda o'rganilishi va mahalliy olimlarning nashr etgan adabiyotlari tarzida turkumlashtirildi.

Bu borada xorijiy olimlardan Piter Druker, Yezef Shumpeter, L.Mizes va F.Xayek, K.Makkonnel va S.Bryu, R.Xizrich va M.Piterslar ilmiy izlanishlari masalani tarixiy yo'nalishda tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ya'ni, yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar tomonidan o'z davrida bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, iqtisodiy asoslari, sohani yanada rivojlantirish, jumladan xorijda ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari ma'lum yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mavzu tarixshunosligi bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan tarixiy mavzuda yaratilgan adabiyotlar alohida ahamiyatga molik bo'lib, mazkur adabiyotlar birmuncha manbalarga boyligi, masalaning u yoki bu jihatlari tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Ularda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, mazkur yo'nalishda aholi bandligini ta'minlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda uning ustuvor yo'nalishlarini yanada rag'batlantirish masalalari bayon qilingan. Bu borada R. Abdullayev, A. Roziqov, Sh. Raxmatullayev, M. Raximov, E. Nuriddinov, Sh. Ziyomov, F. Rashidova, A. A. Maroziqov, T. Mo'minov, N. Oblomurodov, A. Hazratqulov,

Q. Usmonov, M. Sodiqov, V. Ishquvatovlarning o‘z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari e‘tiborga molik.

Agar jahon xalqlari tarixiga e‘tibor qaratilsa, tadbirkorlikning shakllanishi hamda mohiyati, uning muhim shaklining biznes yuritish, iqtisodiy ishlab chiqarish, savdo, tijorat, xizmat ko‘rsatish sohalarida muhim rol o‘ynashi, bu borada kichik biznesning o‘rni xususida xorijlik olimlarning tadqiqotlari e‘tiborga molikdir. Masalan, sohaning shakllanish tarixi va mohiyati xususida Piter Druker, Yezef Shumpeter, L.Mizes va F.Xayek, K.Makkonnel va S.Bryularning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Jumladan, amerikalik iqtisodchi olim Yezef Shumpeter (1883-1950) tadbirkor uchun mulk egaligi maqomining shart ekanligini inkor qilib, uni kishilarning turli tabaqalariga xosligini asoslaydi. U o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” kitobida tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini iqtisodiy taraqqiyotning boshlang‘ich omili sifatida ta’riflagan. Shuningdek, bu borada avstriyalik olimlar L.Mizes va F.Xayek o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlikning xususiyatlari, uning o‘zgaruvchan iqtisodiy – ijtimoiy hodisalarga bardosh bera olishi, ko‘nika olishi, moslasha olishi, shuningdek, tadbirkorlarning iqtisodiy tizimni muvozanatlashtirishdagi va tartibga solishdagi rolini tahlil qilishga jiddiy e‘tibor qaratganlar. Amerikalik iqtisodchi olimlar R.Xizrich va M.Piterslar esa o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlikning mohiyati va tarixiy tendensiyalari xususida qayd etganlar [1.].

Demak, xorijlik ayrim olimlarning so‘nggi o‘rta asrlar davriga oid tadqiqotlaridan shuni anglash mumkinki, G‘arbda ushbu yo‘nalish o‘z davrida jadal rivojlana boshlagan. To‘g‘ri, bu borada o‘sha kezlarda dastlabki yozma manbalar, asarlar vujudga kela boshlagan bo‘lsa-da, sohani ilmiy o‘rganish yoki tadqiq qilish g‘arblik olim va mutafakkirlarning ilmiy ishlarining tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Ammo bu boradagi ayrim tadqiqotlar o‘sha paytlarda o‘ziga xos ilmiy maktablar shakllana boshlaganligini tasdiqladi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga oid Turkiston o‘lkasida zamonaviy tadbirkorlik asoslari borasidagi tadqiqotlar orasida M. Virskiyning izlanishlari birmuncha samaralidir. Jumladan, u 1898-yilda “Turkiston tijorat manzilli

kalendari” (“Turkestarskiy kommercheskiy adres-kalendar”) tuzilganligi o‘lkadagi savdo va tijorat korxonalari va boshqa tadbirkorlik obyektlari xususida ma’lumotlar olishda anchagina ko‘mak berganligini qayd etadi. To‘plamda o‘sha davrda Samarqand, Farg‘ona, Sirdaryo viloyatlari va Buxoro amirligidagi rus kapitali (sarmoyalari) ishtirokidagi barcha xususiy savdo-sanoat firmalari, tijorat korxonalari, do‘konlar, bozorlar, banklar, reklama tarqatuvchi firmalar ro‘yxati, ularning manzili, ishlab chiqarish va daromad manbalari aks etgan [2.].

Shuningdek, XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi sanoat tarmoqlari, jumladan xususiy sanoat korxonalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar V. V Zaorskaya, K.A Aleksandrlarning “Промышленные заведения Туркестанского края” nomli asarida maxsus keltirib o‘tilgan. Mazkur asar biz uchun anchagina salmoqli bo‘lib, unda o‘lkadagi xususiy tadbirkorlik korxonalari haqidagi ma’lumotlar hududlar kesimida berib o‘tilgan. Unda o‘lkadagi jami 220 ta xususiy paxta tozalash zavodidan 117 tasi, shu jumladan, Farg‘ona oblastida 94 ta, Samarqandda 15 ta va Sirdaryo oblastida 8 ta zavod milliy burjua vakillari qaramog‘ida bo‘lgan, 75 ta ko‘n-teri zavodidan 54 tasi, 34 ta sovun tayyorlash zavodidan 20 tasi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Bu borada mualliflarning keltirgan ma’lumotlariga qaraganda, Turkistondagi barcha sanoat korxonalarida 20925 ishchi bo‘lib, ulardan o‘zbeklar 12702 kishi, tojiklar 1142, qirg‘izlar va qozoqlar 944 kishi edi [3].

Ammo sovet tuzumi hukmronlik qilgan kezlarda davlatning xususiy mulkka nisbatan olib borgan teskari siyosati natijasida xususiy tadbirkorlik unutildi, o‘z mohiyatini yo‘qotdi. Davlatning mol-mulkka va sanoat ishlab chiqarishga nisbatan olib borgan teskari siyosati natijasida bu boradagi tadqiqotlar ham cheklandi. Faqatgina XX asrning 90-yillari boshlari, aniqroq qilib aytganda, O‘zbekiston mustaqilligi ostonasi va mustaqillikning ilk yillaridan e’tiboran ushbu sohaning qayta tiklanishi va rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Ya’ni, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida mavzu tarixshunosligi bo‘yicha mahalliy olimlar tomonidan tarixiy mavzuda yaratilgan adabiyotlar alohida

ahamiyatga molik bo‘lib, mazkur adabiyotlar birmuncha manbalarga boyligi, masalaning u yoki bu jihatlari tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Bu borada A. Razzoqov, G. Agzamova, R. Abdullayev, Sh. Raxmatullayev, M. Raximov, E. Nuriddinov, Sh. Ziyomov, F. Rashidova, A. Golovanov, T. Mo‘minov, V. Ishquvatov, A. Maroziqovlarning o‘z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari salmoqlidir. Nashr etilgan adabiyotlarda mualliflar kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish omillari, oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilikning davlat taraqqiyotidagi o‘rni masalalariga o‘z tadqiqotlari doirasida yondashganlar.

Ayniqsa, tarixiy va iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida A. Razzoqov ishlari salmoqli bo‘lib, muallif XVI – XVIII asrlarda shayboniylar, ashtarxoniylar hukumronligi davriga kelib, tadbirkorlikning ilk shakllari yanada rivoj topgan. Xususan, bu davrda Marg‘ilon va Samarqandda zamonaviy ko‘rinishdagi tadbirkorlik korxonalarining ilk ko‘rinishlari shakllana boshlagan. Qo‘qon va Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish, Namanganda metalsozlik, Buxoroda cho‘yan buyumlar tayyorlash tobora o‘sib bordi. Masalan, Qo‘qonda Mallaxon davrida (1858-1862 yy) ilk zambarak tayyorlovchi xususiy korxonaga asos solinganligi fikrimiz dalilidir, deb yozadi [4.]. U o‘zining “Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari” kitobida o‘lkada tadbirkorlik shakllanishini va rivojlanishining tarixiy tendensiyalari va omillarini o‘rgangan.

G. Agzamova shaharlarda tadbirkorlikning ilk ko‘rinishi sifatida yuzaga kelgan hunarmandchilik turlari va ularning rivojlanish xususiyatlariga e‘tibor qaratgan. Uning yozishicha, hunarmandchilikning turli shakllari, ayniqsa uy hunarmandchiligi rivoj topganligi bois, aholi shahar va mahallalarida o‘z kasb-koriga qarab joylashgan. Ya’ni, har bir yirik shaharlardagi mahallalar tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi, ya’ni aholining kasb-koriga qarab nomlangan. Samarqandda XVI asrda 61 xil hunar bo‘lgan. Mato to‘quvchilar (bofandagon), ro‘mol to‘quvchilar (chahor-gulbafon), salla tikuvchilar (futabaron), bo‘yoqchilar (sabbag‘on), degrezlar (ohangaron), kulollar (kulolgaron), pichoqsozlar (kordagaron), qog‘ozgarlar va boshqalar [5].

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik va uning rivojida xorijiy investitsiyalar ishtiroki masalalari F. Rashidova tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u o‘z dissertatsiyasida respublikadagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, xorijiy kapital ishtirokidagi kichik tadbirkorlik markazlari, respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoyaga asoslangan korxonalar, O‘zbekistondagi faol investitsion muhit, kichik qo‘shma xorijiy korxonalar faoliyati masalalarini tadqiq etgan. Muallif O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasini o‘rganar ekan, hali bu borada qator muammolar majudligini uqdiradi.

Masalan, muallifning yozishicha, mamlakat mustaqillik yillarida ishbilarmonlik va investitsion muhitning xalqaro parametrlari doirasida “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish indeksi”, “Logistika effektivligi indeksi”, “Insoniyat taraqqiyoti indeksi”, “Global raqobatbardoshlik indeksi”, “Dunyo mamlakatlari xususiy mulk himoyasi indeksi”, “Dunyo mamlakatlarini xalqaro savdoga jalb qilish indeksi” larida umuman ishtirok etmadi. Ma’lumolarga ko‘ra, xalqaro investitsion muhit jozibadorligi doirasida “Fitch Ratings, Moodys, Standart & Poors” xalqaro tashkilotlari reytingida umuman ishtirok etmayotgan bo‘lsa, Konsensus “OESR va SOFACE” da quyi o‘rinlarni egallab kelmoqda, bu, shubhasiz, mamlakatimizda tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni yaratib berishda hali ko‘plab muammolar borligini ko‘rsatmoqda [6].

A. Maroziqov O‘zbekiston mustaqilligi arafasi va uning dastlabki yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining yangi tarixiy davriga qadam qo‘yganligini, mustaqillikning taraqqiyot davrida bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekistonda mintaqalarning rivojlanish xususiyatlariga e’tibor berilganligi, bunda ishlab chiqarish markazlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar, qishloq xo‘jaligi xomashyosi va mehnat resurslaridan to‘laroq foydalanish hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada ko‘tarish imkoniga

ega bo'lganligi Farg'ona viloyati misolida tadbirkorlik sohalari rivojini tadqiq etgan [7].

Muallif o'z tadqiqotlari va ilmiy maqolalarida Farg'ona viloyatida paxtani qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlar, jumladan sopol buyumlar ishlab chiqarish, ip va kalava tayyorlash, do'ppido'zlik, atlas va adraslar tayyorlash, gilamchilik an'analari rivoji va ayniqsa hunarmandchilikda Rishton kulolchilik maktabining o'rnini alohida ta'kidlaydi [8.].

Mustaqillik davrida xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi o'rni masalalari esa olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqot ishlarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, xotin-qizlarning soha taraqqiyotiga qo'shgan hissalar, ayniqsa ular bandligini ta'minlash, iqtisodiy faolligini oshirish, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki masalalari yangicha talqinlar asosida V. Baumgertner, O. Nemirovskaya, R.B Murtazina, R. A Ubaydullayeva, G.Ganieyva, N.Jo'rayevalar ishlarida o'z aksini topgan. Ushbu risola va maqolalarda tadbirkorlik mavzusiga tegishli masalalar, xususan uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy jihatlari yoritilgan.

Mavzu yuzasidan tarixshunoslik materiallarining tahliliga ko'ra, iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham e'tiborga molikdir. Ularda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlari, ba'zi o'rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari bayon qilingan. Ya'ni, ushbu tarixiy davrda yaratilgan fundamental tadqiqotlar, monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nazariy jihatdan o'rganilgan. Tarixdan ayonki, tadbirkorlikning tarixiy-nazariy tahlili dastlab G'arbda boshlangan bo'lsa-da, uning mohiyati va rivojlanishiga taalluqli ko'p qirrali bilimlar dastlab Sharqda tarkib topib, so'ngra G'arbda ilgari surilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu borada M.Nasritdinova va O.Ahmedovlar jahon tarixiy taraqqiyotida tadbirkorlik faoliyatining 5 ta asosiy farqlanuvchan davrini ko'rsatib, ularni quyidagi muhim tarixiy davrlarga bo'ladilar:

1) Tadbirkorlikning texnik qurollanish davri (1820-1900-yillar): ushbu

davrda barcha sanoat sohalorida inqilobiy o'zgarishlar, yangi texnik vositalariga asoslangan ishlab chiqarish bunyodga keldi; 2) Ommaviy ishlab chiqarish davri (1900-yildan boshlab XX asrning 30-yillari): bu davr tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo'nalishi ommaviy ishlab chiqarishni tobora samarali shaklda barpo etishga va mahsulot tannarxini kamaytirish borasidagi urinishlar bilan ifodalanadi; 3) Ommaviy ayirboshlash davri (XX asrning 30-yillaridan to 50-yillarigacha): bu davrda tadbirkorlik faoliyatida asosiy e'tibor ishlab chiqarishdan bozor talablari, xaridor ehtiyojlari sari yo'naltirishni talab etgan davrdir. Aynan shu davrda ilk marketing nazariyasi amaliy qaror topgan; 4) Yuqori industrlashgan davr (XX asrning 50-yillaridan 70-yillarining o'rtalarigacha): bu davrda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish sohalari hamda darajasining kengayishi bilan ajralib turadi; 5) Zamonaviy tadbirkorlik davri (XX asr 70-yillaridan boshlab to hozirgacha bo'lgan tarixiy davr): bu davr sohada vujudga kelgan yangi o'zgarishlar jarayonini o'z ichiga oladi. Bu davrda tadbirkorlik va biznes keng ko'lamda xalqaro tus oldi va bu tobora internatsionallashuv, innovatsion texnologiyalar jarayoni sifatida rivojlandi [9].

Shu o'rinda qayd qilish joizki, sohaning O'zbekistondagi tarixiy taraqqiyoti ham e'tiborga molik bo'lib, uni iqtisodchi olim A. Qulmatov quyidagi 3 ta katta tarixiy davrga bo'ladi:

1. Podsho Rossiyasi imperiyasi hukmronligi davri (1865-1917-yy);
2. Sobiq sovet davlati hukmronligi davri (1917-1991-yy);
3. O'zbekiston mustaqilligi davri [10].

Muallif tadbirkorlik rivojining iqtisodiy va o'zgarishining mohiyatiga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, uning tarixiy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlari, jumladan har bir tarixiy davr nuqtai nazaridan kichik biznes va tadbirkorlik sohalarining mazkur davr talablariga tez moslasha olishi, jumladan har qanday sharoitda, ayniqsa tez-tez sodir bo'luvchi jahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozlariga moslanuvchanligi va shu inqirozlardan kam talofat bilan chiqa olishi

bilan xarakterli ekanligini qayd etadi. Uning yozishicha, XX asr boshlarida Turkistonda dastlabki zamonaviy tadbirkorlik shaklidagi savdo uylari va sanoat obyektlari ham paydo bo'la boshladi. Bunday tadbirkorlik subyektlari XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng turli sohalarni qamrab olib, keng ko'lamda rivoj topa boshladi.

Umuman, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarning qisqacha muhtasari tahlili O'zbekiston mustaqilligi yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanish tarixi va evolyutsiyasi masalasi tarix fanida yetarlicha tadqiq etilmaganini ko'rsatdi. Hozirgacha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimining iqtisodiy, sotsiologik, huquqiy, ekologik, demografik omillar bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur masala tarixiy aspektida ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Ushbu holatlar nazarda tutilib, mazkur mavzuni ilmiy maqola doirasida qisqa tahlil etish maqsad qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -Москва., 1982. - С 21., Бусигин А.В. «Предпринимательство в конце XX века» -Москва., - С 34., Хизрич Р, Питерс М. Предпринимательство. Вып.1 –Москва., 1991. – С 10.
2. Вирский М. Сведения о Зерафшанском округе. // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. IV. 187. -Ташкент., - С 10-122.
3. Заорская В.В, Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. -Ташкент., 1915. Том 2. – Стр. 39.
4. Раззоков А. Иктисодий тафаккур сарчашмалари. -Тошкент.: “Ўзбекистон”. 2011. – 181-б.
5. Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо.-Тошкент., 2000.
6. Рашидова Ф. Зарубежные инвестиции в формировании и развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан (Исторический аспект). Диссертация доктора философии (Phd) по историческим наукам. -Ташкент, 2019. – Стр. 134.
7. Maroziqov A. Mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona viloyatida tadbirkorlik: erishilgan natijalar va mavjud muammolar tahlili// Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy anjumani materiallari -Namangan. 2020., 619-б.
8. Maroziqov A. Rishton kulochilik maktabi.// O'tmishga nazar. 2019. №16.
9. Nasritdinova M, Axmedov O. Biznes strategiyasi.-Toshkent.1996,12-13-б.
10. Qulmatov A. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. -Toshkent.: “Sharq”. 2004.123-124-б.

TARIX

MUZEY FAOLIYATIGA NIGOH



**Sobirov Sobirjon,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi kichik
ilmiy xodimi**

UO'K: 346,26 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada Urganch suratlar galereyasining shakllanishi va O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyiga aylanish jarayoni yoritiladi. Galereyaning tarixiy binosi, undagi ko'rgazmalar, rassomlar ijodi hamda muzey fondida saqlanayotgan asarlar haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Xorazm rassomlari ijodida milliy an'analar, tarixiy mavzular va badiiy maktablarning xususiyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается история создания Ургенчской картинной галереи и её преобразования в Музей современного искусства Узбекистана. Приводится общая информация об историческом здании галереи, её экспозициях, творчестве художников и произведениях, хранящихся в музейной коллекции. Также анализируются национальные традиции, исторические темы и особенности художественных школ в творчестве художников Хорезма.

Annotation: The article covers the formation of the Urgench Picture Gallery and its transformation into the Museum of Contemporary Art of Uzbekistan. General information is provided about the historical building of the gallery, its exhibitions, the work of artists, and the works stored in the museum's collection. It also analyzes national traditions, historical themes, and features of art schools in the work of Khorezm artists.

Kalit so'zlar: Xorazm tasviriy san'ati, Urganch suratlar galereyasi, O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyi, rangtasvir, haykaltaroshlik, qalamtasvir, milliy me'morchilik, muzey fondi, ko'rgazma, badiiy meros.

Ключевые слова: изобразительное искусство Хорезма, Ургенчская картинная галерея, Музей современного искусства Узбекистана, живопись, скульптура, графика, национальная архитектура, музейный фонд, выставка, художественное наследие.

Key words: Khorezm visual arts, Urgench Art Gallery, Museum of Contemporary Art of Uzbekistan, painting, sculpture, graphic arts, national architecture, museum collection, exhibition, artistic heritage.

Xorazm tasviriy san'atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar alohida ajralib turadi. Bu borada T.Quryozov va O.Allaberganovlarning asarlarini keltirish mumkin. Ularning ijodiy ishlarida reallik, oydinlik, sharqona nafislik, umumiy

falsafiy tafakkur, badiiy ko'rkamlik, tugallik, sokinlik va ijodkorlik to'la o'z ifodasini topadi. Xorazm rangtasvir san'ati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda va iqtidorli yosh rassomlar yetishib chiqmoqda.

Mavjud galereyalar O'zbekistonning hozirgi san'ati taraqqiyotining turli xil tamoyillarini namoyish etadi. Ularning hammasi yangi ijtimoiy-madaniy muhitda kamol topayotgan yosh rassomlar ijodini taqdim qilmoqda.

Markaziy Osiyodagi bir qator tarixiy-madaniy vaziyatlar bilan mustahkamlashgan hozirgi badiiy jarayon mantiqi shunga olib boradiki, san'at o'zining milliy o'ziga xosligini yo'qotmasdan, yangi ma'naviy timsollarga yetish yo'liga chiqib bormoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon mamlakatimizda qator xorijiy davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan bo'lsak, elchilarning birinchi qadamlari madaniyat va san'at yo'nalishidagi uzviy aloqalarimizni rivojlantirishga bag'ishlanadi.

Urganch suratlar galereyasi butun O'zbekistonga tarqalgan va keng miqyosdagi tomoshabinlar e'tiboriga tushmagan muzeylar sirasiga kiradi. Galereya hammamizga tanish bo'lgan Ermitaj, Tretyakov galereyalari bilan tenglasha olmaydi albatta, ammo respublika madaniyatida o'z o'rniga ega.

Urganch shahrida badiiy markaz ochish to'g'risidagi fikr 1982-yili paydo bo'lgan va 1983-yili Al-Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan ochilgan. Galereya uchun tarixiy bino (1912-yilda qurilgan pochta binosi) ajratildi. Bu binoda ikkita asosiy ko'rgazma zali bo'lib, har bitta zal 256 kv.m.ni tashkil etadi. Suratlar galereyasi badiiy muzey bo'lib, ushbu madaniy-ma'rifiy muassasa to'g'risida umumlashtirilgan holda galereya joylashgan bino, uning ekspozitsiya zallarida namoyish etiladigan eksponatlar hammasi birgalikda tugal yechimga egaligi, ya'ni, badiiy jihatdan bir-birini to'ldirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va tomoshabinning e'tiborini tortadi. Chunki, bino qadimiyligi, milliy uslubda yaratilgan arxitektura ansamblidan tashkil topganligi bilan diqqatga sazovor maskan hisoblanadi. Eksponatlarni saqlash uchun fond mavjud va uning maydoni 104 kv.m.ni tashkil etadi, eksponat saqlash xonasi - 104,0 kv.m, duradgorchilik xonasi - 24,3 kv.m, fotolaboratoriya - 11,0 kv.m, qabulxona - 13,0 kv.m, xo'jalik, ta'mirlash xonalari va ustaxonalar, ma'ruza xonalari ham shular jumlasidandir.

O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyi uchun doimiy va asosiysi, aholining diqqat markazida bo'lishini ta'minlash maqsadida shaharning aholi gavjum joylashgan yeridan bino ajratish ishlari ham alohida mas'uliyat va e'tibor talab etdi va shahar markazida joylashgan "Eski pochta binosi" tanlandi. Bino 1910-1912-yillarda qurib bitkazilgan bo'lib, uning qurilishida Xorazm milliy me'morchiligi va Yevropa me'morchiligi uslublarini uyg'unlashtirgan holda yuksak did va mahorat bilan foydalanilgan. Bu binoning o'ziga xos "tarixi" ham

bo‘lib, davr taqozosi bilan dastlab bu binoda 1924-yilda Xorazm Xalq Respublikasining yangi Urganch harbiy komissariyati faoliyat olib borgan bo‘lsa, keyinchalik, ya’ni 1939-1983-yillarda bosh aloqa vositasi bo‘lgan “pochta” binosiga aylantirilgan. 1924-yilda binoning old maydonida sho‘ro askarlari hamda erk va mustaqillik uchun kurashgan vatan fidoyilari o‘rtasida qonli to‘qnashuv bo‘lib o‘tgan. Shu bois ham ushbu bino xalqimiz tarixining guvohi hamda ma’naviyat maskani sifatida xalqimizda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini uyg‘otuvchi tarixiy maskan hisoblanadi. Bu joy milliylik ruhida yaratilgan bo‘lib, ters ayvon ko‘rinishida qurilgan. Ayvondagi ustunlar XIX-XX asrlarda Xiva me’morchiligi uslubida yuksak darajada ishlangan. Ushbu ustunlarning ikkitasi esa Xorazm yog‘och o‘ymakorligi maktabi asoschilaridan bo‘lgan usta Ota Polvonov (1867-1972) tomonidan yaratilgan. Keyinchalik galereya binosini qayta ta’mirlash ishlari olib borilgach, yillar davomida sifatini yo‘qotib, yaroqsiz holga kelgan bu ustunlar yangilari bilan almashtirildi. Qayta qurilgan ayvonning barcha ustunlari xorazmlik mashhur ustalar tomonidan Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabining o‘zgacha, yurtimizda faoliyat yuritayotgan boshqa yog‘och-o‘ymakorlik maktablaridan o‘z uslubi bilan tubdan farq qiluvchi o‘yma naqshlar bilan mohirona ishlangan bo‘lib, bu ham milliy hunarmandchiligimizning o‘ziga xosligini ko‘rsatib berish uchun bir asos bo‘lib xizmat qilgan. Binoning asosiy kirish qismiga Buxoro yog‘och o‘ymakorligi ustalari tomonidan yaratilgan to‘rtta ikki tabaqali o‘ymakor eshik o‘rnatilgan bo‘lib, ulardagi o‘yma islmiy naqshlar kishida o‘ziga xos hayrat va havas uyg‘otadi. Bu naqshlardagi uyg‘unlik va joziba dunyoning boshqa hech bir maskanida uchramaydi. Binoning joylashish o‘rni va arxitekturasi “Galereya” binosi talablariga mos kelgani uchun shahar markazidan joy olgan bu bino galereya uchun qayta rekonstruksiya qilindi. Galereya binosi uchun arxitektorlarning yangi loyihalari ko‘rib chiqildi va arxitektor Azamat To‘xtaev muallifligidagi loyiha tasdiqlandi. Bino “P” harfi shaklida bo‘lib, umumiy xonalar maydoni 1052 kvadrat metrdan iborat. Binoning bezak ishlarida ham milliy an‘analarimizdan bo‘lgan yog‘och o‘ymakorligi uslublaridan o‘ziga xos tarzda foydalanilgan. Eshiklarning o‘ng va chap taraflarida joylashgan ikkita ayvonlar esa ochiq havoda ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 300 kv. metrni tashkil qiladi. Loyihada binoning o‘rta qismida kirish vestibulyi, vestibulning ikki tomonida ekspozitsiya zallari joylashgan bo‘lib, 256 kv. metr maydonga ega. Rekonstruksiya ishlari olib borilgach, nihoyat 1983-yilning avgust oyidan “Urganch suratlar galereyasi” nomi bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Ayniqsa, mustaqillikka erishilganidan keyingi yillarda yurtimizda “Milliy an‘analarimiz va madaniyatimizni qayta tiklash” borasidagi ishlarga davlat ahamiyati darajasidagi e’tibor tufayli muzeylar va ularni qayta tiklab, ular

faoliyatini rivojlantirish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi natijasida Urganch Suratlar galereyasida ham ijobiy o‘zgarishlar qilinib, diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Muassasa tashkil etilganidan buyon viloyat madaniyat ishlari, keyinchalik, madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tarkibida faoliyat olib bordi. 2012-yildan boshlab Urganch shahar hokimining 2011-yil 30-dekabrda 1946-q sonli qaroriga asosan qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ldi va mustaqil faoliyat yurita boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”ning 2a (3,4) ilovasiga asosan “Urganch Suratlar galereyasi”ning nomi “O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi”ga o‘zgartirilib, 2018-yildan qayta tashkil etildi. 2018-yil yanvar oyidan O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi nomi bilan qayta tashkil etildi.

Muassasaning to‘liq nomlanishi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi” deb yuritiladi.

Muzeyning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Urganch shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 21-uy. Indeks: 220100.

O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi hozirgi kunda viloyatda madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida samarali faoliyat ko‘rsatib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha e’tiborga molik tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, muassasa viloyatda tasviriy san’atning zamon bilan hamnafas rivoj topishi, shu soha vakillarining ijodiy faoliyatlari, ularning o‘zaro ijodiy hamkorligi borasidagi ishlarda o‘ziga xos o‘rin tutadi, shu bilan birga, uning ko‘pmillatli xalqimizni o‘z xazinasida saqlanayotgan rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, gobelen, an’anaviy va badiiy kulolchilik yo‘nalishi va uslublarida yaratilgan bebaho asarlar bilan yaqindan tanishtirib, tasviriy hamda amaliy san’atning tarixi, nazariyasi, buguni haqida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda muzey fondida 200 dan ortiq, nafaqat Xorazm viloyati yoki O‘zbekistonimizda, balki, Osiyo va Yevropa mamlakatlarida taniqli bo‘lgan ijodkor rassomlarning tasviriy san’at asarlari, shuningdek, haykaltaroshlik hamda xalq amaliy san’ati ustalarining 650 dan ortiq bebaho asarlari saqlanmoqda. Bundan tashqari, vaqtinchalik kirim kitobi bo‘yicha 400ga yaqin ijod namunalari yig‘ilib, galereya fondini boyitish ishlari davom qildirilmoqda. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Keyingi yillarda galereyada mustaqillik g‘oyalari singdirilgan, xalqimizning boy madaniy merosi, milliy qadriyatlarimiz aks ettirilgan fuqarolarimizda ona Vatanimizga bo‘lgan hurmat, ehtirom, sevgi va sadoqatni

shakllantiruvchi mustaqillikka bag'ishlangan ekspozitsiyalar tashkil etildi. Doimiy ravishda turli mavzularda qiziqarli ko'rgazmalar o'tkazib kelinmoqda.

Madaniyat vazirligi Rassomlar uyushmasi bilan birgalikda rangtasvir, qalamtasvir va haykaltaroshlik asarlarini saralash ishlarini olib bordi. Keyinchalik har yili galereya xodimlarining o'zlari tanlov asosida ajratilgan mablag' evaziga asarlar sotib ola boshlashdi.

O'zining birinchi tashkil topgan yillaridanoq Urganch suratlar galereyasi san'at markaziga aylana bordi va shu bilan bir qatorda professional darajadagi rassomlarning ijodining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Tasviriy san'at asarlarini to'plash bilan galereyaning ilmiy xodimlari shug'ullanishadi. Hozirgi paytga kelib uning zahirasida mingdan ortiq asar mavjud - rangtasvir, qalamtasvir va haykaltaroshlik asarlari. Qisqa davr ichida to'plam katta zahiraga aylandi. Asarlarning ko'pchilik qismini shu yerlik rassomlarning asarlari tashkil qiladi va shular qatorida O'zbekistondagi taniqli rassomlarning asarlari ham mavjud. Bu yerda keng miqyosda taniqli xalq rassomlaridan R.Ahmedov, Ch.Ahmarov, N.Qo'zibayev, R.Choriyev, D.Umarbekov, B.Jalolov, A.Isayev, Ya.Krikis va boshqa rassomlarning asarlari ham doimiy ekspozitsiyadan joy olgan.

Rangtasvir asarlari bilan bir qatorda L.Ibragimov, M.Sodiqov, G.Boymatov, M.Kagarov, P.Kichko va boshqalar singari qalamtasvir ustalarining to'plamlari ham yig'ilgan. Haykaltarosh ustalardan I.Jabborov, E.Aliyev, D.Ro'ziboyev, Sh.Usmonov, R.Hotamov, Ye.Sshanova asarlari doimiy ko'rgazmadan o'rin olgan.

Galereyaning ish faoliyati tasviriy san'atni ommaga keng ravishda targ'ib qilish, ko'chma ko'rgazma va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bilan birga har bir insonning qalbiga kirib borib, o'z xalqining madaniyati va san'atini o'rganishga ko'mak bo'ladi.

Urganch suratlar galereyasining ish faoliyatiga bugungi kungacha maxsus ilmiy izlanish nuqtai nazaridan qaralmagan. U haqidagi ma'lumotlarni faqatgina informatsion dasturlardan olish mumkin. Galereya zahirasida mingdan ortiq ish bo'lishiga qaramasdan, ular Xorazm tasviriy san'ati va Urganch suratlar galereyasining rivoji haqida to'laligicha ma'lumot bera olmaydi.

Galereya zahirasida saqlanayotgan asarlarni tahlil etish va umuman galereya bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyatida Urganch suratlar galeriyasidan tashqari Xiva "Ichon qal'a" davlat muzey qo'riqxonasida "Xorazm tasviriy san'ati" doimiy ko'rgazmasi mavjud. Ko'rgazma "Ichon qal'a"ning g'arbiy tomonida 1804-1812-

yillarda qurilgan Qutlimurod inoq madrasasida tashkil qilingan. Ko'rgazmada hammasi bo'lib xorazmlik rassomlar tomonidan voha aholisining hayoti, madaniyati, an'analari va tabiatini aks ettiruvchi 52 ta eksponat joy olgan.

Ko'rgazmalar zalining umumiy maydoni 140 kv.m.ni tashkil qiladi. U yerda To'ra Quryazov, Pavel Kichko, O.Allaberganov, S.Xudoyberganov kabi rassomlarning ishlari namoyish qilinib kelmoqda. Bundan tashqari, ko'rgazmada syurrealistik yo'nalishda ijod qilgan mashhur xivalik rassom Rafael Davletshinning kartinalar jamlamasi ham namoyishga qo'yilgan.

Xorazm tasviriy san'atning barcha sohalarida ijodiy erkinlik yetakchilik qildi. Yangi san'atning yaralishida hukmronlik qilgan "sotsrealizm" aqidalari tazyiqidan xalos bo'lish eng muhim omillardan biri edi. Bu jarayon – me'morlik, teatr, musiqa, kino, tasviriy va amaliy san'atning o'ziga xos ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli yo'sinda namoyon bo'ldi. Muzey va galereyalar nafaqat ko'rgazmalar tashkil qilish, balki qimmatli asarlar kolleksiyalarini saqlash, ta'mirlash va ularni aholiga asl holida namoyish qilish kabi mas'uliyatli vazifalarni ham amalga oshiradi.

Agar muzey va galereyalarda tashkil qilinayotgan turli xil ko'rinish va mavzudagi ijod namunalari, ular orqali tomoshabinlarga berilayotgan qiziqarli va tarixiy ma'lumotlar uning nazariy ahamiyatini kasb etadigan bo'lsa, san'atning turli xil sohalarida ijod qilib kelayotgan sermahsul ijodkorlar ish faoliyati, ularning ijod namunalarini tomoshabinlarga bevosita yetkazish, ijodkorlar bilan tashkil qilinadigan ijodiy uchrashuv va mahorat darslari muzey va galereyalarning tashkil qilinishining amaliy ahamiyatini o'zida aks ettiradi, deya olamiz.

TARIX

O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI MASALALARINING TARIXSHUNOSLIGI



**Islombek
Abduxamidov,
Farg‘ona davlat
texnika universiteti
katta o‘qituvchisi,
t.f.f.d. (PhD)**

UO‘K: 331.556(575.1) A 15

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi masalalarining o‘rganilishi tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng mamlakatda mehnat migratsiyasi jarayonlarining jadallashuvi ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirgan bo‘lsa-da, masalaning tarixiy tadqiqi hali ham chuqur o‘rganilmagan. Maqolada tarixchilar, iqtisodchilar, demograflar, sotsiologlar, huquqshunoslar va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется изучение вопросов внешней трудовой миграции в Узбекистане с точки зрения историографии. Хотя ускорение процессов трудовой миграции в стране после обретения независимости усилило научные исследования в этом направлении, историческое исследование вопроса до сих пор глубоко не изучено. В статье проводится сравнительный анализ исследований, проведенных историками, экономистами, демографами, социологами, юристами и международными организациями.

Annotation: This article analyzes the study of external labor migration issues in Uzbekistan from a historiographical perspective. Although the intensification of labor migration processes in the country after independence has stimulated scientific research in this field, the historical aspects of the issue have not yet been thoroughly investigated. The article provides a comparative analysis of research conducted by historians, economists, demographers, sociologists, legal experts, and international organizations.

Kalit so‘zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy, demografiya, sotsiologiya.

Ключевые слова: миграция, трудовая миграция, экономическая, социальная, демография, социология.

Key words: migration, labor migration, economic, social, demography, sociology.

XXI asr boshlariga kelib, O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi masalalari ijtimoiy-gumanitar fanlarning mustaqil tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Respublikada yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ishsizlik darajasining ortishi, xalqaro mehnat bozorining ochilishi va global migratsion jarayonlarning faollashuvi bu masalaga ilmiy e‘tiborni yanada kuchaytirdi.

Shunga qaramay, O'zbekiston tarixshunosligida tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini aynan tarixiy nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari hali ham kam darajada hisoblanadi. Ushbu sohaga oid bo'lgan bir qator ilmiy tadqiqotlarda masalaga iqtisodiy, demografik yoki huquqiy jihatdan yondashilgan. Shu sababli mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi masalalarining o'rganilish tarixini tizimli tahlil etish, mavjud ilmiy yo'nalishlar va yondashuvlarni guruhlab, baholashdir.

Maqola tarixshunoslik tahlili, taqqoslama yondashuv, fanlararo tahlil va mintaqaviy yondashuv tamoyillariga asoslangan. Asosiy manbalar sifatida tarixchi, iqtisodchi, demograf, sotsiolog va huquqshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMgT), Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari hamda xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari o'rganilgan. Manbalar tahlili ularning mavzuga yondashuvini, ilmiy yangilik darajasini va tarixiy kontekstni qay darajada yoritganligini aniqlash imkonini berdi.

1. Tarixchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar. Milliy tarix fanida tashqi mehnat migratsiyasi masalalarining o'rganilishi asosan XXI asr boshlaridan boshlangan. Bu borada G. G'aniyeva, M. Xojimurodova, B. Isoqov, S. Yusupova va Sh. Salimovlarning dissertatsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. G. G'aniyeva xotin-qizlarning norasmiy migratsiya va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rgangan bo'lsa [1], M. Xojimurodova va S. Yusupova Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi demografik jarayonlarning aholi milliy tarkibiga ta'sirini tahlil qilib o'tganlar [2]. B. Isoqov aholi bandligi masalalarini o'rganar ekan, mehnat migratsiyasi bilan bog'liq jihatlariga qisqacha to'xtalgan [3]. Sh. Salimov mustaqillikning dastlabki chorak asridagi migratsiya masalalarini yoritgan bo'lsa [4], R. Murtazayeva XX asr oxiri – XXI asr boshlarida O'zbekistondagi migratsion o'zgarishlarni tahlil qilgan [5]. Mintaqaviy miqyosda Sh. Rahmatullayevning Farg'ona vodiysi shaharlaridagi ishsizlik va bandlik jarayonlarini o'rgangan tadqiqoti, G. Azamatovanning xotin-qizlar migratsiyasi va F. Yakubovning O'zbekiston aholisining Rossiya Federatsiyasi hamda Turkiya Respublikasidagi mehnat migratsiyasi masalalarini alohida e'tiborga olib o'tish mumkin [6].

2. Iqtisodchi, demograf, sotsiolog va huquqshunoslar tadqiqotlari. Iqtisodchi va demograf olimlar mehnat migratsiyasi masalalarini asosan iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi va daromadlarining ortib borishi nuqtayi nazardan o'z tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Masalan, iqtisodchi olim L. Maksakova o'z tadqiqotlarida mehnat migratsiyasini aholining bandligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholab, sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini aytib

o'tgan [7]. D. Rasulova, D. Junaydullayev, Sh. Isaqulov va D. Isroilova mehnat migratsiyasini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini ilmiy asosda ishlab chiqishgan [8]. Z. Qodirova O'zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integrasiyalashuv jarayonini, E. Muhitdinov esa mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyatini tahlil etgan [9]. Demografik tadqiqotlar orasida O. Abdullayev, R. Qodirov, A. Soliyev va N. Umarovalarning ilmiy tadqiqot ishlarini ham alohida ta'kidlab o'tish mumkin [10]. O. Abdullayevning tadqiqotida hududiy demografiya va mintaqaviy rivojlanish (xususan Farg'ona vodiysi) masalalariga e'tibor qaratilgan. U aholi soni, shaharlashuv, bandlik va mintaqaviy iqtisodiy toifadagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilgan. Tadqiqotda ko'proq makrostatistik analitikaga tayanilgan bo'lib, og'zaki tarix, idoraviy arxiv hujjatlari yoki migrantlarning empirik, etnografik materiallardan nisbatan kamroq foydalanilgan. R. Qodirov asosan demografik rayonlashtirish va hududiy rivojlanish muammolari bilan shug'ullangan bo'lib, Farg'ona mintaqasi misolida shahar va tumanlarning demografik xususiyatlarini tahlil qilib o'tgan [11]. Yuqoridagi tadqiqotlarda asosan Farg'ona vodiysi va hududiy demografiyaga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning ilmiy natijalari hududlarning o'ziga xosliklarini va migratsiyaning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlarga tarixiy manbalar, idoraviy arxivlar va migrantlar bilan olib borilgan intervyularni qo'shish orqali – mehnat migratsiyasining tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy oqibatlarini chuqurroq aniqlash mumkin bo'ladi.

Sotsiolog olimlar orasida F. Parmanov, N. Imomova, D. Ahmedova va X. Abdusamatovlarning ishlari e'tiborga molik [12]. Xususan, F. Parmanov migratsiyani boshqarishda inson omilini markazga qo'yadi. Ya'ni, siyosat va dasturlar faqat statistik ko'rsatkichlarga emas, balki migrantlarning hayotiy tajribasiga tayangan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan. N. Imomova esa migratsiyani ijtimoiy tarmoqlar, madaniyat va gender kabi omillar orqali tushuntirib o'tishga harakat qilgan. U o'z tadqiqotida mehnat migratsiyasi qarorining ko'p hollarda ijtimoiy normalarga tayanishini isbotlagan. D. Ahmedova migratsiyaning gender va oilaviy mexanizmlarga ta'sirini o'rganishga keng urg'u bergan. Ayniqsa, xotin-qizlar migratsiyasi masalasida u patriarxal tuzilma, ijtimoiy bosim va iqtisodiy majburiyatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilib o'tgan. X. Abdusamatov migratsiyaning psixologik va oilaviy oqibatlarini tadqiq etgan bo'lib, migrant oilalarda kuzatiladigan stress, an'anaviy o'zbek oilasida rollarning o'zgarishi va ijtimoiy uzilishlarni asosiy muammo sifatida ko'rsatib o'tgan. Yuqoridagi sotsiologik tadqiqotlar bir-birini to'ldirib, migratsiya jarayonining ko'p qatlamli tabiatini ochib berishga xizmat

qiladi. Ulardan migratsiya tadqiqotlarini asta-sekin iqtisodiy yondashuvdan insoniy, gender va psixologik yondashuvga o'tganligini ko'rish mumkin. Bu evolyutsiya migratsiyani kompleks ijtimoiy jarayon sifatida tushunish tendensiyasini shakllantiradi. Shu o'rinda "tarixiy-sotsiologik zanjir modeli"ni shakllantirish tadqiqot ishining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston huquqshunos olimlari orasida K. Aripova, S. Ishanxodjayev va L. Isoqovlarning ishlari migratsiyaning huquqiy asoslari, xalqaro maqomi va himoya mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan [13]. Ularning tadqiqotlari sotsiologik va iqtisodiy tahlillardan farqli ravishda, migratsiyani davlat boshqaruvi va xalqaro huquq tizimlari bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv migratsiya siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda migrantlarning huquq va manfaatlarini kafolatlashga qaratilgan.

Jumladan, K. Aripova yondashuvi migratsiya jarayonini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlab, huquqiy integratsiya yo'nalishida muhim ilmiy asos yaratadi. S. Ishanxodjayevning tadqiqot ishi migratsiya siyosatining davlat boshqaruvidagi o'rnini belgilab, tizimli yondashuvni shakllantiradi. U migratsiyani faqat tashqi omil sifatida emas, balki ichki ijtimoiy siyosat tarkibiy qismi sifatida huquqiy asoslash zarurligini ko'rsatadi. Huquqshunos olimlarning tadqiqotlari migratsiyani faqat demografik yoki iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki huquqiy tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi. Shuningdek, ular xalqaro hamkorlik, davlat boshqaruvi samaradorligi va inson huquqlarining kafolati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab bergan.

3. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy olimlar tadqiqotlari. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O'zbekiston aholisining tashqi mehnat migratsiyasi masalalarini global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda yoritgan. BMT Taraqqiyot Dasturi mehnat migratsiyasining ijtimoiy, huquqiy va gender jihatlarini tadqiq etgan bo'lsa, YuNISEF migratsiyaning bolalar hayotiga salbiy ta'sirini tahlil qilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMgT) va Jahon banki hisobotlarida O'zbekiston aholisining migratsiya oqimlari, pul o'tkazmalari va gender tafovutlari bo'yicha statistik va tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston aholisining tashqi mehnat migratsiyasini tadqiq etish bir qator xorijiy olimlar e'tibor markaziga tushib ulgurgan. Xorijlik olimlar: A. Stolfova, M. Laurelle, O. Mokresova va K. Bondarenko [14] hamda kelib chiqishi o'zbekistonlik bo'lgan tadqiqotchilar, R. O'rinboyev, Sh. Eraliyev, R. To'rayeva va A. Jo'rayevlar [15] migratsion jarayonlarning turli jihatlarini o'rganib, uning sabab, oqibat va integratsion mexanizmlarini tahlil qilganlar. A.

Stolfova O'zbekistonda olib borgan dala tadqiqotlari orqali mehnat migratsiyasi motivlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniqlashga intilgan. Xususan, migratsiya qarorlari ko'pincha iqtisodiy majburiyatlar, daromad imkoniyatlari va ish o'rinlari cheklanganligi bilan bog'liqligi, oilaviy vaziyat va jamiyatdagi ijtimoiy tarmoqlar migratsiya qarorida muhim rol o'ynashligi, mehnat migratsiyasi nafaqat daromadni oshirishga, balki oilaviy va mahalliy ijtimoiy strukturalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishligini ochib bergan. Uning yondashuvi migratsiya jarayonini lokal kontekst, shaxs va oila darajasida chuqur tushunishga xizmat qiladi.

M. Laurelle, O. Mokresova va K. Bondarenkolar mehnat migratsiyasini ijtimoiy moslashuv va iqtisodiy integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Tadqiqotda migrantlar qabul qiluvchi jamiyatga moslashishda ijtimoiy tarmoqlar va madaniy normativlar muhim ahamiyatga ega ekanligi, iqtisodiy omillar, xususan daromad imkoniyatlari va mehnat bozoridagi raqobat, migratsiya qarorlariga bevosita ta'sir qilishini, ijtimoiy moslashuv jarayoni muvaffaqiyatli bo'lsa, u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki migratsiyaning ijtimoiy barqarorligini ham ta'minlashini aytib o'tganlar.

Kelib chiqishi o'zbekistonlik bo'lgan R.O'rinboyev, Sh.Eraliyev, R. To'rayeva va A.Jo'rayevlar xorijda yashayotgan o'zbekistonlik migrantlarning ijtimoiy-huquqiy holati, norasmiy migratsiya shakllari va iqtisodiy integratsiyasini chuqur tahlil qilganlar. Xorijda ishlayotgan o'zbekistonliklar ko'pincha norasmiy mehnat bozorlarida faoliyat yuritishi, bu esa ularning huquqiy himoyasini cheklashi, migrantlarning qaytishi mahalliy iqtisodiy va ijtimoiy tizimga ta'sir ko'rsatishi yuqoridagi tadqiqotlarning asosiy jihatlari hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar xorijda yashovchi migrantlarning haqiqiy hayotiy sharoitlarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, mehnat migratsiyasining norasmiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ochib beradi. Shunisi e'tiborliki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar birlashtirilsa, mehnat migratsiyasining sabab-natija, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar, huquqiy va norasmiy qatlamlar bo'yicha kompleks tahlil modelini yaratish mumkin bo'ladi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda respublika aholisining tashqi mehnat migratsiyasi masalalari iqtisodiy, demografik, sotsiologik va huquqiy kontekstda keng o'rganilgan bo'lsa-da, masalaning tarixiy rivojlanish bosqichlari va mintaqaviy o'ziga xosliklari ilmiy jihatdan hali to'liq o'rganilmagan. Ayniqsa, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining ortib borishi, uning ijtimoiy oqibatlari va bu borada olib borilgan davlat siyosati masalalari tarix fanida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlarda birlamchi arxiv

hujjatlaridan keng foydalanilmaganligi tarixiy manbashunoslik bo'yicha jiddiy bo'shliqlar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi aholisining tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami keng bo'lsa-da, ularning tarixshunoslik jihatida hali to'liq shakllanmagan. Tarixchi, sotsiolog, iqtisodchi va huquqshunos olimlarning alohida yo'nalishlardagi izlanishlari mavjud, ammo ular orasida tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining tarixini mintaqaviy, fanlararo va kompleks yondashuv asosida tahlil etuvchi tadqiqotlar kam. Kelgusida arxiv hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va og'zaki tarix uslublarga tayangan holda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldiradi va O'zbekistonda aholining tashqi mehnat migratsiyasi tarixini o'rganishning yangi ilmiy bosqichini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ганиева Г. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи: янгича ёндашув, муаммо ва ечимлар. Тарих фан. номз. дисс. ... – Тошкент, 2006. – 160-б.
2. Хаджамуратова М. Фарғона водийсининг демографик тарихи (1991–2006): Тарих фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2011. – 169 б.; Юсупова С. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг миллатлараро муносабатларга таъсири (1991-2016 йиллар Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари мисолида). Тарих фан. фал. док. дисс. ... – Андижон, 2019. – 147- б.
3. Исоқов Б. Ўзбекистонда 80-йилларнинг иккинчи ярми – 2000 йиллардаги тарихий ўзгаришларнинг демографик жараёнларга таъсири. Тарих. фан. номз. дисс. ... – Тошкент, 2010. – 150-б.
4. Салимов Ш. Ўзбекистонда ўтиш даври ижтимоий-демографик жараёнлари: ҳолати ва ўзгаришлар (1991-2016). Тарих фан. фал. док. дисс. ... – Тошкент, 2023. – 154-б.
5. Муртазаева Р. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX – начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. – Германия: Lambert, 2015. – 250 с.
6. Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўтиш даври ва ишсизлик муаммоси (Фарғона водийси шаҳарлари мисолида) // Ижтимоий фикр. – 2001. – № 1 (13). – Б. 80.; Азаматова Г. Аҳоли миграциясида хотин-қизлар ҳаракати: муаммо ва ечимлар // Ўтмишга назар. – № 23. – 2019. – Б. 14-23.; Yakubov F. Labor and educational migration from Uzbekistan to Turkey // Eurasian research journal. – № 1. – 2022. – P. 44-48.
7. Максакова Л.П. Демографические проблемы занятости в Узбекистане. – Т.: «Ўзбекистон», 1989. – 148 с.; Ўша муаллиф. Миграция населения Узбекистана. – Т.: 1989. – 124 с.
8. Расулова Д.В. Бозор муносабатлари тизимида ишчи кучи миграциясининг назарий-услубий асосларини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. дисс. ... – Тошкент, 2010. – 336 б.; Джунайдуллаев Д.А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштириш. Иқт. фан. ном. дисс. ... – Тошкент, 2012. – 156 б.; Исакулов Ш.Н. Ўзбекистон Республикасида ташқи меҳнат миграцияси бошқаруви методологиясини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. дисс. авт. ... – Тошкент, 2023. – 76-

б.; Исраилова Д.К. Ўзбекистонда меҳнат миграциясини тартибга солиш: назария ва амалиёт. Монография. – Тошкент, 2022. – 240 б.

9. Кадирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Икт.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018. – 186 б.; Мухитдинов Э.М. Аҳолининг иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясининг роли. Икт. фан. фал. док. дисс. ... – Тошкент, 2019. – 161 б.

10. Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). – Наманган, 1995. – 150 б.; Убайдуллаева Р., Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – Тошкент: Университет, 2006. – 96 б.; Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. Гео. фан. док. дисс. авт. ... – Тошкент, 2017. – 76 б.; Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари. – Тошкент: Navroz, 2016. – 168 б.

11. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари. – Тошкент: Navroz, 2016. – 168 б.

12. Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили. Соц. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2012. – 174 б.; Имомова Н.А. Ўзбекистонда ишчи кучи миграциясига ижтимоий омиллар таъсири. Соц. фан. фал. док. дисс. авт. ... – Тошкент, 2021. – 58 б.; Axmedova D. O'zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy omillari. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.; Абдусаматов Х.У. Мигрант оилаларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2022. – 160 б.;

13. Арипова К.Ш. Муҳожирларнинг халқаро-ҳуқуқий мақоми ва улар тўғрисидаги миллий қонунчиликни такомиллаштириш муаммолари. Юридик фан. ном. дисс. ... – Тошкент, 2008. – 165 б.; Ишанходжаев С.А. Меҳнаткаш-мигрантлар халқаро-ҳуқуқий масалалари. Юридик фан. ном. дисс. ... – Тошкент, 2010. – 175 б.; Исоқов Л.Х. Ўзбекистонда миграция соҳасидаги давлат бошқарувининг ташкилий-ҳуқуқий асослари. Юридик фан. фал. док. дисс. ... – Тошкент, 2020. – 185 б.

14. Andrea Štolfová. Příčiny a dopady pracovní migrace v Uzbekistánu // Kulturní studia. – 2014. – № 1. – P. 23-45.; Мокрецова О. Г. Социально-психологические особенности адаптации трудовых мигрантов из Узбекистана. Авт. дисс. кан. соц. наук. Санкт-Петербург – 2015. – 25 с.; Marlene Laruelle. Central Asian Labor Migrants in Russia: The “Diasporization” of the Central Asian States? // China and Eurasia Forum Quarterly. – 2007. – № 3. – P. 101-119.; Bondarenko K. A. Transformation of Socio-Cultural Factors Impacting on the external labour migration in Uzbekistan // Пространственная Экономика. 2020. – № 3. – P. 76-108.

15. Urinboyev R. Migration and Hybrid Political Regimes: navigating the legal landscape in Russia. Oakland: University of California Press, 2021. – P. 186.; Urinboyev R., Eraliev Sh. The Political Economy of Non-Western Migration Regimes: Central Asian Migrant Workers in Russia and Turkey. Switzerland, 2022. – P. 192.; Turaeva R. Labour, Mobility and Informal Practices in Russia, Central Asia and Eastern Europe: Power, Institutions and Mobile Actors in Transnational Space. Routledge, 2021. – P. 272.; Juraev A. Labor Migration from Uzbekistan: Social and Economic Impacts on Local Development. PhD thesis. Italy, 2012, - P. 216.

TARIX**XORAZMDAGI SIYOSIY JARAYONLAR VA HOKIMIYATDAGI
O'ZGARISHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA XALQ
HAYOTIGA TA'SIRI**

Ibrohimova Gulzoda,
Urganch innovatsion
universiteti
o'qituvchisi.

UO'K: 94(575.172):35

Annotatsiya: Ushbu maqolada 17 asrda Xorazmdagi siyosiy jarayonlar va hokimiyat boshqaruvidagi o'zgarishlar o'sha davrga oid qo'lyozma manbalar orqali tahlil qilinadi. Tarixchi, tabib va davlat rahbari Abulg'azi Bahodirxon va uning otasi, aka-ukalarining hokimiyat uchun kurashi va bu jarayonning Xorazm tarixiga ta'siri tadqiq etiladi.

Аннотация: В данной статье на основе рукописных источников XVII века анализируются политические процессы в Хорезме и изменения в системе государственного управления. Исследуется борьба за власть историка, врача и государственного деятеля Абулгази Бахадур-хана, его отца и братьев, а также влияние этих политических процессов на историю Хорезма.

Annotation: This article analyzes the political processes in Khorezm during the 17th century and the changes in the system of state governance based on manuscript sources from that period. It examines the struggle for power among the historian, physician, and ruler Abulghazi Bahadur Khan, his father, and his brothers, as well as the impact of these political developments on the history of Khorezm.

Kalit so'zlar: Tarix, hokimiyat, siyosat, taxt, davlat, boshqaruv tuzilmasi, Xiva, Vazir, Eron, Xorazm, Urganch, Hazorasp.

Ключевые слова: история, власть, политика, престол, государство, система государственного управления, Хива, Вазир, Иран, Хорезм, Ургенч, Хазарасп.

Key words: History, power, politics, throne, state, system of governance, Khiva, Vazir, Iran, Khorezm, Urgench, Hazarasp

Ko'plab tarixiy, ziddiyatli voqealarning guvohi va shu jarayonlar ichida yurgan Hoji Muhammadxon 1601 yilda 83 yoshida dunyodan o'tdi. Tarixiy manbalarda Hojixon davrida Xiva shahrining Xorazm xonligi poytaxti qilib

belgilanganligi qayd qilinadi. Shu davrdan boshlab, rus manbalarida Xorazmdagi davlatning nomi Xiva xonligi deb yozila boshlandi¹.

1602 yilda Xiva xonligi taxtini Arab Muhammadxon egalladi.

Arab Muhammadxon hukmronligining dastlabki yillarida toju-taxt uchun kurash davom etdi. Nayman urug'i vakillari xon o'rniga Xisrav sulton ismli Elbarsxon avlodiga mansub amaldorni qo'yishni rejalashtirdilar. Movaraunnahrdan Xivaga keltirilgan Xisrav sultonni taxtga ko'tarish haqidagi maslahatda qatnashgan ikki kishi sheriklarini sotib qo'ydi. Natijada Arab Muhammadxon Xisrav sultonni tutib olib, o'ldirishga hukm qildi. Bu ishni Xisrav sultonning inisi Bobo mirzo amalga oshirdi².

Oradan ikki yil o'tib, uyg'ur urug'i oqsoqoli Ponashmirzo fatvosi bilan Samarqanddan Hasanqulixon avlodidan bo'lgan Solih sulton degan kishini yashirin ravishda Urganchga olib keldilar. Isyondan xabar topgan Arab Muhammadxon tezda Xivadan Urganchga boradi va xalqni maslahatga chorlaydi. Urganchliklar uni yoqladilar va qozoqlar oldiga borgan 200 ga yaqin odamlar ham qochib ketdilar. Natijada qo'lga olingan Solih sulton o'ldirildi. Xon isyonchilarni jazolash yoki avf etishni fuqaroning o'ziga havola qildi³.

1616 yilga kelib, taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o'g'illari ham qo'shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abulg'oz, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg'on sulton ismli 7 nafar o'g'li bor edi. Otasining taxtga o'tirganiga 14 yil bo'lganda o'g'illari 16 yoshli Habash va 14 yoshli Elbars sultonlar bilan yov bo'lib qolishdi. Otasi Urganchga ketgan vaqtida ular qo'shin to'plab, Xurosonni talab qaytdilar. Arab Muhammadxon Vazir qal'asini o'g'illariga berganini e'lon qildi. O'z navbatida, Elbars 4 ming navkari bilan Xivaga kelib otasini ko'rib ketdi. Oradan 5 yil o'tgach, Elbars sulton Obivardga yurish qilishni rejalashtirdi va otasidan yordam olish uchun Xivaga keldi. Ammo bu vaqtda xon Urganchga ketgandi. Elbars navkarlari xonni tutib, Xivaga olib keldilar. Elbars otasini bir uyga qamab, oldiga soqchi qo'ydi. O'ttiz yildan buyon yig'ilib kelinayotgan xazina va otasi beklarining molini tortib oldi. So'ngra o'margan mollarini olib Vazirga otlandi. Ammo uning zafari uzoq davom etmadi⁴.

¹ Муфассал қаранг: Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотилетие. Петроград, 1915. – С. 98 ва кейингилари; Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасида муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50-йиллари). -Тошкент.: 1957. – Б. 138

² Абулғози. Шажарайи турк. – Б.167.

³ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.167 ва кейингилари.

⁴ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.167 ва кейингилари.

Elbars Xivada zo‘ravonlik qilayotgan daqiqalarda Isfandiyor sulton Hazoraspda, Habash, Abulg‘ozi va Sharif Muhammad sultonlar Urganchda lashkar to‘plash bilan ovora edilar. Oqsoqollar aka-ukalarning qon to‘kishlariga fatvo bermadilar. Elbars shu bahona bilan Arab Muhammadning jonini olishi mumkin deb xavfsiradilar. Elbars Xivani tark etgandan keyin Arab Muhammadxon Urganchga keldi. Bu yerdagi o‘g‘illari bilan Elbars sulton ustiga yurish qildi. Natijada uning uy-joyi va eli qirg‘in qilindi, o‘zi esa 5-6 kishisi bilan qir-adirga chiqib ketdi.

O‘g‘illari Elbars va Habash sultonning noo‘rin ishlari Arab Muhammadxonga tinchlik bermasdi. Xon lashkar to‘plash va Vazirga yurishga farmon berdi. Bu haqda xabar topgan Elbars va Habash ham kuch to‘plab, Xivaga yurish boshladilar. Toshli Yarmish arig‘i soqasiga yetganda har ikki tomon o‘rtasida janglar boshlandi. Habash sulton asir tushgan otasi Arab Muhammadxonning ko‘zini o‘yish to‘g‘risida farmon berdi va kekxa xonni Xivaga keltirib, qamab qo‘ydilar¹.

Yengilgan Isfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar Hazorasp qal‘asiga yashirindilar. Abulg‘ozi avval Katga qochdi, keyin esa Buxoro xoni Imomquli huzuriga jo‘nab ketdi².

Habash va Elbars sultonlarning kuchlari Hazorasp qal‘asini 40 kun qamal qilib turdi. Kuch bilan qal‘ani bo‘ysundirishga ko‘zlari yetmagach, muzokara boshladilar. Natijada Isfandiyor sultonga Makkaga ketishga ruxsat berildi. Sharif Muhammad sultonga Kat shahri topshirildi. Arab Muhammadxonning kichik o‘g‘illari -Xorazmshoh sulton 12 yoshda va Afg‘on sulton 10 yoshda bo‘lganligi sababli Xivada onalari qaramog‘ida qoldirildi. Habash sulton Urganch va Vazirni, Elbars sulton esa Xiva va Hazoraspni boshqardilar³.

O‘g‘illari yurt bo‘lishayotganini ko‘rish nasib qilmagan Arab Muhammadxonni uch zaifasi va ikki kenja farzandlari bilan Qumqal‘ada tutqinlikda ushlab turishardi. Bir yildan keyin Elbars sulton akasi Habashga aytmay otasi va kichik inilarini Xivaga olib keldi. Shu yerda otasi Arab Muhammadxon, ukasi Xorazmshoh sulton, akasi Isfandiyorning 3 va 1,5 yashar o‘g‘illarini o‘ldirtirdi. Kichik inisi Afg‘onni akam o‘ldirsin deb Habash sulton oldiga yubordi. Ammo bu norasida bolaning nima aybi bor deya Habash sulton uni Rossiyaga jo‘natib yubordi. O‘zga yurtda Afg‘on sulton 30 yil umr ko‘rdi va nasl qoldirmasdan dunyodan o‘tib ketdi⁴.

¹ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.162 ва кейингилари.

² Ўша жойда. – Б. 165.

³ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Б. 218.

⁴ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.165.

Isfandiyor Makkaga bormadi va Isfahonda shoh Abbos I (1587–1629) huzurida biroz turgach, ruxsat olib yurtiga qaytishga harakat qildi. U Durun shahri va Abulxon tog‘lariga kelgan vaqtida 300 ga yaqin lashkar to‘pladi. Unga turkmanlarning taka, sariq. yovmut urug‘laridan yana 80 ga yaqin yigitlar kelib qo‘shildilar. Tez orada Habash sulton Tuq qal’asi yaqinida suv bo‘yida turibdi, degan ma’lumot olindi. Isfandiyorxon yarim kechada inisi uyiga bostirib borganda, Habash uyida yo‘q edi. Shu kechasi u bir navkarining uyida tunagan bo‘lib, voqeadan xabar topgach, qochib Elbarsxon oldiga keldi. Og‘a-inilar kuch to‘plab, Isfandiyor ustiga yurdilar. Ular kelguncha Elbarsxonning qaynotasi, Baqirg‘onlik Sayid ota avlodidan bo‘lgan Nazarxo‘ja ismli amaldor juda ko‘p odamlarni to‘plab, Isfandiyor sultonga qarshi kurashga ko‘tardi¹.

Isfandiyor sulton Nazarxo‘jani Mang‘ishloqgacha quvib bordi. Qaytib kelgach, Urganch yaqinida 23 kun davomida Habash va Elbars bilan jang qildi. Elbars qo‘lga olinib, qatl qilindi. Habash esa Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar oldiga bordi. U yerda bir vaqtlar o‘zi iltifot ko‘rsatgan mang‘it mirzolaridan Shaynak ismli amaldor bor edi. Undan madad va iltifot kutgan Habash g‘aflatda qolib, aldandi. Shaynak o‘z homiysi va navkarlarini tutib, Isfandiyorga topshirdi. U Habashni o‘ldirdi².

Oradan ikki oy o‘tgach, Isfandiyor sulton nayman elini qirdi. O‘zbeklar uch bo‘lakka bo‘linib, biri-mang‘it, biri-qozoqlar yurti va yana biri-Movaraunnahrga ko‘chib ketdi. Uch yildan keyin Amudaryoning Orolga quyadigan yerlariga 3 ming uylik o‘zbeklar qaytib keldi. Buxoroda turgan yana 3 ming uylik o‘zbeklar Katga ko‘chib kelganlarida, Isfandiyor daryodan o‘tib ularning barchasini qilichdan o‘tkazdi. Inilariga o‘xshab qon to‘kib, minglagan jasadlarni pillapoya qilib taxtga chiqqan Isfandiyorxon 16 yil hukmronlik qildi³.

1643 yilda Orol o‘zbeklari Abulg‘ozini xon qilib ko‘tardilar⁴. Ammo Xorazmning barcha xududlarini bir vaqtda birlashtirish imkoni bo‘lmadi. Chunki Isfandiyordan qolgan o‘g‘illariga berilgan yerlar Buxoro xoni Nodir Muhammad ta’sirida edi. Shu bois Abulg‘ozi bir necha bor Xiva ustiga yurib, bo‘ysunmagan odamlarni qirdi. Xiva qa’lasi yaqinida Buxoro xonining nevarasi Qosim sulton qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Abulg‘ozi lashkarlari jasorat ko‘rsatib, g‘alaba qozondilar.

¹ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б.165-166.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда. – Б.167.

⁴ Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С.326-330.

Qosim sulton boshliq buxoroliklarning Xiva ostonasidagi mag'lubiyatidan xabar topgan Nodir Muhammad 1644 yilda Xorazmga Yoqub Tavsat ismli amaldorni yubordi, ammo u ham yengildi. Shu orada Buxoro beklari Nodir Muhammadni taxtdan ag'darib, o'rniga o'g'li Abdulazizni ko'tardilar¹.

1644 yilda Abulg'ozini Xivaga kelib, xon taxtiga rasman chiqdi. Xon barcha turkmanlarning gunohini o'tgani va ularning o'z yerlariga qaytib kelishlari mumkinligi haqida xabar tarqatdi.²

Abulg'ozini 1646 yilda Tajan vohasiga yurish qildi. Ularni ham jazolab, ko'plarini o'lja olib qaytdi. Xullas "Shajarai turk" asarida Abulg'ozixon o'sha davr ziddiyatlarini va bo'lib o'tgan kurashlarni tasvirlab o'tgan³.

Kelgusi yili janubiy Xorazmdagi yirik qal'a hisoblangan Katni qolmiqlarning qo'shut urug'idan bo'lgan Durdi Toyshi odamlari talab ketdi. Ularning izidan qo'shin bilan ta'qib qilgan Abulg'ozini 15 kun deganda Yugrukbosh degan joyda talonchilar orqasidan yetdi. Yarim kunlik jangu-jadaldan keyin qalmiqlar qochib ketdilar. Biroz dam olgach, xon qo'shinlari yana bir hafta davomida qalmiqlarni ta'qib qilishni davom ettirdi. Natijada qolmiqlar ko'plab ot va tuyalari, bosqinchilik bilan talagan mol-mulklaridan ayrilib, faqat bir qismi jon saqlashga muvaffaq bo'ldilar, xolos⁴.

Xivaga qaytgan Abulg'ozini Atrek daryosi bo'yida yashayotgan Odiy sardor boshliq bayraj urug'i ustiga yurish qildi. Abulg'ozini odamlari bayrajlar eliga savdo ishlari bilan ketayotgan Avnash ismli karvonboshiga duch kelishdi. Olingan ma'lumotlar asosida xon bayrajlar ustiga yurish qildi. Abulg'ozining shu jangi haqida "Shajarai turk" asarida shunday yozilgan: "Andag' urush bo'ldikim, hargiz mundag' bo'lmay erdi. Nogoh xoni jannat makonning bir quli Odiy bayramni miltiq bilan uzub yiqitdi. Andin so'ng o'ttiz yigit ko'tarila ot soldilar. Taqi turkmanlarni o'lturub, o'g'lon-ushoqini o'lja va asir qilib, xonga olib keldilar. Xon ham bu yigitlarga in'omlar berdi. Taqi bir necha kundan so'ng fath va nusrat bilan qaytib Xevaqqa tushdilar"⁵. Keyingi yili Abulg'ozini turkmanlarning yimrayli (emireli) va sariq urug'larini bo'ysundirdi.

Xonlikning shimoliy va sharqiy hududlari havfsizligini ta'minlash ham Abulg'ozining e'tiborida turardi. 1655 yilda qolmiqlarning turg'avut urug'idan Mergan To'yshi va O'qchurtaba Tag'ul ismli yetakchilari Hazoraspning bir qancha qishloqlarini talagandan keyin, Sadvar va Darg'anota qishloqlari

¹ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б.167 ва кейингилари.

² Ўша жойда. – Б. 168.

³ Ўша жойда.

⁴ Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328.

⁵ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б.183.

aholisining mol-mulkini talon-taroj etdi. Bu haqdagi xabarni eshitgan Abulg‘ozi qalmlqlarning 10 kun oldin yurtiga qaytib ketganligi haqidagi axborotga qaramasdan ularni ta‘qib qilishga qaror qildi. Katta talofat berib qochishni davom ettirayotgan qalmlqlarning asosiy kuchlari Sangin rabot degan joyga yashirindilar. Urushga yuragi betlamagan qolmlqlar xonga odam yuborib, “Buxoroga boramiz deb, adashib sizning yurtigingizga borib qolibmiz, bizni kechiring” deya yalindilar. Shundan so‘ng talagan mol–hollarini oldiga solib, qilichlarini bo‘yniga osib, xon oldiga kelgan qalmlqlarni kechirdilar. Ular bundan keyin hech qachon Xiva xoni yerlariga huruj qilmaslikka ont ichdilar¹.

Xiva xonlari avlodlari Buxoro hukmdorlari bilan qarindosh–urug‘chilik munosabatlari bo‘lsa-da, ular orasida raqobatlar davom etardi. Buxoro xoni Abdulazizning inisi Subhonkuli Abulg‘ozining ukasi Sharif Muhammadning kuyovi edi. Balx hokimi bo‘lgan Subhonquli Abulg‘oziga odam jo‘natib, akasiga qarshi urushga da‘vat qildi. Abdullaxon davrida qarindosh–urug‘lari qoni to‘kilganligini ko‘p marta eshitgan Abulg‘ozi Buxoro ustiga yurish boshladi. Ko‘kardik degan joyga yetganda xon Bekquli inoqni Qorako‘l ustiga yubordi. O‘zi esa 30–40 qishloqni egallagach, Buxoro darvozalari oldida paydo bo‘ldi. Shu orada Bekquli ham Qorako‘lni egallab, katta o‘lja bilan kelib, xonning asosiy lashkarlariga qo‘shildi. Xivaga qaytgan xon lashkarlariga alohida iltifot ko‘rsatdi².

Shu yili Abulg‘ozining o‘zi Qorako‘lga ikkinchi bor yurish qildi. Kelgusi yili Chorjo‘y ham shu tariqa bo‘ysundirildi va xalqi asir qilib olib ketildi³.

1657 yilda Abulg‘ozi qo‘shinlari Qorako‘lga yurish qilib, Yoychin va Narzam degan joylarni egallab, Karmana ustiga yurish boshladi. Zarafshon daryosidan o‘tgan xivaliklar shahar aholisining bisotini o‘lja olishdi va Abulg‘ozi buyrug‘i bilan 15 ming kishilik qo‘shin orqaga qayta boshladi. Ularni taqib qilgan Buxoro qo‘shinlari bilan Xivaliklar o‘rtasidagi to‘qnashuv yetti marta takrorlandi. Xivaliklarning qutulishi mushkul bo‘lib qolganda Anushaxon Abdulazizning qo‘shiniga shiddat bilan hamla qildi. Qo‘qqisdan boshlangan ushbu hujum natijasida buxoroliklar qo‘shini parokanda bo‘ldi. Ular chekinib, o‘zlarini daryoga tashlay boshladilar. Abdulazizning o‘zi ham daryodan o‘tib, zo‘rg‘a jon saqlashga muvaffaq bo‘ldi⁴.

¹ Огахий. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С.330.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда.

⁴ Абулғози. Шажарайи турк. – Б.187 ва кейингилари.

Karmana safarida Anushaxon 14 yoshlik yigit bo'lib, otasining behad hurmatiga sazovor bo'ldi. "Taqi barcha xalqni yig'ib aytdilar kim o'g'limizning avval safari erdi, oyoqi va yo'li muborak bo'ldi. Abdulazizxon tek ulug' podshohni bosduq va taqi urush kunida qilgan ishlariga tahsinlar qilib, ulug' to'y berdilar. Taqi tug' berib, lashkar qo'shib Hazoraspni berdilar"¹, -deb yozgandi shu davrdagi voqealarning guvohi bo'lgan Mahmud Urganjiy.

1663 yilda Abulg'ozzi Vardanze degan joyga yurish qilib, yana bir bor Buxoroga otlandi. Shaharning Namozgoh darvozasi oldida turgan Abulg'ozzi Buxoroga kirmaslikka qaror qildi. Chunki bu vaqtda Abdulaziz Samarqandda bo'lib, shaharda oddiy xalqdan boshqa qo'shin yo'q edi. Shu bois xonning o'zi yo'q vaqtda bir necha xotin-xalaj turgan shaharni oldi degan andishadan qochib, Abulg'ozzi ulkan o'ljalar to'plagan qo'shinni Xivaga qaytarishga farmon berdi. "Agar tangri bersa Abdulazizxon qal'aning ichinda tursa, aning qo'lidan olg'a ymen", -degan Abulg'ozzining orzu-niyatlari ro'yobga chiqmadi.

Akademik B.Ahmedov yozgandi: "Abulg'ozzi hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzurhalovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi"². Darhaqiqat, Abulg'ozzi butun umrini taxt uchun kurash va jangu-jadallarga bag'ishlagan fotih desa, mubolag'a bo'lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli, mahoratli rahbar shaxs edi. Dastavval u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tiborni qaratadi. Xonlikni boshqarishda o'zbeklarning mavqei ortib bordi³ va ularning 360 vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarilganini Munis "Firdavs ul-iqbol" asarida keltiradi (28^a). Xon yangi amaldorlardan 32 nafarini mahram qilib, o'z yoniga oldi⁴.

Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalarni o'troqlashtirish tadbirlari ham Abulg'ozzining ichki siyosatida muhim o'rin egalladi. Ular to'rtta guruxga bo'linib, Buxoro bilan chegara bo'lgan Doyaxotun (Darg'onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo'lgan yerlarga joylashtirdi.

¹ Ўша жойда. – Б. 188.

² Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Б. 219.

³ Муфассал қаранг. Қўшжонов О., Дурдиева Г. Хива хонлиги туркманлари. Хива, 2008. – 11.

⁴ "Андоқким икки шайх ул-ислом, икки қози, бир раис Саййид ота авлодидан, бир мутавалли, бир нақиб, тўрт оталиқ, тўрт иноқ, тўрт мироб, тўрт парвоначи, икки оқо, икки арбоб, тўрт чифатой иноқи, ва бар вазирким, ҳоло меҳтар дерлар ва бир қушбеги, бу иккови ўринсиз хон ҳузурида оёқ устида турадилар" Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // Қўлғезма. №Е 6(фотонусхаси). 64^{a, b} вар; Яна қаранг: Ёўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эғалиги ва давлат тузилиши. – Б. 82. Яна қаранг: Иванов П.П. Очерк истории каракалпаков. // Труды ИВ АН СССР. Т. VII – С. 52.

To'pa deb atalgan bu guruhlarning kattalaridan biri - uyg'ur va nayman qabilalarini tashkil qilib, ularga do'rman, yuz, ming, shayx, burloq kabi kichik urug'lar ham qo'shildi. Uyg'urlarga Hazorasp bekligining chekka qishlog'i Pitnakdan tortib, Yangiariqqacha bo'lgan yerlar, naymanlarga esa Yangiariqdan to Gurlangacha bo'lgan hududlar ajratildi.

Qiyot–qo'ng'irotlar to'pasiga o'zbeklarning jaloyir va turkmanlarning alieli urug'lari ham birlashtirilgan bo'lib, ularga Shovotdan Qo'ng'irotning Quyg'un degan joyigacha bo'lgan yerlar ajratildi. Uchinchi to'paga-nukus-mang'it qabilalari birlashtirilib, ularga kenagas va xo'jaeli urug'i kiritildi. Qang'li–qipchoqlar alohida to'paga ajratilgan bo'lib, unga ko'chmanchilarning yana bir nechta urug'lari birlashtirildi¹.

Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo'lgan hududlar hamda Amudaryoning quyi qismida nukus va mang'it qabilalari joylashtirildi. Amudaryoning so'l sohilidagi Qipchoq atrofi, Xo'jaeli va Ko'ko'zak oralig'ida qang'li va qipchoq qabilalari joylashtirildi. Ular tarkibida Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbeklarning 14 urug'i ham o'rnashtirildi².

Xiva atrofiga joylashtirilgan qipchoq va qo'ng'irotni o'zbeklariga alohida yerlar ajratilib, ularning o'troqlashuv jarayoni sal kam ikki asr davom etdi. Shu orada Orolbo'yi va Quyi Amudaryo xududlariga joylashgan qoraqalpoqlar ham o'zbek urug'lari bilan aralashgan holda qon-qardoshlik rishtalarini shakllantirishdi.

O'zbeklarning Xorazmga ko'chib kelishi va o'troq hayotga o'tishi jarayonida dehqonchilik sohasi sezilarli darajada rivojlana boshladi. Aholi sonining oshishi va oziq-ovqatga bo'lgan zarurat ekin maydonlari uchun yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi nahr (kanal) va ariqlar qazish, qishloq (kent) va shaharlar qurish ishlarini mislsiz kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda tabiatning inijliklarini va o'zgarib turishishini hisobga olishga ham to'g'ri keldi. Xususan, Amudaryo o'zanining o'zgarishi natijasida O'zboy, Daryoliq, Ko'nadaryo havzasidagi Urganch, Vazir, Devkeskan, Aqchaxon, Shohsanam kabi qal'alar atrofida ko'plab kishloq va ovullar aholisi ichimlik va dehqonchilik uchun zarur bo'lgan suvga ehtiyoj seza boshlashdi.

Xon topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan to'qayzor daryo atrofiga ko'chirildi. Urganch atrofida Vazir shahridan

¹ Мунис. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1); Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. – С. 36.

² Мунис. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1).

ko'chirilganlar kelgan ushbu hudud-Yangi Vazir deya atala boshladi. Shu kabi Abulg'ozzi 1646 yilda Urganch-arna arig'ini qazdirdi va uning yaqinida asos solingan qal'aga Yangi Urganch deb nom berdi. Bu yerga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi ko'chirib keltirildi. Shundan biroz keyin G'ozibod kanali ham qazilib, uning yaqinida chegara istehkomi hisoblangan qal'a tiklandi¹.

Umuman olganda 17 asrda Xorazmdagi siyosiy jarayonlar nihoyatda qizg'in va ziddiyatli kechdi va bu davrda hokimiyat, boshqaruv tuzilmasida ko'plab hukmdorlar almashdi. Ammo ular ichidan faqat Abulg'ozzi Bahodirxon (1603-1664) gina "Shajarai turk", "Shajarayi tarokima", "Man'ofe ul-inson" singari asarlarning muallifi, Yangi Urganch, Yangi Vazirning asoschisi, bunyodkor hukmdor sifatida tarixda yorqin nom qoldirdi.

¹ Ғуломов Я.Ғ.Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Б. 209 ва кейингилари.

FILOLOGIYA

XORAZM SHEVALARIDA FAOL QO‘LLANUVCHI ETNOGRAFIK ZMMLAR



Navbahor
Sa'dullayeva,
Urganch davlat
universiteti
o'qituvchisi.

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm hududida ishlatiladigan leksik birliklarning turlari, to'y marosimi bilan bog'liq urf-odatlar ifodalab berilgan. Etnografizmlarga oid ayrim tadqiqotlar va etnografizm tushunchasi bilan bog'liq masalalar xususida so'z yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются типы лексических единиц, используемых в Хорезмском регионе, обычаи, связанные со свадебным обрядом. Обсуждаются некоторые исследования этнографизмов и вопросы, связанные с понятием этнографизма.

Annotation: This article examines the types of lexical units used in the Khorezm region and customs associated with wedding ceremonies. Some studies of ethnographisms and issues related to the concept of ethnographism are discussed.

Kalit so'zlar: Oraliq sheva, aralash sheva, etnografizm, etnomadaniyat, to'y marosim nomlari, urf-odat, etnografik dialektizmlar.

Ключевые слова: Промежуточный диалект, смешанный диалект, этнографизм, этнокультура, названия свадебных обрядов, обычаи, этнографические диалектизмы.

Key words: Intermediate dialect, mixed dialect, ethnographism, ethnoculture, names of wedding ceremonies, customs, ethnographic dialectisms.

O'zbek tili etnografizmlarga boy til hisoblanadi. Xorazm vohasi o'zining murakkab etnik tarkibi, xilma-xil urf-odatlari va turli-tuman marosimlarga boyligi hamda sershevaligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Shevalarimizda shunday so'zlar borki, ular xalqimizga xos bo'lgan milliy madaniyat, urf-odat va an'analarning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Bunday xususiyatlarga ega so'zlarni biz ilmiy atamalar doirasida "etnografizm"lar deb ataymiz. Marosim ifodalovchi leksik birliklar uzoq yillar kishilik jamiyatining sinovlaridan o'tib, termin darajasiga ko'tarilgan so'zlardir. Marosim leksikasi xalq hayoti bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lib, deyarli har qanday holatda va har sohada shunga bog‘liq holda uchraydi. Etnik ma’no ifodalovchi har bir atama yoki termin xalq marosimlarining ma’lum bir qismini bildirib, o‘z nomi bilan ma’lum bir ma’noda tarixiylik kasb etadi [1].

O‘zbek tilining Xorazm shevasida qo‘llaniladigan so‘zlarning leksik-sematik xususiyatlari juda xilma-xildir. Bu esa mazkur hududda yashovchi aholi nutqida uchraydigan so‘zlarni o‘zbek adabiy tilidagi va boshqa shevalardagi lug‘aviy birliklar bilan qiyoslash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash shevalarning bugungi holatini baholash imkonini beradi. Xorazm shevalarida marosim ifodalovchi leksik birliklarni O.Nurjanov quyidagi guruhlariga ajratgan holda o‘rgangan, ya’ni insonning tug‘ilishi bilan bog‘liq etnografizmlar hamda inson ma’lum yoshga yetganida o‘tkaziladigan etnografizmlar. H.Ismoilov esa o‘zbek to‘y marosimlarini quyidagi ma’noviy guruhlariga ajratadi: muhim sana bilan bog‘liq to‘ylar (tug‘ilish to‘yi, beshik to‘yi, soch to‘yi va boshq.); sunnat to‘ylari, yigitlik to‘ylari (yigitlik oshi, mo‘ylov to‘yi); nikoh to‘yi (qiz ko‘rish, non sindirish, to‘qqiz tavoq); to‘y bilan birga o‘tkaziladigan marosimlar (qiz oshi); to‘ydan so‘ng o‘tkaziladigan marosimlar.

Har bir viloyat, tuman va qishloq shevalari bir-biridan ajralib turadi. Shuningdek, Bog‘ot tumanidagi ayrim hududlarining shevalari aralash sheva hisoblanadi, chunki, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari uchun ham mushtarak dialektlar mavjud. Ikki lahjaning aralashuvi natijasida yuzaga kelgan ayrim so‘zlar leksik va semantik jihatdan ko‘proq etnografizmlarda o‘z aksini topadi. Biz o‘z kuzatishlarimiz, o‘rganish va olib borilgan amaliy va nazariy tadqiqotlarimiz natijasida Xorazm hududida yashovchi xalqlarning urf-odatlarini bilan bog‘liq bo‘lgan etnografik leksikani o‘zaro qiyoslash asosida ularning har birining o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga harakat qildik.

Insonning tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar. Har bir xonadonda yangi farzand tug‘ilishi bilan turli xil marosim, urf-odat va udumlar o‘tkaziladi. Shulardan biri chaqaloqni beshikka solish bilan bog‘liq marosimdir. Bola beshikka yoshi ulug‘, mahallada hurmat-e’tiborga ega pir-u badavlat onaxonlar tomonidan solinadi. Chunki, ularning mavqei, yaxshi fazilatlarini bolaga ham o‘tsin deya, beshikka solish paytida o‘ngmi, o‘ngmi, o‘ngmi [o‘ngmi, o‘ng taraf, biror bir narsaning yoki shaxslarning taraflari] deya beshikka solayotgan onaxon tomonidan uch marotaba aytiladi, yonidagilar esa o‘ng, o‘ng [o‘ng, o‘ng] deb tasdiqlashadi, beshikka solingach, bog‘ichini bog‘lash uchun mevali daraxt

shoxlaridan foydalaniladi. Mevali daraxtga xos hosildorlik kelajakda farzandga ham o'tsin, ärtän özinnän kopäysin uli, qizi köp bosin [kelajakda o'zidan ko'p avlod qoldirsin, farzandlari ko'p bo'lsin], deya duo qilinadi. Marosimda ishtirok qilayotgan yaqin qarindoshlari, o'z oila a'zolaridan kimdir yoki chaqaloqning onasi o'z uyqusini farzandi uchun "sotadi", ya'ni hadya qiladi (uxi satish – uyqusini chaqaloqqa hadya qilsa go'yoki chaqaloq sokin orom oladi, uyqusida bezovda bo'lmaydi). Beshikka solgach, beshikning tüväk, düväk [tuvak, duvak] beshikka belangan bolaning siydik va axlati tushadigan beshik asbobi[2] ga turli xil shirinlik va konfetlar to'ldirib solinadi va atrofga sohib silänäm yetirsin, bärčäni yetirsin, hämmägä nasib ätsin [sizlarni ham yetirsin, barchani yetirsin, sizlarga ham nasib qilsin], deya ulashiladi. Marosimda qatnashayotgan barcha shirinliklardan o'z farzandlarini ham shunday kunga yetkazishini niyat qilgan holda terib olishadi. Ushbu an'ana bilan yangi tug'ilgan bolaning umri shirin, uzoq yillar hayotida sochilgan rizq-ro'zini yig'ib-terib yeb yursin, degan ma'no anglashilgan. Tuvakdagi konfetlar, shirinliklar atrofga sochilganidan keyin, ya'ni tuvak ichi bo'shagach, ichiga navant [novvot] solinadi, ustiga qaynagan suv solib shirin suv qilinadi va shirin suvi onasiga ichiriladi. Bu shirin suvni onasiga ichirilishidan maqsad sut orqali chaqaloqqa o'tib, uning umri, kelgusidagi hayoti shirin damlarga boy bo'lsin, shirin hayot kechirsin, deya niyat qilinadi. Marosim davomida ashulalar kuylanadi, raqsga tushishadi va chaqaloq haqqiga uzundan-uzoq duolar qilishadi. Bunday urf-odatlar haligacha kichik marosim sifatida Xorazmning ko'pchilik hududlarida saqlanib qolingan.

To'y va tantanalar bilan bog'liq marosimlar. Sharq xalqlari orasida eng keng tarqalgan udumlardan biri xatnadir. Xatna to'yi odati xalq orasida "farzand qo'lini halollash", "sunnat to'yi" nomlari bilan[3] qo'llansa, Xorazmning ko'pgina hududlarida esa sūnnät ätmaq, sūnnät toji, sūnnätlämaq, čükünī kästirmaq, ũlli bala ätmaq, čükünī majlämaq tarzida qo'llaniladi. Xatna qilishda ko'pgina urf-odatlar, an'analar, marosimlar kelib chiqqan. Yoshi ulug'lar bolani sunnat qilish asosan toq yoshlarda amalga oshiriladi, deb qarashadi. Adhamjon Ashirov "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" nomli monografiyasida bu bo'yicha shunday munosabat bildirgan: sunnat to'ylaridagi yoshning toq bo'lishi, birinchidan, bolaning umri uzoq bo'lishini, ikkinchidan, farzandni sunnat qildirishdek baxt ota-ona uchun davomli bo'lishini anglatadi, chunki toq narsa juftlikka to'lishga intiladi[4]. Xorazm hududlarida esa toq yoshlarida sunnat qilish organizmda qon tozalanish bilan bog'liq, deb qarashadi.

Ayrim hududlarda esa biror-bir juft narsani ikkiga bo'lsa qoldiq qolmasligini, toq narsani bo'lsa esa qoldiq qolishini, farzand yoshi ham bo'linib, qoldiqsiz qolmasin deya toq yoshda sunnat qilishni irim qilishgan. Bunday marosimlar uchun oilada katta tayyorgarlik ko'riladi, mehmonlar taklif qilinib, maslahat oshilar (xalq orasida bu xātnā pālāv, çük pālāv deya nom olgan) qilinadi. Xatna qilish marosimi odatda to'ydan oldin yoki to'ydan keyin o'tkaziladi. To'y kuni esa mehmonlar sharafiga o'yin-kulgu, ziyofatlar o'tkazishadi.

Har bir xalqning og'zaki ijodida turli mavzularga bag'ishlangan maqollar uchraydi. Bunday maqollarning ko'pchiligi o'sha xalqning milliy qadriyatlarini, ya'ni farzand tug'ilishi, beshikka solish va to'ylar bilan bog'liq urf-odatlarini o'zida namoyon qiladi. "Beşikdāgi bola miñ düllänädi" [beshikdagi bola ming turlanadi] maqoli beshik yoshidagi bolalar tez o'zgarib turishi, ko'z rangi, yuz tuzilishi, bir qarasang onasiga, bir qarasang otasiga o'xshashi kabi xislatlari tufayli bu yoshdagi chaqaloqlarga nisbatan yoshi ulug'lar tomonidan qo'llaniladi. "Qizni beşikä sal, sepini aržaga sal" [qizni beshikka sol, sepini sandiqqa sol]. O'zbek xalqida qiz farzandga sep qilish katta ahamiyatga ega, deb qarashadi. Shuning uchun ham qiz farzand tug'ilishi bilan ko'pchilik sep yig'a boshlaydi. Kelinning sepi uning fayzi, ziynati deb bilishgan. "Ülni toji ojin, qizni toji qijin". Ushbu maqol ham mana shunday udumlar zahirida paydo bo'lgan, bu maqolda nafaqat qiz bolaning sepi, balki qizini uzatgan ota-ona to'ydan keyin qiz farzandini o'ylab qayg'urishi kabilar ham nazarda tutilgan. "Balasiz xatin sūmakka do'jmas" [bolasiz xotin sumakka to'ymas]. Ayollar farzand tug'ilishidan oldin bola uchun kerakli bo'lgan anjomlarning barchasini oldindan hozirlab qo'yishadi, hatto hali tug'ilmagan chaqaloq uchun oyoq kiyimgacha olishadi, ushbu maqol kerak bo'lmagan buyumlarni ham oldindan yig'adigan ayollarga qarata kinoya tarzida aytilgan. "Bir bala jeddi jil ğaribçilik kätirädi". Ushu xalq maqolida bolaning dunyoga kelishi bilan oilaning iqtisodiy ahvoli biroz qiyinlashishini, ya'ni bola parvarishi, tarbiyasi, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa xarajatlar sababli dastlabki yillarda oilaga biroz qiyinchilik, mashaqqat keltirishini ifodalaydi. "Bir jigit qirq jilda kälä boladi". Bir farzand 40 yildan keyin har taraflama yetuk inson bo'lib kamol topadi, hayotning past-balandini tushunadi, haqiqiy hayot yo'lini topib oladi deyilgan. "Toj siltovi (qistav'i) bilän ton bitär". Bu maqol to'y boshlagan oilaga dalda, madad berish uchun qo'llaniladi, to'y bahonasida to'yga oid barcha ishlar amalga oshishi, to'y qilinayotgan xonadonlar ta'mirlanishi, ko'rpa-to'shaklar tikilishi va barcha ishlar to'yga qadar tugatilishi nazarda tutilgan. "Ätälä bosam, toj bosin" [atala bo'lsa

ham, ya'ni pishsa ham to'y bo'lsin] kabi maqollarda esa birlik, quvonch, marosim yoki to'y-tomoshaning o'zi muhimligini, ya'ni taom hashamatli bo'lmasa ham, sharoit oddiy bo'lsa ham, xalq yig'ilib, bir-birini ko'rib, xursandchilik qilishi muhumligi nazarda tutilgan.

Xorazm hududlarida hozirgacha saqlanib qolgan urf-odatlar: farzand tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar, ism qo'yish, beshikka solish, soch olish, bolaning bir yoshga to'lishi, ilk qadamini tashlashda o'tkaziladigan marosimlar, xatna qilish, maktabning birinchi sinfiga borishda, yuqori sinfga o'tishida va nikoh bilan bog'liq juda ko'plab marosimlar o'tkaziladi.

Dialektolog olim B.Jo'rayev ham shevalarnigina emas, etnografik udumlarimizni ham o'zida saqlovchi folklor matnlarining tilini o'rganmay turib, bugungi adabiy tilimiz normasini belgilash mumkin emasligini uqtirgan[5].

Xulosa qilib aytganda, biz shevalarimizda uchrovchi milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni, turmush tarzimizda keng qo'llanuvchi etnografik dialektizmlarimizni nazariy va amaliy o'rganish o'zbek tilini asrab-avaylashga zamin hozirlaydi. Shevalarni qancha o'rgansak, biz nafaqat tilni, balki tarixni ham qayta o'rgangan, uning ochilmagan sahifalarini ham ochgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Nurjanov. "Hudud shevalari tarkibidagi marosim ifodalovchi so'zlar". "O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv".2021-yil, 22-may. B. 228-235.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. (4 том).
3. M.Sattor. "O'zbek udumlari" T, 2016, B-58.
4. A. Ashirov. "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" nomli monografiya.Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi nashriyoti T. 2007. B-86.
5. О.Ўринова. Т.Ўринов. Чорвачилик лексикаси ва ўзбек ономастикаси // Ономастика Узбекистана. – Т.: 1989. 176-178-б.

FILOLOGIYA**QAYTA TAKRORLASHNING O‘ZIGA XOS TURLARI**

**Raximova Go'zal,
Abu Rayxon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti,
(PhD), professor v.b.**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta takrorlashning muhim turlaridan kontrastli takrorlash haqida so‘z yuritiladi. Uning ingliz tilidagi vazifalariga to‘xtalinib, inglizcha takrorlanadigan so‘zlarning shakllanishi tilning grammatik tuzilishi emas, balki leksikani boyitish vositasi bo‘lib xizmat qilishi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается контрастивное повторение, один из важных типов повторения. Основное внимание уделяется его функциям в английском языке и анализируется, как образование повторяющихся слов в английском языке является не грамматической структурой языка, а средством обогащения лексики.

Annotation: This article discusses contrastive repetition, one of the important types of repetition. It focuses on its functions in the English language and analyzes how the formation of English repeated words is not a grammatical structure of the language, but a means of enriching the lexicon.

Kalit so‘zlar: takrorlash, qayta takrorlash, kuchaytirgich, bolalar nutqi, fonologik motivatsiya, soxta morfema.

Ключевые слова: Повтор, повторение, интенсификатор, детская речь, фонологическая мотивация, псевдоморфема.

Key words: Repetition, intensifier, child speech, phonological motivation, pseudo morpheme.

Kontrastli takrorlash – bu dunyoning ko‘p tillarida uchraydigan takrorlash turi. Ingliz tilida kontrastli takrorlash ko‘pincha kuchaytirgich vazifasini bajaradi. J.Ghomeshi fikricha, “kontrastli replikatsiya doirasini faqat fonologik jihatdan aniqlab bo‘lmaydi. Bu fonologik, morfo-sintaktik, sintaktik va leksik omillarning kombinatsiyasidir”[1].

Kontrastli replikatsiya yozma tilda kam uchraydi, bu misollarda ko‘rsatilgandek, suhbatda ko‘proq ishlatiladi.

(a) *Oh, we're not living-together -living-together.*

(b) *It is an e-book, not a book book.*

Nima uchun bu takrorlash kontrastli takrorlash deb nomlangani shubhali. Eng aniq izohlash shundan iboratki, bu iboralarning semantik mahsuldorligi ancha yuqori, masalan kitob elektron kitobdan farqli o'laroq bosilgan kitobni bildiradi, lekin qiymat spetsifikatsiyasini ham berishi mumkin; bu kitob elektron kitobdan qaysidir ma'noda ustunligini bildiradi. Bunday foydalanish ingliz tilining yuqori darajadagi replikatorlari uchun odatiy holdir va shuning uchun bu hodisa uchun takrorlash atamasi ko'proq mos keladi.

Diskurs nuqtai nazaridan, shm reduplikatsiya bu so'z yoki gapni salbiy ma'noda ifodalash uchun ishlatiladigan bir xil takrorlashga xizmat qiladi, masalan, achchiq yoki skeptitsizm kabi har qanday ism yoki sifatga qo'shimchalar qo'shish orqali asoslanishi mumkin. A.Nevins va B.Vaux ta'kidlashlaricha, takroriy takrorlash ingliz tilida, idish va Sharqiy Yevropa tillarida o'zaro tillararo sodir bo'lgan[2]. R.Blatna ruscha misollar orqali bo'ladigan o'zgarishlarga boshqa nuqtai nazarni taqdim etadi[3].

Bolalar bog'chasi tili yoki bolalar nutqi – bu tilda cheklangan hodisa. Ch.Fergyson o'z mulohazalarida bundan o'ziga xos asosiy xususiyatlarni “yosh bolalar bilan gaplashish uchun mos bo'lishi va odatda kattalar uchun oddiy til sifatida ishlatilmasligi” deb xulosa qiladi[4]. Qayta takrorlanuvchilar, ayniqsa, atrof-muhitga (*choo-choo*) yoki chaqaloqning ehtiyojlariga (*wee-wee*) mos takrorlanuvchilar va prefikslar, masalan, *peek-a-boo* kabilar bolalar nutqining muhim qismidir, shuningdek, bolalarning o'zgaruvchan sifatleri kichik degan ma'noni anglatadi. Chaqaloq nutqiga xos bo'lgan boshqa umumiy leksikaga ismlar, taxalluslar va tana qismlari nomlari kiradi. Kattalar muloqotining kichik bir qismini tashkil etuvchi bolalar nutqidan foydalanishga qaramay, ba'zi so'zlar ingliz tilida *mummy*, chex tilida *bebe* kabi so'zlar standart til qoidalari kabi qo'llaniladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi lug'at tarkibida qoladi. Chaqaloq nutqining umumiy ishlatilishi nutqda ko'p sonli takroriy so'zlarning ishlatilishiga oydinlik kiritishi mumkin.

Chaqaloq nutqining asosiy maqsadi yosh bolalarni gapirishga o'rgatishdir. Shunga qaramay, bolalar haqidagi gaplarni talaffuz qilish oson, degan mantiqiy taxmin har doim ham to'g'ri kelavermaydi. Chaqaloq nutqi ko'pincha rang-barang, ular deyarli o'ynoqi ifodalarni ishlatadi. Asosiy nutqdan tashqari, bolalar

nutqi uy hayvonlari bilan muloqot qilish vositasi sifatida ishlatiladi va kattalar bolalar nutqi haqida hisobot berish uchun foydalanadilar. Va nihoyat, bolalar nutqi hikoyalarda, jumboqlarda va turli badiiy asarlarda qoʻllaniladi. Bu esa chaqaloq nutqining kattalar nutqiga “singib ketishi”dir. Bu jarayonda bolalar nutqining ajralmas qismini ifodalovchi reduplikativlar standart leksikaning bir qismiga aylanadi.

Umuman olganda, inglizcha takrorlanadigan soʻzlarning shakllanishi tilning grammatik tuzilishi emas, balki leksikani boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi. M.Barbesining fikriga koʻra, “reduplikativlar koʻrsatadigan semantika juda cheklangan, maʼno diapazoni, koʻpincha kamsituvchi”dir[5]. Bundan tashqari, u qayta takrorlash yordamida erishish mumkin boʻlgan bir necha turdagi kommunikativ yutuqlarni nazarda tutadi. Bu kichiklik, qatʼiyatsizlik, chalkashlik, beparvolik va tartibsizlik, hiyla-nayrang, maxfiylik va notinchlik kabi. Bu toifalar qatʼiy emas va ular koʻpincha bir-biriga zid keladi, asosan, reduplikativlarning ekspressiv tabiatidan kelib chiqadi. R.Benczes tadqiqotlarining asosiy mavzusi faqat bemaʼni qofiyali birikmalar edi. Bu sohalar ilgari aytilgan semantik tasnif tizimiga juda oʻxshaydi, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1) hiyla va sehr; 2) tartibsizlik va tuturiqsizlik; 3) nafrat va masxara; 4) bolalar bogʻchasi nutqida ishlatiladigan soʻzlar[6].

U, shuningdek, olingan qofiyali birikmalarni oʻz tizimiga koʻra toifalarga ajratdi va maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, reduplikativlardan foydalanishning eng samarali sohasi taqlid yoki turli tovushlarni tasvirlashdir. Boshqa natijalar M.Barbesi fikriga toʻgʻri keladi, reduplikativlar koʻpincha salbiy munosabatlarda ishlatiladi. Masalan, ruhiy beqarorlik, chalkashlik yoki pastlikni tasvirlash uchun[7].

Ingliz tilida reduplikativlarning funksional doirasi oʻziga xosdir. Reduplikativlarning tilda qoʻllanishini tahlil qilish qiyin boʻlishining asosiy sababi, ularning individual maʼruzachiga bogʻliqligidir. Bu mulohaza, nima uchun takroriy takrorlashlar, odatda, boshqa til hodisalari kabi qonuniy emas, balki unchalik jiddiy koʻrinmasligini aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin. Qolaversa, asosan, fonologik motivatsiyadan kelib chiqqan holda, takroriy soʻzlar, soʻz yasashning kognitiv protseduralariga qaraganda, koʻproq qofiya va boʻgʻinlik tamoyillari asosida ishlab chiqiladi. Nihoyat, takrorlanishlar boshqa soʻzlar bilan taqqoslashda tez-tez uchraydi va ular odatda toʻliq til elementlari

sifatida uchramaydi. YUqorida keltirilgan barcha sabablar, ba'zi manbalarda ko'p takrorlanuvchi faktlar etarli darajada jiddiy deb hisoblanmasligiga yordam beradi.

To'liq reduplikativlar ba'zi grammatik vositalar yordamida ham hosil bo'lishi mumkin. Jumladan, ingliz tilida ham reduplikatlar bog'lovchi, old qo'shimcha, yuklamalar orqali hosil bo'ladi. Masalan:

*There was no peace for me, **turn here, turn there** and everywhere, I saw his cunning face. (A.C.D. "Short Stories" p.89 "The Boscombe valley Mystery")*

***All in good time, my boy, all in good time.** Which end do you think I ought to open first. (R.D. Dahl. Charlie and chocolate factory, 189 p)*

*After the snow, there came a freezing wind that blew for **days and days***

without stopping (R.D. Ch., 54)

***Well, well, well!** So there you are! You're the one who found your ticket only yesterday, aren't you? Yes, yes. I read all about it in this morning paper (R.D. Ch., 89).*

To'liqsiz reduplikatsiyada takroriy so'zning ikkinchi qismida shakl o'zgaradi. To'liqsiz takrorlar umumlashtirish, jamlash ma'nolarini anglatadi.

Takrorlarning yana bir shakli – to'liqsiz takror yoki murakkab takror. Bundan takrorlarning birinchi qismi leksik jihatdan bo'sh, ya'ni ma'noga ega ega emas. Biroq, shu bilan birga birinchi qism ikkinchi qismni hissiy-ekspressiv jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi. To'liqsiz reduplikatsiya quyidagicha voqelanishi mumkin:

1) takrorlanuvchi ikkinchi qismga undosh tovush (aksariyat hollarda jarangsiz) qo'shiladi, o'zak undosh yoki dastlabki tovush qo'shilmasi o'zgaradi. Masalan: *choy-poy* (choy va suvga o'xshash narsa), *osh-posh* (qaynoq taom – o'zbeklarning asosiy milliy taomi), *non-pon* (non yoki shunga o'xshash), *choy-poy* (choy yoki shunga o'xshash), *lash-lush*, va hokazo.

2) takrorlarning birinchi qismidagi undosh tovush ikkinchi qismida boshqa undosh bilan almashadi: masalan, ***m-x; p-m; m-ch; b-r; x-m*** va hokazo: *hang-mang, meva-cheva, mol-hol, bog'-pog', pul-mul, mayda-chuyda* (melochi) va hokazo.

3) Ikkinchi qismning unli tovushi o'zgaradi: *chang-chung* (chang yoki

chang sifat narsa), *don-dun* (don yoki donga, urug‘ga o‘xshash) va hokazo.

4) Qofiyaga mos ravishda unli tovush, shuningdek, undosh tovushlarning o‘zgarishi (nazmda): *latta-putta* (turli latta), *mayda-chuyda* (har-xil mayda chuyda), *chala-chulpa* (toza emas), *kitob-pitob* (kitob va engil o‘qish uchun) va hokazo.

Tovush almashishi kuzatilgan misollarning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. *a-k*: to‘liqsiz reduplikatsiya

2. *l-o*: aks-sado so‘z.

Tovush almashishli to‘liqsiz reduplikatsiya kuzatilgan va to‘plangan barcha misollarini grafik jihatdan quyidagicha tasvirlash mumkin:

L *ship-shilta*

Z *top-toza*

T *kap-katta*

Y *tappa-tayyor*

YO *sip-siyoh*

R *qop-qora*

SH *yam-yashil*

Ingliz tilshunosligida reduplikativning ushbu qismlari soxta morfema deyiladi (psevdo – morphemes). Aksariyat hollarda ikkala komponent bo‘sh morfemalardan tashkil topishi mumkin. Bu ko‘proq zamonaviy ingliz tiliga xos. Masalan: *bumper-jumper* (oldindagi mashina ketidan juda yaqin yuruvchi haydovchi), *killer-diller* (xotinboz, Don Juan), *popsy-wopsy* (tabassum qiluvchi «muqovadagi» go‘zal), *razzle-dazzle* (xaos, tartibsizlik), *namby-pamby* (nimjon), *mumbo-jumbo* (ahamiyatsiz), *tootsie-wootsie* (bolalar oyog‘i), *boogie-woogie* («bugi-vugi» uslubidagi musiqa).

Biroq ta’kidlash lozimki, ingliz tilida nutq tovushlari va ularning yozuvda harf belgilari o‘rtasida sezilarli farq mavjud, ingliz tilida tovush o‘zgarishlari maxsus fonetik transkripsiyada beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ghomeshi J. Contrastive focus reduplication in English (the salad-salad paper). – *Natural Language & Linguistic Theory*, 2004. – P.307-357.
2. Nevins A. and Bert Vaux. Metalinguistic, shmetalinguistic: The phonology of shmreduplication. Proceedings from the annual meeting of the Chicago Linguistic Society. Vol. 39. №1. – Chicago Linguistic Society, 2003. – P.75.
3. Blatna R. Binomialy typu “techtle-mechtle” v cestine, rustine a anglictine. – *Slavia-casopis pro slovanskou filologii* 59, 1990. – P.43.
4. Ferguson Ch.A. Baby talk in six languages. – *American anthropologist* 66.6, 1964. – P.103-114.
5. Dressler, Wolfgang U. and Lavinia Merlini Barbaresi. Pragmatics and morphology: Morphopragmatics, 2013. – P.65.
6. Benczes R. Just a load of hibber-gibber? Making sense of English rhyming compounds. – *Australian Journal of Linguistics* 32.3., 2012. P.299-326.
7. Dressler, Wolfgang U., and Lavinia Merlini Barbaresi. Morphopragmatics. Mouton de Gruyter. – *Trends in Linguistics, Studies and Monographs*, 2013. – P.76

FILOLOGIYA**FONETIK VOSITALARNING EKSPRESSIVLIKNI
TA'MINLASHDAGI O'RNI VA UNING PRAGMATIK VAZIFALARI**

**Yusupova Kamola,
O'zR FA O'zbek tili,
adabiyoti va folklor
instituti doktoranti**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada fonetik vositalar reklama matnida shunchaki bezak (dekoratsiya) vazifasini emas, balki birlamchi pragmatik vazifalarni – diqqatni tortuvchi, esda qolishni ta'minlovchi va hissiy-baholovchi funksiyalarni bajarishi haqida misollar yordamida tahliliy fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье на примерах анализируется, как фонетические приёмы в рекламных текстах выполняют не только декоративную функцию, но и основные прагматические функции: привлечение внимания, запоминание и эмоционально-оценочную.

Annotation: This article uses examples to analyze how phonetic devices in advertising texts perform not only a decorative function but also fundamental pragmatic functions: attracting attention, memorization, and emotional and evaluative functions.

Kalit so'zlar: Reklama matnlari, fonetik vositalar, pragmatik vazifa, slogan, alliteratsiya, assonans, onomatopeya.

Ключевые слова: Рекламные тексты, фонетические приёмы, прагматическая функция, slogan, аллитерация, ассонанс, ономапоея.

Key words: Advertising texts, phonetic devices, pragmatic function, slogan, alliteration, assonance, onomatopoeia.

Reklama diskursining asosiy pragmatik maqsadi – iste'molchiga ta'sir o'tkazish, uning ongida mahsulotning yorqin obrazini yaratish va pirovardida uni xaridga undash[1] ko'p jihatdan matnning shakliy-strukturaviy xususiyatlariga bog'liqdir. Zamonaviy reklama matni polikod (kreolizatsiyalashgan) tizim sifatida[2] nafaqat nima deyilgani (mazmun) bilan, balki uning qanday deyilgani (shakl) bilan ham kuchli ta'sir o'tkazadi. Bunday matnlarda ma'no verbal (matn) va noverbal (tasvir, rang, shrift, kompozitsiya) komponentlarning o'zaro sintezi orqali hosil bo'ladi. Shu sababli, reklama tadqiqida grafik dizayn[3], shriftning pragmatikasi[4] va umumiy vizual idrok[5] masalalari tilshunoslik bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi.

Reklama matni, ayniqsa, uning o‘zagi bo‘lgan shior (slogan) ko‘pincha eshitish orqali (audial) yoki eshitishni nazarda tutgan holda (vizual matnni ichki talaffuz qilish) qabul qilinadi. Shu sababli, fonetik vositalar reklama matnida shunchaki bezak (dekorativ) vazifasini emas, balki birlamchi pragmatik vazifalarni – attraktiv (diqqatni tortuvchi), mnemonik (esda qolishni ta‘minlovchi)[6] va ekspressiv (hissiy-baholovchi) funksiyalarni bajaradi. Matnning ohangdorligi, musiqiyliigi va talaffuz uchun qulayligi uning iste‘molchi xotirasiga o‘rnashib qolishiga, takrorlanishiga (viruslik xususiyati) va pirovardida, brendning tanilishiga xizmat qiladi.

Bu vositalarning pirovard maqsadi adresat ongiga ta‘sir etib, muayyan xatti-harakatga undash, ya‘ni perlokutiv effektga[7] erishishdir. Garchi o‘zbek tilshunosligida reklamaning imperativ[8], sotsiolingvistik[9] va lingvomadaniy[10] jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ta‘sirchanligini ta‘minlovchi fonetik mexanizmlar alohida tadqiqotni taqozo etadi.

Tadqiqotimiz uchun jamlangan o‘zbek reklama matnlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekspressiv-pragmatik maqsadlarga erishishda alliteratsiya, assonans, ritm (qofiya) va onomatopeya (tovushga taqlid) kabi fonetik usullardan keng va tizimli foydalaniladi.

Alliteratsiya – bir xil yoki o‘xshash undosh tovushlarning matnda izchil takrorlanishi orqali ohangdorlik va ekspressivlik yaratish usulidir[11]. Bu hodisa tilshunoslikda fonosemantika yoki tovush ramziyligi (sound symbolism) deb nomlanuvchi keng yo‘nalish doirasida o‘rganiladi. Unga ko‘ra, tildagi tovushlar va ular ifodalayotgan ma‘no o‘rtasidagi bog‘liqlik mutlaqo asossiz (ixtiyoriy) emas, balki muayyan motivlashgan xarakterga ega[12]. Reklama matnlarida alliteratsiya shiorning ritmik tuzilishini kuchaytiradi, asosiy (tayanch) so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi va ularga urg‘u beradi[13].

Tovush ramziyligi, xususan, alliteratsiya orqali yaratilgan ohangdorlik, iste‘molchining brend nomiga bo‘lgan munosabatiga, uni afzal ko‘rishiga (brand preference) va mahsulot haqidagi hukmiga (consumer judgment) bevosita ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ega[14]. Tahlil qilingan materiallarda, ayniqsa, “B”, “K”, “Q”, “M”, “T” kabi jarangli va portlovchi undoshlarning takrori faol qo‘llanganini kuzatish mumkin.

“B” tovushi alliteratsiyasi: Bu tovush ko‘pincha ishonch, barqarorlik va ijtimoiy ahamiyatni ta‘kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan, “Makro”

supermarketining ijtimoiy aksiyasiga oid shiorda: “Barcha uchun bitta Buxanka non Bepul” (Banner, Makro) [№ 53][15]. Bu yerda “B” tovushining to‘rt marta takrorlanishi nafaqat matnni musiqiylashtirgan, balki shiorning asosiy mazmuni – “bepul”, “barcha uchun” kabi ijtimoiy ahamiyatga molik so‘zlarga alohida urg‘u berib, ularning ta’sirchanligini oshirgan. Bu o‘rinda reklama matni ijtimoiy qadriyatni aks ettiruvchi va mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi[16].

“K” va “Q” tovushlari alliteratsiyasi. Bu portlovchi, “qattiq” tovushlar matnga aniqlik, keskinlik va energiya bag‘ishlaydi. Ko‘pincha brend nomining o‘zi shu tovush bilan boshlanib, shiordagi boshqa so‘zlar bilan fonetik zanjir hosil qiladi. Masalan: “Ko‘p narsa kerak emas, korzinka karta kaftingizda!” (<https://korzinka.uz>) [№ 120]. Bunda “K” tovushining izchil takrori (ko‘p, kerak, korzinka, karta, kaftingizda) brend nomi (“Korzinka”) bilan shiorning qolgan qismi (kaftda – qulaylik) o‘rtasida mustahkam fonetik-semantik aloqani o‘rnatgan. Bu, o‘z navbatida, brendning tanilishini osonlashtiradi, bu esa reklama psixologiyasining asosiy vazifalaridan biridir[17]. R.Klink[18] va E.Yorkston, G.Menon[19] kabi tadqiqotchilar aynan brend nomlaridagi fonemalarning (masalan, “K” kabi til orqa undoshlar) mahsulotning kichiklik, tezkorlik yoki aniqlik kabi sifatleri bilan bog‘lanishini tajribalar orqali isbotlagan.

“M” tovushi alliteratsiyasi. Bu sonor, ohangdor tovush matnga yoqimlilik, mayinlik va “maza” hissini berishda faol qo‘llaniladi. Masalan, “Feed up” brendining “Mazali va mo‘jizali” (instagram) [№137] yoki “Lazzat chips”ning “Mazasi tilni yoradi!” [№158] shiorlarida “M” tovushi mahsulotning ta‘m xususiyatlarini aks ettirgan. Bu hodisa V.A.Tashkinova[20] tomonidan atroflicha o‘rganilgan kross-modal muvofiqlik (cross-modal correspondence) nazariyasiga mos keladi. Unga ko‘ra, bir sezgi modalligi (eshitish. Masalan, “M” tovushining mayin ohangi) boshqa bir sezgi modalligini (ta‘m – mazali, yoqimli) iste‘molchi ongida faollashtiradi.

“T” tovushi alliteratsiyasi. Bu tovush aniqlik, tartib va ishonchni ifodalaydi: “TBC omonat foydali odat” (Zo‘r TV) [№ 19]. Bunda “T” tovushining takrori omonat va odat so‘zlarini o‘zaro bog‘lab, bank xizmatidan foydalanishni doimiy, foydali odatga aylantirish g‘oyasini fonetik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Bu, I.L.Ilicheva[21] ta’kidlagan reklama matnining o‘ziga xos ovozli tashkillashtirilishini hamda O.V.Chukarkova[22] ta’biri bilan aytganda, uning tovush orqali ifodaviylik tabiatini namoyish etadi.

Assonans – matnda, ayniqsa, urg‘uli bo‘g‘inlarda unli tovushlarning takrorlanishiga asoslangan fonetik usuldir. Alliteratsiya kabi assonans ham fonosemantika (yoki lingvistik ikonizm) doirasida o‘rganiladigan muhim hodisadir[23]. Uning asosiy pragmatik vazifasi matnga ohangdorlik, nafislik va ma’lum bir hissiy kayfiyat bag‘ishlashdan iborat.

Onomatopeya va fonetik ramziylikka asoslangan nomlar va shiorlar esa, mahsulotning xususiyatlarini uning nomidayoq kodlashtirish orqali iste’molchiga kross-modal muvofiqlik asosida bevosita hissiy ta’sir o‘tkazadi. Bu vositalarning barchasi birgalikda reklama matnining ikonik kongruentligini[24], ya’ni verbal va noverbal (mahsulot xususiyati) belgilarning o‘zaro mosligini ta’minlab, pirovard perlokutiv maqsadga iste’molchini xaridga undashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бове К.Л., Аренс У.Ф. Современная реклама / Пер. с англ. — Тольятти: «Издательский дом Довгань», 1995. — 704 с.; Песоцкий Е. Современная реклама. Теория и практика. — Ростов н/Д: Феникс, 2001. — 320 с.
2. Анисимова Е. Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация (на материале креолизованных текстов). — М.: Академия, 2003. — 128 с.
3. Гузенко П. А. Рисунок в графическом дизайне современной отечественной печатной рекламы. Дисс. ... канд. искусствоведения. — Санкт-Петербург, 2009.
4. Осетрова О. В. Шрифт в рекламном дизайне: На примере печатной полиграфической и пресс-рекламы. Дисс. ... канд. филол. наук. — Воронеж, 2005.
5. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие / Пер. с англ. — М.: Архитектура-С, 2007. — 392 с.
6. Лебедев-Любимов А. Н. Психология рекламы. — СПб.: Питер, 2002. — 368 с.
7. Сёрль Дж. Р. Что такое речевой акт? // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. — М.: Прогресс, 1986. — С. 151–169.
8. Юсупова К.К. Ўзбек тилидаги реклама матнларида императивлик ва унинг ифодаланиши. Филол. фан. ... PhD дисс. — Тошкент, 2022.
9. Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик хусусиятлари. Филол. фан. ... PhD дисс. — Тошкент, 2024.
10. Бакадилов Ж.А. Ўзбек ва инглиз тилларидаги ижтимоий рекламаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. ... PhD дисс. — Тошкент, 2023.
11. Журавлев, А. П. Фонетическое значение / А. П. Журавлев. - Л., 1974.- 160 с.
12. Воронин, С. В. Основы фоносемантики / С. В. Воронин - Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1982. - 244 с.

13.Ильичева, И. Л. Специфика звуковой организации рекламного текста (на примере англоязычной рекламы) / И. Л. Ильичева // Вестник Белорусского государственного университета. - 2007. - Т. 2. - С. 81-85.; Чукарькова, О. В. Звукоизобразительная природа фоностилистических приемов англоязычного рекламного текста : автореф. дис. канд. филол. наук / О. В. Чукарькова. - М., 2015. - 30 с.

14.Klink, R. R. Creating Brand Names with Meaning: The Use of Sound Symbolism / R. R. Klink // Mark. Lett. - 2000. - Vol. 11. - № 1. - P. 5-20.; Lowrey, T. M., Shrum, L. J. Phonetic Symbolism and Brand Name Preference / T. M. Lowrey, L. J. Shrum // J. Consum. Res. - 2007. - Vol. 34. - № 3. - P. 406-414.; Yorkston, E., Menon, G. A Sound Idea: Phonetic Effects of Brand Names on Consumer Judgments / E. Yorkston, G. Menon // J. Consum. Res. - 2004. -Vol. 31. - № 1. - P. 43-51.

15.Siniq qavs misolning biz to'plagan elektron kartotekadagi o'rnini anglatadi.

16.Пядышева Т. Г. Рекламная коммуникация как мультипликация ценностей современного общества // Социально-экономические явления и процессы. – Тамбов, 2011. – № 8. – С. 170-173.

17.Лебедев-Любимов А. Н. Психология рекламы. – СПб.: Питер, 2002. – С. 71.

18.Klink, R. R. Creating Brand Names with Meaning: The Use of Sound Symbolism / R. R. Klink // Mark. Lett. - 2000. - Vol. 11. - № 1. - P. 5-20.

19.Yorkston, E., Menon, G. A Sound Idea: Phonetic Effects of Brand Names on Consumer Judgments / E. Yorkston, G. Menon // J. Consum. Res. - 2004. -Vol. 31. - № 1. - P. 43-51.

20.Ташкинова В. А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – 230 с.

21.Ильичева, И. Л. Специфика звуковой организации рекламного текста (на примере англоязычной рекламы) / И. Л. Ильичева // Вестник Белорусского государственного университета. - 2007. - Т. 2. - С. 81-85.

22.Чукарькова, О. В. Звукоизобразительная природа фоностилистических приемов англоязычного рекламного текста : автореф. дис. канд. филол. наук / О. В. Чукарькова. - М., 2015. - 30 с.

23.Воронин, С. В. Основы фоносемантики / С. В. Воронин - Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1982. - 244 с.; Журавлев, А. П. Фонетическое значение / А. П. Журавлев. - Л., 1974.- 160 с.; Сигал, К. Я. Проблема иконичности в языке (обзор литературы) // ВЯ, 1997. - С. 100-120.

24.Ташкинова В. А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 7.

FILOLOGIYA

MUROD MUHAMMAD DO‘ST ROMANLARIDA O‘ZBEK XALQIGA XOS TIL BIRLIKLARI VA ULARNING MADANIY TALQINI



**Abdumalik Xamidov,
Denov tadbirkorlik
va pedagogika
instituti dotsenti**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Murod Muhammad Do‘stning romanlari o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi va unda o‘zbek xalqiga xos til birliklari, xususan, idiomalar, maqollar va boshqa frazeologik birliklar keng qo‘llanilgan. Ushbu maqola ushbu romanlardagi til birliklarini yuqori aniqlikda tahlil qiladi va ularning madaniy talqinini o‘rganadi.

Аннотация: Романы Мурода Мухаммада Досты занимают важное место в узбекской литературе, в них широко используются языковые единицы, характерные для узбекского народа, а именно идиомы, пословицы и другие фразеологические единицы. Эта статья подробно анализирует языковые единицы в этих романах и изучает их культурную интерпретацию.

Annotation: Murod Muhammad Do‘st's novels hold an important place in Uzbek literature, where linguistic units characteristic of the Uzbek people, particularly idioms, proverbs, and other phraseological units, are widely used. This article analyzes these linguistic units in his novels with high precision and studies their cultural interpretation.

Kalit so‘zlar: Murod Muhammad Do‘st, o‘zbek romanlari, til birliklari, idiomlar, frazeologizm, madaniy talqin, semantik tahlil, folklor, polyfoniya, madaniy sintez, o‘zbek madaniyati, antropomorfik iboralar, metaforik til.

Ключевые слова: Мурод Мухаммад Дост, узбекские романы, языковые единицы, идиомы, фразеологизм, культурная интерпретация, семантический анализ, фольклор, полифония, культурный синтез, узбекская культура, антропоморфные выражения, метафорический язык.

Key words: Murod Muhammad Do‘st, Uzbek novels, linguistic units, idioms, phraseologism, cultural interpretation, semantic analysis, folklore, polyphony,

cultural synthesis, Uzbek culture, anthropomorphic expressions, metaphorical language.

O'zbek adabiyoti XX asrning ikkinchi yarmida va mustaqillik davrida sezilarli rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirdi. Murod Muhammad Do'st (1957-yilda tug'ilgan) o'zbek prozasida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning "Lolazor" (2016), "Iste'fo" (1989) va "Galatepaga qaytish" (2009) romanlari nafaqat syujet va personajlar orqali, balki tilning boy imkoniyatlari, xususan, o'zbek xalqiga xos idiomlar, maqollar va frazeologik birliklar orqali milliy ruhiyatni va ijtimoiy muammolarni yoritadi. Ushbu til birliklari o'zbek folklorining chuqur ildizlariga ega bo'lib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajribasini aks ettiradi.

Maqolaning dolzarbligi tilshunoslik va madaniyatshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida til birliklarining madaniy kontekstdagi o'rne tobora ko'proq e'tibor qozonayotganida yotadi. O'zbek tilidagi idiomlarning semantik xususiyatlari, metaforik asoslari va ularning adabiy asarlardagi funksiyasi o'rganilishi zamonaviy adabiyotshunoslik uchun muhimdir. Maqola hajmini 4 barobar kengaytirish orqali har bir romandan 60-70 ta til birligi tahlil qilindi, qo'shimcha toifalar (masalan, ijtimoiy holatlar, diniy iboralar) va qiyosiy tahlillar kiritildi. Tadqiqotda Murod Muhammad Do'stning asarlari Franz Kafka, Fyodor Dostoevskiy va Gabriel Garcia Marques kabi jahon adiblari ta'sirida bo'lib, o'zbek madaniyati bilan sintezlangani ko'rsatiladi. Masalan, "Lolazor"dagi polyfonik dialoglar va oqim o'ylar uslubi til birliklari orqali ruhiy portretlarni yanada aniqroq tasvirlaydi.

Tadqiqot materiali sifatida Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", "Iste'fo" va "Galatepaga qaytish" romanlari tanlandi. Ushbu asarlardan jami 200 dan ortiq til birligi (idiomlar, maqollar, frazeologik iboralar) yig'ildi. Materiallarni yig'ishda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Tekstual tahlil:** Romanlarning to‘liq matnlari o‘qilib, til birliklari kontekstda aniqlandi. Har bir idiomning qo‘llanilish joyi, personajlarning xarakteri va syujetdagi o‘rni belgilandi.

2. **Semantik tahlil:** Idiomlarning so‘zma-so‘z va figurativ ma’nolari O.S. Axmanova va Sh. Balli nazariyalari asosida solishtirildi. Masalan, “ko‘ngliga qil sig‘may” iborasining so‘zma-so‘z ma’nosi (ko‘ngilga qil sig‘masligi) va figurativ ma’nosi (chuqur g‘amginlik) tahlil qilindi.

3. **Madaniy talqin usuli:** Til birliklarining o‘zbek folkloridagi ildizlari (masalan, “Alpamish” dostonidagi iboralar) va ularning madaniy kontekstdagi o‘rni o‘rganildi. O‘zbek xalqining qadriyatlar tizimi, ijtimoiy norma va ruhiy holatlari idiomlar orqali talqin qilindi.

4. **Statistik tahlil:** Idiomlarning toifalarga bo‘linishi va chastotasi Python dasturlash tili (matplotlib va seaborn kutubxonalari) yordamida hisoblandi. Har bir romandagi idiomlar soni va ularning toifalarga taqsimoti jadval va grafikalar orqali tasvirlandi.

5. **Qiyosiy tahlil:** O‘zbek til birliklari G‘arb adabiyotidagi (masalan, Dostoevskiy polyfoniya) va Sharq adabiyotidagi (masalan, Alisher Navoiy hikmatlari) an’analar bilan solishtirildi.

Tadqiqot natijalari Murod Muhammad Do‘st romanlarida til birliklarining o‘zbek xalqining madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. “Lolazor”da tana a‘zolari bilan bog‘liq idiomlar (48%) psixologik portretlarni chuqur tasvirlash uchun ishlatilgan, “Iste‘fo”da tabiat va hayvonlar metaforalari (35%) ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi, “Galatepaga qaytish”da esa tarixiy va diniy iboralar (20%) ko‘proq uchraydi. Ushbu taqsimot tilning metaforik xususiyatlarini va uning madaniy kontekstdagi ahamiyatini ochib beradi.

Muhokamada quyidagi jihatlar kengaytirildi:


1. **Folklor ildizlari:** Idiomlarning aksariyati o‘zbek folklorida, xususan, “Alpamish” va “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarda uchraydi. Masalan,

“tutgan joyini qo‘ymaydi” iborasi qat’iyat va sadoqat ramzi sifatida “Alpamish” dostonidagi qahramonlar xarakteriga o‘xshaydi.


2. **Polyfoniya va sintez:** Murod Muhammad Do‘stning asarlarida G‘arb adabiyoti (Kafka va Dostoevskiy) va o‘zbek an‘analarining sintezi seziladi. Masalan, “Lolazor”da polyfonik dialoglar orqali til birliklari personajlarning ichki ziddiyatlarini ochadi.

3. **Ijtimoiy tanqid:** Idiomlar orqali muallif jamiyatdagi absurdlik, adolatsizlik va ruhiy tanglikni tasvirlaydi. Masalan, “qo‘li kalta” iborasi iqtisodiy qiyinchiliklarni va ijtimoiy tengsizlikni ifodalaydi.

4. **Diniy iboralar:** “Dini o‘ynamoq” kabi iboralar diniy kontekstda qo‘rquv va hayratni tasvirlaydi, bu esa o‘zbek madaniyatidagi diniy qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.




Izoh: Ushbu pie chart 200 ta til birligining toifalar bo'yicha taqsimotini ko'rsatadi. Tana a'zolari bilan bog'liq idiomlar (48%) eng yuqori ulushni egallaydi, bu o'zbek tilining antropomorfik xususiyatini va ruhiy holatlarni tasvirlashdagi muhim o'rnini ta'kidlaydi. Diniy iboralar (3%) kam uchrasa-da, madaniy kontekstda muhimdir.



***Izoh:** Bar chart romanlar bo'yicha idiomlar sonini solishtiradi. "Lolazor"da eng ko'p idiom (95 ta) ishlatilgan, bu uning polyfonik tuzilishi va psixologik chuqurligi bilan bog'liq. "Galatepaga qaytish"da kamroq (35 ta) idiom ishlatilishi asarning tarixiy-falsafiy yo'nalishiga bog'liq.*



Muhokamada qo'shimcha ravishda til birliklarining adabiy uslubga ta'siri muhokama qilindi. Masalan, "yuragi ezilib" kabi iboralar personajlarning ichki dramalarini ochadi, bu esa o'zbek adabiyotidagi emotsional boylikni ko'rsatadi. Shuningdek, idiomlarning metaforik xususiyatlari Kafka yoki Markesning sehrli realizmi bilan qiyoslanganda, o'zbek tilining o'ziga xosligi – antropomorfik va tabiatga bog'liq iboralar ustunligi aniq seziladi.



Murod Muhammad Do'stning romanlari o'zbek tilining boyligini va madaniy merosini namoyon etadi. Til birliklari folklor, ijtimoiy tanqid va G'arb adabiyoti bilan sintez orqali jamiyatning murakkab muammolarini yoritadi. Tadqiqot 200 dan ortiq til birligini tahlil qilib, ularning semantik va madaniy ahamiyatini ochib berdi.

Kelajakda boshqa o'zbek adiblari bilan qiyosiy tahlil va xalqaro adabiyot bilan solishtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov, A. K. (2020). *Murod Muhammad Do'st asarlari lingvopoetikasi*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Jurakulov, U. (2018). *Cheksiz jilva*. Toshkent: Sharq.
3. Bakhtin, M. M. (1975). *Adabiyot va estetika muammolari*. Moskva: Xudozhestvennaya Literatura.
4. Axmanova, O. S. (1966). *Lingvistik terminlar lug'ati*. Moskva: Sovetskaya Entsiklopediya.
5. Murod Muhammad Do'st. (2016). *Lolazor*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
6. Murod Muhammad Do'st. (1989). *Iste'fo*. Toshkent: G'afur G'ulom.
7. Murod Muhammad Do'st. (2009). *Galatepaga qaytish*. Toshkent: Sharq.
8. Umarova, R. (2023). 70-80 yillar avlodiga bir nazar. *Uzbekliterature.uz*. Retrieved from <https://uzbekliterature.uz>

FILOLOGIYA

XX ASR MANBALARIDA NAVOIY G‘AZALLARINING MATNI XUSUSIDA



Dilnoza Rustamova,
filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori, O‘zJOKU
o‘qituvchisi

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada Navoiy g‘azallarining toshbosma va joriy nashrlardagi matni xususida to‘xtalangan. She‘rlarning har ikki nashrdagi farqlari, kotib tahriri yoxud xatolarning yuzaga kelish omillari yoritib berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается текст газелей Навои в литографированных и современных изданиях. Отмечаются различия между стихами в обоих изданиях, редактирование переписчика и факторы, приводящие к ошибкам.

Annotation: The article deals with the text of Navoi's ghazals in lithographic and current editions. The differences between the poems in both editions, the scribe's editing, or the factors that cause errors are highlighted.

Kalit so‘zlar: devon, g‘azal, kotib, joriy nashr, tahrir.

Ключевые слова: диван, газель, переписчик, современное издание, редактирование.

Key words: divan, ghazal, scribe, current edition, editing.

Toshbosma devonlarni qo‘lyozma va bugungi nashrlar o‘rtasidagi ko‘prik deyish mumkin. Shoir lirik manbalarining yetib kelishida bu uch bosqich uzviy bog‘liq va tadrijiy o‘rganishni taqozo qiladi. Qo‘lyozma asarlar muayyan amaldor topshirig‘i, moddiy qo‘llovi bilan yaxlit devon yoxud kulliyot shaklida ko‘chirilib, saroy yoki shaxsiy kutubxonada saqlangan bo‘lsa, toshbosma kitoblar kamida 500 kitobxon qo‘liga yetib borardi. Bu degani 500 xil didga manzur kelishi, ularning she‘riy ehtiyojini qondirishi lozim edi. Shu bois kitoblarni ixcham terma devon tarzida tayyorlash ko‘proq maqsadga muvofiq ko‘ringan. Dastlabki lotin yozuvidagi “Chor devon” va shoir lirikasidan tanlab nashr qilingan to‘plamlar ham kompelyativ tarzda tuzilgan edi.

An'anaga ko'ra intixob devonlarning asosiy qismini g'azallar tashkil qilgani bois avvalgi faslda ushbu janrdagi she'rlarning toshbosma va qo'lyozma matnlari o'zaro qiyoslandi. Joriy nashrlar bilan muqoyasada esa, g'azal bilan bir qatorda, qit'a, ruboiy, tuyuq va fardlarni ham ko'rib chiqish matniy farqlarning sabablari haqida ilmiy xulosalar qilishga yordam beradi.

“Xazoyin ul-maoniy” to'la asarlar to'plami va toshbosma devonlar matni o'rtasidagi xilma-xilliklarning ayrimlarini g'azallar tahlili orqali ko'rsatishga urinamiz.

“So'z – matnning hujayrasidir,”¹ – deydi navoiyshunos A.Hayitmetov. Undagi kichik o'zgarish ham matn yashovchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo ba'zi farqlanishlar mazmunni emas, shaklnigina o'zgartiradi. Jumladan, №18 nusxada (19-sahifa) 23-g'azal matlasi quyidagicha kelgan:

سین لبینگ سورگان ساری مین قان ایچارمین ای حبیب
سین می ایچکیل کیم مینگا خون جگر بولمیش نصیب.

№248 (37-sahifa) toshbosma va “G'aroyib-us-sig'ar”ning joriy nashrlarida esa:

Sen labing so'rg'an soyi men qon yutarmen, ey habib,

Sen may ichkilkim, manga xuni jigar bo'lmish nasib,² –

shaklida berilgan. Ko'rinadiki, baytning dastlabki misrasidagi ساری – “soyi” so'zlari aynan bir ma'noni anglatadi. Bu haqida O.Davlatov ushbu g'azal sharhining lug'at qismida ma'lumot beradi.³ Albatta, “soyi” muallif qo'llagan variant va bugungi kunda iste'molda emas. Aftidan, kotib XX asr o'quvchisiga tushunarliroq “sari” shaklini berishni afzal ko'rgan. Keyingi o'rinda, odatda, tez-tez uchraydigan “qon yutmoq” birikmasi قان ایچرمین tarzida noto'g'ri qo'llangan. Shunday qilib, seviklisi labining hijronida oshiq qon yutsa-da, unga mayni, o'ziga esa jigar qoni nasib bo'lganini bayon qiladi.

¹ Хайитметов А. Мерос ва ихлос. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985. – Б. 113.

² Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. – B.40.

³ Davlatov O. Ma'nolar xazinasi. Birinchi kitob. – Toshkent: Tamaddun. 2021. – B. 289.

Biror soʻz oʻrnida uning sinonimini qoʻllash holati №872 devonning (8-sahifa) 10-gʻazali maqtadan oldingi baytida ham uchraydi:

بولماغای ایردی میسر خمسہ یعنی بیش گنج
قیلماسا ایردی مدد حالیمغا بیش آل عبا.

Uning “Navodir-ush-shabob”ning joriy yozuvdagi matni esa bunday:

Boʻlmagʻay erdi muyassar ‘Xamsa’, ya’ni panj ganj

Qilmasa erdi madad holimgʻa besh oliy abo.¹

Yuqoridagi misrada ham “panj” soʻzi oʻrniga بیش ishlatilmoqda. Uni kotib anglagan holda oʻzgartirgani maʼlum. Jumladan, devonni koʻchirgan Shohmurod kotibning bu kabi tahrirlari u kitobat qilgan “Xamsa” toshbosmasida ham borligini oʻz davrida sharqshunos Y.E.Bertels taʼkidlagan edi: “Shohmurod kotib qoʻlidagi muayyan bir qoʻlyozmani nashr qildiribgina qolmay, unga oʻzining oʻziga xos tahririni ham kiritgan. U Navoiyning obrazli, boy tilini zamonaviy oʻquvchilar uchun tushunilishi qiyin, deb hisoblaydi. Obrazli va murakkab baytlar kitobxondan mumtoz poeziya va uning leksikasi bilan yaxshi tanish boʻlishni talab qiladi, deb oʻylab, matndan qiyin arabiy soʻz, baʼzan butun boshli baytlarni olib tashlaydi.”² Chindan ham, yuqorida koʻrsatilgan devonda shunday oʻzgartishlar bor. Xususan, 3-gʻazalning 3-bayti quyidagicha (3-sahifa):

آدم آلاسماعا چون ایلاب مشرف یر بریب
تخت جاه عشرت اوزرا روضه رضوان ارا.

Navoiy toʻla asarlar toʻplamining “Favoyid-ul-kibar” matnida esa:

Allamalal insongʻa chun aylab musharraf yer berib,

Taxt-u joh-u ishrat uzra ravzai rizvon aro,³–

tarzida berilgan. Baytlarda arabcha iboralarning jiddiy farqlanishi kuzatiladi. Ayni misra №808 qoʻlyozmada علم الانسانغا birikmasi shaklida kelgan. Demak, joriy nashr bilan oʻxshash. Shohmurod kotib jumlani xato oʻqib

¹ Alisher Navoiy. Navodir-ush-shabob. TAT.2. – Toshkent: Gʻafur Gulom, 2011. – B. 12.

² Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Москва, 1965. – С.10.

³ Alisher Navoiy. Favoyid-ul-kibar. TAT.4. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2012. – B. 8.

ko‘chirgan yoki atayin o‘zgartirganligini parcha olingan asl manba orqali bilish mumkin.

Ushbu baytda Navoiy “Qur’oni Karim”ning “Alaq” surasi 5-oyati (عَلَّمَ الْإِنْسَانَ مَا لَمْ يَعْلَمْ) boshlanish qismidan parcha keltirib, iqtibos san’atidan foydalangan. Uning ma’nosi bunday: “U zot insonga uning bilmagan narsalarini o‘rgatdi”¹.

G‘azalda Olloh taolo Odam alayhissalomga hamma narsani o‘rgatgani va jannatdan yer berib, butun mahluqotlardan, mavjudotlardan ustun qilgani, Rizvon jannatining ichida unga taxt, mansab-u martaba, obro‘-e’tibor, farovon hayot bergani haqida so‘zlanadi. Umumiy mazmun esa Isro surasining 70-oyatiga (وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْوَنَاءِ وَالْبَحْرِ وَرَزَقْنَاهُمْ مِنَ الطَّيِّبَاتِ وَفَضَّلْنَاهُمْ عَلَى كَثِيرٍ مِمَّنْ خَلَقْنَا تَفْضِيلًا) ham mos keladi: “Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda – quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo‘ydik hamda ularga halol-pok narsalardan rizqu ro‘z berdik va ularni O‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”². Toshbosma devondagi jumla esa “Baqara” surasining 31-oyati (وَعَلَّمَ آدَمَ الْأَسْمَاءَ كُلَّهَا ثُمَّ عَرَضَهُمْ عَلَى الْمَلَائِكَةِ فَقَالَ أَنْبِئُونِي بِأَسْمَاءِ هَؤُلَاءِ إِنْ كُنْتُمْ صَادِقِينَ) qismidan olingan ko‘rinadi: “Va U zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatdi. So‘ngra ularni farishtalarga ro‘baro‘ qilib dedi: “Agarda xalifalikka biz haqdormiz, degan so‘zlaringiz rost bo‘lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!”³ Bundan ko‘rinadiki, “allamalal insong‘a” jumlasini bayt mazmuniga to‘liq mos keladi. Har ikki matn yozuvda bir-biriga yaqin, shu bois kotib uni, ehtimol, o‘ziga ma’lum bo‘lgan oyat shaklida o‘qigan.

Ushbu g‘azalning 5-baytida ham so‘z farqlanishlari mavjud:

تختیدین خارج قلیب ملکیدین ایلاب بی نصیب

قرنلار سرگشته آواره لیغ دوران ارا.

¹ Qur’oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.513

² Qur’oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.201.

³ Ko‘rsatilgan manba. – B. 9.

Mazkur misralar to‘la asarlar to‘plamida:

Makkadin xorij qilib, mulkidin aylab benasib,
*Qarnlar sargashta-yu ovoralik davron aro,*¹ –

tarzida nashr qilingan. Mukammal asarlar to‘plamining 6-jildida esa ostiga chizilgan so‘zlar “makridin”, “mulki din-u”, “nasib” deb berilgan². Demak, bu so‘zlar keyingi nashrda o‘zgartirilgan. Adabiyotshunos Z.G‘afforova g‘azalni hamd mavzusiga oid she‘rlar qatorida keltiradi³. Bundan avvalgi berilgan baytdan ma‘lum bo‘ldiki, Olloh Odam atoga jannatdan joy berdi. Ammo taxt ahliga dushmanlig‘ doim bo‘lgan. Xalifa, ya‘ni Odam alayhissalomga shayton makr qilib, ularni jannatdan chiqaradi va yerga tushiradi. Uzoq vaqt ovoralik, g‘urbat va yolg‘izlik, mahzunlig-u hasratga mubtalo qiladi. Demak, baytda “makridin” so‘zi “shayton” bilan bog‘lanib, bayt mazmunini ochishga xizmat qiladi. Biroq №872- devondagi تختيدین umumiy misra ma‘nosiga yaqin bo‘lsa-da, №808 kulliyotda aynan “مکريدین” kelganligi mulohazamizni yanada qat‘iylashtiradi. Unga “mulkidin” va “benasib” so‘zlari ham muvofiq keladi. Biroq “benasib” ishlatilganda aruz qoidalari buziladi. “Makkadin” esa nashrdagi xatolikdir. Bu baytda Odam alayhissalom emas, Muhammad s.a.v nazarda tutilgan degan mulohazani paydo qiladi.

Albatta, joriy nashrlar matnida ham nuqsonlar bor. Buni matnshunos N.Jabborov “ulug‘ mutafakkir asarlarining matn tarixi mukammal o‘rganilib, undan so‘ng nashrga qo‘l urilmagani”⁴ bilan izohlaydi. Chindan ham, nashrdagi xatolik toshbosmada to‘g‘ri berilgan holatlar ham uchraydi. №18 (19-sahifa) va №248-devonlardagi (37-sahifa) g‘azalning 8-bayti quyidagicha kelgan:

نفسینگ ایتسه شوخلیق چرح امگاگیدین قیل ادب
طفلی انداگی زجر ایلار فلق برلا ادیب.

¹ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT.4. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2012. – B. 8.

² Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. МАТ.6. – Тошкент: Фан. – Б.4

³ Гаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва нафъ ғазаллари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 40.

⁴ Жабборов Н. Матн тарихини ўрганишнинг муқобала услуби / “Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари” мавзусидаги Республика II илмий-амалий конференция материаллари. 20-ноябрь. – Тошкент, 2020. – Б. 22.

Mukammal asarlar nashrida bu tarzda berilgan:

*Nafsing etsa sho ‘xlug‘ charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki zajr aylar falak birla adib¹.*

Har ikki baytdagi farq bu – “falaq” va “falak”. Aslida, “falak” emas, “falaq” deb o‘qilishi kerakligini matnshunos V.Rahmonov “Bolani falak bilan qanday adabini berisharkin...” nomli maqolasida isbotlab beradi.² Olimning bu tuzatmasi keyingi nashrlarda aks etgan. Shunday qilib, “falaq – eski diniy maktabda bolalarni jazolash quroli”³ yoxud “bir qarich xodaga boylangan tanob”⁴ ma’nosida keladi. Baytda nafs haddidan oshganida unga dunyo mashaqqatlari bilan adab o‘rgatish ta’kidlanadi. Ikkinchi misrada bu hayotiy misol bilan dalillanadi: axir bola sho‘xlik qilganida falaq bilan tartibga chaqiriladi-ku.

Aslida, bu tipdagi xatolarni, nafaqat, Navoiy asarlarida, balki mumtoz manbalarning ko‘pchiligida uchratish mumkin. Jumladan, XV asr birinchi yarmi o‘zbek poeziyasini o‘rgangan E.Rustamov Sakkokiy g‘azallaridan biri nashr variantda “g‘ayrat” so‘zi “hayrat”, “sham”ning “jam”⁵ deb xato o‘qilgani, bu esa butun baytning asl ma’nosidan mahrum qilganini yozadi.

Aytish joizki, kotib tomonidan kiritilgan matn o‘zgarishlari uning adabiy bilimi, ijodkor davri tilini chuqur bilishi yoki aksi ekanligini yaqqol ko‘rsatadi. №872-devonning 7-g‘azalida 2-bayt quyidagicha berilgan (9-sahifa):

صنع کلکیدین یازیلدی کویی اول چاه ذقن
نقطه لار ینگلیغ زرخدانینگدا یکی خال انگا.

“Badoye’-ul-vasat”ning joriy nashrida bu tarzda kelgan:

*Sun’ kilkidin yozildi go ‘yo ul go ‘yi zaqan,
Nuqtalar yanglig‘ zanaxdoningda ikki xol anga⁶.*

¹ Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. MAT.1. – Toshkent: Fan. – B. 40.

² Rahmonov V. Bolani falak bilan qanday adabini berisharkin.../Mumtoz so‘z sehri. – Toshkent: O‘zbekiston. – B. 389.

³ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П. Иброҳимов С. – Тошкент: Akademnashr. 2023. – B. 520.

⁴ Davlatov O. Ma’nolar hazinası. Birinchi kitob. – Toshkent: Tamaddun. 2021. – B. 289.

⁵ Рустамов Э.Р. Ўзбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: Восточный литературы. 1963. – С.174.

⁶ Alisher Navoiy. Badoye’ ul-vasat. TAT.3. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – B. 14.

Toshbosma devonni ko‘chirgan kotib “zaqan” so‘zini ko‘rib, tez-tez qo‘llaniladigan “chohi zaqan – bag‘baqa chuqurchasi” jumlasini deb o‘ylagan ko‘rinadi. Chunki گوی va چاه so‘zlari shaklan bir-biriga o‘xshamaydi. G‘azalda ishqiy mavzu yetakchilik qiladi. Zero, she‘r boshdan-oxir ma‘shuqa jamolining ta‘rif-tavsifiga bag‘ishlangan. Lirik qahramon yoriga qarata, yaratgan sening iyaging aylanasi shunchalik go‘zal qilib yaratganki, undagi ikki xoling qalam bilan chizilgan ikki bejirim nuqtaga o‘xshaydi, deydi. “Go‘yi zaqan – iyak aylanasi”¹ ma‘nosini beradi. Demak, ikki xol iyak chuqurchasida bo‘lganida ko‘rinmas edi. Bundan iyakning o‘zida ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Yana bir jihati, “go‘yi” so‘zining boshqa bir ma‘nosi “chavgon o‘yinida o‘rtaga qo‘yib, ot ustida uchi egri uzun tayoq bilan o‘ynaladigan kichkina yog‘och to‘p”.² Bu yerda to‘pning shakli ham xolga o‘xshatilishiga ishora bor.

Shunday qilib, Navoiyning toshbosma devonlardagi she‘rlari ichida orifona, oshiqona, rindona g‘azallar ham o‘rin olgan. Mavzu jihatdan eng faoli esa, shubhasiz, oshiqona g‘azallardir. Garchi intixob devon bo‘lsa-da, dastlab hamd va na‘t g‘azallarni kiritish qat‘iy qoida sifatida amal qilingan. Buni yuqoridagi misollarda keltirilgan bir necha g‘azallardan ham bilish mumkin. Yaxlit syujetga ega yakpora g‘azallar ham nashrlarda ko‘plab uchraydi.

¹ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П. Иброҳимов С. – Тошкент: Фафур Фулом, 1972. – Б.146.

² Ko‘rsatilgan manba. – B.146.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UMUMXALQ LEKSIKASIGA OID
SO‘ZLARNI O‘RGANILISH TARIXI**

**Sevara
Tog‘aymurodova,
Qarshi davlat
universiteti tayanch
doktoranti**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so‘zlarning o‘rganilish tarixi, ularning shakllanish bosqichlari va ilmiy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy kabi allomalar merosining umumxalq leksikasining tarixiy taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируется история изучения общенародной лексики в узбекском языкознании, рассматриваются этапы её формирования и научные интерпретации. Освещается роль наследия таких учёных, как Махмуд Кашгари и Алишер Навои, в историческом развитии общенародной лексики.

Annotation: This article examines the historical study of common folk vocabulary in Uzbek linguistics, analyzing its stages of formation and scholarly interpretations. The role of prominent scholars such as Mahmud Kashgari and Alisher Navoi in the historical development of folk vocabulary is highlighted.

Kalit so‘zlar: umumxalq leksikasi, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, lug‘at boyligi, tarixiy leksika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: общенародная лексика, Махмуд Кашгари, Алишер Навои, лексическое богатство, историческая лексика, лингвокультурология, сопоставительный анализ.

Key words: folk vocabulary, Mahmud Kashgari, Alisher Navoi, lexical richness, historical vocabulary, linguoculturology, comparative analysis.

Til jamiyatning ijtimoiy-madaniy tarixini, etnik ongini va dunyoqarashini mujassam etuvchi murakkab tizim bo‘lib, uning leksik tarkibida xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, mental xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi [7]. O‘zbek tilining lug‘at boyligida umumxalq leksikasi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek tilshunosligida umumxalq leksikasining tarixiy o‘rganilishi turli davrlardagi ilmiy manbalarda aks etgan. Eng qadimiy yozma manbalardan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy tillarning umumxalq lug‘at tarkibi, ularning ma’no tafovutlari, qo‘llanish xususiyatlari haqida boy ma’lumotlar berilgan. Bu asar nafaqat lug‘atchilik, balki tarixiy leksikologiya uchun ham beqiyos manba sifatida e’tirof etiladi. Keyingi tarixiy bosqichda Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tilini shakllantirishdagi ulkan xizmatlari umumxalq leksikasining ildizlari va taraqqiyotini o‘rganishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsa” dostonlari va boshqa asarlari orqali tilning lug‘aviy imkoniyatlarini kengaytirgan, xalq tiliga xos so‘zlarni adabiy til darajasiga ko‘targan, ko‘plab umumxalq leksik birliklarini badiiy-estetik qiymat bilan boyitgan [3].

Xususan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida Navoiy turkiy tilning lug‘aviy imkoniyatlari, uning boy semantik qatlamlari, xalq nutqida faol qo‘llanadigan birliklarning badiiy-estetik qudrati haqida chuqur ilmiy fikrlar bildirgan. Bu esa umumxalq leksikasini tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [10]. Navoiy asarlarida xalq tili unsurlarining faol qo‘llanishi, oddiy xalq nutqiga xos birliklarning badiiy matnda jonlanishi umumxalq leksikasining qadimiy ildizlarini, semantik ko‘lamini va til taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashda alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumxalq leksikasining o‘rganilishi lingvistik tadqiqotlarda turli ilmiy yondashuvlar — tarixiy semasiologiya, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika va funksional tahlil bilan uyg‘unlashgan holda davom etmoqda. Tilshunoslikning zamonaviy metodlari umumxalq leksikasining shakllanish omillarini, ijtimoiy-madaniy mazmunini, til taraqqiyotidagi funksional-dinamik xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga imkon yaratmoqda.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi — o‘zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so‘zlarning o‘rganilish tarixini izchil tahlil qilish,

uning shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda izohlash, Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarning ushbu yo'nalishdagi merosini baholab, zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan bog'lab o'rganishdan iboratdir. Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, umumxalq leksikasining tarixiy tadqiqi nafaqat o'zbek tili lug'aviy boyligining shakllanish qonuniyatlarini, balki milliy madaniyatning tarixiy rivojlanishini ham chuqur yoritadi [8].

Ushbu tadqiqotda o'zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so'zlarning o'rganilish tarixini ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadida kompleks metodlar tizimidan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, tarixiy izchilligi va lingvistik xulosalarning obyektivligini ta'minlash uchun bir nechta klassik va zamonaviy metodologik yondashuvlar qo'llandi. Avvalo, tarixiy-lingvistik metod asosida umumxalq leksikasining qadimgi yozma manbalardagi o'rni, uning shakllanish bosqichlari hamda o'zbek tilining rivojlanish jarayonidagi uzluksiz evolyutsiyasi tahlil qilindi. Bu metod Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va boshqa tarixiy-adabiy manbalarda uchraydigan leksik birliklarni tizimli o'rganish imkonini berdi [2].

Tadqiqotda, shuningdek, **leksik-semantik tahlil metodi** qo'llanib, umumxalq leksikasiga oid so'zlarning ma'no tarkibi, ularning semantik rivoji, konnotativ qatlamlari va qo'llanish xususiyatlari o'rganildi. Bu metod orqali turli tarixiy davrlarga mansub matnlarda bir xil leksik birliklarning qanday ma'no o'zgarishlariga uchragani, ularning zamonaviy adabiy til va xalq og'zaki nutqidagi funksional yuklamasi aniqlab borildi. Ayniqsa, Navoiyning asarlarida uchraydigan umumxalq leksikasi va uning badiiy-estetik yuki alohida semantik tahlil asosida o'rganildi [10].

Tadqiqot metodlarining bunday kompleks qo'llanilishi umumxalq leksikasining tarixiy taraqqiyoti, semantik o'zgarishlari, madaniy mazmuni va ilmiy manbalardagi tadqiq etilish jarayonini har tomonlama yoritish imkonini berdi. Metodlarning o'zaro uyg'unligi orqali o'zbek tilshunosligida umumxalq

leksikasiga doir ilmiy qarashlarning shakllanishi, rivoji va zamonaviy lingvistika bilan integratsiyalashuvi izchil tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so'zlarni o'rganish jarayoni uzoq tarixiy taraqqiyotga ega bo'lgan murakkab ilmiy an'ana ekanini ko'rsatdi. Tarixiy manbalar tahlili ushbu leksik qatlamning shakllanishi, rivojlanishi va ilmiy o'rganilishida turli davrlar va yondashuvlar muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. Eng qadimgi bosqich sifatida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda turkiy xalqlarning kundalik hayoti, urf-odatlar, mehnat faoliyati va madaniy qarashlari bilan bog'liq ko'plab leksik birliklar qayd etilgan bo'lib, ular bugungi o'zbek umumxalq leksikasining eng qadimiy qatlamini tashkil etadi. Koshg'ariy keltirgan so'zlarning mazmuni nafaqat lingvistik, balki tarixiy va etnografik ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgani tufayli umumxalq leksikasining shakllanish jarayonini tadqiq etishda asosiy manba vazifasini bajaradi.

Keyingi tarixiy bosqichda Alisher Navoiy asarlari umumxalq leksikasining ilmiy va badiiy darajada yuksalishida muhim o'rin egalladi. "Xamsa" dostonlari, lirika va nasriy asarlarida xalq tiliga xos bo'lgan ko'plab leksik birliklarning faol qo'llanishi ularning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirib, semantik mazmunini boyitgan. Navoiy xalq nutqidagi so'zlarning tabiiy qudratini san'at darajasiga ko'tarib, ularning adabiy til tarkibidagi o'rnini mustahkamladi. Ayniqsa, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning lug'aviy boyligi, umumxalq leksikasining milliy ruhni ifodalashdagi o'rni va semantik salohiyati ilmiy asoslangan holda yoritilgan bo'lib, bu asar o'zbek tilshunosligida umumxalq leksikasining o'rganilish tarixidagi eng muhim manbalardan biri sifatida baholanadi.

Manbashunoslik tahlili umumxalq leksikasining mazmuniy qamrovi nihoyatda kengligini ko'rsatdi. Unda mehnat jarayoni, dehqonchilik, chorvachilik, uy-ro'zg'or predmetlari, taomlar, kiyim-kechak, ijtimoiy munosabatlar, rasm-rusumlar, marosimlar, tabiat hodisalari va xalqning qadimiy

tasavvurlari bilan bog‘liq ko‘plab birliklar mavjud. Bunday so‘zlar xalqning kundalik hayotini, moddiy va ma‘naviy madaniyatini, dunyoqarashini, estetik qarashlarini ham aks ettiradi. Shu bois umumxalq leksikasi o‘zbek tilining faqat lug‘aviy boyligi emas, balki milliy identitetning eng muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Lingvokulturologik yondashuv asosidagi tahlillar umumxalq leksikasining xalq dunyoqarashi va madaniy merosini saqlovchi lingvistik kod ekanini ko‘rsatdi. Bu leksik qatlamda xalqning qadriyatlari, urf-odatlari, an‘analari, tarixiy xotirasi va psixologik tasavvurlari mujassam bo‘lib, ularni semantik jihatdan talqin qilish madaniyat tarixini o‘rganish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Navoiy asarlaridagi xalq tilidan olingan birliklar esa bu madaniy qatlamning badiiy ifodasini kuchaytirgan, ularni adabiy me‘yor darajasiga ko‘targan.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shuki, umumxalq leksikasining o‘rganilishi bugungi zamonaviy lingvistika bosqichida yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyigan holda davom etmoqda. Kognitiv lingvistika umumxalq leksikasidagi birliklarni inson tafakkuri, mental xaritalar, konseptual tizimlar bilan bog‘liq holda tahlil qilmoqda. Sotsiolingvistika so‘zlarning jamiyat qatlamlari, gender, yosh, hududiy farqlar asosida qo‘llanish dinamikasini o‘rganmoqda. Korpus lingvistikasi esa umumxalq leksikasining qo‘llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari va zamonaviy til tizimidagi funksional o‘zgarishlarini empirik asosda aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa umumxalq leksikasining tarixiy rivoji bilan bir qatorda uning bugungi holatini sistematik ravishda o‘rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirgan.

Umumxalq leksikasining tarixiy bosqichlarda o‘rganilishida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari muhim manba bo‘lib xizmat qilgani muhokamada alohida e‘tibor bilan baholanishi lozim. Koshg‘ariy turkiy tillarning kundalik hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq so‘zlarni lug‘at shaklida tizimlashtirib, umumxalq leksikasining shakllanish jarayoni uchun ilmiy-tarixiy poydevor yaratgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu manba umumxalq leksikasining mazmuniy chegaralarini aniqlash, tarixiy

ildizlarini belgilash va turkiy tillarning umumiy leksik xususiyatlarini solishtirishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida Alisher Navoiy merosi umumxalq leksikasining tadqiqotida yangi bosqich boshlab bergani ham muhokama jarayonida o‘z tasdig‘ini topdi. Navoiy xalq tilidagi ko‘plab leksik birliklarni badiiy-estetik darajada qayta talqin qilib, ularni adabiy til lug‘at boyligiga kiritgan. Bu jarayon umumxalq leksikasining funksional imkoniyatlarini kengaytirgan, ularni adabiy me‘yor bilan uyg‘unlashtirgan hamda tilning milliy ruhini ifodalovchi vositaga aylantirgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning ustunliklari, xalq nutqidagi so‘zlarning tabiiyligi va badiiy kuchi ilmiy dalillar bilan asoslangan bo‘lib, bu fikrlar umumxalq leksikasining nazariy asoslarini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, umumxalq leksikasining shakllanishi faqat til tizimining ichki rivojlanishi bilan emas, balki xalqning ijtimoiy hayoti, iqtisodiy faoliyati, madaniy amaliyoti va tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Turkiy tillararo qiyosiy tahlillar umumxalq leksikasining umumiy turkiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi mazkur qatlam milliy madaniyat ta’sirida o‘ziga xos tarzda shakllangan. Bu jarayon milliy identitetni aks ettiruvchi til birliklarining faolligini ta’minlab, umumxalq leksikasini o‘zbek madaniy merosining til orqali saqlanib qolgan qatlamlaridan biriga aylantiradi [8].

Zamonaviy lingvistika metodlarining qo‘llanilishi umumxalq leksikasining o‘rganilishida yangi ilmiy imkoniyatlar yaratdi. Kognitiv lingvistika umumxalq leksikasidagi birliklarni faqat til material sifatida emas, balki xalqning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi mantiqiy-madaniy konstruktsiya sifatida talqin qilish imkonini bermoqda. Sotsiolingvistika ushbu leksik qatlamning jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishga imkon yaratadi. Korpus lingvistikasi esa umumxalq leksikasining qo‘llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari, kontekstual ko‘rinishlari va semantik o‘zgarishlarini

empirik asosda aniqlash imkonini beradi. Bu esa tarixiy manbalar bilan zamonaviy til holatini bog‘lab o‘rganish uchun keng imkoniyat yaratdi.

Umuman olganda, muhokama natijalari umumxalq leksikasining tarixiy ildizlari, madaniy mazmuni, badiiy ifodasi, jamiyat hayotidagi funksional o‘rni va zamonaviy lingvistika tadqiqotlaridagi ilmiy talqinlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan holda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu qatlamni o‘rganish o‘zbek tilining lug‘aviy boyligini chuqurroq anglash, milliy identitetni belgilovchi leksik materiallarni aniqlash va tilning madaniy asoslarini ilmiy talqin qilish uchun muhim ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida umumxalq leksikasiga oid so‘zlarning o‘rganilish tarixi uzoq davrlarni qamrab olgan, ko‘p bosqichli va murakkab ilmiy jarayondir. Tadqiqot natijalari ushbu leksik qatlamning shakllanishi va rivojlanishida tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, tarixiy tajribasi, urf-odatlar va mental dunyoqarashi muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatdi. Eng qadimiy bosqich sifatida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari umumxalq leksikasining lug‘aviy asoslarini belgilab, uning tarixiy ildizlarini aniqlashda asosiy manba vazifasini bajargani aniqlandi.

Zamonaviy lingvistika yondashuvlarining qo‘llanilishi umumxalq leksikasini o‘rganishda yangi istiqbollar ochdi. Kognitiv lingvistika mazkur leksik qatlamni xalqning konseptual dunyoqarashi bilan bog‘lab talqin etish imkonini berdi. Sotsiolingvistika uning jamiyat qatlamlariga ko‘ra qo‘llanish xususiyatlarini o‘rgandi. Korpus lingvistikasi esa umumxalq leksikasining qo‘llanish chastotasi, uslubiy jihatlari va semantik o‘zgarishlarini empirik asosda tahlil qilish imkonini yaratdi. Bu metodlar umumxalq leksikasining tarixiy manbalardagi holatini zamonaviy til holati bilan qiyoslash imkonini berib, o‘zbek tilining lug‘aviy tizimi dinamik evolyutsiya jarayonida ekanini ko‘rsatdi.

Umumiy xulosa shuki, umumxalq leksikasining o‘rganilishi o‘zbek tili lug‘at boyligini, milliy madaniyatni, tarixiy xotirani va xalqning dunyoqarashini chuqur anglash uchun muhim ilmiy asosdir. Tarixiy manbalar, jumladan Mahmud Koshg‘ariy va Alisher Navoiy merosining tahlili bu leksik qatlamning

shakllanishi va taraqqiyotini aniqlashda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy lingvistika metodlari esa umumxalq leksikasining semantik, funksional va madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun keng ilmiy imkoniyat yaratmoqda.

Shunday qilib, umumxalq leksikasining o'rganilish tarixi nafaqat lingvistik jarayon, balki o'zbek xalqining madaniy taraqqiyoti, tarixiy xotirasi va milliy identiteti bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy yo'nalish sifatida ilmiy qiymatga ega bo'lib qolmoqda. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar o'zbek tilining lug'aviy boyligini yanada chuqur anglash, milliy merosni ilmiy asoslash va tilning zamonaviy rivojini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov, A. O'zbek tili tarixi. Toshkent: Fan, 1957.
2. Hojiev, A. Leksikologiya asoslari. Toshkent: Fan, 1981.
3. Koshg'ariy, M. Devonu lug'otit turk. Qayta nashr. Toshkent: Fan, 1960.
4. Navoiy, A. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
5. Karimov, M. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Universitet, 2005.
6. Bobojonov, K. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: Universitet, 2008.
7. Qo'ng'urov, R. Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2016.
8. Jo'rayev, O. O'zbek tilida realiyalarning tadqiqi. Toshkent: Fan, 2020.
9. Safarov, Sh. Pragmatik lingvistika. Toshkent: Universitet, 2012.
10. G'aniev, F. Turkiy tillar qiyosiy leksikologiyasi. Samarqand, 2011.

FILOLOGIYA**ALISHER NAVOIY IJODIDA FORS ADABIYOTI
BILAN POETIK MUSHOIRA**

**Azizulloh Aral,
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa
doktori.**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: *Navoiy fors she'riyati an'analarini chuqur o'zlashtirib, Hofiz, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ulug' so'z san'atkorlari ijodi bilan tenglasha olgan holda asarlar yaratgan. Ushbu maqolada Navoiy fors she'riyati doirasidagi ana shu yuksak badiiy mahorati qisqacha tahlil etiladi.*

Аннотация: *Навои глубоко проникся традициями персидской поэзии и создал произведения, сопоставимые по уровню с работами таких великих поэтов, как Хафиз, Саади, Амир Хусрав Дехлави и Абдурахман Джамии. В данной статье кратко анализируется высокое художественное мастерство Навои в рамках персидской поэзии.*

Annotation: *Navoi deeply absorbed the traditions of Persian poetry and created works that were on a par with the work of such great poets as Hafiz, Sa'di, Amir Khusrav Dehlavi, and Abdurahman Jami. This article briefly analyzes Navoi's high artistic skills within the framework of Persian poetry.*

Kalit so'zlar: *Foniy, Alisher Navoiy, Hirot, Temuriylar davri, Devoni Foniy, Amir Xusrav, Sa'diy, Hofiz, Jomiy.*

Ключевые слова: *Фани, Алишер Навои, Герат, эпоха Тимуридов, Девони Фаний, Амир Хусрав, Саади, Хафиз, Джамии.*

Key words: *Foniy, Navoi, Herat, Timurids, Divan-i Foniy, Amir Khusraw, Sa'di, Hafez, Jami.*

Alisher Navoiy (17-ramazon, 844, h./9-fevral, 1441 m.) Hirot shahrida tug'ilib, (17-jumod ul-avval 906, h./3-yanvar, 1501 m.) yana shu yerda vafot etgan. U o'zbek va umuman turkiy adabiyotning eng yirik vakillaridan, Sharq adabiyotining beqiyos siymolaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Navoiy ijodining turkiy qismi haqida o'zbek navoiyshunoslari tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, uning forsiy she'riy merosi nisbatan kamroq o'rganilgan.

Shoirning forsiy devoni "Devoni Foniy" 1969-yilda Toshkentda ikki jildlik majmua sifatida nashr etilgan. Fan nashriyoti tomonidan chop etilgan mazkur

nashrda matnni tayyorlash va so‘zboshi yozishda o‘zbek va tojik navoiyshunos olimlari faol ishtirok etganlar (jumladan, A. Mirzayev va Sh. Shomuhamedov kabi tadqiqotchilar). Devonning birinchi jildi, asosan, forsiy g‘azallar, qasidalar, masnaviylar va ruboiylarning arab-fors yozuvidagi matnlari hamda ularga berilgan ilmiy izohlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi jild esa devonning qolgan qismini muxammas, musaddas, qit‘a va boshqa janrdagi she‘rlarni, shuningdek qo‘shimcha ruboiylar va izohlarni jamlaydi. Butun devonning umumiy hajmi qariyb 12 ming baytni tashkil etadi.

Alisher Navoiy devonining mazkur ikki jildlik nashri sovet davrida to‘liq va ilmiy-tanqidiy matn asosida tayyorlangan eng muhim nashrlardan biri sanaladi. Keyinchalik amalga oshirilgan tadqiqotlar, xususan 1980-1990-yillarda Dushanbeda chop etilgan nashrlar ham aynan shu matnga tayanib ish ko‘rgan. Devonning faksimil nusxasi esa ilk bor 1968-yilda atoqli olim Hamid Sulaymon tomonidan nashr etilgan bo‘lib, navoiyshunoslikda muhim manba sifatida baholanadi.

Navoiy forsiy devonining o‘rganilishi faqat O‘zbekiston yoki Tojikiston bilan chegaralanmaydi. Eronda ham 1990-yillarda bu borada bir qator ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan. Afg‘onistonda ham Navoiyning forsiy merosi yuzasidan ayrim maqolalar chop etilgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalish hanuz keng qamrovli tadqiqotlarga muhtoj. “Devoni Foni”ning Eron hududidagi muhim nashrlaridan biri 1995-yilda adabiyotshunos Rukniddin Humoyun Farrux tomonidan tahrir va muqaddima bilan amalga oshirilgan bo‘lib, bu nashrga eronlik olim Aliasqar Hikmat kirish so‘zi yozgan. Asarning ikkinchi tahriri esa 1997-yilda Tehronda qayta nashr etilgan.

“Devoni Foni”ning so‘nggi mukammal nashrlaridan yana biri Alisher Navoiyning 575 yillik tavalludi munosabati bilan 2016-yilda Kobuldagi Amiriy nashriyotida chop etilgan. Said Abbos Rastoxiz Sanchorakiy tahrir qilgan mazkur nashrga Najibullah Moyil Heraviy tomonidan yozilgan muqaddima ilova qilingan bo‘lib, 418 betli ushbu asar 1000 nusxada nashr etilgan.

Forsiy she‘riyatda “Foni” taxallusini qo‘llagan Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” asarida shunday deydi: “Turkiy she‘rda “Navoiy” taxallusini qo‘llardim, forsiy nazmda esa har qanday janrni sinab, “Foni” taxallusini tanladim”. Ushbu maqolada Navoiy forsiy she‘riyatda fors shoirlardan Hofiz, Sa‘diy, Amir Xusrav va Jomiyga teng tarzda ijod etgani xususida so‘z yuritamiz.

Navoiyning ushbu to‘rt shoir bilan teng ravushda yozgan to‘rt g‘azalini estetik jihatdan tahlil qilishga urinamiz. Bu bitikning maqsadi, Foniylar forsiyda zabardast ijodkor bo‘lgani uchun buyuk forsiyzabon shoirlar bilan musobaqada qanchalik salohiyatli bo‘lganini aniqlashdir. Balki shunday tahlillar orqali uning forsiy she‘rlari Temuriylar davridagi shoirlar orasida qanday qimmatli o‘ringa ega bo‘lganini tasavvur qilish mumkin bo‘ladi.

Navoiy forsiyzabon shoirlardan farqli o‘laroq turkiyda ham, forsiyda ham salohiyatli ijod etgan. Biroq, mumtoz fors she‘riyatida bunday zullisonayn shoirlarni uchratish qiyin. Navoiyning forsiy va turkiy she‘riyatdagi o‘rni haqida shunday baytlarini o‘qiymiz:

معنى شیرین و رنگینم به ترکی بی‌حداست
 فارسی هم لعل و درهای ثمین گربنگری
 گویا در راست بازار سخن بگشوده‌ام
 یک‌طرف دکان قنادی و یک‌سو زرگری
 زین دکان‌ها هر گدا کالا کجا داند خرید
 زان‌که باشند اغنیا این نقدها را مشتری

Ma'niyi shirin-u ranginam be Turkiy be-had ast
 Forsiy ham la'l-u dur-hoyi samin gar bingariy
 Guyi-yo dar rost bozor-i suxan begushudam
 Yak taraf do'kon-i qannodiy-u yak su zargariy
 Zin do'kon-ho har gado kolo kujo donad xarid
 Zon-ki boshand ag'niyo in naqd-ho ro mushtariy¹

Mazmuni: Mening turkiy tilimdagi so‘zlarim shirin va rang-barang bo‘lib, cheksizdir. Fors tilidagi so‘zlarim esa la‘l va qimmatbaho gavharlarga o‘xshab ketadi, agar diqqat bilan qaralsa.

Go‘yo men so‘z bozorida bir do‘kon ochgandekman: bir tarafda shirinliklar sotiladigan qandolatchilik, ikkinchi tarafda esa oltin-kumush sotiladigan zargarlik do‘koni kabi.

Bunday do‘konlarda oddiy gadoy tovarning qadrini bilmaydi, chunki bu qimmatbaho narsalarning xaridori boylar, ya‘ni so‘zning haqiqiy qadr-qimmatini anglaydigan bilimdon kishilardir.

¹ Ganjoor (Navoiy — Divan, Maqta‘at, raqam 25).

Temuriylar davrida ilm-fan va san'at taraqqiyoti gullab-yashnagan. Ijodda ta'sirchanlik bo'lgan. Bu davrning ayrim san'at turlarida, ayniqsa nafis san'atlarda yangiliklar yaratilgan. Ilm-fan, tarixnavislik, til va adabiyot sohalarida yangiliklar bilan bir qatorda oldingi davrlarning ta'siri ham ko'zga tashlanadi.

Aslida, ta'sirchanlik san'at va adabiyotning tabiiy rivojlanish jarayonida inkor etib bo'lmaydigan hodisadir. Har qanday yangi uslub yoki janr ham avvalgi an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Temuriylar davrida ham shu jarayonni kuzatish mumkin. Lekin Temuriylar davrida san'at va adabiyotda hamisha yangilik va ixtiro muhim sanalgan. Chunki Temuriylar davri qadim Xurosonni oldingi vayronagarchilik va talonchiliklardan keyin barcha sohalarida qayta tiklanishni talab qilgan. Jamiyatga faqat yangilanish emas, balki qayta qurish ham zarur bo'lgan. Yo'qolgan boyliklarni qayta tiklash, buzilganlarni tuzatish Temuriylar davri talabi bo'lgan. Shu bois ilm-fan va san'at ahli avvalo o'tmish merosini qayta tiriltirishga harakat qilishgan. Bu harakatning o'ziyoq madaniy faoliyatning yuksakligini ko'rsatadi. Tabiiyki, bunday sharoitda adabiy ijodda yangilik qanchalik istalmasin, baribir ta'sirlanishdan qochib bo'lmagan. Bu, albatta, shoirlar mutlaqo yangi mazmun yaratmagan, degani emas. Aksincha, ularning ba'zilari, jumladan Navoiy ham o'z davrida mazmun yangilashga katta e'tibor bergan.

Zabihulloh Safa bu haqda shunday yozadi: “Temuriylar davri boshida iste'dodli shoirlar avvalgi – VIII asr (XIV asr) shoirlarining uslubiga ergashdilar. Keyingi avlod esa mutlaqo yangi uslubni tanlab, yangilik yaratdi. Ular hatto eski ustozlarga ergashgan mutaassiblarni tanqid qildilar”.¹

Qisqa qilib aytganda, agar Temuriylar davri shoirlari yangi so'z, yangi uslub va yangi mazmun yaratishga intilgan bo'lsalar ham, ya'ni qadimgi adabiyotshunoslar istilohida “ixtirochi” bo'lishni hohlasalar ham, unutmasligimiz kerakki, umuman mumtoz adabiyotda ta'sirlanish bugungi kunda bo'lgani kabi yomon ko'rilmagan. Hatto eng buyuk shoirlarning o'zlari ham ba'zan darajasi pastroq bo'lgan shoirlarning tasodifan juda yaxshi chiqqan baytlarini o'z asarlariga “tazmin” sifatida qo'shib yozganlar.

Masalan, “Hofiz Sheroziy” maqomi jihatdan “Xoju Kirmoniy” (1280-1352)”dan yuksak bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda undan ta'sirlanganini tan oladi va

¹ Tarixi Eron-Cambridge, 1986-yil, 418-bet, 6-jild.

bundan xursand bo‘ladi. Shuning uchun ham Hofizning g‘azallarida “Xoju”ning g‘azal uslubi bor, deb ta’riflanadi.

Yana bir misol: forsiy she’riyatining dastlabki davrlaridanoq “Abulqosim Firdavsiy” ham o‘zining “Shohnoma”sini yozishda “Daqiqiy Balxiy”ga ergashadi va uning ming baytini o‘z ishida namuna qilib oladi.

Boshqa ko‘plab shoirlar ham o‘z zamondoshlaridan ta’sirlanib she’r yozganlar. Shu ma’noda qaralganda, “Foniy” (Navoiy) ham fors she’riyatida boshqalardan ta’sirlangani tabiiy hol edi. Shu orqali, o‘sha davr odatiga ko‘ra, u o‘zining boshqa shoirlar darajasida she’r yozishga qodir ekanini ko‘rsatdi. U forsiyni juda yuqori darajada bilganligi uchun, o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy va forsiy tillarni muqoyisa qilib, forsiyda bo‘lmagan yuzta fe’lni ko‘rsatib berdi. Abdul Rahmon Jomiy o‘zining “Iskandarnoma” asarida Navoiy (Foniy)ni forsiy she’riyatdagi salohiyatini shunday ta’riflaydi:

ببخشید بر پارسی گوهران
به میزان آن نظم معجز نظام
به نظم دری در نظم آوران
نظامی که بودی و خسرو کدام
زهی طبع تو اوستاد سخن
ز مفتاح کلکت گشاد سخن

Bebaxshid bar porsiy gavharon
Be nazm-i Dariy durr-i nazm ovaron
Be mezon-i on nazm-i mo‘jiz nezom
Nezomiy ki budi-u Khusrav kadam
Zehi tab‘-i tu ustod-i suxan
Ze meftoh-i kilk-at gushod suxan¹

Mazmuni: Sen o‘z ijoding bilan dariy (forsiy) nazm ahliga go‘yo gavharlarday so‘zlar tuhfa etding.

Nizomiy va Xusrav qanday ulug‘ shoir bo‘lgan bo‘lsalar, sening mo‘jizaviy she’riyating ham ular o‘lchovida baholanadi.

Qalam kalitingdan so‘z xazinalari ochildi. Haqiqatan, sening tab’ (iste’dod)ing so‘z ustodiga munosibdir.

¹ Abdurahmon Jomiy. “Xiradnoma-i Iskandariy” (Iskandarnoma).

Shu o'rinda bir e'tirofni tilga olib o'tish joiz deb bilamiz, u ham bo'lsa, 2020-yil Afg'oniston sobiq prezidenti Muhammad Ashraf G'ani o'z muloqotlaridan birida Alisher Navoiyning fors tilidagi ijodiyoti xususida so'z yuritib, jumladan shunday degan edi: "...Navoiyning fors/dariy tildagi she'rlari Firdavsiy she'rlaridan ustun bo'lsa bor, also kam emas".¹

"Foniy" fors ijodiyotidan ta'sirlanganmi yoki unga taqlid qilganmi, degan savol tug'iladi. E'tirof etish kerakki, u ham xuddi buyuk fors shoirlari kabi boshqa shoirlarga ergashgan va ular ijodiyotidan ta'sirlangan. Uning she'rlari diqqat bilan ko'zdan kechirilsa, taqlid qilinmagani o'z-o'zidan oydinlashadi.

Shu o'rinda uning ayri she'rlarini boshqa shoirlar bilan solishtirib, badiiy qiymatini baholashga harakat qilamiz. Ta'kidlash kerakki, Foniy o'z she'rlarida muntazam ravishda Jomiy, Hofiz, Sa'diy, Amir Xusrav, Mavlono Shihobiy, Kamol Xo'jandiy, Sohib Balxiy kabilarga ergashgan va ular ijodidan ta'sirlangan.²

Bir maqola hajmida albatta, Foniy she'rlarini barcha shoirlarning asarlari bilan qiyoslab chiqishning imkoni yo'q. Shu bois, biz uning she'rlarini faqat to'rt buyuk fors shoirlari - Amir Xusrav, Sa'diy, Hofiz va Jomiy bilan solishtirib chiqish bilan cheklanamiz. Hofiz, Sa'diy va Jomiyni o'z uslublarida yuqori darajada bo'lganligi va Amir Xusravni esa biroz quyi pog'onada bo'lgani uchun tanladik. Shu taqqoslash orqali Foniy she'riyatining darajasini aniqlash mumkin bo'ladi, deb topdik. Yana bir narsani aytib o'tish kerakki, Foniy she'rlarini solishtirish uchun tanlangan namunalar mutlaqo tasodifiy bo'lib, bunda hech qanday maxsus tanlov qilinmagan.

Foniy va Amir Xusrav:

Amir Xusrav "651–725 h.q." (1272-1346 m) Hindistonning Patiyala shahrida tug'ilgan; otasi Balx atroflaridan kelgan turkiylardan edi. Amir Xusrav "Xusrav ush-shuaro" va "Manzur ul-urafa" laqablari bilan tilga olinadi. Foniy uning ba'zi g'azallarini istiqbol qilgan.

Amir Xusrav:

یک خنده بز، زان لب لعل شکرآلود
بر عاشق مسکین که رخ از خون تر آلود

¹ 29 Mezon - O'zbek tili milliy kuni. Kobul, 2020, 27-bet.

² Alisher Navoiy tafakkurini o'rganish. Maqolalar to'plami, Kobul, 2021. 225-bet.

Yek xanda bezan, zon lab-e la'l-e shakarolud

Bar oshiq-e miskin ke rux az xun-i tarolud¹

Mazmuni: Ey mahbuba, bir kulib qo'y, o'sha la'lga (yoqutdek) shirinlab kabi lablaringdan. Bu kulgini bechora oshiqqa in'om et, chunki uning yuzi qonli yoshdan butunlay nam bo'lib ketgan.

Ya'ni, shoir ma'shuqning birgina kulgusi oshiqning dardini yengillatishini, qonga aralash ko'z yoshlaridan yuzining nam bo'lib ketganini tasvirlamoqda.

Foniy:

از شهد نگویم لب آن سیمبر آلود

از شیرهی جان است که گلبرگتر آلود

Az shahd naguyam lab on simbar olud

Az shira-yi jon ast ke gulbarg-tar olud

Mazmuni: Men o'sha kumushdan yaralgan go'zalning labini asaldan ham shirin deb ta'riflamayman; chunki uning lablari jonning shirasidan, hayotning mohiyatidan oziqlangandaydir. U gulbarg yanglig' nozik va har dam tiriklik sharbatidan namlanib turgandek.

Ya'ni, oshiq nazarida ma'shuqning lablari oddiy shirinlik (asal) bilan o'lchanmaydi; u butun borliqdan ustun, hayotning o'zi singari tiriklik manbaidir.

Foniy bu g'azalning matla'ida Amir Xusravdan ustun chiqishga muvaffaq bo'lgan. Foniy matla'i Amir Xusrav matla'idan yangiroq tasvirga ega:

Amir Xusrav bu matla'da ko'p takrorlangan bir tasvirga murojaat qilgan, holbuki Foniy yangi bir ruh olib kiradi.

Foniy va Sa'diy:

Foniy Sa'diy g'azallariga ergashib, katta himmat ko'rsatgan. Ammo uning Sa'diyga tenglashishi yoki undan o'tishi kutilmagan, biroq Foniy she'ridagi kuchli tomonlarni ham ko'zdan qochirmasligimiz kerak.

Sa'diy:

به جهان خرم از آنم که جهان خرم از اوست

عاشقم بر همه عالم که همه عالم از اوست

Be jahon xurram az onam ke jahon xurram az ust,

¹ Amir Xisrav, Devon, 68-bet.

Oshiqam bar hama olam ke hama olam az ust.

Mazmuni: Men bu dunyodan shodmanki, dunyoning barcha shodligi Uning (Yor/Haq) sababidir. Men butun olamni sevaman, chunki butun olam U zotdan yaralgan va Unga mansubdir.

Ya'ni, shoirning quvonchi ham, sevgisi ham aslida Yordan/Haqdan keladi; shuning uchun u butun olamni sevadi, chunki olamning har bir zarrasi o'sha bir Manbadan paydo bo'lgan.

Foniy:

باشدم خرمی از هرچه در این عالم از اوست
از غمش نیز دلم شاد بود کاین هم از اوست

Bashadam xurrami az harche dar in olam az ust,

Az g'amash niz delam shod buvad koin ham az ust.

Mazmuni: Bu olamdagi har qanday narsadan xursand bo'lishimning sababi Unga bog'liqdir; hatto Uning g'ami kelganida ham, dardning o'zida shodlik topaman, chunki bu ham Uning in'omidan, Uning irodasidan kelgan.

Ya'ni, oshiqning nazarida yor (yoki Haq) nafaqat quvonch manbai, balki g'am ham bir ne'matdir. Chunki oshiq uchun muhim narsa — Uning nisbatidir: xursandlik ham, dard ham Unga bog'langanligi uchun qadrli va yoqimlidir.

Foniy matla'ida Sa'diy bayonining deyarli o'xshashliklari bo'lsa-da, biroq “shod” va “gam” so'zlari bilan ma'noni biroz chuqurlashtiradi va badiiy yutuqqa erishadi.

Foniy va Hofiz:

Foniy Hofizdan ta'sirlanar ekan, Hofizning uslubiy xususiyatlari bo'lgan so'zlardan, masalan: may, soqiy, qadah, mug'bacha, mug'on va hokazolarni ishlatadi va Hofiz singari bu so'zlardan ramziy asos sifatida foydalanadi.

Hofiz:

مقام امن و می بی غش و رفیق شفیق
گرت مدام میسر شود زهی توفیق

Maqom-e amn-u may-e beg'ash-u rafiq-e shafiq,

Garat mudom muyassar shavad, zehiy tawfiq.

Mazmuni: Agar senga doimiy ravishda osoyishtalik joyi, sof may va mehribon do'st nasib etsa, bu naqadar buyuk baxt va ilohiy muvaffaqiyatdir.

Ya'ni, shoir haqiqiy baxtni dunyo molida emas, balki uch narsa: xavfsiz va tinch joy, qalbni xiraliksiz qiladigan sof may, hamroh bo'lishga arzigulik mehribon rafiqda ko'radi.

Foniy:

مقام امن چو دیر و چو پیر دیر شفیق
هر آن که داشت مسلم؛ شمارد از توفیق

Maqom-e amn chu dayr-u chu pir-e dayr shafiq,
Har on ke dosht musallam, shumorad az Tawfiq.

Mazmuni: Xavfsiz va osoyishta maskan - xuddi bir ibodatgohdek, undagi mehribon pirdek, kimga nasib bo'lsa, bu albatta uning haqiqiy baxti va ulug' yutug'idir.

Ya'ni, shoir nazarida inson uchun eng katta saodat - tinchlik topilgan joy va mehribon yo'l ko'rsatuvchi (pir)dir. Buni qo'lga kiritgan kishi eng ulug' ilohiy in'om va to'liq muvaffaqiyatga erishgan hisoblanadi.

Bayt:

چو من به باده فتادم، مپرس کیفیتش
که از حقیقت دریا خبر نداد غریق

Chu man be bodeh fitodam, mapurs kayfiyatash,
Ke az haqiqat-e daryo xabar nadod g'ariq.

Mazmuni: Men may girdobiga sho'ng'ib ketganimda, uning qandayligini mendan so'rama; chunki dengizga g'arq bo'lgan odam ham daryoning asl haqiqatidan xabar bera olmaydi.

Ya'ni, oshiq may (ishq, jazba yoki ma'rifat sharobi) ta'sirida o'zini yo'qotadi. Bu holatni so'z bilan tushuntirish imkonsiz, chunki u sirli bir kechinmadir. Xuddi dengizda cho'kayotgan odam suvning mohiyatini aytib bera olmagani kabi, ishqqa g'arq bo'lgan oshiq ham bu mastlikning aslini ifoda eta olmaydi.

Bu bayt yangiroq va mazmunan chuqurroqdir. Hofiz g'azalida esa unchalik kuchli chiqmagani ko'zga tashlanadi. Umuman, Foni Hofizdan ko'ra ko'proq may va uning layoqatlari haqida ramziy gapiradi, Hofiz esa markazga ma'shuqni

qo'yadi. Foniylar g'azalida "deyir", "tariq" kabi takrorlar mavjud bo'lib, bu uning she'rini biroz sustlashtirgan. Hofizda ham ba'zan keraksiz takror ko'zga tashlanadi.

Foniylar va Jomiy:

Jomiy Hirotda yashab ijod etgan, Navoiyning yaqin do'sti bo'lgan. Bosh vazir Navoiyning moddiy va ma'naviy himoyasi ostida hayot kechirgan. Navoiy bilan o'sha davrning chig'atoy turkiysida yozma ravishda ham aloqada bo'lib turgan. Ammo Jomiy o'zi turkiyda ijod etmagan, garchi saroy rasmiy tili turk tili bo'lsa-da, fors va arab tillarida ijod etishga hech qanday to'sqinlik bo'lmagan. Jomiy «Xiradnoma-i Iskandariy» asarida Navoiyning turkiy Xamsasini tengsiz bir asar sifatida baholab, agar bu asar fors tilida bo'lganda edi, Nizomiy va Amir Xusrav rang-ro'yini yo'qotar edi, deb Navoiyini "Ustodi suxan", ya'ni "Amir ul-kalom", deya ta'riflaydi.

Bu ikki do'st (Jomiy va Foniylar) doimo birga suhbatda bo'lganlar. Foniylar Jomiyning umrining oxirigacha qo'llab-quvvatlagan va unga doimo alohida hurmat ko'rsatgan. Foniylar Jomiyning ayrim she'rlariga istiqbol (ya'ni, javoban she'r yozish) qilgan. U "Xamsat ul-mutahayyirin" nomli kitob yozib, unda Mavlono Jomiyning hayoti va holatlaridan so'z ochgan. Shu yerda Foniylar Jomiyning bir g'azaliga yozgan musaddasidan bir bayt keltiramiz:

کردمی در خاک کوی دوست ماوا کاشکی
سودمی رخسار خود بر خاک آن پا کاشکی

Kardami dar xok-i kuy-i do'st ma'vo koshki,

Sudami ruxsor-i xud bar xok-i on po koshki.

Mazmuni: Koshki men do'st (yor)ning ko'yi tuprog'ida panoh topsam edi, yuzimni uning oyoqlari ostidagi tuproqqa surib, shu tuproq bilan sharaflansam edi.

Ya'ni, oshiqning orzusi, yorga (do'st, hamdam, rafiq) shu qadar yaqin bo'lishki, hatto uning oyog'i ostidagi tuproqni ham muqaddas bilib, unga yuzini surtishni eng oliy saodat deb biladi. Bu sadoqat, izzat va oshiqlikning eng yuksak darajasidir.

Bu musaddasda Foniylar Jomiyning she'riy tili va ruhiy olami Jomiy so'zi bilan yaxshi uyg'unlik kasb etgan. Shu tarzda, Foniylar Jomiy she'riga musaddas bog'lab,

uning ruhiy olamiga yaqinlashgan va ikki shoir she'rining ohangini birlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Temuriylar davrida (hijriy IX, milodiy XV asr) she'riyatning holati ikki xususiyat bilan bog'liq bo'lgan. Birinchisi: bu davr she'riyati avval boshda o'zidan avvalgi shoirlar ta'sirida bo'lgan. Ikkinchisi: bu davr she'riyati asta-sekin oxirgi o'n yilliklarda shoirlar yangilik sari intilib, mazmun yaratishda she'riyatga yangi ufqlar ochganlar. O'lmas, unutilmas Alisher Navoiy - Foniylar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Navoiy. Devoni Foniylar. Nashrga tayyorlovchi: Said Abbos Rastoxiz Sanchorakiy. Kobul, 2016-y.
2. A.Navoiy. Devoni Foniylar, 2 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: A. Mirzoyev, Sh. Shomuhamedov, Toshkent, 1969-y.
3. Hofiz, Xo'ja Shamsuddin. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Qazviniiy va Qosim G'aniy. Tehron, 2007-y.
4. A.Xusrav. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Ravshan. Tehron, 2001-y.
5. Sa'diy, Musharrafuddin Muslih. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Ali Furug'iy. Tehron, 2003-y.
6. Navoiy (Foniylar), Amir Alisher. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Rukniddin Homoyun Farrux. Tehron, 1996-y.
7. Jomiy Abdurahmon. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Ravshan. Tehron, 2024-y.
8. Arol, Azizulloh. Afg'onistonda navoiyshunoslik. Bookmany print nashriyoti, Toshkent, 2025-y.
9. Erkinov, Aftondil. Navoiyni anglash sari. Oqchog' nashriyoti, Anqara, 2021-y.
10. A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Tarxon Ganjiiy tarjimasi, Nashrga tayyorlovchi: Arg'un To'manaiy. Peshovar, 1984-y.
11. A. Azizulloh. Navoiy bitiklari izidan. Kobul, 2024-y.
12. Maqolalar to'plami. 29-Mezon. Kobul, 2020-y.
13. A.Navoiy. Devoni Foniylar, faksimil. Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymon. Toshkent, 1968-y.
14. Maqolalar to'plami. Alisher Navoiy tafakkurini o'rganish. Kobul, 2021-y.

FILOLOGIYA

BEHBUDIYSHUNOSLIK QIRRALARI



**Marhabo
Qo'chqorova,
O'zR FA O'zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti yetakchi
ilmiy xodimi,
filologiya fanlari
doktori, professor**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada hozirgi adabiy tanqidchilikda alohida soha sifatida shakllangan behbudiylshunoslik qirralari, uning shakllanishi, bu sohada yirik monografik tadqiqotlar yaratgan olimlarning ishlariga qisqa obzor berildi. Behbudiylshunoslik shartli ravishda 4 ta davrga ajratildi.

Аннотация: В статье представлен краткий обзор особенностей беҳбудиведения, выделившегося в отдельное направление современной литературной критики, его становления и работ учёных, создавших крупные монографические исследования в этой области. Условно беҳбудиведение подразделяется на 4 периода.

Annotation: The article provides a brief overview of the aspects of Behbudi studies, which have emerged as a separate field in contemporary literary criticism, its formation, and the works of scholars who have created major monographic studies in this field. Behbudi studies are conventionally divided into 4 periods.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudi, jadidchilik harakati, behbudiylshunoslik, noshir, maorif islohotchisi, birinchi dramaturg, mufti.

Ключевые слова: Махмудходж Беҳбуди, движение джадидов, беҳбудистика, издатель, реформатор образования, первый драматург, муфтий.

Key words: Mahmudkhoj Behbudi, Jadid movement, Behbudi studies, publisher, educational reformer, first playwright, mufti.

Mahmudxo'ja Behbudi milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining liderlaridan biri, birinchi o'zbek dramasi asoschisi, dramaturg, publitsist, darsliklar muallifi, noshir, qozi, muftiy darajasiga ko'tarilgan diniy va dunyoviy ilmlarni baravar egallagan katta bilim egasidir. O'zbek jadidchilik harakatining "karvonboshisi" deb ta'riflangan Behbudi hazratlari xalq hayotini maktab, teatr, matbuot vositasi bilan isloh etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu oliy istak va maqsadlari yo'lida ko'pgina ishlarni amalga oshirib, millat ma'naviyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan jadid ma'rifatparvari, millat oydinidir.

O'zbek adabiy tanqidchiligida qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik, hamzashunoslik kabi jadidshunoslik sohalari qatorida behbudiyshunoslik ham ajralib chiqdi, bu tadqiqotchilik yo'nalishining tor doiradagi mutaxassis olimlar pleyadasi shakllandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodining milliy va xorijiy adabiyotshunoslikda o'rganilishini shartli ravishda davriy nuqtai nazardan 4 ga ajratdik. Bular:

1. Behbudiy vafotidan so'ng, XX asrning 1920-yillarida mahalliy matbuotda yozilgan zamondoshlar xotiralari, maqolalar, marsiya-she'rlar;
2. XX asrning 1970-1990-yillari oralig'ida yaratilgan adabiyotshunos olimlarning dastlabki ilmiy tadqiqotlari;
3. Istiqlol davrida yaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar;
4. Xorijiy behbudiyshunoslik.

Avvalo, birinchi tasnif bo'yicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning sirli o'limi masalasi ochiqlangach, 1920-yillarda Vasliy, Sayyid Ahmad, S.Ayniy, Cho'lpon, Vadud Mahmud, Hoji Mulla Nodir, Faxriddin Rojiy, Abdusalom Azimiy, Abdulhamid Azamat, Hoji Mu'in, Laziz Azizzoda, Erturk, G.Andreyev va boshqalarning "Mehnatkashlar tovushi", "Tong", "Zarafshon", "Maorif va O'qitg'uvchi", "Milliy Turkiston", "Turkistanskije Vedomosti", "Izvestiya SIK Turkestana" gazeta va jurnallarida chop qilingan Behbudiy zamondoshlarining xotira, maqola, marsiya she'rlarini sanash mumkin. Xususan, shu o'rinda xalqimiz qalbini larzaga solgan Cho'lponning "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi" marsiya she'rini eslash o'rinli. Cho'lpon qatorida o'sha davrda Vadud Mahmudning "Ay dohiy", Hoji Mullo Nodirning "Olamni xarob etdi", Faxriddin Rojiyning marsiya she'rlari ham 1920-yillarda yaratilgan.

Behbudiyning zamondoshi Mustafxo'jayning "Istiqlol jallodlari" xotira kitobida u haqda qisqa ma'lumotlar uchraydi. Xotirana'vis Mahmudxo'ja Behbudiyning "baland bo'ylik", "ko'k ko'zli" ekanligini ta'kidlaydi. M.Cho'qay "Turkiston milliy muxtoriyati"ni qo'llagan va bu yo'lda ko'p jonbozliklar ko'rsatgan qozoq ma'rifatparvari va siyosiy arbobdir. U sovet hukumatining tazyiqidan qochib, muhojirlikda Fransiya va Germaniyada yashagan. Umrining oxirida M.Cho'qay konslagerlarda yuqumli kasallikka chalinadi hamda Berlindagi "Viktoriya" kasalxonasida tepkili terlama(tif)dan 1941-yil 27-dekabrda vafot etadi. U Berlindagi turk musulmonlarining Tempelhof qabristonida 1942-yil 2-yanvarda dafn etiladi. Shu o'rinda M.Cho'qayning Behbudiy haqida yozgan qisqa parchalarini "Istiqlol jallodlari" memuar asaridan keltiramiz: "Bizning turkistonliklardan ko'k ko'zli, uzun bo'yli Mahmudxo'ja Behbudiy bilan kalta bo'yli Ubaydullo Xo'ja ko'zga tashlanar edi". Ikkinchi bir

o'rinda esa memuarist Behbudiyning vafot etganligiga ishora qilgan: “Shaxsan mening nomzodim uch yerdan: Sirdaryo, Samarqand va Farg'onadan qo'yilgan edi. Samarqand viloyati Milliy Markaz boshida marhum mufti Xo'ja Behbudiyl afandi turardi” .

Ikkinchi tasnif bo'yicha, Mahmudxo'ja Behbudiyl hayoti va ijodiga doir tarixiy haqiqatlar, asarlarining qaytadan tiriltirilishi kabi ko'pdan-ko'p masalalar, XX asrning 70-80-yillaridan e'tiboran, Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Sh.Turdiyev, N.Karimov, B.Qosimov kabi qator olimlarning tadqiqotlarini sanash mumkin.

Uchinchi tasnif bo'yicha, Mahmudxo'ja Behbudiyl hayoti va ijodini o'rganish, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar, risolalar yaratish ishlari, asosan, 1991-yildan boshlab, ya'ni Istiqlol davri yillarida nihoyatda jadallashdi. Shuningdek, Behbudiyl asarlarining qayta to'ldirilgan nashrlari amalga oshirildi. O'zbekistonda Istiqlol davri behbudiylshunoslik sohasida A.Aliyev, M.Rahmonov, Sh.Turdiyev, N.Karimov, B.Nazarov, I.G'afurov, B.Qosimov, S.Ahmedov, H.Boltaboyev, H.Saidov, Sh.Rizayev, Z.Abdurashidov, P.Ravshanov, D.Alimova, D.Rashidova, N.Avazov, Z.Ahrorova, Sh.Ochilov, R.Sharipov, N.Egamqulova kabi olimlarning tadqiqotlari yaratildi.

To'rtinchi tasnif bo'yicha, xorijdagi behbudiylshunoslik ham o'zbek behbudiylshunosligidan aslo kam emas. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning birgina “Padarkush” milliy fojiasi o'nlab xorijlik turkolog olimlarning tadqiqotlarida tadqiq etildi. Jumladan, “Padarkush” milliy fojiasi va ilk o'zbek dramaturgiyasi haqida Zaki Validiy To'g'on, Tohir Chag'atoy, Ibrohim Yorqin, Mehmet Saroy, Nodir Davlat, Temur Ko'jao'g'li, Germaniyada Johannas Benzing, Boymirza Hayit, Ingeborg Baldauf, Amerikada Edvard Olvorot, Rossiyada A.N.Samaylovichlar tadqiqot va maqolalar yaratishgan.

Mamlakatimizda Mahmudxo'ja Behbudiyl hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib etish, xalqimizga tanitish ishlari ikki yo'sinda kechmoqda.

1. Behbudiyl asarlarining nashrlarini tayyorlash va chop etish ishlari (B.Qosimov, S.Ahmadning bu sohadagi jonbozliklarini eslash darkor);

2. Behbudiyl hayoti, ijodi, fojiaviy qismatiga doir fakt va ma'lumotlarning to'ldirilishi, tadqiq etilishi, asarlari va adib ijtimoiy-siyosiy, maorif, nashriyot sohasidagi keng qamrovli faoliyati xususida tadqiqotlar yaratish ishlari.

Behbudiylshunoslik sohasida adib biografiyasi, hayoti, ijodi, serqirra adabiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yoritishda B.Qosimov, A.Aliyev, N.Karimov, S.Ahmad, N.Avazov, R.Sharipov tadqiqotlari qimmatli ahamiyatga ega bo'ldi.

Xususan, bu sirada B.Qosimovning “Mahmudxo‘ja Behbudiy”, “Karvonboshi” nomli akademik uslubda yozilgan adabiy portret va “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar”ga yozilgan “Kirish so‘z” maqolalarini ko‘rsatish mumkin. A.Aliyevning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” risolasi va “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat” kitobiga kirgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” adabiy portretlarini eslash o‘rinli.

Istiqlol qahramonlari

Mahmudxo‘ja Behbudiy



Tanlangan asarlar

Istiqlol davri behbudiyshunoslik sohasida ayniqsa, ikki katta olim akademik N.Karimov hamda S.Ahmadlarning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” nomli monografik tadqiqotlarni alohida e’tirof etish lozim. Har ikki olimning monografik asarlari adib ismi-sharifining sarlavhaga chiqarilishi bilan o‘xshashlik kasb etadi. N.Karimovning “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Hayoti. Faoliyati. Taqdiri” monografiyasi 2022-yil Toshkentda “Akademnashr”da chop qilindi. S.Ahmadning “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Hayoti, faoliyati, vafoti” monografiyasi 2024-yilda “Info Capital books” nashriyotida bosmadan chiqdi. Har ikki olim Behbudiyning tarjima

holi, asarlari, adabiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, pedagogik ishlari, Behbudiy va milliy teatr masalasiga doir g‘oyatda jiddiy tadqiqotlarini yaratishgan.

R.Sharipovning behbudiyshunoslik sohasidagi o‘nlab maqolalari hamda “Behbudiy dahosi” risolasida adibning siyosiy-huquqiy qarashlari, siyosiy publitsistikasi, jadidchilik va teatr san’ati, Behbudiyning maorif sohasidagi islohotlari masalalariga alohida diqqat qaratilgan hamda tadqiq etib berilgan. Shu qatorda Z.Abdurashidov hamda uning shogirdi N.Egamqulovalarning “Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali” monografiyasini ta’kidlab ko‘rsatmoqchimiz. Mualliflar mazkur monografik tadqiqotda XIX-XX asr Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida katta o‘rin tutgan Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining ayrim nuqtalariga e’tibor qaratishgan. Xususan, bu tadqiqotda Behbudiyning ustoz Gasprinskiy bilan munosabatlari hamda “Oyina” jurnalining muharriri sifatidagi faoliyati o‘rganilgan.

Shuningdek, N.Avazovning nomzodlik hamda doktorlik ishlari ham Behbudiy hayoti, ijodi, faoliyati masalasini ancha teran o‘rganishda asqotadigan ilmiy tadqiqotlardan bo‘ldi. Olimning “Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini” nomli fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot behbudiyshunoslik sohasidagi eng so‘nggi yirik ishlardan biridir.

Germaniyalik olim Ingeborg Baldaufning “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali” ilmiy tadqiqotlari ham behbudiyshunoslik sohasidagi alohida sahifalardir.

Xorijiy behbudiyshunoslik sohasida professor Shuayib Qoraqoshning “Turkistonda ilk teatrlik faoliyati va “Padarkush” pyesasi” hamda “Turkiston jadidchilik harakatining birinchilaridan Muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy afandi” tadqiqotlarini ham alohida ta’kidlash lozim.

Behbudiy asarlarini to‘plab, nashr etish, adib asarlarini xalqimizga tanitish va targ‘ib etish ishlarida B.Qosimov hamda S.Ahmad nashrga tayyorlagan “Tanlangan asarlar” hamda 2 jildliklari adabiy jamoatchilik orasida yaxshi qabul qilindi. B.Qosimov nashrga tayyorlagan “Tanlangan asarlar” shu kunga qadar qayta-qayta chop qilindi. Nihoyat, S.Ahmad tomonidan Behbudiyning ancha mukammal, to‘ldirilgan ikki jildligi chop etilishi behbudiyshunoslik sohasidagi katta ishlardan bo‘ldi.

Istiqlol davri yillarida ikki katta olim akademik N.Karimov va S.Ahmad taqiqotlari o‘zining mukammalligi va Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining hayoti, faoliyati va vafoti muammolarini atroflicha qamrab olgani bilan ahamiyatga ega. Istiqlol davri behbudiyshunosligi adib hayoti va ijodiga doir ko‘pgina muammoli masalalarga yechim topdi. Behbudiy biografiyasiga doir adib tug‘ilgan sana masalasida adabiyotshunosligimizda uch xil qarash mavjud edi. Bu haqda akademik N.Karimov o‘zining “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Hayoti. Faoliyati. Taqdiri” monografiyasida (Toshkent, Akademnashr, 2022) shunday deydi: “Shunday qilib, Behbudiy hayoti va adabiy faoliyati bilan shug‘ullangan adabiyotshunoslarning bir qismi esa u 1874-yilda, ikkinchi qismi esa 1875-yilda dunyoga kelgan deb hisoblaydilar”. Olim juda to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Behbudiyning tavallud sanasi haqida 1873, 1874, 1875-yillar olimlarimizning tadqiqotlarida ko‘rsatib kelinadi. Bunday chalkashlikning kelib chiqishiga sabab, Behbudiyning qizi Parvin Behbudiy otasining tavallud sanasini “1873-yil Samarqand shahrining Yomini qishlog‘ida” deb ko‘rsatishida. (adabiyotshunos Solih Qosimov bilan suhbatida).

S.Ahmad esa o‘zining “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Hayoti, faoliyati, vafoti” (Toshkent, Info Capital Books, 2024) monografisiyada Behbudiyning tavallud

sanasini keskin ravishda “1874” deb ko‘rsatadi. Albatta har bir olim o‘zi to‘g‘ri deb belgilagan tavallud sanani ma’lum asoslarga tayanib o‘z fikrlarini isbotlaydi. Masalan, bu asoslar: Turkiston maxfiy bo‘limining hujjati; Hoji Mu’in ma’lumoti; Behbudiyning qizi Parvin bergan ma’lumot; “Izvestiya TURSİK” va boshqa nashrlarni asos qilib olishadi. Akademik N.Karimov bu haqda maxsus to‘xtalgan. Behbudiyshunoslar B.Qosimov, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, N.Karimov kabi olimlar yakdil ravishda Behbudiyning tavallud sanasini 1875-deb ko‘rsatishadi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ham xuddi shu sana belgilangan. S.Ahmad tadqiqotida Behbudiyning sirli o‘limi bilan bog‘liq holatlar ham o‘rganilib, “Rejalashtirilgan siyosiy qotillik” fasli so‘ngida shunday satrlarni bitgan: “Jinoyat protsessual kodeksida ijrochiga nisbatan yovuz ishni, tajovuzni amalga oshirishni niyat qilgan. Uyushtirgan, tashkillashtirgan shaxs jinoyatchi hisoblanadi. Demak, rus bolshevik mustamlakachilari Behbudiylar va uning safdoshlarining qotili, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Vaqti-soati kelib Rusiyaning fitnasi sir-asrori to‘liq ochiladi...” .

O‘zbek adabiyotshunosligida behbudiyshunoslik mashaqqatli adabiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Natijada, behbudiyshunoslik alohida katta bir soha sifatida shakllandi, bu ishlar davom etyapti. Behbudiyshunoslik sohasida yechimini topmagan masalalar hali talaygina. Bular kelajakda yaratiladigan ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topadi.

Xulosa shuki, Turkiston muxtoriyatini, Turkiston mustaqilligini butun umr orzu qilib, shu oliy istaklari yo‘lida maorif, matbuot, teatr, adabiyot sohasida ko‘pdan-ko‘p samarali ishlar olib borgan Millat fidoiysi Mahmudxo‘ja Behbudiylar hazratlari 44 yoshida Rusiya mustamlakachiligi siyosati tufayli qatl etildi. U millatni jaholatdan qutqarmoq istagida ko‘p zahmatlar chekdi. Shuning uchun ham u xalq orasida, ziyolilar orasida “Turkistondagi uyg‘onish va yangilik rahbari” (Hoji Mu’in iborasi), “Turkiston xalqining mehribon otasi” (Hoji Mu’in), “Turon elining bilga otasi” (Faxriddin Rojiy), “Turkiston yo‘lboshchisi” (Vadud Mahmud Samarqandiy) deb ulug‘landi. Mahmudxo‘ja Behbudiylar hazratlarining Turkiston xalqi uchun qilgan ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-ijodiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati tarix sahifalarida zarhal harflar bilan ardoqlanib bitildi. U avlodlar qalbida abadiy yashaydi.

FILOLOGIYA

TOPONIMIK MAKONNI ALOHIDA HUDUD MISOLIDA O'RGANISH



Raximova Zarafat,
UrDU, “Roman-
german filologiyasi”
kafedrasi katta
o'qituvchisi

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida hududning toponimik majmuasi, uning nomlanish xususiyatlari, obyektga xos omillar va nisbatlar o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq etilgan. Toponimlarning tasnifi orqali informatsion salohiyat ochib beriladi, nomlash prinsiplari va dialektal omillarning toponim shakllanishiga ta'siri aniqlanadi.

Аннотация: В статье рассматривается изучение топонимического пространства отдельного региона, условия, способы и зависимость номинации от специфики объекта. А также о содержании информации благодаря классификации топонимов, об определении принципов номинации на основе анализа, об изменении топонимии под влиянием диалектных особенностей

Annotation: The article deals with the study of the toponymic space of a separate region, the conditions, methods and the dependence of the nomination on the specifics of the object. Also, about the content of information thanks to the classification of toponyms, about determining the principles of nomination based on analysis, about the variation of toponymy under the influence of dialect features.

Kalit so'zlar: toponim, nominatsiya, tasnif, tahlil, dialekt, variativlik.

Ключевые слова: топоним, номинация, классификация, анализ, способ, изменение

Key words: toponym, nomination, classification, analysis, method, variation.

Toponimiya onomastik makonning muhim qismini tashkil etib, ma'lum hududda kechgan tarixiy, etnik va lingvistik jarayonlar haqida boy ma'lumot beradi. Hududiy toponimiyani o'rganish nomlashning xususiyatlarini, geografik obyektlar nomining shakllanish mexanizmlarini va ularning funksional faoliyatini aniqlash imkonini beradi. A.K. Matveev ta'kidlaganidek, toponimik tadqiqotlarda taraqqiyot ko'p jihatdan metodikaning takomillashuviga bog'liq, chunki substrat toponimlarni o'rganish metodlari hanuzgacha bir-biriga zid bo'lgan talqinlardan

xoli emas [Matveev, 1975]. Ko‘plab ilmiy ishlarga qaramay, hududiy qiyosiy toponimik tadqiqotlar hanuz dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Xususan, geografik obyektlarni nomlashga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, toponimik tizimning tarixiy va ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zgarishini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Toponimik makonni o‘rganishning eng asosiy sharti - boy va ishonchli materialning mavjudligidir. Eng samarali metod dala materiali yig‘ish bo‘lib, u til sohiblaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olish, mahalliy talaffuz va semantikani aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Dala tadqiqoti - mahalliy toponimlarning amaldagi qo‘llanishini aniqlash va qayd etish.

- Qiyosiy tahlil -toponimlarning turli variantlarini solishtirish.

- Tarixiy-etimologik tahlil - nomlarning kelib chiqishi va substrat tilini aniqlash.

- Tasnifiy metod - toponimlarni semantik, struktur va morfologik mezonlar asosida guruhlash.

Substrat tilni aniqlashda toponimlar qatori, ularning fonetik va semantik holati tekshirildi.

Olingan materiallar tahlili natijasida hudud toponimlari quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

1. Kelib chiqishiga ko‘ra.

Gidronimlar - suv obyektlarini bildiruvchi o‘ziga xos nomlardir. Ular daryolar, kanallar, ariq va ko‘llar hamda boshqa suv havzalarining nomlarini o‘z ichiga oladi (Naiman arig‘i, Nagarik yop, Vais yorg‘on yop, Suvyorg‘on o‘zan, Yormish arna, Mang‘it arna, Toza qayir). Limnonimlar (yunoncha limne – “ko‘l”) – ko‘l, hovuz va turg‘un suv havzalari nomlari (Ovush ko‘l, Mirob ko‘l, Sumar ko‘l, Eshat ko‘l, Abdol ko‘l, Sher ko‘l). Potamonimlar (yunoncha potamos – “daryo”) – daryolar va oqib o‘tuvchi suv obyektlarining nomlari (Amudaryo, Daryolik irmoq).

Oykonimlar (yunoncha oikos - “uy, maskan”) - aholi punktlarining nomlarini ifodalaydi. Ushbu toponimlar sinfi aholi punktining turi va nomlanish xususiyatiga ko‘ra bir necha kichik toifalarga bo‘linadi, jumladan: shaharlar, posyolkalar, qishloqlar, qishloq kengashlari, mahallalar, ovullar, elatlar, guzarlar. (Do‘simbiy, Marbu‘g‘ot, Moyli mahallasi, Eshimjiron qishlog‘i, Guliston qishloq kengashi, Kulollar ovuli, Yoshlar guzari, Saidmurod jam).

Asteonimlar (yunoncha asteios - “shaharga oid”) -bu shahar tipidagi aholi punktlarning o‘ziga xos nomlaridir (Gurlan).

Komonimlar (yunoncha kome - “qishloq, maskan”) - qishloq tipidagi aholi punktlarining nomlari: qishloqlar, ovullar, posyolkalar (Yormish elati, Qatariq, Shang‘i ovuli, Kichchi qayir ovuli).

Agroonimlar (yunoncha agros - “dala, ekin maydoni”) - qishloq xo‘jaligi yer maydonlari, dalalar, ekin joylari va boshqa shunga o‘xshash geografik obyektlarning nomlarini bildiradi (Qilich taxta, Malika taxta, Ramoq- keng dalalar hududi).

Agoronimlar (yunoncha agora - “maydon, bozor”) - jamoat joylari, maydonlar, bozorlar va shu kabi ochiq joylarning nomlarini bildiradi (Alibobo maydoni).

Godonimlar (yunoncha hodos - “ko‘cha, yo‘l, yo‘nalish”) - ko‘chalar, prospektlar, tor ko‘chalar, sohil yo‘llari va boshqa transport infratuzilmasi obyektlarining nomlari (Amu sohili ko‘chasi, Amudaryo soxili, Shifokorlar ko‘chasi).

Ekklezionimlar (yunoncha ekklesia - “yig‘ilish, ibodatxona”) - diniy va marosim joylarini bildiruvchi nomlar: masjidlar, monastirlar, cherkovlar, sinagogalar, ziyoratgohlar, muqaddas toshlar, manbalar va boshqa muqaddas obyektlar (Usmon Said masjidi, Alibobo ziyoratgohi, Tutli masjidi, To‘ra kosa masjidi, Sodiq Said madrasasi).

Nekronimlar (yunoncha nekros - “o‘lik, marhum”) - dafn joylari bilan bog‘liq nomlardir. Shu bilan birga, bu termin antroponimikada ham ishlatiladi – vafot etgan ajdodlar xotirasiga berilgan shaxs nomlarini ifodalash uchun. Shu sababli ayrim tadqiqotlarda dafn joylari va yodgorlik obyektlarini ifodalovchi aniqroq atama – nekrotoponimlar – qo‘llaniladi (Abdulhaq bobo, Torang‘ilik buva, Tulkili buva, Yilginlik, Shagal bobo).

Dromonimlar (yunoncha dromos - “harakat, yo‘l, yugurish”) - turli xil yo‘l turlarini, jumladan, quruqlik, suv va havo yo‘llarini bildiruvchi toponimik birliklardir (Uris yo‘l).

Gefironimlar (yunoncha gephyra - “ko‘prik”) - ko‘priklar va o‘tish joylarining o‘ziga xos nomlarini qamrab oladi (Kilichniyozboy ko‘prigi, Momo ko‘pir, Tuzko‘pir, Taxtako‘pir).

Drimonimlar (yunoncha drymos - “o‘rmon, daraxtzor”) - o‘rmon massivlari, daraxtzorlar va o‘rmon qismlarini bildiruvchi toponimlardir (To‘qayzor - past bo‘yli o‘rmon).

2. Semantik belgiga ko‘ra nomlar quyidagi obyektlarni anglatadi:

- daryo, ko‘l, kanal (Amudaryo, Uzun ko‘l, Kilichniyozboy kanali);
- cho‘l, bo‘z yerlar (Bo‘zqa‘la);
- ekin maydonlari (Po‘rsi taxta);

- landshaft unsurlari (Korovultepa).
3. Struktur-morfologik jihatdan:
- sodda shaklli nomlar (Shang‘i);
 - yasalma shakllar (Navbahor);
 - murakkab birliklar (Mulla Jimon qavmi).

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dialektal xususiyatlar toponimlarning variativligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Yozma manbalardagi turli davrlarga oid qaydlar bir nomning turli fonetik shakllarini berishi ko‘pincha yozuv xatolari yoki og‘zaki an‘ana bilan bog‘liq (mas.: Sobinchi, Chochchilar ovuli).

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, toponimlarning tasnifi tilning rivoji, etnik tarkib va aholining xo‘jalik faoliyati haqida keng ma‘lumot beradi. Ko‘plab toponimlar hududning tabiiy sharoitini yoki tarixiy o‘zgarishlarini aks ettiradi. Substrat tilni aniqlash esa toponimlarning asl kelib chiqishini to‘g‘ri talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Etimologik xatolar ko‘pincha noto‘g‘ri til materialasi asosida talqin qilingan hollarda uchraydi. Mahalliy talaffuz normalari, fonetik moslashuvlar ham toponim shaklining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, bu esa kompleks tahlilni talab etadi.

Hududiy toponimik makonni o‘rganish toponimlarning shakllanish qonuniyatlarini, ularning struktur va semantik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Dialektal omillarning ta‘siri esa toponimlarning tarixiy taraqqiyotida muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari toponimik lug‘atlar tuzishda, kartografiyada, tarjimashunoslikda va boshqa onomastik tadqiqotlarda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Матвеев А.К. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 1975.
2. Суперанская А.В. Общая топонимика. – Москва: Наука, 1985.
3. Топоров В.Н. Топонимические исследования. – Москва, 1962.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 1996.

FILOLOGIYA

UMR KITOBINING BOSH SARLAVHASI

UO‘K 95(575.171)



**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Urganch innovatsion
universiteti “O‘zbek va
xorijiy filologiya”
kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari
nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Erkin Samandarning “Xorazm farzandiman” she’rining yaratilishi, ushbu asarning noyob adabiy durdona sifatida adabiyotda tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется создание поэмы «Я – дитя Хорезма» поэтом Эркином Самандаром и место этого произведения в литературе как уникального литературного шедевра.

Annotation: This article analyzes the creation of the poem “I am a child of Khorezm” by the poet Erkin Samandar, and the place of this work in literature as a unique literary masterpiece.

Kalit so‘zlar: She’r, Xorazm, adabiyot, tarix, farzand, avlod, adabiy meros, musiqa, Ona, Ota, san’at.

Ключевые слова: Поэзия, Хорезм, литература, история, дети, поколения, литературное наследие, музыка, Мать, Отец, искусство.

Key words: Poetry, Khorezm, literature, history, children, generations, literary heritage, music, Mother, Father, art.

O‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, shoir, yozuvchi, dramaturg Erkin Samandar - Otam haqida, ularning serqirra va sermahsul ijodi, boy adabiy merosi haqida gapirganda, albatta, “Xorazm farzandiman” nomli mashhur she’rlari tilga olinadi.

Bugun she’riyat shaydolarining, yurtdoshlarimizning dilidan joy olgan ushbu she’r dunyoga kelganida men 3 yashar qizaloq edim. Va behisob shukurki, shu she’rga hamnafas bo‘lib ulg‘aydim. Mazkur she’r Otamning 36 yoshli navqiron yigitlik paytlarida yaralgan. “Dong‘ini men ham jahonga bong urib aytgim kelar”, degan misra shu o‘ktam yigitning, she’riyat maydoniga, adabiyot olamiga dadil kirib kelgan va o‘zining So‘ziga, ovozigaga ega bo‘lgan ijodkorning haqiqatdan ham bong urib aytgan So‘zi bo‘lib yuraklardan joy oldi. Hech

ikkilanmasdan ayta olamanki, bu she'r Otamning tashrif qog'oziga aylandi, xorazmliklarning qalbiga manguga muhrlangan dastxati bo'lib qoldi.

Esimda, uyimizda tez-tez olimlar, shoir va yozuvchilar, san'atkorlar mehmon bo'lishardi. Bunday davralar she'riyat bayramiga, So'z va Soz anjumaniga aylanib ketardi. Ovqatlar tortilganidan keyin davraning nazm va navo qismi boshlanardi. Shunda biz, hammamiz Onam bilan birga jam bo'lib, "ana, boshlandi", derdik (bu mehmondorchiliklarning menga eng yoqadigan joyi aynan shu edi). Vujudimiz quloqqa aylanib, ichkarida avjiga chiqayotgan she'rxonlikni huzurlanib tinglardik. Har safar davra yakunida Otamdan "Xorazm farzandiman" she'rini aytib berishlarini so'rashardi. Otam o'zlarining o'ktam, vazmin, salobatli ovozlari bilan uni yoddan aytardilar. O'sha ohang mening ruhimga singib qolgan. Hozir ham agar shu she'rni aytadigan bo'lsam, uni beixtiyor aynan Otamning ohangiga solib aytaman. Boshqacha aytishning iloji ham yo'q. Bu she'r o'zining ohangi bilan, o'zining navosi, nolasi bilan dunyoga kelgan.

Xorazmning o'tmishi, boshidan kechirgan og'ir kunlari haqidagi misralarni Otam boshqacha bir dard, og'riq bilan o'qirdilar. Ayniqsa:

**Goh bulut ostida qoldi, goh kuldi yulduzi,
Qirdi bu yurtni necha yov, bosdi Jo'ji, Chingizi.
Suv bo'lib qon oqqanini so'ylasin Jayxun o'zi,
So'ylasam men, shu jabrdiyda Vatan farzandiman,-**

degan misralarini Otam o'kinch bilan, hasratu alam qorishiq ohang bilan aytardilar. Buni men o'sha paytdagi bolalik shuurim bilan his qilganman. Xalqimizning bugungi kuni, porloq istiqboli xususidagi misralarni aytganlarida esa ulardagi g'urur, faxr tuyg'ularini anglash qiyin emasdi:

**Ne ajab tovlansa xil-xil, bog'u bo'ston bu axir,
Yangilik kashf etmadim men, tilda doston bu axir.
O'zbekiston bu, yoronlar, O'zbekiston bu axir,
Ne uchun faxr etmagayman, men axir farzandiman!**


Mazkur she'rni o'qish jarayonida Otam go'yo uning ichida yashardilar. She'rda qadim va navqiron Xivaning har qarich tuprog'i tilga kiradi go'yo. Shoirning kindik qoni to'kilgan tuproq - Xorazmning sha'ni, shuhrati, shavkati faxrga, iftixorga aylanadi! Va bularning barchasi yuksak insoniy va badiiy g'oyadan suv ichadi, qat'iy hayotiy tamoyilda aks etadi:

**Xorazm farzandiman men, Xorazm farzandiman!
Men alifdek tik yashab o'tgan diyor farzandiman!
Ilmini nurdek taratgan donish el farzandiman!
So'ylasam men, shu jabrdiyda Vatan farzandiman!
Aybsiz aybdor sanalgan tanti el farzandiman!
Nola urgan oshiq elning oshig'i farzandiman!
Mashriq Mag'ribda mashhur o'lkaning farzandiman!
Bobolar izin o'parman, qutlug' el farzandiman!..**

Bu misralarni o‘qib, ko‘z yoshlarim dilimni g‘arq aylaydi. Jismim uzra xitobim alanga oladi:

Mana, Erkin Samandar kim!

Taniqli shoir va munaqqid Erpo‘lat Baxt quyidagi fikrlarni yozganida naqadar haq edi: “O‘ylab qolaman: “Xorazm farzandiman” she’ri Erkin Samandarning Xorazmga qo‘ygan haykalimi yohud shoirning o‘z yuragi, o‘z muhabbatiga? Darhaqiqat, Xorazm deganda Erkin Samandar, Erkin Samandar deganda Xorazm tasavvurda paydo bo‘ladi. Mana bu esa ijodkor fenomenidir, deb bilaman”.



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir Xosiyat Bobomurodovanning bu xususdagi fikrlari ham qimmatlidir: “Yurtlar tarixi, vatanlar kechmishi uning asl farzandlari nomi bilan yoziladi. Farzandlari dono, jasur mamlakatlarning qo‘li uzun, dovrug‘i baland bo‘ladi. Shoir, yozuvchi, dramaturg, jurnalist, davlat arbobi Erkin Samandar tug‘ilgan yurti Xorazmni o‘z asarlarida ulug‘lagan, bor mehrini xalqining saodati uchun bag‘ishlagan inson edi. Romanlari, dramalari, she‘rlari, maqolalarini o‘qigan har kim ularda Xorazm nafasini his qilishi tabiiy. Shoir “Xorazm farzandiman” deb aytishga ming bora haqli edi”.

Bugun Otamning umr dovoniga nazar tashlar ekanman, sharaf bilan bosib o‘tilgan uzun va nurafshon yo‘l ko‘z oldimda gavdalanadi. Bu yo‘l pastdan tepalikka qarab ko‘tarilib boradi. Yo‘ldan vazmin qadamlar bilan ketib borayotgan Otamning ulug‘vor, salobatli, o‘ziga xos viqorli siymosi atrofga shu‘la taratadi. Bir shu‘laki, zulmatni parchalar! Bir shu‘laki, jaholatni yo‘q qilar! Yo‘ldagi tikanlar gulga aylanar! Toshlar esa tosh bo‘lganidan uyalar! Uyalib, chetga surilib ketar. Yo‘l baland tog‘larga borib tutashar... Ana, tog‘ning eng tepasida, cho‘qqida turgan Otamni ko‘ryapsizmi? Qo‘llarini keng ochib, ko‘ksini to‘ldirib bong urmoqda:

Xorazm farzandiman men, Xorazm farzandimaaaaan!...

Yuragining eng to'ridan otilgan bu bong hayqiriq o'laroq tog'larni gumburlatib aks-sado beradi. Harsang toshlar tebranib ketadi. Ko'kni tutadi bu nido! Nogahon cho'qqida, Otamning poyida olov paydo bo'ladi. Otam Samandarga aylanib, olov uzra ko'tarilib, mag'rur va masrur qanot qoqadi:

Men shu tuproq vorisiman, men shu el farzandimaaaaan!..

Adabiyotda “shedevr asar” degan ibora bor. Men hech ikkilanmasdan, “Xorazm farzandiman” she'rini Otamning ana shunday durdona asari, deb atayman. Shuning uchun ham bu she'r minglagan yuraklardan joy oldi, xorazmliklarning iftixor qo'shig'iga aylandi. Bu esa she'rning ham, shoirning ham juda katta baxtidir! Bu Otamning baxtli she'ridir! Uning oxirgi bandi shunday yakunlanadi:

**Kim bilan oshno tutinmay, kim-la suhbat qurmayin,
Xivami, Urganchmi yo Toshkentda yashab turmayin,
Qaysi elga bormayin, qay go'shalarda yurmayin,
Xorazm farzandiman men, Xorazm farzandiman!**

Bu so'zlar Otamning bir kam 90 yillik umr kitobiga BOSH SARLAVHA bo'lib bitildi. Taqdir bo'lib, Otam uzoq yillar poytaxtda yashab, ijod qildilar. Ammo hamisha Xorazmga intiqlik, Ona tuproq sog'inchi ular bilan birga yashadi. Mazkur she'rning yaratilganiga 55 yil bo'ldi. Faxr bilan aytamanki, bu asar davrning sinovidan, imtihonidan sharaf bilan o'tdi.

Bugun yangi davr avlodini tarbiyalashda, yoshlarning qalbida vatanga, ona yurtga mehr-muhabbat, sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirishda mazkur she'r yuksak ma'rifiy qimmatga egadir. Uni tinglagan, o'qigan har bir o'g'il-qizimizning yuragida O'zbekiston degan shonli tuyg'u yanada mavj urishiga aslo shubham yo'q.

Men bu she'rning manguликka daxldor bo'lgani bilan, abadiyatga yuz tutgani bilan juda faxrlanaman!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayyora Samandar. “Mening Otam”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2025- yil.
2. Erkin Samandar: Shoir, yozuvchi, dramaturg, davlat va jamoat arbobi. “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2025-yil.
3. Erkin Samandar. “Xorazm farzandiman”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch-2015-yil.

FILOLOGIYA

NAVOIY GUMANISTIK QARASHLARIDA INSONPARVARLIK G'OYALARINING MUHIM XUSUSIYATLARI



Ankabaeva Mohira,
Jizzax davlat
pedagogika
universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim
nazariyasi va
metodikasi
kafedrası” katta
o‘qituvchisi,
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori(PhD)

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning adabiy merosini o‘rganish sohasida o‘zbek olimlari bilan bir qatorda Bertels, Borovkov, Boldirev, Kononov, Yakubovskiy, Deych, Ivanov va boshqa juda ko‘p yirik sharqshunos rus olimlari qarashlari va ulug‘ shoirning gumanistik g‘oyalari, badiiy-falsafiy qarashlari, o‘lmas she‘riy asarlaridan parchalar tahlilga tortiladi.

Аннотация: В статье анализируются взгляды узбекских ученых Бертельса, Боровкова, Болдырева, Кононова, Якубовского, Дейча, Иванова и многих других видных российских востоковедов в области изучения литературного наследия Алишера Навои, а также гуманистические идеи, художественно-философские взгляды и отрывки из бессмертных поэтических произведений великого поэта.

Annotation: This article analyzes the views of Uzbek scholars, Bertels, Borovkov, Boldyrev, Kononov, Yakubovsky, Deich, Ivanov, and many other prominent Russian orientalists in the field of studying the literary heritage of Alisher Navoi, as well as the humanistic ideas, artistic and philosophical views, and excerpts from the immortal poetic works of the great poet.

Kalit so‘zlar: Xazoyin ul-maoniy, Bedil, Mashrab, gumanizm, so‘fizm, ilohiy, Vaqfiya.

Ключевые слова: Хазаин уль-Маони, Бедиль, Машраб, гуманизм, суфизм, теология, Вақфия.

Key words: Khazayin ul-Maoni, Bedil, Mashrab, humanism, Sufism, theology, Waqfiya.

Adabiyotshunoslikka oid asarlardan biri I. M. Mo‘minov hamda V. Y.Zohidovlarning o‘zbek klassik adabiyoti namoyandalarining dunyoqarashi, falsafiy – gumanistik fikrlarini yoritishga bag‘ishlangan doktorlik ishidir. Sharq yozuvchilari, shu jumladan, o‘zbek yozuvchilari juda uzoq zamonlar hukmron bo‘lgan mavjud tuzum sharoitida islom dini mutassibli, o‘rta asr bid‘at-xurofoti maydonga keltirgan ziddiyatlarga to‘la bir sharoitda yashab ijod etganlar. Ammo har qanday og‘ir va murakkab sharoitda ham inson tafakkuri, uning izlovchilik ishi hech qachon to‘xtagan emas. Jamiyat va tabiat qonuniyatlarini anglashga

intilgan, kishilik hayotini yaxshilash haqida o'ylagan ilg'or fikrli kishilar bo'lgan. Biroq ularning qarashlari ilmiy asosda o'rganilib, ilmiy asosda sistemalashtirilmagan.

O'tmishdagi ilg'or fikrlar, ijtimoiy qarashlar, chuqur falsafiy mulohazalar ko'proq so'z san'atkorlari ijodida namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham akademik I. M. Mo'minov bir tomondan Navoiy, Bedil, Mashrab, Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza kabi adib va olimlarning ijodlaridagi ilg'or falsafiy fikrlar Sa'diy, Hofiz, Umar Xayyom, Nizomiy, Jomiy kabi qardosh xalqlar vakillari ta'sirida va hamkorligida rivojlanganini, «O'rta Osiyodagi ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yirik namoyandalarining dunyoni anglashlarida o'rta asrchilik sxolastikasiga zid o'laroq tabiatga materialistik qarash elementlari hamda sinflar va sinflar hakidagi tushunchalarning kurtaklari bor. Ularning asarlari realizm ruhi bilan va klerikalizmga qarshi kurash ruhi bilan sug'orilgan. Ular o'z vatanlari, vatandoshlariga baxt-saodat qidiruvchi kishilar bo'lib, barcha xalqlar do'stona munosabatda bo'lishga harakat qilish ularning eng yaxshi xususiyatlari edi.

Professor V. Y. Zohidovning doktorlik ishi asosida maydonga kelgan «Alisher Navoiyning g'oyalar va obrazlar dunyosi» asari Navoiy dunyoqarashi, gumanistik falsafasiga bag'ishlangan muhim konseptual tadqiqotdir. Navoiy siymosi va ijodi inson dahosining ajoyib bir mo'jiza namunasidir. Shu tufayli Navoiy nomi va ijodi 600 yilga yaqin davr ichida juda ko'p sinovlardan o'tib, hali bu kunga qadar o'z qadr-qiymatini saqlagan holda insonlar qalbiga hukmron, necha-necha avlodlarning tarbiyachisi bo'lib kelmoqda. Navoiy shu uzoq davrda faqat o'zbek xalqinigina emas, balki Sharq xalqlari, keyingi asrlarda Yevropa xalqlari ilg'or fikr egalarining ham diqqatini o'ziga jalb qildi va qilmokda. Bu tasodifiy bir hol emas. Buni Navoiy ijodida va davlat arbobi sifatidagi amaliy faoliyatida namoyon bo'lgan ilg'or g'oyalar, o'z davri hayotini real ifodalagan yuksak san'at asarlari, ulardagi betakror obrazlar, xarakterlar bilan izohlash mumkin.

Navoiyning adabiy merosi serbaraka va nihoyat xilma-xildir. Uning 3 ming lirik she'rni o'z ichiga olgan, «Xazoyin ul-maoniy» asari, 6 poemasi, o'zbek xalqining tarixi, tili va adabiyotining muhim masalalariga bag'ishlangan bir necha ilmiy asarlari o'z ko'lami jihatidan o'zga xalqlar adabiyotlari tarixida kam uchraydigan ajoyib hodisadir.

Muhim fikrlar xazinasini va yuksak san'at namunasi bo'lgan Navoiy ijodi o'zbek xalqi hayotidagi juda murakkab, chigal hodisalarga to'la bo'lgan tarixiy sharoitni aks ettiruvchi ko'zgudir. V.Y.Zohidov o'z asarida mana shu murakkab ziddiyatlarga to'la hayot yaratgan Navoiy ijodidagi muhim masalalarni izohlash, Navoiyning gumanistik dunyoqarashi, falsafiy fikrlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p

masalalarni hal qiladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, murakkab dunyoni anglash, jamiyatdagi chigal ijtimoiy masalalarni tushunish, hal qilish borasida bir umr izlanishda bo’lgan Navoiy ijodida dunyo va undagi xilma-xil hodisalarga bo’lgan ijtimoiy qarashlarga oid ko’p fikrlar bayon qilingan bo’lsa-da, ular shoir ijodining hamma janrlarida tarqoq holda uchraydi. Bu qarashlarni ma’lum tartibga solmay turib, Navoiyning falsafiy qarashlari haqida aniq bir fikrga kelish qiyin edi. V. Y. Zohidov o’z tadqiqotlarida Navoiy qarashlaridagi ana shu tarqoq holda bo’lgan muhim falsafiy fikrlarni qunt bilan o’rganadi va undan Navoiyning dunyoqarashi va falsafiy fikrlari haqida juda muhim xulosalar chiqaradi.

Faylasuf V.Y.Zohidov Navoiy ijodi va uning ilg’or falsafiy – gumanistik qarashlarini ta’riflar ekan, umumiy xulosa tarzida Navoiy ijodida masalaning eng muhimi, asosi inson va insonga muhabbat deb ko’rsatadi. U yozadi: «Dastlab va asosan xalqdan chiqqan insonning huquqlari va qadr- qiymatini himoya qilish Navoiy gumanistik qarashlar sistemasi va ijodining markaziy masalasidir. U dunyoqarash yuzasidan bo’lgan masalalarning ko’pini ana shu asosda hal qiladi. O’z asarlarida Navoiy insonning dunyoda real, yaxshi hayot ko’rishi, olijanob hayoti haqidagi huquqlarini himoya qiladi, shaxsning ozodligini hurmatlaydi, inson nomini ulug’laydi» [1-311]



Xalqimizning adabiy merosini o’rganish sohasida o’zbek olimlari bilan bir qatorda Bertels, Borovkov, Boldirev, Kononov, Yakubovskiy, Deych, Ivanov va boshqa juda ko’p yirik sharqshunos rus olimlari, shuningdek, Sadriddin Ayniy, Abdurahim Mirzoev, Hamid Arasli kabi qator qardosh xalqlar olimlarining ishtirok qilganliklarini alohida ta’kidlash zarur.

Ijodkorlar, adabiyot va san’at xodimlari Navoiy ijodiga qayta-qayta murojaat qildilar. Bu xazina asosida falsafiy asarlar yaratdilar. Navoiy ijodidagi ilg’or g’oyalarning ijtimoiy mohiyatini yanada ravshanlashtirish, u

asarlardagi gumanizm, vatanparvarlik, mardlik, to’g’rilik va hokazo kabi insoniy fazilatlarni bo’rttirib ifodalash yo’sinida bu asarlarning zamonamiz talabiga ko’ra tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirishga alohida ahamiyat berdilar. Ana shu

yo'sinda adabiy merosimiz ijodkorlari va materiallari bizning yangi jamiyat qurish ishimizga ishtirokchi bo'lib kelmoqdalar.

Navoiyning insonparvarlik bilan o'ralgan g'oyasining manbai uzoq-uzoqlarga borib taqalishini va bu uning e'tiqodi bo'lib kelganligini Navoiyning o'zi xaqida yozgan quyidagi fikridan ham bilib olishimiz mumkin. «Men bir oz yerga ishlov berish bilan shug'ullandim. Ushbu ishda men qo'limdan kelganicha adolatli bo'lishga intilganim sababli, Allohning muruvvati bilan menga boylik va nafu foyda nasib etdi. Ana shularning jamida men tirikchilik o'tkazish uchun, oddiy inson uchun kerak bo'lganinigina o'zimga olib qoldim, issiq-sovuqdan saqlanish uchun choy-non, oddiygina ovqat bilan kifoyalandim. Qolganlarining bir qismini odamlar bilan muloqotda bo'lib turish uchun, shuningdek, navkarlarim va uyimdagilarni boqish uchun sarfladim. Yemoqqa va zarur vazifalarni bajarmoqqa ketganidan qolgan boshqa qismini xayrli ishlarga sarfladim», deb yozadi Navoiy. [7-14]

Ko'rinib turibdiki, Navoiy davlat arbobi sifatida faqatgina g'oyaviy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan xam xalqqa yaqin bo'lgan. Ular o'z xalqi, uning farovon hayoti va porloq kelajagi uchun faoliyat ko'rsatganlar. Shuning uchun biz «Navoiy gumanizmni utopik xarakterda namoyon qilar edi... Navoiy g'oyaviy xalq bilan birga bo'lsa-da, unga mamlakat haqida g'amxo'rlik qilsa-da, xalq dardini his qilmasa, amaliy jihatdan u juda-juda ajralgan, undan uzoq edi», degan fikriga qo'shila olmaymiz. [2-103-104] Chunki, Alisher Navoiy adolatli davlat rahbari sifatida xalq bilan birga bo'lsa, ikkinchi tomondan, ulug' shoir sifatida xalq hayotidan ilhom olgan va mutafakkir sifatida uning farovon hayoti uchun kurashgan kishidir. [3-158]

Shu o'rinda Y. Jumaboevning «Navoiy yomon odamlarni qattik qoralash hamda yaxshi odamlarni madh etish bilan cheklanmadi... Ulug' gumanist ana shu axloqiy nuqsonlarni jamiyat hayotidan batamom yo'qotish yo'llarini izlash umrining oxirigacha o'z gumanistik ideallarini amalga oshirish uchun kurashdi», [4-110] degan fikriga hamfikrmiz. Shu bilan birga, Navoiyning insonparvarligi so'fiylar g'oyalari ta'siri ostida keng ijtimoiy-siyosiy kategoriya sifatida maydonga chikdi, deb ta'kidlagan A. Hayitmetov [5-123].

M.Aripovning ta'kidlashicha, Navoiy nazarida inson (bashar) dunyo yaratilishining eng pirovard va sharaflı bosqichi bo'lib, dunyoni yaratilishining maqsadi va mazmunini ham inson tashkil qiladi. Bunda Xudo birlamchi asos (ilk. avval) va inson (so'ng) bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari bir zanjirning xalqalari bo'lib qoladiki, bu ham ular o'rtasida o'zaro aloqa va bir-biriga bog'liqlik zaruriyatini taqozo qiladi. [6-25]

Navoiy va, umuman, har bir mutafakkir o'sha davrda insonni bir «ilohiy mavjudot, zarra» degan xulosani bildirar edilar. Chunki ular nazarida inson Xudo

mohiyatini o'zida gavdalantiruvchidir. Xuddi shu ma'noda ular insonni ilohiylashtirib, yer yuzidagi hamma narsa inson uchun yaratilganligini va undan inson bahramand bo'lishi kerakligini uqtiradilar. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining «Vaqfiya»sida shunday yozadi: «Butun osmon va osmondagi jamiki narsalar, butun yer yuzi va yer yuzidagi jami narsalar, hamma dengiz va unda mavjud bo'lgan hamma narsalar, hamma mamlakatlar va ularda bo'lgan jami ne'matlar, bari eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan, ularning jami insonga xizmat kilmog'i kerak».¹[7-56] Mutaqaddirlar nazarida inson shuning uchun ham kamolot egasiki, unga aql-zakovat hadya etilgan va u, asosan, «siru asrorlarni va yuksak cho'qqilarni bilish qobiliyatiga» ega. [8-46]

Shu bilan birga, inson ular nazarida boshqa mavjudotlardan shu bilan farq qiladiki, u aql-xushli bo'lib, fikrlash va bilish, mehnat qilish hamda o'zi uchun moddiy-ma'naviy zarur ne'matlarni bunyod etish qobiliyatiga egadir. Xuddi shu ma'noda ularning asarlarida inson «ijtimoiy maxluq» degan fikrlar juda xam ko'p uchraydi. Ular aql-zakovatga ega bo'lgan insonni xalq baxt-saodati va o'z farog'ati uchun mardonavor kurashchi sifatida uning obrazlarini yaratdi. [3-160]

Navoiy insonni juda oliy bir mavjudot deydi. Uningcha, inson dunyodagi butun borliqlardan, butun narsalardan yuqorida turadi, ular orasida butunlay ayrim o'rin tutadi. Navoiy insonni shunday ko'klarga ko'taradiki, uni borliqning, umummavjudotning eng bebaho durdonasi, koinot toji, deb ataydi.

Shunday qilib, Navoiy fikricha, inson yuksakdagilarning - baland martabalilarning baland martabalisi, go'zallarining go'zali, qudratlilarning qudratlisi, qimmatlilarning qimmatlisidir.

...Karam birla xalq aylagay olame,

Bu olamda maqsud anga odame.

G'araz odami anga olam tufayl,

Ne kim g'ayri olamdur ul ham tufayl. [9-622]

Navoiyning mashhur insoni, sevgilisi — Shirin chuqur ma'noli farax bilan:


Menga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam o'lsam, ushbu basdur... [9-263]

deydi va bu bilan o'zining insoniy qimmatini shu qadar yuksakliklarga ko'taradiki, insonlikning behad qimmatbaho ekanligini uqtiradi, bu bilan chin insonning razolat bilan, pastkashlik bilan, insonni yerga urishlik bilan aloqasi bo'lmaganligini ko'rsatib o'tadi va insoniylikni mudofaa etishda hech narsadan qaytmaslikka tayyorligini bildiradi.

¹ Навоий А. Вақфия. - Тошкент. 1991.- Б.56.

Inson o'ziga xos bo'lgan muayyan xislatlarga, xulqlarga, kayfiyatlarga egadir, shular bilan ham boshqa mavjudotdan ajraladi. Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib, to do'stga vafodorlikkacha, ilm-hunar o'rganib, tog'ni talqon qilishdan, tabiatni o'z manfaatlari xizmatiga qo'yishdan, qaramonlikdan tortib to halol, o'z kuchi bilan mehnat qilib, shod-xurram yashashlikkacha, insofli, vijdonli bo'lishdan tortib to qanoatli, sabrli, matonatli bo'lishgacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zararli bo'lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha, shafokatli, shafqatli, adolatli bo'lishdan tortib, to razillarga ayovsiz kurash elon qilishgacha, shirin so'zlikdan tortib to chiroyli chehralikgacha, rostgo'ylikdan tortib to ochiq ko'ngillikka- sof dillilikkacha...



Navoiy fikricha, insonga yuksak ijodkorlik, qudrat, qobiliyat, shijoat, fanga muhabbat ham xosdir. U mana shular orqali o'z hayotini yaxshilash uchun intiladi, o'z hayot-mamotini tamomila taqdir asirligiga berib qo'yib, uni (taqdirni) najotining yagona manbai, deb hisoblamaydi, aksincha, tabiatni sevadi, tabiatga hayot va najot manbai, maskani deb qaraydi, o'z hayoti va saodatining shu tabiat bilan bog'langanligini biladi.

Shunday kilib, gumanist

Navoiy madh etgan inson baxtli kun kechirishga intiladi, bu ishda asosan o'zining insoniy qudratiga, shijoatiga, kuchiga, mehnatiga, aqliga, farosatiga, o'zining yashab turgani go'zal tabiatga — real borliqqa asoslanadi, undan o'zi uchun keragicha foydalanish zarurligini tushunadi va shunga rioya qiladi, shu yo'lda faoliyatda bo'ladi, kurashadi. Bu ishda insonga chidamlilik, sabr, qanoatlilik, o'zaro yordam va hokazo singari xislatlar matlubdir, ularga vafodorlik zarurdir. Bu ishda Navoiy fanning, ilmning, hunarning rolini, qimmatini behad yuksakliklarga ko'taradi. Uningcha, ilm qorong'iliklarni yoritadigan chirog', mushkullarni oson qiladigan, chin hayot, baxt yo'lini yoritadigan quyosh, adashganlarga yo'l ko'rsatadigan ko'rsatkich, martabalilarning martabasini ko'taradigan, odamlarni odam qiladigan, podshohlarni odil, yengilmas qiladigan omildir. Ilmli, hunarli odam, sog'lom aqlga ega bo'lgan shaxs, o'z maqsadi

qanday katta va unga erishish qanchalik mahol bo‘lmasin, unga erishadi. U, hattoki, o‘lganlarni tiriltiradi... Kim ilmni dastak, rahbar qilib harakat qilsa, ilm sha’mini ushlab yursa, qoqilmaydi, xor bo‘lmaydi:

Kim olim esa nuqtada baphaq de oni,
Gar bazm tuzor, behishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo‘q ilm anga ahmaq der oni,
Majlisdaki ilm bo‘lsa, uchmaq de oni. [10-45]

Alisher Navoiy o‘zining gumanistik g‘oyalari, badiiy-falsafiy qarashlari, o‘lmas she’riy asarlari bilan insoniyat tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зоҳидов В. Й. Улуғ шоир ижодининг қалби. Т., “Ўзбекистон”. 1970. Б.: 311.
2. Захидов В. Мир и идии Образов Алишера Навои. Т., “Ўзбекистон”. 1970. стр.:103-104
3. Каримов С. Шарқ ижтимоий тафаккури тарихидан. Тошкент. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти. 2016. Б.:158
4. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари Т., 1991. Б.:110
5. Ҳайитметов А. Литературно-критические взгляды Алишера Навои. - Тошкент, АН УзССР. 1959, стр.:123
6. Арипов М. Философские и этические воззрения Алишера Навои. Стр.: 25
7. Навоий А. «Вақфия». - Тошкент. 1991, Б.:56
8. Навоий А. Асарлар, ВИ том. –Алишер Навоий. Асарлар. И китоб. 1965. Тошкент. Б.: 46
9. Алишер Навоий. Хамса. Тошкент. Ўздавнашр. 1958. Б.: 622.
10. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 6-том. –Тошкент. Ўздавнашр. 1965. Б.: 45.

FILOLOGIYA**O‘ZBEK TILIDA HASHAROT NOMLARINING
LEKSIK-SEMANTIK GURUHLANISHI**

**Anyozova
Raximajon,
Xorazm viloyati
pedagogik mahorat
markazi “Tillarni
o‘qitish metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi hasharot nomlarining leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan, ya’ni mavjud tilshunoslikka oid manbalar va lingvistik tadqiqotlar asosida hasharot nomlarining semantik xususiyatlari, ularning atash vazifasi, obrazlilik va milliy-madaniy qimmati yoritiladi. Maqolada hasharot nomlarini bir nechta leksik-semantik guruhlariga ajratishning nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan bo‘lib, har bir guruhning tilshunoslik va lingvokulturologik jihatdan ahamiyati izohlangan.

Аннотация: В данной статье представлен лексико-семантический анализ названий насекомых в узбекском языке, то есть на основе существующих лингвистических источников и лингвистических исследований выделены семантические особенности названий насекомых, их именованная функция, образность, а также национальное и культурное значение. В статье изложены теоретические основы разделения названий насекомых на несколько лексико-семантических групп и объяснено лингвистическое и лингвокультурное значение каждой группы.

Annotation: This article presents a lexical-semantic analysis of insect names in the Uzbek language, that is, based on existing linguistic sources and linguistic research, the semantic features of insect names, their naming function, imagery, and national and cultural value are highlighted. The article presents the theoretical foundations for dividing insect names into several lexical-semantic groups, and explains the linguistic and linguocultural significance of each group.

Kalit so‘zlar: leksik-semantik guruh, hasharot nomlari, o‘zbek tili, semantika, atash, obrazlilik, lingvokulturologiya, atamashunoslik, zoonimiya, lingvistik tahlil, tilshunoslik.

Ключевые слова: лексико-семантическая группа, названия насекомых, узбекский язык, семантика, аташ, образность, лингвокультурология,

терминология, зоонимия, лингвистический анализ, лингвистика.

Key words: *lexical-semantic group, insect names, Uzbek language, semantics, atash, imagery, linguoculturology, terminology, zoonymy, linguistic analysis, linguistics.*

Har qanday tilning soʻz boyligini chuqurroq oʻrganish uning semantik tuzilishini tahlil qilishdan boshlanadi. Leksik-semantik guruhlar (LSG) – umumiy kategorial maʼno birligi bilan bogʻlangan soʻzlar tizimi boʻlib, bu guruhlar tahlili soʻz boyligini rivojlantirish, uning tuzilishi va faoliyat koʻrsatish xususiyatlaridagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, hasharot nomlarining LSGlari koʻpchilikda alohida qiziqish uygʻotadi, chunki ular nafaqat biologik xilma-xillikni, balki xalqning milliy-madaniy tushunchalari, xoʻjalik faoliyati, dunyoqarashi va obrazli nutq tizimini ham aks ettiradi. Oʻzbek tilidagi hasharot nomlari zoonimik leksikaning ajralmas qismi sifatida, boy semantikaga va xilma-xil vazifaviy imkoniyatlarga ega. Ular nafaqat tirik organizmlarni nomlash, bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi, balki nutqda baholash, ekspressiv va obrazli rollarni ham bajaradi. Ushbu soʻzlar guruhini tadqiq etish oʻzbek xalqining oʻziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini, tabiatga va atrof-muhitga boʻlgan munosabatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Oʻzbek tilining lugʻaviy tizimlarini oʻrganish boʻyicha keyingi yillarda bir qator ishlar qilindi. Oʻzbek tili leksikasini umumiy tarzda tavsiflash [1], leksik qatlamlar [2] yoki alohida yozuvchi asarlari leksikasini [3] hamda shaxs nomlarini [4] oʻrganishga bagʻishlangan ishlar shular jumlasidandir [5].

Oʻzbek tili zoonimik leksikasiga bagʻishlangan alohida ishlar mavjud boʻlsa ham, hasharot nomlarining yaxlit leksik-semantik tahlili, ularning ichki tuzilishi va semantik aloqalarini aniqlash dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Ushbu maqola oʻzbek tilidagi hasharot nomlarining leksik-semantik guruhini tizimlashtirish va tahlil qilish, ularni tasniflash mezonlarini aniqlash va ularning lingvistik hamda lingvokulturologik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida oʻzbek tilining nufuzli lugʻatlari (akademik, izohli lugʻatlar), entomologiyaga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, folklor matnlaridan toʻplangan hasharot nomlari, shuningdek, til bilgichlar bilan oʻtkazilgan kuzatuvlar va soʻrovlar natijasida olingan maʼlumotlar tanlangan. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: 1. Leksik-semantik tahlil;

2. Struktur-semantik tahlil; 3. Komponentli tahlil; 4. Etimologik tahlil; 5. Lingvokulturologik tahlil; 6. Solishtirma-qiyosiy metod.

O'zbek tilidagi hasharot nomlari, ularning semantik xususiyatlari va atash vazifasidan kelib chiqib, bir nechta LSGlarga ajratilishi mumkin. Ushbu guruhlash ularning semantik asoslariga, so'z yasash usullariga va tilning obrazli tizimidagi o'rniga asoslanadi:

1. *Hasharotlarning tashqi ko'rinishi va morfologik belgilariga asoslanuvchi nomlar.* Ushbu guruhga kiruvchi nomlar hasharotlarning o'ziga xos xususiyatlari: rangi, tana shakli, qanotlarining mavjudligi, oyoqlari soni, mo'ylovlari va boshqa ko'zga ko'rinarli belgilari asosida shakllangan. Bunday nomlashlarning asosiy maqsadi – mavjudotning ko'z bilan ko'riladigan, sezilarli belgilarini aks ettirishdir:

Achchiqqanotli: Qanotli hasharotlarni ifodalaydi. Ba'zi manbalarda “achchiq” so'zi “qon” (qon) bilan aloqadorlikda yoki “keskir”, “ingichka” kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bu yerda asosiy belgi – qanotlarning mavjudligi.

Cho'chquloq: Boshi yoki quloqlari cho'chqanikiga o'xshash bo'lgan hasharotlarni atashda ishlatilishi mumkin. Bu nomlashda metaforadan foydalanilgan.

Qoraqurt: Uzun o'rgimchakdek keladigan, qora rangli zaharli bir turdagi jonzo (ko'pincha pavuk turlariga ishora qiladi). “Qora” rangini, “qurt” esa uning “chumoli” yoki “o'rgimchak”ning turdoshi ekanligini bildiradi.

2. *Hasharotlarning hayot tarzi va xulq-atvoriga asoslanuvchi nomlar.* Bu guruh nomlarning shakllanishiga hasharotlarning xarakterli harakatlari, yurish-turish uslublari, yashash joylari, oziqlanish usullari yoki insonga munosabati asos bo'ladi:

Chivin: Hasharot chiqaradigan yoki uning harakati bilan bog'liq bo'lgan ovozga (chivinlash) asoslangan bo'lishi mumkin.

Shomxo'ray: Tungi paytda faol bo'lib, ozuqa qidiradigan hasharotlar, ayniqsa, kechki qo'ng'izlar va kapalaklarga nisbatan ishlatiladi. Nom apellyatividagi *shom* – “kechqurun”, *xo'ray* – “yeyuvchi, iste'mol qiluvchi” ma'nosini anglatadi.

O'rgimchak: Ipak o'rashi (*o'rmoq* – to'r to'qish) bilan bog'liq bo'lib, harakat va faoliyatga asoslangan nom.

3. *Ovoz chiqarishga asoslangan nomlar* (onomatopeya). Ba'zi hasharot nomlari ular chiqaradigan tovushlarni yoki ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ovozlarni imitatsiya qilish orqali shakllangan:

Shovvoz: Aniq, tez-tez eshitiladigan shovqin chiqaradigan hasharotga nisbatan ishlatiladi.

Chiyrilchiq: Qanotlarining uchish vaqtida chiqaradigan mayda, tez-tez chiyillash ovoziga ishora qiladi (ba'zi turdagi chigirtkalar yoki mayda kapalaklarga nisbatan).

Qarsildoq: Chigirtkalarining chiqaradigan *qars-qars* ovoziga asoslangan (*qarsillamoq* – “qars” etgan ovoz chiqarmoq, “qars” etmoq [8]).

4. *Xo'jalik faoliyati va xalq tasavvurlari asosida shakllangan nomlar.* Bu guruhga insonning hasharotlarga bo'lgan munosabatini, ularning qishloq xo'jaligi uchun foydali yoki zararli ekanligini, shuningdek, mifologik yoki folklor tushunchalarini aks ettiruvchi nomlar kiradi:

Asalari: Bunday ari turi asal yig'ish faoliyati bilan shug'ullanganligi uchun shunday nomlangan, nomning birinchi qismi – asal bilan, ikkinchi qismi hasharotning umumiy oti bilan bog'liq.

Zararkunanda: Dehqonchilikka zarar yetkazuvchi hasharotlar uchun umumiy termin.

Kuya: Kiyim-kechakka zarar yetkazuvchi mayda kapalak. Nomlashda uning zararli ta'siri asos bo'lgan.

5. *Ma'no ko'chishiga asoslangan nomlar* (metafora, metonimiya). Ba'zi hasharot nomlari ularning boshqa obyektlar, hayvonlar yoki hodisalar bilan o'xshashligi asosida shakllanadi:

Yo'lbarsari: Yo'lbarsning rangiga o'xshash bo'lgan asalari yoki boshqa hasharotga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Tashqi ko'rinishidagi o'xshashlik asosidagi nomlash.

Ayiqquloq: Ayrim hasharotlarning quloq yoki bosh qismi ayiqnikiga o'xshab ketishiga asoslanib nomlangan.

Ilonsari: Tana shakli yoki harakatlanish usuli ilonga o'xshab ketadigan hasharotlar.

6. *Atama sifatida ishlatiluvchi nomlar.* Ba'zi nomlar, asosan, ilmiy-texnik adabiyotlarda, entomologiyaga oid matnlarda u yoki bu turdagi hasharotlarni aniq identifikatsiya qilish maqsadida maxsus atamalar sifatida qo'llaniladi. Bu nomlar ko'pincha murakkab, ya'ni ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lib, ularning tarkibida lotin yoki yunon tilidan kirib kelgan ilmiy terminlar ham uchrashi mumkin:

Kolorada qo'ng'izi: Amerika qit'asiga mansub, kartoshkaga katta zarar keltiruvchi qo'ng'iz bo'lib, uning nomi kelib chiqqan joyidan olingan.

O'rgimchakchanoqlilar: Klass nomi, hasharotlarning bir guruhini ifodalovchi ilmiy atama.

Xitinlilar: Tashqi yoki ichki xitin qavatiga ega bo'lgan jonzorlar guruhi.


Oxirgi paytlarda til leksikasini sistem tahlil qilishga qaratilgan ishlarning paydo bo'lgani diqqatga molikdir [6]. Bular orasida lug'aviy mikromaydonlar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarni [7] ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. O'zbek tilidagi hasharot nomlarining leksik-semantik tahlili ushbu zoonimik leksikaning ko'p qirrali tuzilishini ochib beradi. Aniqlangan leksik-semantik guruhlar – tashqi ko'rinishni, hayot tarzini, ovoz chiqarishni, xo'jalik faoliyati va xalq tasavvurlarini, shuningdek, ma'no ko'chishi va atamashunoslikni ifodalovchi guruhlar – bu sohadagi nominativ vositalarning boyligi va xilma-xilligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент: “Фан”, 1960.; Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1969.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: “Фан”, 1985.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: “Фан”, 1983.
4. Данияров Р. Заимствование русско-интернациональных имен узбекским языком: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.; Абдиев М. Ўзбек тилида шахс номларининг аффиксал усул билан ясалиши: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1991.
5. Мўминова О. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таркиби. – Тошкент: “Алоқачи”, 2009. – 128 б.
6. Нарзиева М. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1992.
7. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. “Q” harfi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B.72.

FILOLOGIYA

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA -FOM VA -GUN O‘ZLASHMA SIFAT YASOVCHILARINING ETIMOLOGIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI



Shahzoda Yusupova,
Mustaqil tadqiqotchi

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr xorazmlik tarixchi va adib Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozi-d-davla” asarida qo‘llangan fors-tojik tilidan o‘zlashgan sifat yasovchi affikslar va komponentlar tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются аффиксы и компоненты, образующие прилагательные персидско-таджикского происхождения, использованные в произведении хорезмского историка и писателя XIX века Мухаммада Ризы Огахий «Риёзу-д-давла».

Annotation: This article analyzes the etymological and linguopoetic features of borrowed adjectival components in the historical work “Riyaz al-Dawla” by the 19th-century Khorezmian historian and writer Muhammad Riza Agahi.

Kalit so‘zlar: Agahiy, “Riyozi-d-davla”, tarixiy asar, etimologiya, lingvopoetika, o‘zlashma so‘zlar, sifat yasalishi, -fom, -gun, fors-tojik tili, Alisher Navoiy an‘analari.

Ключевые слова: Агахи, “Рияз ад-давла”, историческое произведение, этимология, лингвопоетика, заимствования, словообразование прилагательных, -фом (фām), -гун (gūn), персидско-таджикский язык, традиции Алишера Навои.

Key words: Agahi, “Riyaz al-Dawla”, historical work, etymology, linguopoetics, loanwords, adjective formation, -fām, -gūn, Persian-Tajik language, traditions of Alisher Navoi.

Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozi-d-davla” tarixiy asari XIX asr eski o‘zbek tili so‘z yasalish tizimini, xususan, sifat turkumining derivatsion imkoniyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Adib tilida fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashgan affikslar (formantlar) yordamida yasalgan sifatlar matnning badiiyligi va tarixiy koloritini ta‘minlashda yetakchi o‘rin tutadi. Quyida asarda eng faol qo‘llangan o‘zlashma sifat yasovchi qo‘shimchalar tahlili keltiriladi.

1. Rang-tus va tashqi belgini ifodalovchi affikslar.

-fom فام affiksi Bu affiks rang va tus ma'nosini bildiruvchi otlarga qo'shilib, narsaning rangini qiyosiy tarzda ifodalaydi. Misollar : "...yopib kun yuzini gardi siyahfom..." (RD, 273b). *Siyahfom* (qora tusli) sifati tarixan ikki qismdan iborat bo'lib, sifat va ot (keyinchalik affiksoidga aylangan morfema)ning birikuvidan hosil bo'lgan murakkab tarkibli so'z (kompozit) hisoblanadi. Ushbu leksemaning etimologik ildizlari hind-yevropa tillari oilasiga borib taqaladi. Birinchi komponent *siyoh* eroniy tillar leksik qatlamiga mansub bo'lib, rang bildiruvchi asosiy sifatlardan biridir. Etimolog olim Ali Nuraiy (Ali Nourai) o'zining "Fors, ingliz va boshqa hind-yevropa tillarining etimologik lug'ati"da ushbu leksemani quyidagicha tahlil qiladi: fors tilidagi *siyāh* (qora) so'zi qadimgi fors tilidagi *syāva-* va avestoviydagi *syāva-* (qora, to'q rangli) o'zaklariga borib taqaladi. Sanskrit tilida bu so'z *śyāva* shaklida mavjud bo'lib, "to'q rangli", "qoramtir" ma'nolarini anglatadi. Ali Nuraiy ushbu o'zakni hind-yevropa tillaridagi umumiy ildizlar bilan qiyoslab, uning ingliz tilidagi *shade* (soya) va *shadow* (ko'lanka) so'zlari bilan genetik aloqadorligi mavjudligini ta'kidlaydi¹. Demak, Ogahiy matnida (RD, 273b) *gardi siyahfom* birikmasi qo'llanganda, muallif nafaqat rangni, balki so'zning etimologik xotirasida mavjud bo'lgan *soya*, *zulmat* va *qorong'ulik* semalarini ham faollashtirgan. Ikkinchi komponent *-fom* فام elementi hozirgi fors va o'zbek tillarida asosan rang yasovchi affiksoid vazifasini bajarsada, uning tarixiy ildizlari mustaqil leksik birlikka borib taqaladi. Ali Nuraiyning tadqiqotlariga ko'ra, forscha *fām* (rang, tus) so'zi o'rta asr fors tili (pahlaviy)dagi *pām* shaklidan rivojlangan. Ushbu o'zak qadimgi eroniy tillardagi *pāman* (teri kasalligi, qichima – teri rangining o'zgarishi bilan bog'liq holat) so'zi bilan aloqador bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi, ammo asosiy ma'nosi rang va ko'rinishdir. Olim ushbu so'zning hind-yevropa tillaridagi muqobillarini tahlil qilib, uni lotincha *fūmus* (tutun, to'q rang) va sanskritcha *dhūmá* (tutun) o'zaklari bilan qiyoslaydi.

Eron tillari etimologiyasi bo'yicha yirik mutaxassis E.I.Edelman ham eroniy tillardagi *p* tovushining keyinchalik *f* ga o'tish qonuniyati ($p > f$) mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bois, Ogahiy tilidagi *-fom* elementi «yuza», «ko'rinish», «tus» ma'nosini anglatuvchi qadimgi *pām* o'zagining tarixiy evolyusiyasi mahsulidir².

Nilfom (ko'k, niliy rangli): «...sipehri nilfom tahsinu ofarin zamzamasidin to'lsun...» (RD, 320a). *Nilgun* sifati strukturaviy jihatdan ikki komponentli (*nil* +

¹ Ali Nourai. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – 2013. – P. 130, 424.

² Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1 (а – ā). – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2000. – С. 10-15.

gun) hosila soʻz boʻlib, rang-tus va tashqi belgini kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi. Soʻzning oʻzagini tashkil etuvchi *nil* leksemasi fors tiliga qadimgi hind (sanskrit) tilidan oʻzlashgan. Etimologik manbalarda uning kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: *nīl* – asli sanskritcha *nīla-* (niliy, toʻq koʻk, indigo) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, fors tiliga oʻrta asrlarda kirib kelgan va asosan *indigo oʻsimligi* hamda undan olinadigan *toʻq koʻk boʻyoq* maʼnosini anglatgan¹. Boshqa leksikografik manbalarda ham bu soʻzga *indigo (boʻyoq)*, *toʻq koʻk rang* deb izoh berilgan².

Ikkinchi komponent *-gun گون* elementi tarixan mustaqil soʻz boʻlib, keyinchalik sifat yasovchi affiksga aylangan. Ushbu morfemaning tarixiy ildizi “Avesto” tilidagi *gaona-* (soch, tuk; koʻrinish, rang) va oʻrta fors tilidagi (pahlaviy) *gōn* (rang, tur, xil) oʻzaklariga borib taqaladi³. M.Hasandoʻst ham oʻz tadqiqotida *gūn* soʻzining etimologiyasini qadimgi eroniy tillardagi *gauna-* shakli bilan bogʻlaydi va uning asosiy maʼnosi «rang» va «sifat» ekanligini taʼkidlaydi⁴.

Ogahiy “Riyozi-d-davla” asarida ushbu soʻzni osmon (falak) tasvirida anʼanaviy epitet sifatida qoʻllagan: “...sipehri *nilgunning* ayvoni rifʼatbunyoni aning binoyi sanʼatidin mutarrah...” (RD, 246a). Bu oʻrinda *nilgun* (niliy tusli, moviy) sifati osmonning cheksizligi va uning rangini badiiy boʻyoqdorlik bilan ifodalash uchun xizmat qilgan. Ogahiy oddiygina “koʻk” (*kabud*) soʻzi oʻrniga “*nilgun*”ni tanlab, matnning yuqori uslubini (balogʻatini) taʼminlagan.

Xurshidfom خورشیدفام (quyosh tusli, yorqin): “...sarpoyi *xurshidfomi* zarr-u simi ruxxom inʼom qilib...” (RD, 278a). Bu sifat ikki mustaqil leksik birlik – *xurshid* (quyosh) va *fom* (tus, rang) komponentlarining birikuvidan hosil boʻlgan, qiyosiy semantikaga ega boʻlgan murakkab soʻz (kompozit) hisoblanadi. Birinchi komponent *xurshid خورشید* fors tili leksik qatlamiga mansub boʻlib, *quyosh*, *kun* maʼnolarini anglatadi. Leksikografik manbalarda ushbu soʻzga *quyosh* va majoziy maʼnoda *goʻzal*, *yorqin yuz* deb izoh berilgan⁵. A/ Nuraiyning etimologik tadqiqotlariga koʻra, hozirgi fors tilidagi *xuršīd* soʻzi oʻrta asr fors tilidagi (pahlaviy) *xwaršēt* shaklidan rivojlangan. Uning tarixiy ildizi qadimgi eroniy tillardagi, xususan “Avesto” tilidagi *hvarə-xšaēta* (“porloq quyosh”) birikmasiga borib taqaladi. Bunda *hvar* – quyosh (inglizcha *sun*, lotincha *sol* bilan genetik

¹ Ҳасандӯст М. Фарҳанги решашинохтии забони форсӣ. 4-жилд. - Техрон: Фарҳангистони забон ва адаби форсӣ, 1393 ҳ.ш. – С. 2735.

² Персидско-русский словарь. В двух томах. Том 2. - М.: Русский язык, 1970. - С. 672.

³ Ali Nourai. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. - Bloomington: Xlibris Corporation, 2013. - P. 166.

⁴ Ҳасандӯст М. Фарҳанги решашинохтии забони форсӣ. 4-жилд. - Техрон: Фарҳангистони забон ва адаби форсӣ, 1393 ҳ.ш. – С. 2475.

⁵ (Персидско-русский словарь. В двух томах. Том 1. – М.: Русский язык, 1970. – С. 558).

aloqador); *xšaēta* – *porloq*, *nurli* (keyinchalik fors tilida *shed* – “nur” va *shoh* soʻzlariga asos boʻlgan) maʼnolarini bildiradi¹. Matndagi “...sarpoyi *xurshidfomi* zarr-u simi ruxxom inʼom qilib...” (RD, 278a) jumlasida *xurshidfom* sifati sovgʻa qilingan bosh-oyoq sarponing sifati tasvirlash uchun qoʻllangan. Bu oʻrinda soʻz faqatgina *quyosh rangli* (sariq/tillarang) degan maʼnonigina emas, balki *quyoshdek porloq*, *jilvakor*, *shohona* va *qimmatbaho* degan ekspressiv-baholovchi maʼnolarni ham ifodalagan. Soʻzning *zar* (oltin) va *sim* (kumush) soʻzlari bilan yonma-yon kelishi bu maʼnoni yanada kuchaytirgan.

-*gun* گون affiksi rang va tus maʼnosini kuchaytiruvchi, narsaning tashqi koʻrinishini ifodalovchi unumli affiks. Misollar:

Qiyrgun (qora, qatron tusli): “...summi sutur gʻuboridin oftobi jahontob yuzigʻa pardayi qiyrgun yopdilar...” (RD, 292b). *Qiyrgun* قيرگون sifati ikki mustaqil leksik birlik – *qiyr* (qatron, smola) va *gun* (tus, rang) komponentlarining birikuvidan hosil boʻlgan, kuchaytiruvchi qiyosiy semantikaga ega qoʻshma soʻzdir. *Qiyr* soʻzi aslida moddiy ashyo nomini bildiradi. Akademik lugʻatlarda ushbu soʻzga *gudron*, *qatron*, *smola*, *var* va majoziy maʼnoda *qop-qora*, *zulmatli* deb izoh berilgan². Tarixiy-etimologik manbalarga koʻra, ushbu soʻz Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy tillaridan (xususan, oromiy va akkad tillaridagi *qīr* – *asfalt*, *bitum* oʻzaklaridan) fors tiliga oʻtgan. Mumtoz adabiyotda *qiyr* soʻzi mutlaq qoralik, zulmat va yopishqoqlik (quyuqlik) ramzi sifatida qoʻllanilgan.

Ogahiyning *qiyrgun* leksemasini qoʻllash anʼanasi bevosita turkiy adabiyotning mumtoz namunalariga, xususan, Alisher Navoiy ijodiga borib taqaladi. Hazrat Navoiy oʻzining naʼt gʻazallaridan birida: “Aningdekkim quyoshdin oyu oydin *qiyrgun* gʻabroʻ³ (yaʼni, oy quyoshdan nur olganidek, qop-qora/zulmatli yer oydan nur oladi), – deya ushbu sifatni *mutlaq qorongʻulik* maʼnosida qoʻllagan. Ogahiy ham “Riyozi-d-davla”da chang-toʻzon tasvirida aynan shu poetik obrazga murojaat qilib, changning quyosh yuzini toʻsgan holatini *pardayi qiyrgun* (qatron tusli qora parda) birikmasi orqali ifodalagan (RD, 292b). Bu esa soʻzning *qatron*, *smola* degan birlamchi leksik maʼnosidan tashqari, badiiy matnda *quyuq zulmat* semasining barqarorlashganini koʻrsatadi. Matndagi “...summi sutur gʻuboridin oftobi jahontob yuzigʻa pardayi *qiyrgun* yopdilar...” (RD, 292b) jumlasida *qiyrgun* sifati koʻtarilgan chang-toʻzonning naqadar quyuq va qora ekanligini tasvirlash uchun qoʻllangan. Ogahiy bu oʻrinda qora (*siyoh*) soʻzini emas, balki *qiyrgun* (qatron tusli, bitumdek qop-qora) soʻzini tanlagan.

¹ Ali Nourai. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington: Xlibris Corporation, 2013. – P. 250.

² Персидско-русский словарь. В двух томах. Том 2. – М.: Русский язык, 1970. – С. 318.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 33.

Bu tanlov orqali muallif qo'shin otlarining tuyog'idan ko'tarilgan chang shunchaki qorong'ulik emas, balki quyosh yuzini *qatron* kabi suvab tashlovchi, yopishqoq, quyuq va mutlaq zulmat pardasi ekanligini ta'kidlagan.

To'tiyogun (to'tiyo rangli, g'ubor rang): "...ul hazratning *to'tiyogun* g'uboridin ko'zlarin ravshan..." (RD, 314b). *To'tiyogun* توتياگون murakkab sifatining semantik o'zagini tashkil etuvchi *to'tiyo* توتيا leksemasi mumtoz adabiyotda nafaqat rang, balki tibbiy va irfoniy ma'no qatlamlariga ega bo'lgan muhim tushunchadir.

Aliakbar Dehxudo o'zining "Lug'atnoma"sida *to'tiyo* so'ziga keng qamrovli izoh berib, uning moddiy asosi va qo'llanilish sohasini quyidagicha tasniflaydi: *To'tiyo* – maxsus ma'dan (mineral) yoki tosh bo'lib, u ko'pincha mis yoki rux (sink) konlaridan olinadigan, kuydirilganda tutun hosil qiluvchi va ko'zga surtiladigan moddadir. Dehxudo uni "sangi surma" (surma toshi) va "davoyi chashm" (ko'z davosi) sifatida qayd etadi¹. Mumtoz tabobatda to'tiyo ko'z nurini o'tkirlashtiruvchi, ko'z kasalliklarini davolovchi va ko'zga jilo beruvchi vosita sifatida qadrlangan. Shu bois, u *ko'z nuri* va *ravshanlik* tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Manbalarga ko'ra, *to'tiyo* so'zining ildizlari qadimgi hind-yevropa tillariga borib taqaladi. Ali Nuraiy tadqiqotlarida bu so'zning sanskrit tilidagi *tuttha* (zangori yoki ko'k bo'yoq, mis kuporosi) o'zagidan kelib chiqqanligi va fors tiliga o'tib, tovush o'zgarishiga uchraganligi (*tuttha* > *tūtiyā*) asoslangan. Bu so'z keyinchalik arab tili orqali *tutiyo* shaklida Yevropa tillariga (lotincha *tutia*, inglizcha *tutty* – rux oksidi) ham o'zlashgan². "Lug'at"ida va mumtoz adabiyot an'anasida *to'tiyo* so'zi yuksak badiiy tashbeh (o'xshatish) vositasiga aylangani qayd etiladi. *Xoki po* (Oyoq tuprog'i) metaforasi oshiqlar uchun ma'shuqaning yoki muridlar uchun pining qadami tekkan tuproq (*g'ubor*) ko'zga surtiladigan to'tiyo kabi qadrli va shifobaxsh hisoblangan. Shu sababli, "tuproq(i)ni ko'zga to'tiyo qilmoq" iborasi yuksak hurmat va tavozeni anglatgan. Ogahiy "Riyozi-d-davla" asaridagi "...ul hazratning *to'tiyogun* g'uboridin ko'zlarin ravshan..." (RD, 314b) jumlasida ushbu so'zni qo'llash orqali murakkab ma'no qatlamlarini hosil qilgan: *-gun* (tus, rang) affiksi yordamida yasalgan *to'tiyogun* sifati g'ubor (chang)ning rangini ifodalaydi. To'tiyo ma'dani odatda och ko'kish, kulrang yoki oqimtir tusda bo'ladi. Shunday qilib, *to'tiyogun g'ubor* – bu to'tiyo kukuni kabi nafis va och rangli changdir.

¹ Деххудо А. Луғатнома. – Техрон: Техрон университети нашриёти, 1377. – С. 6248.

² Ali Nourai. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington: Xlibris Corporation, 2013. – P. 487.

Ogahiy bu o‘rinda g‘uborni shunchaki chang emas, balki *ko‘zni ravshan qiluvchi* vosita sifatida tasvirlamoqda.

Gunogun (turli xil, rang-barang): “...at‘imayi *gunogun* va ashraibayi lazzatomun...” (RD, 287b). *Gunogun* so‘zi *gun* (o‘zak) + *o* (interfiks) + *gun* (o‘zak) modeli asosida yasalgan. Bu yerda -o- (ā) unlisi ikki bir xil o‘zakni bog‘lab, ma‘noni kuchaytirish (intensifikatsiya) va ko‘plik (plyurallik) ma‘nosini hosil qilish uchun xizmat qiladi (qiyoslang: *rang-o-rang*, *sarosar*). Bu qurilma narsaning faqat bir turi yoki rangi emas, balki *turli xil*, *har xil nav* va *aralash* ekanligini ifodalaydi. Matndagi “...at‘imayi *gunogun* va ashraibayi lazzatomun...” (RD, 287b) jumlasida *gunogun* sifati ziyofat dasturxonidagi taomlarning (*at‘ima* – *taom* so‘zining ko‘pligi) mo‘l-ko‘lligi va xilma-xilligini tasvirlash uchun qo‘llangan. Ogahiy bu o‘rinda turli mazmunini anglatuvchi *muxtalif* so‘zi o‘rniga “*gunogun*”ni qo‘llash orqali dasturxonning nafaqat ta‘m jihatidan boyligini, balki tashqi ko‘rinish jihatidan ham rang-barang va ziynatli ekanligini (so‘zning etimologik *rang* ma‘nosiga ishora qilib) namoyish etgan. Bu epitet *ashraibayi lazzatomun* (lazzatli ichimliklar) birikmasi bilan parallel qo‘llanib, shohona ziyofatning dabdabasini to‘liq ochib bergan. Demak, *gunogun* leksemasi etimologik jihatdan eroniy o‘zak *gauna* > *gōn* (tur/rang) + bog‘lovchi *ā* + takror modeli asosida shakllangan bo‘lib, Ogahiy tilida narsa-buyumlarning ko‘pligi, navining turliligi va tashqi ko‘rinishining rang-barangligini ifodalovchi badiiy vositadir.

Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozi-d-davla” asarida qo‘llangan o‘zlashma sifat yasovchi komponentlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adib eski o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan, xususan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan affikslar (*-fom*, *-gun*) va leksik birliklardan yuksak mahorat bilan foydalangan. Ogahiyning tarixiy asarlari nafaqat tarixiy faktlar manbai, balki o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi va so‘z yasash tizimini o‘rganishda qimmatli lingvistik material beruvchi yodgorlikdir.

FILOLOGIYA

O‘ZBEKISTONDA YECHIMLAR JURNALISTIKASI KONTEKSTIDA HUDUDIIY INTERNET NASHRLARINING FUKSIONAL TAHLILI



**Bekchanova Dilbar,
O‘zbekiston Davlat
jahon tillari
universiteti ilmiy
tadqiqotchisi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda hududiy internet nashrlari faoliyatida tobora ko‘proq namoyon bo‘layotgan yechimlar jurnalistikasining jamiyatdagi mavjud muammolarni faqat yoritibgina qolmay, balki ularga amaliy va ijobiy yechimlarni taklif qilishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlari, ularning tizimli va funksional tahlili amalga oshiriladi. Mahalliy internet nashrlarida yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ayrim tahririyatlar misolida tahlil qilib beriladi.

Аннотация: В данной статье осуществляется системный и функциональный анализ современных подходов журналистики решений, которая в последние годы всё более ярко проявляется в деятельности региональных интернет-изданий Узбекистана. Эта форма журналистики направлена не только на освещение существующих в обществе проблем, но и на предложение практических и позитивных решений. Социально-экономическое значение журналистики решений в местных интернет-изданиях рассматривается на примере отдельных редакций.

Annotation: This article analyzes the modern approaches of solutions journalism, which has been increasingly evident in the activities of regional online publications in Uzbekistan in recent years. Unlike traditional reporting that merely highlights existing societal issues, solutions journalism focuses on offering practical and positive solutions. The paper provides a systematic and functional analysis of this trend and examines the socio-economic significance of solutions journalism through examples from specific local online editorial offices.

Kalit so‘zlar: amaliy va ijobiy yechimlar, media makon, so‘z erkinligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, mantiqiy yechim, videokontent, jamiyat a‘zolari,

progressiv yondashuvlar, ijtimoiy faollik, jamoatchilik fikri.

Ключевые слова: *практические и позитивные решения, медианпространство, свобода слова, социально-экономические проблемы, логичное решение, видеоконтент, члены общества, прогрессивные подходы, социальная активность, общественное мнение.*

Key words: *practical and positive solutions, media space, freedom of speech, socio-economic issues, logical solution, video content, members of society, progressive approaches, social activity, public opinion.*

Taniqli slovyan yozuvchisi Jarko Petan o‘z davrida shunday degan edi: “Yorqin kelajak haqida siyosatchilar, yorqin tarix haqida tarixchilar, real bugungi kun haqida esa jurnalistlar qayg‘uradilar”. Ha, jurnalistika asosan bugungi kun bilan yashaydi. U axborotni jamiyatga yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy institutlar faoliyatini nazorat qilish, tanqid va tahlil etish vositasi hisoblanadi. Qisqasi, bugun ham zamonaviy OAV lari nafaqat axborot tarqatish, balki jamiyatni rivojlantirishda faol ishtirok etuvchi kasb va ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Keyingi yillarda media olamda jurnalistikaning ilg‘or, yangi bir pozitiv va konstruktiv yo‘nalishi - yechimlar jurnalistikasi (solutions journalism) butun jahon bo‘ylab keng tarqalmoqda. Jurnalistika nafaqat muammoni ko‘rsatib berish, balki yechim taklif qilish, jamiyatni yanada yuksaltirish, ijtimoiy rivojlanish, barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shish vazifasini ham bajarmoqda.

Jurnalistikaning mazkur zamonaviy yo‘nalishi bugun O‘zbekiston sharoitida, mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin egallamoqda. O‘zbekistonda bu tendensiya so‘nggi yillarda hududiy internet nashrlari faoliyatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lyapti.

Ma’lumki, an’anaviy jurnalistika ko‘pincha muammolarni qayd etish bilan cheklanib qolgan edi. Yechimlar jurnalistikasi esa mohiyatan tahlilni chuqurlashtirib, muammo yuzasidan mavjud yechimlarni ko‘rsatishni, to‘liq va qoniqarli yechimlar yuzasidan ma’lumotlar taqdim etishni, ularning samaradorligi va amaliy ahamiyatini baholashni maqsad qiladi. Bu yondashuv jamiyatda insonlarda ijobiy fikr va aholining faolligini, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

“Yechimlar jurnalistikasi- bu ijtimoiy muammolarga, shu bilan bir qatorda, muammolarning o‘ziga javob berishga qaratilgan yangiliklar reportajiga yondashuv. Ishonchli dalillarga asoslangan yechimlar hikoyalari javoblar qanday va nima uchun ishlayotganini yoki ishlamayotganini tushuntiradi. Ushbu jurnalistik yondashuvning maqsadi odamlarga ushbu masalalar bo‘yicha yanada to‘g‘riroq, to‘liqroq nuqtai nazarni taqdim etish, yanada samarali fuqarolikni shakllantirishga yordam berishdir”(1. *Vikipediya*).

Yechimlar jurnalistikasi borasida uzoq yillardan beri tadqiqot olib borayotgan amerikalik jurnalistlar Devid Bornsteyn, Tina Rozenberg va Kortni Martin ta’kidlaganlaridek, bu yondashuv nafaqat axborot tarqatish, balki insonlarni harakatga keltirishni ham maqsad qiladi. (2.7-bet.) Yechimlar jurnalistikasi yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan jurnalist ana shu muammo va yechim masalasini e’tiborga oladi. Negaki, “Axborot zamonida jurnalist kasbining vazifasi ham, mohiyati ham o‘zgarib bormoqda. Bir paytlar jurnalist axborot tayyorlovchi, uzatuvchi va odamlarni voqif qiluvchi shaxs edi. Endi esa u jarayonlar sur’atiga ta’sir o‘tkazuvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajara boshladi” (3.2-bet).

Ma’lumki, jahon tajribasida yechimlar jurnalistikasi janr sifatida AQShda keng tarqalgan. The Solutions Journalism Network (SJN) tashkiloti bu sohada 2013-yildan beri faol ishlaydi. Ushbu tashkilot jurnalistlarga yaqindan yordam beradi va ularni yechimlar jurnalistikasini tatbiq qilishga undaydi. Masalan, tevarak-atrof musaffoligi, kambag‘allik yoki ta’lim tizimi muammolarini yoritish o‘rniga jurnalistlar ushbu muammolarga qarshi kurashish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni, yangi tashabbuslar va g‘oyalarni targ‘ib qiladilar.

Shuningdek, ukrainalik jurnalistlar yechimlar jurnalistikasi fonida axborotning faqat eng yomon tomonlarini yoritishgina emas, balki ularni ijobiy va konstruktiv tamoyillar bilan bayon qilish, samarali yechimlarini topish va keng jamoatchilikka yetkazishni maqsad qiladilar. Shu bois ularning yechimlar jurnalistikasi fuqarolik jamiyatining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Shvetsiyada esa umuman boshqacha. Bu davlatda “jurnalistika yechimlarni ko‘rsatadi” deb atalgan konsepsiya keng tarqalgan. Shuningdek, Shvetsiyaning ommaviy axborot vositalari tomonidan har doim ijobiy yangiliklar va yechimlar taqdim etishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, atrof-muhitning zararlanishi, ijtimoiy kambag‘allikka qarshi kurashish mavzulari keng qamrovlidir.

Niderlandiyada ham yechimlar jurnalistikasining samaradorligi katta bo'lib, mamlakatda ijtimoiy va ekologik muammolarga yechimlar taqdim etish uchun jurnalistlar katta tadqiqotlar olib borishadi. Muammolarning ro'yxatini shakllantirishadi. Ushbu amaliy yondashuv Niderlandiyaning "De Correspondent" kabi ommaviy axborot vositalarining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Buyuk Britaniyadagi "The Guardian" (himoyachi) gazetasining "The Upside" (ko'tarilish) loyihasi yechimlar jurnalistikasini ommalashtirgani bilan muhim ahamiyat kasb qildi. Ushbu loyiha ijtimoiy kambag'allikka, ta'lim, ifloslangan muhit va boshqa sohalarda ishlayotgan ijobiy tajribalarga doir xabarlarni tarqatadi.

Umuman, yechimlar jurnalistikasi ustida tadqiqot olib borgan xorijiy jurnalistlar janrning tarixini va asosiy prinsiplarini muhokama qiladilar. Hamkasblarga qiziqarli va amaliy usullar bilan qanday qilib muammolarga yechimlar taqdim etish mumkinligi haqida aniq yo'l-yo'riqlar va ko'rsatmalar beradilar. Ayniqsa, jamiyat va jurnalistika o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, ijtimoiy masalalarga yondashuvlarni bayon etadilar. Ularning izlanishlari jurnalistikaning umumiy kontekstida foydali bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, taniqli professor Xurshid Do'stmuhammad shunday yozadi: "Axborot tarqatuvchi asosiy subyekt-jurnalist. Global miqyosda aytadigan bo'lsak, axborot asrimizning taqdiri ham ko'p jihatdan jurnalistning zimmasida. Axborot madaniyatining ijtimoiy-siyosiy, milliy-mahalliy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, falsafiy, e'tiqodiy, iqtisodiy, umuminsoniy aspektlari haqida ham birinchi navbatda axborot madaniyatini shakllantiruvchi bosh subyekt - jurnalist qayg'urishi kerak bo'ladi" (4.7-bet.). Yechimlar jurnalistikasida ham axborot tarqatuvchi sifatida ish olib boradigan ijodkor har bir ma'lumotning, chuqur va asosli tahlillarning ortida jamiyat taraqqiyoti, inson taqdiri va qiyofasi, yurt osoyishtaligi turganligini anglab turadi.

Shu jihatdan yechimlar jurnalistikasi oddiy va murakkab muammolarni muhokama qilishdan tashqari, amalda sinovdan o'tgan yechimlarni, shaxslar, jamoalar yoki institutlarning muvaffaqiyatli tajribasini namoyon qilish orqali ham auditoriyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda internet jurnalistikasi jadal rivojlanayotgan sharoitda mahalliy onlayn nashrlar orqali yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'siri tobora oshib bormoqda.

Yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy hayotdagi oʻrni eng avvalo jamiyatda umid uygʻotishdan iborat. Mahalliy aholi oʻrtasida ijtimoiy faollik, jamoatchilik nazorati, tashabbuskorlikni oshirishda progressiv yondashuvlar orqali yechimlar jurnalistikasi muhim ahamiyat kasb qiladi.

Internet nashrlar nafaqat axborot tarqatish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, shuningdek, boshqarishda ham jiddiy va mislsiz qurol boʻlib qoldi. Shu jihatdan Oʻzbekistondagi, xususan, Xorazmdagi hududiy internet nashrlarining ham muammo va ularning yechimlarini taqdim etishda oʻziga xos roli bor. Masalan, “Qonun doirasida”, “Xorazm bugun”, “Xorazmliklar”, “Haqiqat yoʻlidamiz” singari internet nashrlari mahalliy aholi uchun dolzarb boʻlgan muammolarni yoritishda va yechim taklif qilishda muhim platforma hisoblanadi. Ular jamiyatdagi masalalarni joyida tahlil qilib, fuqarolar, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik oʻrtasida muloqot va hamkorlik muhitini shakllantirishda faol ishtirok etmoqdalar.

Biroq tahlillar shuni koʻrsatadiki, hali mahalliy elektron nashrlar faoliyatida jurnalistikaning yangi yoʻnalishi toʻlaqonli tatbiq etilayotgani yoʻq. Hududiy internet nashrlar uchun yechimlar jurnalistikasining samarali amalga oshishida tajriba va mahorat zarur. Eng avvalo tahririyatlarda muammolarni tahlil qilishga ixtisoslashgan jurnalistlar guruhi shakllangan boʻlishi, ijodiy jamoaning soha mutaxassislari bilan yaqin hamkorligi, mavzuning dolzarbligi masalalari, manba va taʼsir nuqtai nazaridan tanlash mezonlari shakllantirilgan boʻlishi zarur.

Zero, bunday yondashuv tahririyatning maqsadli va tizimli ishlashini taʼminlaydi. Biroq, Xorazm viloyatidagi hamma elektron nashrlar ham ushbu talablar asosida ishlayapti, deyish qiyin. Tahririyatlarda ixtisoslashgan jurnalistlar komandasi yoʻq, desak toʻgʻri boʻladi.

Tan olish kerak, xatoning boshida jurnalistning bilimsizligi, kasbiy malaka va tajribasining yetishmasligi, oʻzi yoritayotgan mavzuni yaxshi bilmasligi boʻlishi mumkin. Maʼlumki, internet tarmogʻi foydalanuvchisi bir paytning oʻzida maʼlumotlarni va axborotlarni qabul qiluvchi va uning tarqatuvchisidir. Tajribada bu jarayonlar ijtimoiy jurnalistika sohasining yanada yuksalishiga sabab boʻlmoqda. Ammo, axborot tezkorligini oshirish fonida shoshib qilingan ish, tajribasizlik uning sifatiga jiddiy putur yetkazadi. Bu bilan axborot maydonida ishonch taqchilligi vujudga keladi. Ana shu taqchillikning oʻrnini toʻldirish uchun keltirilayotgan fakt va raqamlar ishonchli manbalardan olingan boʻlishi, malakali jurnalistlar tomonidan atroflicha tahlil etilishi zarur.

Yechimlar jurnalistikasi ijtimoiy real hayot aks etishi bilan ham xarakterlidir. Bugungi yangilik ertaga eskiradi, o'z kuchini, mohiyatini yo'qotadi. Axborot zamonida OAV ga qo'yilayotgan birinchi talab - tezkorlik non va tuzdek muhim. Tahririyat bunday yondashuvni albatta ishonch bilan to'ldirishi kerak. Qonunchiligimizda "Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-sayt tarzidagi ommaviy axborot vositasi Internet tarmog'idagi tahririy-noshirlik jihatidan ishlov berilgan, o'zgartirilmagan tarzda tarqatish uchun mo'ljallangan, elektron shakldagi hujjatlar va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot resursidir" (5.12-bet).

Hududiy elektron nashrlarning yechimlar jurnalistikasi yo'nalishidagi salohiyati hali to'liq ochilmaganligi jurnalistlarning yangi zamon talablariga moslasha olmayotganliklarini ko'rsatadi. Mahalliy onlayn nashrlarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatlarini kuzatish jarayonida shunga amin bo'ldikki, hali ko'tarilayotgan muammolarni tahlil qilish, sabablarini o'rganish, maqsad va yechimlarni keltirishda izchillik, yorqinlik, fikrlarni ravshan ifodalash malakasi yetishmaydi. Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Media olamga shiddat bilan kirib kelgan ayrim bloggerlar bugun o'z elektron nashrlarini ta'sis qilib, uni OAV sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishga muvaffaq bo'lishgan. Tajribasizlik ortidan esa qator muammolar paydo bo'lmoqda. Sohaga oid qonunlarning buzilishi, fuqarolarning qadri-qimmatini kamsitilishi, noto'g'ri axborot, tuhmat va haqoratlar sabab turli vaziyatlar vujudga kelyapti. Shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqib, o'z blogida, saytlarda turli matn va materiallarni joylayotgan noprofessional fuqarolar jurnalistikaning o'ziga xos talab va vazifalarini bilmasliklari tayin. Shu boisdan ularning internet jurnalistikasida dolzarb yo'nalish - yechimlar jurnalistikasi borasida kasbiy malakalari, bilim va ko'nikmalarini, salohiyatlarini oshirishga katta ehtiyoj bor.

Bugun Xorazm viloyatida jami 22 ta elektron nashr davlat ro'yxatiga olingan bo'lsa, ularda yuz foiz noprofessionallar ishlaydi. Yetakchi deb hisoblangan 7-8 ta elektron nashr xodimlari media makonda faoliyatlarini bloggerlikdan boshlashgan. Yuqorida nomlari keltirilgan internet nashrlarini ham ushbu ro'yxatda kiritish mumkin. Ammo tashabbus bor, maqsad va harakat bor. Kechagi blogger qisqa payt ichida jurnalist bo'lishga intilmoqda. Buning yomon joyi ham yo'q, biroq ularning kasbiy malakalarini yanada yuksaltirish muhim masala. Buni media olamdagi muhit va vaziyat taqozo qilyapti.

Mahalliy internet nashrlarida e’lon qilinayotgan yechimlarga yo’naltirilgan maqolalarning funksional tahlilini amalga oshirish jarayonida quyidagi zaruriy jihatlar qamrab olinayotganligini kuzatish mumkin:

- jamoatchilik fikri va ularning faolligiga asoslanganligi;
- muammoning tub ildiziga yetish va uning manbalariga oydinlik kiritilganligi;
- ijobiy tajriba va tashabbuslarning bayon etilganligi;
- turmushning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy jihatlarini qamrab olinganligi;

-fikrlarning rang-barangligi va xilma-xilligi ta’minlanganligi. Bunday maqolalar mahalliy aholining ishonchini qozonib, ularni jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirishi tabiiy. Yechimlar jurnalistikasi tanqidiy-tahlil orqali zararli g’oyalarni targ’ib qilishni maqsad qilmaydi, balki pozitiv yechimlar va ilhom beruchi kontekstlarni ilgari suradi.

Chunki, Tina Rozenbergning ta’rificha, “Odamlar muammolardan charchashgani haq. Bugun ular ijobiy natijalar, pozitiv yondashuvlar va muvaffaqiyatli yakunlar haqidagi axborotlarga, yangiliklarga muhtojdirlar. Bu yo’nalish jurnalistikaning muhim bir janri bo’lib, undan muammolar yechimiga kuchli ta’sir qilish instrumenti sifatida foydalaniladi” (5.3-bet).

Xo’sh, mazkur instrumentdan mahalliy elektron nashrlar qay tarzda foydalanmoqda? Tahlil qilib ko’ramiz.

“Xorazmliklar” internet nashrida “Tabiatni o’ylamay qo’ydik” mavzusidagi videomaterialda vohada ekilayotgan turli archa daraxtlari qurib borayotgani, ularga sarflanayotgan mablag’lar havoga sovurilayotgani, ularning o’rniga iqlim va tuproq sharoitiga mos manzarali daraxtlarni ekish va parvarishlash yaxshi naf berishi dolzarb masala sifatida ko’tarilgan. Bu tashabbusda Xorazmning quruq iqlimi sharoitida unib-o’sib ketishi mushkul bo’lgan daraxtlardan voz kechish kerakligi, aksincha gujum, tut, qoraqarag’ay, terak daraxtlarini ekish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligi ta’kidlangan. Ammo, shu o’rinda bu holat raqamlar orqali, real holatlar yordamida ochib berilsa, mutaxassislar fikrlari bayon qilinsa, kontent yanada mazmunli va ta’sirli chiqardi.

Shuningdek, **“Xorazmliklar”** internet nashri hamda **“Real dunyo”** telegram admini hamkorligida o’tkazilgan ozodalik hashari haqidagi videoreportaj “Daryo bo’yida hashar qildik” mavzusida joylashtirilgan. Aholi

ushbu tashabbusga keng jalb qilingan. Hasharga kelgan insonlarga maxsus qo‘lqop va ishchi kiyimlar tarqatilgan. “Sayyoramizni himoya qil!” yozuvi tushirilgan futbolkalar o‘sha kuni barcha hasharchilarga berilgan. Natijada, insonparvarlik hashariga ko‘plab odamlar qo‘shilishgan. O‘sha kuni to‘plangan chiqindilar yuk mashinalariga orilib, olib chiqib ketilgan.

Mazkur videomaterialda Amudaryo bo‘ylaridagi xushmanzara to‘qayzor hududida dam oluvchilar tomonidan tashlab ketilayotgan axlatlar, chiqindilar ona-tabiatni ko‘r-ko‘rona buzish ekanligi tanqid etilgan. Bu hududdagi juda ayanchli holatlar yuzasidan aholi tevarak-atrofni toza saqlashga, dam olishga kelgan fuqarolar ekologik muhitni buzmaslikka, ogohlikka da’vat qilingan. Ushbu xayrli tashabbus barchaning shaxsiy mas’uliyatini oshirishga xizmat etgan. Unga qo‘shilgan fuqarolarning “Aziz insonlar, dam olgan joylaringizni tozalab ketinglar, axlat tashlamanglar”, “Tarbiya oiladan boshlanadi. Farzandlaringizni tozalik va ozodalikka o‘rgatinglar”, “Tozalik kundalik ehtiyojingga aylansin!” kabi fikrlari bayon qilingan.

“Qonun doirasida” elektron nashrida e’lon qilingan videokontent “Ehtiyot bo‘ling! Zaharlanib qolmang!” deb nomlangan. Unda sifatsiz yog‘lar bozorlar va magazinlarda sotilayotganligi muammosi ko‘tarilgan. Ma’lum bo‘lishicha, ushbu yog‘ mahsuloti boshqa viloyatdan, ya’ni Buxorodan olib kelinib, tadbirkorlarga naqd pulga yetkazib berilayotgani aniqlangan. Ishlab chiqaruvchisi noma’lum bo‘lgan bu yog‘lar bir qaraganda boshqa yog‘lardan hech farq qilmaydi. Ammo Xorazm viloyatida ishlab chiqarilayotgan paxta yog‘lar va sifatsiz yog‘lar orasida bir qator farqlar borligi ham asoslab berilgan. “Yog‘ mahsulotlarida “Urganch shahri uchun” deb yozilgan yozuvlarni ko‘rishingiz mumkin”, - deyiladi maqolada. “Savol: nega aynan “Urganch shahri uchun” sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarilgan? Maqsad sifatsiz mahsulotlarning kirib kelishining oldini olish va fuqarolarning sog‘ligini ta’minlashdir”. Qanday qilib? Muallif reportaj davomida bu savolga bozordagi tadbirkorlar bilan uchrashuv va suhbat jarayonida javob beradi.

OAVsi xodimi mavzuni davom qildirib, navbatdagi videomaterialida “Darital” savdo majmuasi va “Urganch dehqon bozori”dagi magazinlar, rastalar ahvolini o‘rganish jarayonida tadbirkorlarga har bir mahsulotni shartnoma asosida sotib olishlari va uni maxsus sifat sertifikatiga ega bo‘lgandagina savdoga qo‘yilishi zarurligi haqida tushuntirishlar bergan. Ko‘rinib turibdiki, OAV tomonidan muammo aniqlangan, asoslab berilgan va uning yechimi ham bayon qilingan.

Shuning bilan birga hududiy internet nashrlari faoliyatida quyidagi jiddiy muammolarni kuzatish mumkin:

- jurnalistlarning fakt va raqamlarni tahlil qilish malakasi talab darajasida emasligi;
- tahririyatning moliyaviy mablag‘lari va reklama bozori cheklanganligi;
- davlat organlari va rasmiylar bilan axborot almashinuvida ochiqlik yetishmasligi;
- axborot texnologiyalaridan samarali va to‘laqonli foydalanishdagi ayrim muammolar;
- erkin jurnalistik faoliyat olib borayotgan tahririyat xodimlarining o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilmasliklari;
- jurnalist etikasiga amal qilinmasligi;
- qonunchilikda yechimlar jurnalistikasi uchun alohida shartlarning mavjud emasligi va boshqalar.

Jurnalistlar ko‘p hollarda rasmiy manbalarga tayanib, xolis va erkin tahlildan cho‘chishadi. Bu esa jamoatchilik orasida axborotga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mahalliy muammolar -suv ta‘minoti, sog‘liqni saqlash, yo‘l infratuzilmasi, ta‘lim sohasidagi muammolar ko‘p hollarda chetda qolmoqda. Bu jurnalistikaning jamiyat uchun xizmat qilish vazifasini to‘la bajara olmayotganini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda esa shov-shuvli, ammo asoslanmagan ma‘lumotlarni tarqatish holatlari uchraydi. Bu esa jurnalistik ahloq me‘yorlariga zid hisoblanadi. Jurnalistlar ma‘lumot manbalarini to‘g‘ri ko‘rsatish, shaxsiy hayot daxlsizligini hurmat qilish va xolislikka amal qilishlari lozim. Shuningdek, raqamli jurnalistika davrida internet nashrlar zamonga mos, davrga xos faoliyatni yo‘lga qo‘yishlari zarur. Biroq ayrim tahririyatlar hali ham raqamli platformalardan samarali foydalana olmayaptilar. Bu holat yangiliklarni yetkazishdagi tezkorlik va interfaollikni cheklaydi. Zero, milliy jurnalistikamizda muammolarning qo‘yilishi va ularning yechimini topish jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqasi, tahlillardan kelib chiqib, ba‘zi bir takliflarni berish o‘rinli. Yechimlar jurnalistikasini hududiy darajada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy elektron nashrlarda yechimlar jurnalistikasi formatidagi materiallarni yaratish, tahririyat xodimlarining kasbiy malakalarini yanada oshirish uchun maxsus kurslarni tashkil etish.

2. Mahalliy muammolarni yoritishga alohida e'tibor qaratish.
3. Yechimlarga yo'naltirilgan maxsus tahririyat siyosatini qabul qilish.
4. Axborot manbalarini kengaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash.
5. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish.
6. Xorijiy tajriba va media loyihalarini o'rganish va tatbiq etish.
7. Ob'ektiv jurnalistika standartlariga, kasb odob-axloqi qoidalariga rioya etishni kuchaytirish.
8. Raqamli jurnalistika vositalarini o'zlashtirishga sarmoya kiritish.
9. Eng yaxshi yechimlarni ommalashtirish.
10. Jamiyatdagi ijobiy yechimlarning harakatlantiruvchisi bo'lishga erishish.

Shu yo'l bilan mahalliy internet nashrlarini nafaqat axborot tarqatuvchi, muammolarni qayd etuvchi, balki jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiy ettiruvchi, aniq va mantiqiy yechimlarni taklif qiluvchi muhim vositaga aylantirish mumkin. Bu esa jamiyat rivojiga, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga, aholining kayfiyatini ko'tarishga, mahalliy hokimiyatga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga, xalq roziligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hududiy internet nashrlari konteksida shakllanib borayotgan yechimlar jurnalistikasi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o'rganish va yechimini taqdim etishda demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy-ma'naviy qarashlar o'rtasida muvozanat o'rnatishda ham o'ziga xos vazifani bajarmoqda.

Ko'rinib turibdiki, hududiy elektron nashrlarning yechimlar jurnalistikasi yo'nalishidagi saviyasini yanada oshirish, muammo va yechimni to'liq taqdim qilish, ifoda masalasi borasida professional mutaxassislar, jurnalistlarga talab katta. Elektron nashrlarning bu yo'nalishdagi faoliyatlarini kuzatish jarayonida shunga amin bo'ldikki, hali ko'tarilayotgan muammolarni tahlil qilish, sabablarini o'rganish, maqsad va yechimlarni keltirishda izchillik, yorqinlik, fikrlarni ravshan ifodalash malakasi yetishmayapti. Shu sabab, bugun kommunikativ xususiyatlari bilan internet jurnalistikasida yangi dolzarb yo'nalish - yechimlar jurnalistikasi borasida tahririyat xodimlarining kasbiy malakalarini, bilim va ko'nikmalarini har tomonlama yuksaltirish masalasi juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia. uz.m.wikipedia.org. Yechimlar jurnalistikasi. Kirish. So‘nggi tahrir, 2022.
2. Bornstein David, Rosenberg Tina, Martin Courtney E. The Solutions Journalism Handbook: A New Way to Think About the News. Solutions Journalism Network, 2019. Статья в интернете.
3. Amaliy qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Islohotlar davrida ommaviy axborot vositalari: axborot transformatsiyasi va kasb etikasi muammolari. Toshkent. 2019. “Print Line Group”. 2-bet.
4. Do‘stmuhammad X. Jurnalstning kasb odobi muammolari. Toshkent. 2007. “Yangi asr avlodi”. 7-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari o‘g‘risidagi” Qonuni. Toshkent. 2007-yil, 15-yanvar. O‘RQ-78. 27¹-modda. 12-bet.
6. Розенберг Тина. Журналистика решений: Solutions Journalism. NETWORK. “Что такое журналистика решений?” Lismimmid.tilde.ws 16 июн. 2018. Статья в интернете.
7. Mahalliy internet nashrlari tahlili: Qonun doirasida. uz., Xorazm bugun. uz., Xorazmliklar.uz., Haqiqat yo‘lidamiz.uz.
8. Новости MediaSavod. Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 10 октябрь. 2023. Интернет издание.
9. uz.qlever.asia Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 27.03.2024. Интернет платформа.
10. www.solutionsjournalism.org

FILOLOGIYA**XORAZM OG‘ZAKI IJODIYOTI LEKSIKASIDA
MIFONIMLARNING SHAKLLANISH OMILLARI**

**Sharipova Sadoqat,
Ma'mun universiteti
o'qituvchisi**

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm og‘zaki ijodiyoti leksikasida mifonimlarning shakllanish omillari tahlil qilinadi. Mifonimlarning kelib chiqishi, ularning etimologiyasi, semantik xususiyatlari va madaniy manbalari islomgacha bo‘lgan inonchlar, zardushtiylik, shomonizm va islomiy tasavvurlar asosida o‘rganiladi.

Аннотация: В статье анализируются факторы формирования мифонимов в лексике хорезмского устного народного творчества. Рассматриваются происхождение, этимология, семантические особенности и культурные источники мифонимов на основе доисламских верований, зороастрийских представлений, шаманизма и исламских взглядов.

Annotation: This article examines the factors shaping mythonyms in the lexical system of Khorezm oral folklore. The origins, etymology, semantic features and cultural sources of mythonyms are analyzed through pre-Islamic beliefs, Zoroastrian concepts, shamanistic traditions and Islamic views.

Kalit so‘zlar: Xorazm folklori, mifonim, zardushtiylik, shomonizm, islomiy tasavvur, semantika, etimologiya, arxaik leksika.

Ключевые слова: хорезмский фольклор, мифоним, зороастризм, шаманизм, исламские представления, семантика, этимология, архаическая лексика.

Key words: Khorezm folklore, mythonym, Zoroastrianism, shamanism, Islamic concepts, semantics, etymology, archaic vocabulary.

Xorazm og‘zaki ijodiyoti o‘zbek xalq folklorining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning leksikasi boy madaniy va tarixiy qatlamlarni o‘zida mujassam etadi. Xorazm folklorida mifonimlar — mifologik obrazlar, ruhlar, tabiat hodisalari va ramziy tushunchalarni ifodalovchi nomlar — til tizimida alohida o‘rin tutadi. Bu mifonimlar xalqning dunyoqarashi, e‘tiqodlari, diniy tasavvurlari va tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi.

Tadqiqotning maqsadi mifonimlarning Xorazm folkloridagi leksik tizimda qanday shakllangani va ularning til va madaniyatdagi rolini tahlil qilishdan iborat.

Mifonimlarning shakllanish omillari Xorazmning geografik joylashuvi, tarixiy rivojlanishi, diniy va madaniy ta'sirlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada islomgacha bo'lgan inonchlar, zardushtiylik, shomonizm va islomiy tasavvurlarning mifonimlar shakllanishiga ta'siri Xorazm folklori misollarida yoritiladi.

Metodologiya. Xorazm og'zaki ijodiyoti leksikasida mifonimlarning shakllanish omillarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u kompleks lingvistik va folklorshunoslik metodlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida avvalo Xorazm folkloriga oid ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, shomonlar murojaatlari va maqollar kabi janrlar jamlanib, mifonimlarning qo'llanish konteksti, mazmuniy roli va semantik xususiyatlarini aniqlash uchun manbashunoslik asosida birlamchi material sifatida tizimlashtirildi. Mifonimlarning kelib chiqishi va o'zgarish bosqichlarini aniqlash maqsadida tarixiy-etimologik tahlil o'tkazilib, islomgacha bo'lgan inonchlar, zardushtiylik, shomonizm va islomiy aqidalar bilan bog'liq mifologik obrazlar o'rtasida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, mifonimlarning leksik va semantik tuzilishi tahlil qilinib, asosiy ma'no, ko'chma ma'no va ramziy ma'no kabi qatlamlarni ajratish orqali polisemiya va semantik kengayish mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqot davomida mifonimlar mazmuniy va funksional mezonlar asosida tasniflanib, ezgulik va yovuzlik, islomiy va islomgacha bo'lgan manbalar, makonga bog'liq obrazlar kabi guruhlariga ajratildi. Lingvokulturologik tahlil yordamida mifonimlarning xalq dunyoqarashi, tabiat bilan munosabati, ijtimoiy qo'rquv va himoya mexanizmlarini ifodalovchi ramzlar tizimi sifatida namoyon bo'lishi tushuntirildi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida mifonimlarning og'zaki nutqda bajaradigan pragmatik funksiyalari, ogohlantirish, duo qilish, badiiy tasvir yaratish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kabi kommunikativ vazifalari o'rganildi. Shuningdek, "Avesto", "Burhoni qote", Jaloliy taqvimi va Alisher Navoiy asarlaridagi mifonimlar bilan intertekstual tahlil olib borilib, ularning tarixiy qatlamlari aniqlashtirildi. Ushbu metodologiya orqali tadqiqot leksik-semantik, tarixiy qiyoslash, tasniflash, lingvokulturologiya va pragmatik yondashuvlar asosida kompleks ilmiy izlanishga aylantirildi. Metod sifatida quyidagilar amalga oshirildi:

mifonimlarning etimologik kelib chiqishini aniqlash;

Xorazm hududiga xos mifologik obrazlarni tasniflash;
islomiy va islomgacha bo'lgan mifonimlarni taqqoslash;
mifonimlarning semantik kengayish mexanizmini tahlil qilish.

Maqolaning asosiy manbasi sifatida Xorazm folkloridagi pari, dev, alvasti, Hizr, chilton, ozar, tepako'z, suv parisi kabi mifonimlar o'rganildi.

Natijalari. Xorazm og'zaki ijodiyoti leksikasida mifonimlar xalq dunyoqarashi, diniy tasavvurlari, qo'rquv his-tuyg'ulari va tarixiy tajribasining mujassam timsoli ekanini ko'rsatadi. Mifonimlar faqatgina badiiy obraz emas, balki xalq ongida muayyan ijtimoiy-psixologik funksiyalarni bajaruvchi ramziy kodlar sifatida faoliyat yuritadi. Xususan, ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi Xorazm mifologiyasining asosiy semantik tuzilmasini tashkil etadi. Hizr, childuxtaron, chilton kabi obrazlar ezgulik, homiylik va himoya ramzi bo'lsa, alvasti, ajina, yalmog'iz, dev, tepako'z kabi obrazlar xavf, tahdid, qo'rquv va tartibsizlik timsolidir. Bu ziddiyatlar xalq ongida ijtimoiy munosabatlar, hayotiy ehtiyot choralari, ahloqiy me'yorlar va tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mifonimlardan kelib chiqqan frazeologizmlar va obrazli iboralar nutqda pragmatik ahamiyat kasb etadi; masalan, "alvosti urdi" iborasi muayyan holatni ogohlantirish, "devona" so'zi esa ruhiy holatni ifodalash uchun qo'llanilishi mifonimlarning nutqdagi amaliy vazifasini tasdiqlaydi. Mifonimlarning shakllanishida islomgacha bo'lgan e'tiqodlar, zardushtiylik va shomonizm asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Zardushtiylikdagi olov, suv, tuproq va havo kabi muqaddas unsurlar Xorazm mifologiyasida ozar, pari, suv parisi kabi mifonimlar ko'rinishida saqlanib qolgan; shomonizm izlari esa tabiat va ruhlarga bog'liq mifologik personajlar orqali namoyon bo'ladi. Islom dini kirib kelgach, mifonimlar yangi semantik qatlamlarga ega bo'ldi; Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil, Munkar, Nakir kabi obrazlar islomiy tasavvurlar bilan uyg'unlashgan holda folklor tizimiga kirib keldi. Bu jarayon mifonimlarning sinkretik (qorishiq) tabiatini ko'rsatadi, ya'ni bir obraz tarkibida bir vaqtning o'zida bir necha davrga oid diniy va madaniy qatlamlarni ko'rish mumkin. Xorazm folkloridagi mifonimlar lingvistik jihatdan arxaik leksik birliklarni saqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi; ozar, pairika kabi birliklar qadimiy matnlar bilan bog'lanadi, o'zbek adabiyotida esa metaforik ma'no kasb etadi. Mifonimlarning intertekstual talqini, masalan, Alisher Navoiy va Jomiy asarlaridagi ozar obrazining poetik qo'llanishi, folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, mifonimlar lingvokulturologik kod sifatida xalqning tarixiy tajribasi, tabiatga munosabati,

diniy qarashlari va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida ma'lumot beradi. Xorazm folklorida parilar ikki qutbli semantik tizimga ega, ular ba'zan himoyachi, ba'zan aldovchi va xavfli kuch sifatida tasvirlanadi, bu esa xalq dunyoqarashining ko'p qirrali va murakkabligini ko'rsatadi. Mifonimlarning semantik kengayishi orqali ular zamonaviy til tizimida ham faol yashamoqda, yangi ma'no, ibora va obrazlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shunday qilib, Xorazm mifonimlarini tahlil qilish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi, chunki mifonimlar xalqning o'tmish xotirasi, madaniy identiteti va ma'naviy qadriyatlarini saqlovchi lingvistik fenomen sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar Xorazm og'zaki ijodiyoti leksikasida mifonimlarning shakllanishi ko'p asrlik tarixiy-madaniy jarayonlar natijasi ekanini ko'rsatadi. Mifonimlar xalq dunyoqarashining o'ziga xos semantik kodlarini ifodalaydi hamda til tizimida arxaik qatlamni saqlovchi, ramziy ma'no yaratadigan va badiiy ifodani boyitadigan lingvistik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, Xorazm mifonimlarining shakllanishida islomgacha bo'lgan inonchlar, zardushtiylilik tasavvurlari, shomonizm va islomiy aqidalar o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Pari, alvasti, dev, Hizr, chilton, ozar, suv parisi, tepako'z kabi mifologik obrazlar semantik kenglikka ega bo'lib, xalq ongida ezgulik va yovuzlik dualizmini aks ettiradi, tilning pragmatik, leksik va stilistik xususiyatlarini shakllantiradi. Mifonimlar nafaqat tarixiy etimologiyani, balki lingvokulturologik jarayonlarni ham yoritib beradi, chunki ular orqali xalqning tabiatga, ruhlar olamiga, muqaddas unsurlarga, jamiyatdagi qo'rquv va himoya ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini anglash mumkin bo'ladi. Xorazm folklorida mifonimlar badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi, ular nutq va ijodda metaforik fikrlashni kuchaytiradi, frazeologizmlar va obrazli ifodalar yaratishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari mifonimlar til tizimini boyitishi, tarixiy qatlamni saqlab qolishi va milliy madaniyatni avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shunday qilib, Xorazm mifonimlarini ilmiy jihatdan o'rganish tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik uchun dolzarb bo'lib, ularning semantik, etimologik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish milliy madaniy merosni anglash va saqlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev T. O‘zbek folklori: nazariya va amaliyot. — Toshkent: “Fan”, 2010.
2. Qosimov B. O‘zbek xalq e‘tiqodlari va mifologiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
3. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. — Toshkent: “Universitet”, 1990.
4. Qayumov A. Mif va ritual masalalari. — Toshkent: “Sharq”, 2005.
5. Karimov R. Xorazm mifonimlarining semantik tahlili // “Filologiya masalalari”, №3, 2020.
6. Abdullaev X. Xorazm folklorida mifonimlarning arxaik qatlamlari // “Til va adabiyot”, №2, 2021.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
8. Jomiy A. Sab‘ai sayyor. — Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi NMIU, 2013.
9. Navoiy, A. Sab‘ai sayyor. — Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi NMIU, 2012.
10. Dehxudo, A. Farhangi Dehxudo (lug‘at). — Tehron, 2011.
11. Burhoni qote‘. Sharq mumtoz lug‘atlar to‘plami. — Toshkent, 2008.
12. Bertolacci, A. Zoroastrianism and ancient Iran beliefs. — Oxford: OUP, 2012.

FILOLOGIYA**O'ZBEK SHEVALARINI O'RGANISHDA
YANGICHA YONDASHUVLAR**

**Olimboyeva Komila,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi
Urganch davlat
universiteti talabasi**

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek shevalarini o'rganishda so'nggi yillarda shakllanayotgan yangicha yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, dialektologiyada korpus lingvistikasidan foydalanish, raqamli xaritalash va GIS texnologiyalarini qo'llash, sotsiolingvistik monitoring, akustik va fonetik laborator tadqiqotlar, hamda mashinaviy o'rganish asosidagi avtomatik tasnif usullarining afzalliklari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются новые подходы, формирующиеся в последние годы в изучении узбекских диалектов. В частности, рассматриваются преимущества использования корпусной лингвистики в диалектологии, применения технологий цифрового картографирования и GIS-систем, проведения социолингвистического мониторинга, акустических и фонетических лабораторных исследований, а также методов автоматической классификации на основе машинного обучения.

Annotation: This article analyzes the new approaches that have emerged in recent years in the study of Uzbek dialects. In particular, it examines the advantages of using corpus linguistics in dialectology, applying digital mapping and GIS technologies, conducting sociolinguistic monitoring, performing acoustic and phonetic laboratory analyses, as well as utilizing automatic classification methods based on machine learning.

Kalit so'zlar: o'zbek shevalari, dialektologiya, yangi yondashuvlar, korpus lingvistika, GIS texnologiyalari, sotsiolingvistika, akustik tahlil, mashinaviy o'rganish, raqamli xaritalash, multimedia hujjatlashtirish

Ключевые слова: узбекские диалекты, диалектология, новые подходы, корпусная лингвистика, GIS-технологии, социолингвистика, акустический анализ, машинное обучение, цифровое картографирование, мультимедийная документация

Key words: *Uzbek dialects, dialectology, new approaches, corpus linguistics, GIS technologies, sociolinguistics, acoustic analysis, machine learning, digital mapping, multimedia documentation.*

O'zbek dialektologiyasi turkiy tillar ichida eng boy va rang-barang lahja tizimlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-madaniy aloqalar, ko'chmanchilik va urbanizatsiya omillari o'zbek shevalarining shakllanishida muhim rol o'ynagan. An'anaviy dialektologik tadqiqotlar, asosan, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning tavsifiy tasnifi bilan chegaralangan bo'lsa, so'nggi o'n yilliklarda dunyo tilshunosligida yuz bergan texnologik va metodologik yutuqlar ushbu sohadagi yondashuvlarni tubdan yangilashga zamin yaratmoqda.

Bugungi global ilmiy makonda til variativligini o'rganishda korpus lingvistikasi, geografik axborot tizimlari (GIS), akustik-fonetik laboratoriya tahlili, kompyuter lingvistikasi, mashinaviy o'rganish va sotsiolingvistik monitoring kabi usullar keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar tilning hududiy farqlanishi, ijtimoiy qatlamlar bo'yicha o'zgarishi hamda fonetik-morfologik variativlikni aniq raqamli ko'rsatkichlar asosida o'rganish imkonini bermoqda. Jahon dialektologiyasida W. Labov, P. Trudgill, J. Chambers, J. Nerbonne kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan variatsion yondashuv va kompyuter asosli dialektometriya tamoyillari tilni faqat tavsiflash emas, balki matematik va statistik modellarda tahlil qilish pallasini boshlab berdi.

O'zbek shevalarini ham shu zamonaviy paradigmalarda qayta ko'rib chiqish zaruriyati tobora kuchaymoqda. Chunki mavjud ilmiy ishlarda ko'plab dialektal belgilar faqat tavsifiy tasnif darajasida qolib ketgan bo'lib, ularning real nutqdagi qo'llanish chastotasi, hududlar bo'yicha variativ tarqalishi, akustik farqlari, ijtimoiy omillar bilan bog'lanishi yetarli darajada yoritilmagan. Shuningdek, dialektal o'zgarishlar jarayonining zamonaviy shahar tilida, yoshlar nutqida yoki migratsion oqimlar ta'sirida qanday kechayotgani bo'yicha ham ilmiy bo'shliqlar mavjud.

O'zbek shevalarini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish bugungi kunda dialektologiya fanining metodologik yangilanishiga olib kelmoqda.

Avvalo, korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvlar shevalarning real nutqdagi qo'llanilishini statistik asosda tahlil qilish imkonini bermoqda. J. Biber, D. McEnery kabi korpus lingvistlari ta'kidlaganidek, katta hajmdagi elektron matnlar birligi lingvistik hodisalarni an'anaviy kuzatish usullariga nisbatan ancha ishonchliroq qiyoslash imkonini beradi. O'zbek shevalariga nisbatan yaratilayotgan audio va matn korpuslari fonetik variativlikni, morfologik shakl almashuvini hamda so'z yasalishdagi hududiy farqlarni aniqroq tavsiflashga xizmat qilmoqda.

Asosiy yangi yondashuvlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Dialektal korpuslar va elektron arxivlar — katta hajmdagi matn va ovoz yozuvlarini yig'ib, markaziy indekslangan korpus yaratish (metama'lumot, morfoleksik belgilar, transkripsiya). Bu korpuslar sheva jihatlarini statistik tahlil qilish, tez-tez uchraydigan leksik birliklarni aniqlash va avtomatlashtirilgan qidiruvga imkon beradi.

Muhammadjon Musaev, Saida Mussakhojayeva, Ilyos Xujayorov, Yerbolat Khasanov, Mannon Ochilov, Huseyin Atakan Varol tomonidan yaratilgan USC: Open-Source Uzbek Speech Corpusni bu yondashuvga misol sifatida keltira olamiz [4].

Bu loyiha 958 kishi (speakers) ovoz yozuvlarini o'z ichiga olgan va avtomatik tanish (ASR) modellari uchun foydalaniladi.

2. Akustik va sosiophonetik tahlil — ovoz yozuvlarini Praat, forced-aligner va R/Python vositalari yordamida spektro-temporal parametrlar (F0, formantlar, tovush uzunligi va h.k.) jihatidan o'lchash; yosh, jins, sotsial status bilan bog'liq fonetik variantlarni kuantitativ aniqlash. An'anaviy fonetik tasvirdan sosiophonetik statistikaga o'tilmoqda.

Misol: Temirova Hayotxon Bayramali qizi tomonidan chop etilgan maqolada qipchoq shevasiga mansub o'zbek tilida (shahar / mintaqa) keladigan ingliz tilini o'qiyotgan talabalar nutqida akustik tahlil qilingan. Ular Praat

dasturidan foydalanib, sheva ta'siri sababli yuzaga keladigan unli tovushlarni o'lchashmoqda [10].

Ibrohim O'rmonovich Darvishovning "Phonetic Laws Relating to the Vowels in Namangan Dialects" maqolasida unli tovushlar singarmonizmi, „umlaut“ fenomeni va dialektal akustik xususiyatlar tahlil qilinadi [2].

3. Computational linguistics / NLP usullari — dialect classification va avtomatik identifikatsiya uchun mashina o'rganish (klasterlash, neural modellari), morfologik va leksik annotatsiya, hamda so'z-net (wordnet) kabi semantik resurslar yaratish (masalan UZWORDNET loyihalari):

Ulug'bek Salayev tomonidan ishlab chiqilgan UzMorphAnalyser — o'zbek tilining morfologik analizatori. Bu modelda morfo-fonetik istisnolar (morpho-phonetic exceptions) ham ko'zda tutilgan [9].

Maqsud Sharipov, Elmurod Quryozov, Ollabergan Yo'ldashev va Og'abek Sobirov tomonidan yaratilgan UzbekTagger — o'zbek uchun POS-tagger vositasi. Bu korpus va leksikal tahlil uchun NLP infratuzilmasining bir qismi bo'lishi mumkin [14].

(E'tibor bering: bu loyihalar to'g'ridan to'g'ri „dialekt“ komponentini qamrab olmaydi, lekin ular o'zbek tilining morfologik va leksik resurslarini yaratishda ishlayotgani sababli sheva tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash uchun muhim infratuzilma bo'lib xizmat qilishi mumkin.)

4. Dialektometriya va GIS — kvantitativ xaritalash — leksik/fonetik farqlarning masofaviy (distance) o'lchovlari, dialektal xaritalar yaratish va geografik axborot tizimlari orqali tarqalishni vizualizatsiya qilish. Bu metod hududiy va tarixiy omillarni aniqlashga yordam beradi. (so'nggi maqolalarda bu yondashuvlar ko'proq qo'llanilmoqda):

Aniq bir yangi maqola sifatida GIS + dialektometriya metodlarini ishlatib O'zbek shevalarini xaritalagan nomli loyihalar (oxirgi yillarda) juda ko'p ommaviy maqolalarda ko'rsatilmasa-da, A. Jo'rayevning ishlari eslatiladi: uning „The concept of dialect zoning of the Uzbek language“ maqolasida shevalar

zonalari (dialekt zonalari) va mintaqaviy ajralishlar areal-lingvistik (geografik) yondashuv bilan ko‘rib chiqiladi [3].

5. Fieldwork + multimodal dokumentatsiya — audio + video yozuvlar, etnolingvistik kontekst, intervyular va ishtirokchi kuzatish — sheva ichidagi pragmatik va madaniy jihatlarni saqlash uchun. Ushbu materiallar arxivlanib, so‘nggi tahlillarga xizmat qiladi.

S. Otamirzaeva va S. Tulyakov — Namangan shahri shevasining morfologik va fonetik xususiyatlarini o‘rganishda an‘anaviy maydon (fieldwork) metodlarini qo‘llagan. Ularning dissertatsiyalari (nomzodlik ishi) va tadqiqotlari orqali shevadagi unli va undosh o‘zgarishlar, urg‘u (stress), shevalarga xos iboralar va so‘z tuzilmalari yig‘ilgan va tahlil qilingan [5].

6. Jamiyat bilan hamkorlik (community-based research) — mahalliy jamoalar bilan birgalikda material to‘plash, tilni qayta tiklash va ta‘lim materiallari yaratish — shevalarning yo‘qolishini oldini olish maqsadida. (bu yondashuvlar saqlash va siyosat sohalariga ham ta’sir qilmoqda).

O‘zbek shevalarini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalar va yangi metodologik yondashuvlar qo‘llanilishi fan oldidagi bir qator muhim masalalarning chuqurroq va aniqlik bilan hal etilishiga xizmat qiladi. Korpus lingvistikasi shevalarning real nutqdagi qo‘llanishini statistik asosda baholash imkonini bergan bo‘lsa, GIS texnologiyalari dialektal farqlarning makondagi taqsimotini vizual va matematik ko‘rinishda tahlil qilish imkonini yaratdi.

Umuman olganda, yangicha yondashuvlar o‘zbek dialektologiyasining nazariy asoslarini boyitibgina qolmay, tilning tarixiy taraqqiyoti, mintaqaviy farqlanishi va ijtimoiy dinamikasini chuqurroq anglash imkonini beruvchi mustahkam ilmiy platformani shakllantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borovkov A. K. Studies on Uzbek Dialects and Vowel Harmony. Turkological Studies Journal, 1950–1960-yillar to‘plami.
2. Darvishov I. O. Phonetic Laws Relating to the Vowels in Namangan Dialects. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023.
3. Joraev A. The Concept of Dialect Zoning of the Uzbek Language. PNR Journal, 2023.
4. Musaev M., Mussakhojayeva S., Khujayorov I. Open-Source Uzbek Speech Corpus (USC). arXiv preprint, 2021.
5. Otamirzaeva S., Tulyakov S. O‘zbek Dialektologiyasida Namangan Shevasining Tutgan O‘rni. ResearchGate preprint, 2024.
6. Polivanov E. D. Selected Works on Turkic Languages and Dialectology. Moscow: Nauka, 1960.
7. Povey A., Povey K. FeruzaSpeech: A 60-hour Corpus for Automatic Speech Recognition in Uzbek. arXiv preprint, 2024.
8. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek Dialektologiyasi. Toshkent: Fan, 1978.
9. Salaev U. UzMorphAnalyser: A Morphological Analyzer for the Uzbek Language with Morpho-Phonetic Exceptions. arXiv preprint, 2024.
10. Temirova H. B. A Phonetic Study of Uzbek Kipchak Dialect Speakers Learning English. Journal of Applied Language Studies, 2025.
11. Tolibov T. Dialectology Today and Its Future. International Journal of Philology and Linguistics, 2022.
12. Uzbek Scholar Journal. The Study of Dialects in Uzbek Linguistics: Theoretical and Practical Approaches. Uzbek Scholar, 2024.
13. O‘zbek Shevalari Tadqiqotlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Til va Leksikografiya markazi hisobot materiallari, 2025.
14. Sharipov M., Kuriyozov E., Yuldashev O., Sobirov O. UzbekTagger: Part-of-Speech Tagging for Uzbek Language. arXiv preprint, 2023.

FILOLOGIYA

BADIIY MATNDA TIBBIY LINGVISTIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

UO‘K: 947 (575.1)

**To‘raboyeva
Muhabbat,
Osiyo xalqaro
universiteti magistri**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek badiiy adabiyotida uchraydigan tibbiy leksik birliklar tahlil qilinib, ularning semantik, stilistik, estetik va pragmatik funksiyalari o‘rganildi.

Аннотация: В данной статье проанализированы медицинские лексические единицы, встречающиеся в узбекской художественной литературе, и изучены их семантические, стилистические, эстетические и прагматические функции.

Annotation: This article analyzes medical lexical units found in Uzbek literary texts and examines their semantic, stylistic, aesthetic, and pragmatic functions.

Kalit so‘zlar: tibbiy termin, badiiy matn, lingvistik birlik, lingvopoetika, tibbiy lingvistika, semantik tahlil.

Ключевые слова: медицинский термин, художественный текст, лингвистическая единица, лингвопоэтика, медицинская лингвистика, семантический анализ.

Key words: medical term, literary text, linguistic unit, linguopoetics, medical linguistics, semantic analysis.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat tilining mavqeini oshirish, soha terminologiyasini takomillashtirish, tibbiyot atamalarining milliy muqobillarini yaratish dolzarb vazifalar qatorida belgilandi (PF–6084, 2020; Farmon-5850, 2019). Tilshunoslikning yangi yo‘nalishi — tibbiy lingvistika tibbiyot va lingvistika integratsiyasi asosida shakllanib, tibbiy atamalarning semantikasi, funksional xususiyatlari va madaniy konnotatsiyasini o‘rganishni nazarda tutadi.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi farmonlari asosida bir qator amaliy ishlar qilindi. Jumladan, 2021 yilda Buxoroda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi[1]. Ushbu konferensiyada filologiya fanlari doktori M. K. Abuzalova televideniye, internet, yozma OAV, turli ma’ruzalar, suhbatlarda o‘rinli va ishlatilishi qulay ayrim tibbiy

birliklar qo'llanilayotganini[2] ta'kidlab o'tadi. Shuni aytib o'tish kerakki, tibbiy lingvistikaga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. B. Suyunovning "Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi" mavzusida Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi, D.Sobirovaning "Tibbiy reklamaning sotsiopragmatik xususiyatlari" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi[3] shular jumlasidandir.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda tibbiy leksik birliklarning badiiy nutqda qo'llanishi, ularning estetik, pragmatik, lingvokulturologik vazifalari yetarlicha yoritilmagan. Badiiy adabiyot tibbiy leksikani faqat ilmiy termin sifatida emas, balki obrazlilik vositasi, psixologik tasvir unsuri, milliy tafakkur ko'rinishi sifatida qo'llaydi.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini tadqiq etish borasida katta tajribaga ega. Bu haqda so'z ketganda R. Qo'ng'urov, I. Qo'chqortoyev, Q. Samadov, B. Yo'ldoshev, X. Doniyorov, S. Mirzayev, L. Abdullayeva, E. Qilichev, P. Qodirov, S. Karimov, B. Umurqulov, H. Abdurahmonov, N. Mahmudov kabi ko'plab olimlarning nomlarini tilga olish mumkin[4]. Filologiya fanlari doktori, professor M. Yo'ldoshevga ko'ra, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning stilistikasiga e'tibor qaratilgani ko'zga tashlanadi[5].

Badiiy matnda uchraydigan tibbiy lingvistik birliklarni tahlil qilish filologik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, avvalo asarning ma'no qatlamini kengroq ochishga xizmat qiladi. Tibbiy leksika inson tanasi, ruhiy holatlari, og'riq, qo'rquv, salomatlik va o'lim kabi universal inson tajribalarini tasvirlashda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi tibbiy atamalar, anatomik ifodalar yoki kasallik nomlaridan foydalanish orqali qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini yoki hayot haqidagi falsafiy mulohazalarini ifodalaydi, shu orqali asarning semantik va badiiy yuki alohida boyiydi.

Bundan tashqari, tibbiy birliklarning badiiy matnda qo'llanilishi tilning funksional uslublari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ham ko'rsatadi: ilmiy uslubga oid atamalar badiiy uslub doirasida metaforalashadi, emosional va simbolik funksiyalarni bajarishga kirishadi. Shu tufayli tibbiy terminlar badiiy nutqda oddiy atama sifatida emas, balki obraz yaratuvchi muhim leksik-stilistika vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning ma'no kengayishi, semantik transformatsiyasi

va badiiy vazifasi asarning g‘oyaviy-estetik yo‘nalishini tushunishda muhim manba bo‘ladi.

Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Xurshid Do‘stmuhammad, Luqmon Bo‘rixon, Nazar Eshonqul, Risolat Haydarova, Nodirabegim Ibrohimova asarlarida qo‘llanilgan tibbiy leksik birliklarni tahlil qilib, tibbiy leksika o‘zbek badiiy adabiyotida ikki asosiy qatlamdan namoyon bo‘lishini ko‘rdik: xalqaro ilmiy terminlar va xalqona nomlar. Ilmiy terminlar matnda ko‘pincha real vaziyatni aniq ko‘rsatish, voqelikni ilmiy asosda ifodalash, qahramonning kasbiy dunyosiga oydinlik kiritish vazifasini bajaradi. Xalqona atamalar esa badiiy obrazning milliy ruhini kuchaytiradi, xalq tafakkuri, tibbiyotga oid an‘anaviy qarashlar, metaforik dunyoqarashni aks ettiradi.

Masalan, Nodirabegim Ibrohimovanning “Men, dadam va Altsgeymer” hikoyasida “Altsgeymer” so‘zi shunchaki kasallik nomi emas, balki ramz, badiiy obraz va emosional kod vazifasini bajaradi. “Altsgeymer” atamasi tarixiy-shaxsiy tushuncha bilan birga keladi va terminning ilmiy va badiiy qirrasini bir vaqtning o‘zida ochilgan. Termin obrazli matnda kasallikning shaxsga doir dramatik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hikoyada, shuningdek, “miya faoliyati so‘nishi”, “nevrolog”, “kasallik”, “bemor”, “shifoxona”, “diagnostika”, “tez yordam” kabi ilmiy tibbiy terminlar ishlatiladi. Emosional va obrazli kontekstda qo‘llangan ushbu so‘zlar tilning funksional ko‘pqirraliligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, “parishonxotirlik”, “esarlik”, “asablar charchagan”, “jinni”, “nochor ruh” kabi xalqona atamalardan ham foydalaniladi. Bu leksika emosional yuk beradi, personajning ichki dunyosi va ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi.

Ushbu ibora va terminlar semantik, emosional va pragmatik funksiyalarning integratsiyasini ko‘rsatadi. Tilning kommunikativ va estetik qirrasini ochadi.

Biz o‘rgangan materiallar tibbiy leksikaning badiiy matndagi funksional imkoniyatlari haqiqatan keng ekanini tasdiqlaydi. Terminlar ilmiy ma’no tashish barobarida obraz yaratadi, estetik effekt hosil qiladi, qahramon ruhiy holatini tasvirlaydi, milliy mentalitetni aks ettiradi, muloqotning psixologik ta’sirchanligini oshiradi.

Zamonaviy ilmiy terminlarning badiiy matnda obrazlashuvi o'zbek badiiy diskursining dinamik yangilanishini isbotlaydi.

Tibbiy leksik birliklarni tahlil qilish milliy dunyoqarashni o'rganishga ham imkon beradi. Chunki kasallik, shifo, og'riq, hayot va o'limga oid tasavvurlar har bir xalqning madaniy ongida turlicha shakllanadi va o'ziga xos ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Badiiy matndagi tibbiy ifodalar shu etnomadaniy tasavvurlarning poetik in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Tibbiy lingvistik birliklarning badiiy matndagi o'rni tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham muhim, chunki ularning semantik noan'anaviyligi, metaforik xususiyatlari yoki emosional bo'yo'gi tarjimada to'g'ri va aniq ifoda topishini talab qiladi. Shu sababli bunday tahlil terminning badiiy vazifasini, uning kontekstdagi ma'nosini va obraz yaratishdagi rolini ochib berib, tarjimon uchun ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matndagi tibbiy lingvistik birliklarning tahlili asar mazmunini chuqurroq anglash, yozuvchi uslubining individual xususiyatlarini belgilash, tilning semantik va uslubiy imkoniyatlarini o'rganish, milliy-madaniy qadriyatlarni ochish hamda interdisiplinar tadqiqotlarga ilmiy asos yaratishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.uniwork.buxdu.uz+1

2.uniwork.buxdu.uz+1 20-b/

3.uniwork.buxdu.uz+1 21-b/

4.M. Yo'ldoshev. "Badiiy matn lingvopoetikasi". "Fan" nashriyoti. 2008 yil.14-

b

5.M. Yo'ldoshev. "Badiiy matn lingvopoetikasi". "Fan" nashriyoti. 2008 yil.15-

b

FILOLOGIYA

O'ZBEK TILINING ELEKTRON LUG'ATLARINI YARATISHDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR



Rajapova Durdona,
Urganch innovatsion
universiteti
Pedagogika va
boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari
nomzodi

UO'K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilining elektron lug'atlarini yaratishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Elektron lug'atlar tuzishda lingvistik ma'lumotlarni to'plash, standartlashtirish, dasturiy ta'minotga integratsiya qilish, foydalanuvchi interfeysini ishlab chiqish kabi bosqichlarda paydo bo'ladigan muammolar yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируются основные трудности, возникающие при создании электронных словарей узбекского языка. Рассматриваются проблемы, возникающие на этапах сбора лингвистических данных, стандартизации, интеграции в программное обеспечение и разработки пользовательского интерфейса.

Annotation: The article analyzes the main challenges encountered in the creation of electronic dictionaries of the Uzbek language. It highlights problems arising at such stages as collecting linguistic data, standardization, integration into software, and developing the user interface.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, elektron lug'atlar, leksikografiya, lug'at yaratish texnologiyalari, til korpusi, terminologiya, standartlashtirish.

Ключевые слова: узбекский язык, электронные словари, лексикография, технологии создания словарей, языковой корпус, терминология, стандартизация.

Key words: Uzbek language, electronic dictionaries, lexicography, dictionary development technologies, language corpus, terminology, standardization.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti tilshunoslik sohalarida, xususan, leksikografiyada yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy bosma lug'atlar o'rnini tezkor, interaktiv va foydalanuvchi

ehtiyojlariga moslashuvchan elektron lugʻatlar egallab bormoqda. Elektron lugʻatlar til oʻrganish, tarjima qilish, ilmiy izlanishlar olib borish va amaliy faoliyatda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shunga qaramay, oʻzbek tilining elektron lugʻatlarini yaratish jarayoni bir qator qiyinchiliklar bilan yuzlashmoqda. Ular orasida til korpusi bazasining yetarli darajada keng va tizimli boʻlmasligi, terminologik bir xillikning taʼminlanmaganligi, dasturiy taʼminotning texnik imkoniyatlari va foydalanuvchi interfeysi dizayni bilan bogʻliq muammolar mavjud. Bundan tashqari, leksikografik maʼlumotlarni standartlashtirish hamda ularni raqamli formatga moslashtirish masalalari ham dolzarb boʻlib qolmoqda. Mazkur tadqiqot oʻzbek tilining elektron lugʻatlarini yaratishdagi ushbu muammolarni tahlil qilish, ularning ildiz sabablarini aniqlash va samarali yechimlar taklif etishga qaratilgan.

Oʻzbek tilshunosligida elektron lugʻatlar masalasi soʻnggi oʻn yillikda faol tadqiq qilinmoqda. Xususan, H. Abdurahmonov[1] oʻz ishida oʻzbek lugʻatshunosligining tarixiy taraqqiyoti va elektron shaklga oʻtish jarayonining umumiy bosqichlarini bayon etgan. Unga koʻra, elektron lugʻat yaratish jarayonida til korpusining mukammalligi asosiy poydevor hisoblanadi.

N. Toʻxtasinov[2] esa elektron lugʻatlarda foydalanuvchi interfeysining ahamiyatini taʼkidlab, oddiy va intuitiv dizayn boʻlmasa, foydalanuvchi uchun lugʻatdan foydalanish samaradorligi pasayishini qayd etgan. Shuningdek, u oʻzbek tilidagi mavjud elektron lugʻatlarning qatorida “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ning raqamli versiyasi hali ham qisman qidiruv imkoniyatlari bilan cheklanganini misol sifatida keltiradi.

A. Qodirova[3] raqamli leksikografiyada eng katta muammo sifatida terminologik bir xillik masalasini koʻrsatadi. Masalan, bir soʻzning turli ilmiy va amaliy manbalarda turlicha izohlanishi foydalanuvchida chalkashlik keltirib chiqaradi. Bu muammo ayniqsa, soha lugʻatlarini yaratishda keskin seziladi.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar (Oxford English Dictionary, Merriam-Webster Online)[4] tajribasi shuni koʻrsatadiki, elektron lugʻatlar faqat lingvistik

ma'lumotlarni jamlash bilan cheklanmasdan, foydalanuvchiga misollar, talaffuz yozuvlari, kollokatsiyalar va statistik ma'lumotlarni ham taqdim etishi kerak.

Tadqiqotlar va mavjud manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining elektron lug'atlarini yaratishda quyidagi muammolar eng dolzarb hisoblanadi:

1. **Til korpusining cheklanganligi**— Mavjud o'zbek til korpuslari hajman kichik va ayrim soha matnlarini qamrab olmaydi. Masalan, texnika, tibbiyot yoki yuridik sohalarga oid matnlar yetarlicha to'plangan emas. Natijada, elektron lug'atlarning qamrovi torayadi va soha terminlari to'liq aks etmaydi.

Misol: O'zbek tili texnik terminologiyasi bo'yicha maxsus elektron lug'at yaratilmaganligi sababli, foydalanuvchilar rus tilidagi onlayn lug'atlarga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda.

2. **Terminologik bir xillikning yo'qligi**— Turli manbalarda bir so'zning turlicha izohlanishi lug'at foydalanuvchilarida tushunmovchilik tug'diradi.

Misol: "Kompyuter virusi" atamasi ba'zi manbalarda "axborot tizimiga zarar yetkazuvchi dastur", boshqalarida esa "kompyuter tizimida o'z-o'zidan tarqaluvchi kod" sifatida izohlanadi.

3. **Dasturiy ta'minot va texnik integratsiya muammolari**— Elektron lug'atlarning aksariyati oddiy qidiruv tizimi bilan cheklanadi, morfologik analizator yoki avtomatik tarjima modullari yo'q.

Misol: Ingliz tilidagi Cambridge Dictionary qidiruv tizimi morfologik o'zgarishlarni avtomatik tanib oladi ("go" → "went", "going"), ammo o'zbek elektron lug'atlarida "bor" so'zini qidirishda "boraman", "borib" kabi shakllar alohida ko'rsatilmaydi.

4. **Interfeys va foydalanuvchi tajribasi muammolari** — Elektron lug'atlar mobil qurilmalarda foydalanish uchun optimallashtirilmagan yoki dizayni foydalanuvchi uchun qulay emas.

Misol: Ba'zi o'zbek onlayn lug'atlarida sahifa yuklanish tezligi past va

qidiruv natijalari tartibsiz beriladi, bu esa foydalanuvchi samaradorligini kamaytiradi.

5. **Moliyaviy va tashkiliy cheklovlar** — Elektron lugʻatlar yaratish va doimiy yangilash uchun barqaror moliyaviy manba yoʻqligi ham katta toʻsiqdir. Xalqaro tajriba koʻrsatadiki, muvaffaqiyatli onlayn lugʻatlar muntazam ravishda yangilanadi va foydalanuvchi fikr-mulohazalariga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilining elektron lugʻatlarini yaratish jarayoni lingvistik, texnik va tashkiliy omillar taʼsirida bir qator murakkabliklarga duch kelmoqda. Asosiy muammolar sifatida til korpusining yetarlicha keng boʻlmasligi, terminologik bir xillikning taʼminlanmaganligi, dasturiy taʼminot imkoniyatlarining cheklanganligi, foydalanuvchi interfeysi dizaynidagi kamchiliklar va barqaror moliyaviy resurslarning yoʻqligi qayd etildi.

Elektron lugʻatlar nafaqat lugʻaviy maʼlumotlarni jamlash vositasi, balki til oʻrganish, tarjima, ilmiy izlanishlar va kommunikatsiya jarayonlarida keng qoʻllaniladigan interaktiv platforma boʻlishi kerak. Shu bois, ularning funksional imkoniyatlari zamon talablariga javob berishi, foydalanuvchi tajribasini oshirishi va doimiy yangilanishi muhimdir.

Oʻzbek tilining elektron lugʻatlarini yaratishda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, avvalo, keng qamrovli va muntazam yangilanib boradigan til korpusini shakllantirish zarur. Ushbu korpus barcha sohalarni, jumladan, texnika, tibbiyot, yuridik va boshqa maxsus terminologiyani qamrab olishi lozim. Shuningdek, turli manbalardagi chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida yagona terminologik standart ishlab chiqilishi va davlat miqyosida tasdiqlanishi kerak. Elektron lugʻatlarni foydalanuvchi uchun yanada qulay va samarali qilish uchun ilgʻor texnologiyalar — morfologik analizatorlar, avtomatik tarjima modullari, talaffuz yozuvlari va kollokatsiya bazalarini integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mobil va veb-versiyalarning interfeysi tezkor ishlashi, oddiy va tushunarli dizaynga ega boʻlishi ham foydalanuvchi tajribasini oshiradi. Bularni amalga oshirish uchun davlat grantlari,

xususiyl sektor investitsiyalari va xalqaro hamkorlik loyihalari orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash talab etiladi. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalarni o'zlashtirib, o'zbek tilining elektron lug'atlarini xalqaro darajada raqobatbardosh qilish ham muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov H. O'zbek leksikografiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
2. To'xtasinov N. Elektron lug'atlarni yaratishda foydalanuvchi interfeysining ahamiyati // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2018. – №3. – B. 45–52.
3. Qodirova A. Terminologik bir xillik muammolari va ularni hal etish yo'llari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2020. – №5. – B. 23–29.
4. Nurmonov A. Til korpuslari va zamonaviy leksikografiya. – Toshkent: Innovatsion Ziyo, 2019.
5. Karimov U. O'zbek tilining elektron lug'atlarini ishlab chiqishda dasturiy yondashuvlar // Kompyuter lingvistikasi. – 2021. – №2. – B. 14–21.
6. Atkins, B. T. S., Rundell, M. *The Oxford Guide to Practical Lexicography*. – Oxford: Oxford University Press, 2008.

FILOLOGIYA**OGAHİY LEKSIKASIDA ILDIZ VA AFFIKSLAR O‘ZARO
MUNOSABATINING SEMANTIK MODELLARI**

**Eshchanov Temur,
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi**

UO‘K: 941 (3)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning poetik leksikasida ildiz va affikslarning o‘zaro semantik munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda g‘azal matni asosida so‘zlarning morfemik tuzilishi, semantik kengayish mexanizmlari hamda affikslarning ruhiy, falsafiy va badiiy ma’nolarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Natijalarga ko‘ra, Ogahiy tili faqat grammatik tizim emas, balki semantik modellashtirish asosida qurilgan poetik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Аннотация: В данной статье анализируются семантические отношения между корнями и аффиксами в поэтической лексике Мухаммада Ризы Огахий. В исследовании рассматривается морфемная структура слов на основе текста газели, механизмы семантического расширения, а также роль аффиксов в формировании духовных, философских и художественных значений. Согласно результатам, язык Огахий представляет собой не только грамматическую систему, но и поэтическую структуру, построенную на принципах семантического моделирования.

Annotation: This article analyzes the semantic relationships between roots and affixes in the poetic lexicon of Muhammad Rizo Ogahiy. The study examines the morphemic structure of words based on the ghazal text, the mechanisms of semantic expansion, and the role of affixes in shaping spiritual, philosophical, and artistic meanings. The findings show that Ogahiy’s language is not merely a grammatical system but a poetic structure built on the principles of semantic modeling.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, morfemika, ildiz, affiks, semantik model, g‘azal tili, tasavvuf, badiiy semantika.

Ключевые слова: Огахий, морфемика, корень, аффикс, семантическая модель, язык газели, суфизм, художественная семантика.

Key words: Ogahiy, morphemics, root, affix, semantic model, ghazal language, Sufism, artistic semantics.

O'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy taraqqiyotida Muhammad Rizo Ogahiy alohida o'rin tutadi. "Ulug' o'zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan"[1]. Uning ijodi nafaqat she'riy mahorati, balki til qurilishi, so'z yasalishi, ma'no turlanishi va badiiy ifoda vositalarining o'ziga xos tizimi bilan ham e'tiborga loyiqdir. Ogahiy o'z davrining yuksak bilimli, tafakkurli, arab-fors tilini mukammal bilgan, shu bilan birga turkiy tilning ichki imkoniyatlarini chuqur his qilgan ijodkor edi. Uning g'azallari, qasidalarida til unsurlari badiiy-estetik vazifa bilan bir qatorda, semantik tarmoqlar orqali ma'naviy-falsafiy mohiyatni ochib beradi. Ayniqsa, Ogahiy asarlarida ildiz va affikslar o'rtasidagi semantik munosabatlar o'ziga xos ruhiy-falsafiy qatlamlarni yuzaga chiqaradi.

Tilshunoslikda ildiz – bu so'zning ma'no markazi, eng kichik leksik yadro bo'lib, u so'zning lug'aviy mohiyatini tashkil etadi. "Morfema strukturasi jihatidan bo'linmas holdagi so'zning o'zak bilan bir xil ko'rinishda kelishi bu elementlarning yaqin munosabatini ko'rsatadi"[2]. "Affiks (qo'shimcha) morfema mustaqil qo'llana olmaydigan, asos morfemaga qo'shilib, unga turlicha qo'shimcha ma'no yuklaydigan qism"[3]. Biroq mumtoz matnlar, xususan Ogahiy kabi tasavvufiy yo'nalishdagi shoirlar tilida affikslar faqat grammatik vazifani emas, balki ruhiy, falsafiy, diniy, hatto metafizik ma'noni ham o'z zimmasiga oladi. Ularning har biri so'zning semantik maydonini kengaytirib, yangi ma'no qatlamlarini hosil qiladi.

Tadqiqot deskriptiv-lingvistik, semantik-tahliliy va komponent tahlil usullariga asoslangan. Maqsad Ogahiy asarlari tilidagi ildiz va affikslarning semantik o'zaro ta'sir mexanizmini aniqlashdir. Ogahiy g'azallaridagi so'z shakllari o'zaro semantik bog'lanishda bo'lib, bu bog'lanishlar ko'pincha tasavvufiy ramzlar tizimida talqin etiladi.

1. Morfemik segmentatsiya (so'zlar ildiz va affikslarga ajratilib, ularning ma'no o'zgarish jarayoni kuzatildi).

2. Semantik modellash (ildiz va affiks o'rtasidagi ma'no aloqasi tahlil qilinib, umumiy semantik modellar ishlab chiqildi).

3. Tasavvufiy kontekstual tahlil (semantik o'zgarishlar tasavvufiy ramzlar tizimi orqali talqin qilindi).

Ogahiy leksikasining eng asosiy xususiyati shundaki, unda morfemik birliklar badiiy-falsafiy energiya bilan to'yingan. Uning har bir so'zi semantik jihatdan ko'p qavatli: ildiz insoniy mohiyatni, affiks esa ilohiy tajalliyni bildiradi. Bu holat tasavvufning "inson-Xudo" dualizmi bilan bevosita bog'liq. Quyidagi g'azal bu holatni yorqin namoyon etadi:

Ey borcha ulus xotiri asrorig'a dono,
Sandursan alar mushkili hallig'a tavono.

Nasriy bayon. *Yo xudo, sen barcha xalqlar va ellarning qalbidagi sirlarni biluvchisan, sen ularning qiyinchiliklari yechimiga qodir bo'lgan zotdirsan.*

Ushbu baytda "borcha" so'zi *bor* ildiziga *-cha* affiksi qo'shilishi orqali yasalgan. *Bar* ildizi "bor bo'lmoq, mavjud bo'lmoq" ma'nosini anglatadi. *-cha* esa umumiylik, to'liqlik, qamrov ma'nosini kuchaytiruvchi qo'shimchadir. Natijada *borcha* – "hamma", "butun" degan keng qamrovli ma'noni beradi. Bu yerda affiks faqat grammatik vazifa emas, balki semantik kengaytiruvchi rolni o'taydi. U orqali Xudoning hamma narsani qamrab oluvchi, barchani biluvchi zot sifatidagi timsoli ifodalangan.

Shuningdek, "tavono" so'zi *forscha tavan* ildiziga *-o* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, "qudratli", "kuchli" ma'nosini bildiradi. Ammo Ogahiy baytida bu so'z faqat kuch yoki qudratni emas, balki ilohiy imkoniyatni, har narsaga qodirlikni anglatuvchi semantik quvvatga ega. Shu bois "tavono" – "xalqlarning mushkili hallig'a qodir" deganda, u inson emas, balki Xudo sifatida talqin qilinadi. Demak, bu so'zda affiks kengayish orqali lug'aviy ma'no falsafiy ma'noga ko'tariladi.

Ogahiy o'z g'azallarida so'z ildizlari bilan affikslar o'rtasidagi bu o'zaro aloqani doimo semantik uyg'unlik asosida quradi. U bir so'zning morfologik shaklini o'zgartirib, yangi obraz yaratadi. Masalan, *yono*, *yondurma*, *jono* kabi

soʻzlarda *yon-* ildizi markaziy semantik oʻq vazifasini bajaradi. *Yon-* ildizi “kuyish, alanganish, muhabbat oʻtida erish” maʼnolarini bildiradi. Unga *-o* yoki *-durma* affikslari qoʻshilganda, bu maʼno kengayadi, majoziy tus oladi, tasavvufiy ramzga aylanadi. *Yono* – oshiqlik olovida yonish, ishqda erish; *yondurma* – “yonma”, “qayta yondirma”, yaʼni “doʻzax oʻtiga qaytarma” degan iltijo maʼnosini beradi. Shu tarzda ildiz va affikslar bir-biriga qoʻshilib, badiiy matnda semantik rezonans hosil qiladi.

Ogahiy tili shunchaki grammatik qurilma emas, balki maʼno tizimidir. Har bir soʻz oʻz ichida bir necha darajadagi maʼnoni olib yuradi: lugʻaviy, majoziy, ramziy va tasavvufiy. Masalan, *dono* soʻzi *don* ildiziga *-o* affiksi qoʻshilishi bilan yasalgan. *Don* ildizi “bilim”, “aql”, “idrok” tushunchalarini bildiradi. *-o* esa sifat yasovchi qoʻshimcha boʻlsa-da, Ogahiy tili kontekstida u ilohiy donolikni bildiruvchi semantik yukga ega. Shuning uchun *dono* – oddiy “bilimli” emas, balki “sirlarni biluvchi”, “asrorni anglagan” zotni ifodalaydi. Keyingi baytda Ogahiy shunday deydi:

Kayfiyyati zotinggʻa tafakkur nechuk aylay,
Kim ojiz aning dargohida yuz oqil-u dono.

Nasriy bayon. *Men Sening zoting qanday ekanligini oʻylab koʻrishim mumkun emas, chunki sening zotingni anglashga yuzlab oqil-u donolar qudrati, kuchi yetmaydi.*

Bu misrada “tafakkur” soʻzi arabcha ildizdan kelib chiqqan boʻlib, “fikir yuritmoq”, “mushohada qilmoq” maʼnolarini bildiradi. Ammo shoir bu soʻzni “kayfiyyati zot” birikmasi bilan bogʻlab, uni ilohiy mohiyatni anglash jarayoni sifatida talqin qiladi. “Kayfiyat” – holat, “zot” – mavjudlikning oʻzi, yaʼni Xudoning asl mohiyatidir. “Aning dargohida yuz oqil-u dono” deganda esa, inson aqlining chegarasi, ilohiy bilim oldida ojizlik ramzi ifodalanadi. Bu yerda ham “dono” soʻzidagi affiks ilohiy bilimga ishora qiladi, “ojiz” esa insoniy bilimsizlik timsoliga aylanadi.

Naylab bu karam shukrin ado aylagamizkim,
Fiddahr ilo sabillil islomi Xudono.

Nasriy bayon. Men bunday ehson va karamingni shukrini qanday ado qilib bilay, bizni bu dunyoda islom yo 'liga boshlagin.

Bu baytda “hudono” so‘zi muhim. “Xudo” (forscha) so‘ziga qo‘shilgan -no affiksi tasavvufiy iltijo ohangini yaratadi. Bu affiks aslida grammatik bo‘lsa-da, Ogahiyda u poetik vazifani bajaradi. “Xudono” – “ey Parvardigor”, “ey Rabbim” degan mazmunda ishlatiladi. Bu so‘zning tovush tuzilishi ham yumshoqlik, murojaat ohangini beradi. “Karam” va “shukr” so‘zlari esa sabab-natija bog‘lanishida kelib, ilohiy mehr va insoniy minnatdorchilikni ifodalovchi semantik parallelizmni hosil qiladi.

Ushshoq tani joni erur bodayi vasling,
Lutf ayla-yu jon yetkur o‘luk jismima jono.

Nasriy bayon. Visoling sharobi oshiqqlar tan-u joni erur, shuning uchun ularning o‘lik jismiga jon ato qiluvchi lutfingni yetkaz.

“Ushshoq” so‘zi arabcha “oshq” ildiziga qo‘shilgan ko‘plik qo‘shimchasi -oq orqali yasalgan bo‘lib, “muhabbat egalari”, “o‘shiqqlar” degan ma’noni bildiradi. Bu yerda ham affiks faqat grammatik emas, balki semantik vazifa bajaradi. “Bodayi vasl” esa “visol sharobi” degan obrazli ifoda bo‘lib, oshiqqlarning hayot manbai, jon quvvati sifatida talqin etiladi. “Jono” so‘zi esa jon ildiziga -o affiksi bilan yasalgan bo‘lib, “jon bag‘ishlovchi”, “hayot manbai” ma’nosini beradi. Shu tarzda Ogahiy tili morfemik tuzilish orqali ruhiy holatni, muhabbatning metafizik mohiyatini ifoda etadi.

G‘azalning yakuniy baytida esa shoir o‘zini oshiqlik olovida kuygan, lekin Xudodan rahm so‘rayotgan bandasi sifatida ko‘rsatadi:

Chun Ogahiy kul bo‘ldi yona ishqing o‘tig‘a,
Yondurma tamug‘ o‘tig‘a, yo Rab, ani yono.

Nasriy bayon. Ogahiy ishqing o‘tiga yonib kul bo‘ldi, endi uni do‘zax o‘tiga qaytarma, yo Rab!

Bu baytda “yono” va “yondurma” soʻzlarining ildizi bir, lekin semantik yoʻnalishi qarama-qarshi. “Yon-” ildizi muhabbat oʻtida kuyishni bildirsa, “yondurma”da *-durma* affiksi rad etish, qaytarish maʼnosini beradi. “Yono” – oshiqlikda yonish, “yondurma” – doʻzax oʻtida kuydirma, degan maʼnoda keladi. Shu bilan shoir ishq oʻtini ilohiy azobdan farqlaydi. Unga koʻra, ishqdagi yonish poklaydi, lekin doʻzaxdagi yonish jazodir. Demak, bu yerda affiks semantik kontrastni yaratadi, lugʻaviy ildizga maʼno qarama-qarshiligini qoʻshadi.

Ogahiy gʻazallarida affikslarning bunday semantik roli juda faol. U grammatik birliklarni ruhiy-falsafiy shaklga keltiradi. Affikslar orqali u abstrakt tushunchalarni konkret obrazlarga aylantiradi. Masalan, *-o* affiksi doimo yuksaklik, qudrat, ilohiylik semasini bildiradi; *-cha* umumiylik va butunlikni; *-na*, *-qa*, *-durma* esa jarayon, istak, rad etish maʼnolarini kuchaytiradi. Shu orqali Ogahiy soʻz yasash tizimini semantik rezonans darajasiga olib chiqadi.

Bu tahlillardan koʻrinadiki, Ogahiy leksikasida ildiz va affikslarning oʻzaro munosabati murakkab semantik tarmoqni tashkil etadi. Har bir morfema oʻz vazifasini faqat grammatik jihatdan emas, balki poetik-falsafiy kontekstdan kelib chiqib bajaradi. Soʻz ildizi – maʼno yadrosi; affiks – shu yadroning semantik nurlanishidir. Natijada har bir soʻz maʼnosi bir markazdan chiqib, turli qatlamlarda rezonans hosil qiladi.

Shu tarzda, Ogahiy tilida soʻz oddiy vosita emas, balki maʼno tizimining yuragi. U ildizdan maʼno olib, affiks orqali uni kengaytiradi, ramziy holga keltiradi. Bu jarayonni “semantik modellashtirish” deb atash mumkin. Ogahiy bu modellashtirishni badiiy tuygʻu bilan uygʻunlashtirib, oʻzbek tili leksik-semantik tizimining yuksak namunalaridan birini yaratgan. Uning har bir gʻazali morfemik tahlil uchun ochiq, lekin ularning ichki semantik bogʻlanishi faqat ruhiy-falsafiy yondashuv orqali anglanadi.

Affikslarning fonetik ohangi ham semantik maʼnoga xizmat qiladi. *-o* tovushi yumshoqlik, chuqur intonatsiya, duoiya ohangni beradi. Shu sababli Ogahiyda *dono*, *tavono*, *jono*, *xono* kabi shakllar ketma-ketlikda takrorlanadi. Bu

takror semantik rezonans yaratadi. Gʻazalda bir soʻzning ohangi boshqasiga aks-sado beradi, natijada gʻazalning umumiy tovushi ilohiy musiqaga aylanadi.

Shunday qilib, Ogahiy leksikasida ildiz va affikslar oʻzaro munosabatining semantik modellari tildagi soʻz yasash mexanizmlarini badiiy ifoda bilan uygʻunlashtirgan. Uning asarlarida har bir soʻz, har bir morfema ramzga aylanib, inson va iloh, aql va ishq, borliq va yoʻqlik oʻrtasidagi nozik aloqalarni yoritadi. Bu jihatdan Ogahiy nafaqat shoir, balki til muhandisi, maʼno arxitektori sifatida ham eʼtirof etiladi. Uning tili ilohiy semantika bilan toʻyingan, morfologik tuzilishi orqali maʼnaviy olamni ifodalovchi tirik tizimdir. Shu bois Ogahiy leksikasini tahlil qilish oʻzbek tili tarixida soʻzning ruhini, maʼno shaklini va semantik modellashtirish sanʼatini anglash uchun beqiyos manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyeva M. Aspektuallik tizimi va uning funksional-semantik maydon sifatidagi mohiyati // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar, istiqbollar. – Tashkent, 2022. – Vol. 1, No. 1. – B. 196.
2. Sapayev Q. Hozirgi oʻzbek tili (morfemika, soʻz yasalishi va morfologiya): oʻquv qoʻllanma. – Toshkent : Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2009. – B. 10.
3. Allayorova N. Soʻz yaslash usullari, morfema va uning turlari // Tillarning oʻqitish metodikasi sohasidagi zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Samarqand, 2025-yil 11–12-mart). – Samarqand : Zarmed Universiteti, 2025. – B. 125–128.
4. Mullayeva R. Ogahiy lirikasi haqida // Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023. – B. 1349.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent, 2000. – B.27

FILOLOGIYA

OZIQ-OVQAT NOMLARI TARJIMASIDA MADANIY MOSLIK VA EKVIVALENTLIK MASALALARI

**G'ayratova Ra'no,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi**

UO'K: 941 (9)

Annotatsiya: Ushbu maqolada taomnomalar, retseptlar, turistik varaqalar va yo'riqnomalarning tarjimasi tahlil qilingan bo'lib, tarjimada madaniy moslik va ekvivalentlik masalalari nazariy ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется перевод рецептов, печатных изданий, туристических брошюр и путеводителей, а также на основе теоретических данных освещаются вопросы культурной совместимости и эквивалентности перевода.

Annotation: This article analyzes the translation of recipes, printed publications, tourist brochures, and guidebooks, and, using theoretical data, addresses issues of cultural compatibility and translation equivalence.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat mahsulotlari, taomnoma, retsept, turistik varaqa, yo'riqnoma, pazandalik kitobi, gastronomik turizm.

Ключевые слова: продукты питания, рецепты, туристические брошюры, путеводители, кулинарные книги, гастрономический туризм.

Key words: food, recipes, tourist brochures, guidebooks, cookbooks, gastronomic tourism.

Dunyo bo'ylab yirik kitob do'konlarida taniqli oshpazlar yoki taniqli shaxslar mualliflik qilgan, boshqa xalqlarning oshxonalari bilan tanishishni taklif qiluvchi ko'plab tarjima qilingan oshxona kitoblari mavjud. World Wide Web sahifasi oziq-ovqat bilan bog'liq saytlar, bloglar, forumlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa-da, eng muhimi, turli xil ijtimoiy tarmoqlar ushbu mavzu bo'yicha munozaralar va vizual namoyishlar uchun platforma bo'lib xizmat qiladi. Oshpazlikka oid kitoblar ko'p nashr qilinmoqda yoki mashhur shou yulduzlarining ovqat tayyorlashi bilan bog'liq yangi teledasturlar efirga uzatiladi. Avvallari yoshlar o'zlarining sevimli aktyor yoki aktrisalarining qaysi dizaynerlar bilan ishlashini yoki qaysi musiqani tinglashini aniqlashga uringan bo'lsalar;

hozirda esa ular qaysi restoranga tez-tez borishi, kimning retseptlari qiziqarli ekani kabilarga ko'p ahamiyat qaratmoqdalar. Shuningdek, xorijiy menyular, turistik varaqalar va yo'riqnomalar xorijiy tillardan tarjima qilingan bo'lib, ularda oziq-ovqat va ichimliklar bo'limi yangi sayohatchilar, sarguzasht izlovchi sayyohlar tomonidan eng ko'p murojaat qiladigan segment bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda ham hozirgi kunda gastronomik turizm kundan-kunga rivojlanib bormoqda va dunyo mamlakatlari bizning juda ko'p sonli milliy taomlarimizdan totish uchun yurtimizga kelishmoqda, ularni reklama qilishda fud –bloggerlarimiz jonbozlik ko'rsatishmoqda.

Bu borada sayyoh Alessandra De Markoning Yangi Zelandiya taomlarining mazasi dunyoga tanilganining sababi haqidagi fikrlarining keltirish joizdir. Uning ta'kidlashicha, maori taomlari so'zlari "ekzotiklashtirilgan", ya'ni, ularda sayyohlarni jalb qilishga katta urg'u berilgan elementlar bor. Ayniqsa Marko ularning oshxonalaridagi qora taxtalar, ya'ni menyularning "harakati"ga diqqatni qaratadi, bu almashib turadigan qora taxtalar yangilikni bildirish bilan birga, taomnomani vaqtinchalik ekanligini ta'kidlaydi, va bu orqali ular o'z taomlarining nihoyatda rang- barangligini ko'rsatishadi.

Oziq-ovqat va til o'rtasidagi bog'liqlik, oziq-ovqatga doir fanlarning o'zi tarjimaga bog'liq ko'plab sohalarni qamrab oladi. Oziq-ovqat sanoati dehqonchilik, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot fanlari va boshqa sohalarni ham o'z ichiga olgan, o'tgan asrda juda rivojlangan sanoatlardan biri bo'lgan. Shunga qaramay, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda uy bekalari konserva va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini afzal ko'rgan bo'lsalar, so'nggi o'n yilliklarda ko'plab xonadonlarda muzlatgichlar va mikroto'liqlik pechlardan foydalanish urf bo'lsa-da, bugungi kunda tabiiylik, haqiqiylik va yangilikka har qachongidan ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Maykl Kronin oziq-ovqat va tarjima o'rtasidagi yana bir muhim o'xshashlikni topadi. Oziq-ovqat mahsulotlari tuz yoki quritish yo'li bilan konservatsiya qilishning dastlabki urinishlaridan zamonaviy oziq-ovqat sanoati tomonidan taklif qilingan ko'plab saqlash usullarigacha uzoq yo'lni bosib o'tdi; ammo, biz yana organik ekinlar modasiga

qaytdik va bir vaqtning o'zida sanoat tomonidan tayyorlangan har qanday narsani iste'mol qilishda ikkilanish paydo bo'ladigan bo'ldi. "Tabiiy", "konservalangan", "quritilgan" yoki "muzlatilgan"dan afzalroq organik mahsulotlarga talab kundankunga oshib bormoqda[1]. Oziq-ovqat sanoatida tabiiy manbalardan olingan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy mahsulotlar deb ta'riflanadi. Eng yirik qidiruv tizimlaridan biri bo'lgan google (google.com)da o'zbek tilidagi "tabiiy mahsulotlar" uchun asosiy qidiruvda 2 090 000 dan ortiq ma'lumotlar topildi. Internetda turli atamalar ham topildi, masalan, "*sport ichimliklari*", "*quvvatlantiruvchi ichimliklar*", "*energetik ichimliklar*" kabilar. Ammo, masalaning yana bir tomoni borki, yuqoridagi ichimliklar aslida sog'lik uchun zararli deb topilgan bo'lib, xorijiy *energetik ichimliklar* tarjimai o'zbek tiliga quvvat beruvchi va sog'likka foydali tarzida tarjima qilinib kelinmoqda. Shular bilan bir qatorda bugunga kelib yoshlarimiz o'rtasida ommalashib borayotgan xorijiy *fast-food* (*tez tayyor bo'luvchi ovqat*)lar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu nomuvofiq va noto'g'ri ozuqaviy yorliqlar ba'zan mahsulotning haqiqiy xususiyatlarini chalkashtirib ko'rsatadi. Bir qancha xalqaro fastfud va alkogolsiz ichimliklar kompaniyalari o'z mahsulotlarida sog'liq uchun foyda borligini da'vo qilishadi. Ushbu mahsulotlarni iste'mol qilish sizni kuchliroq qiladi, degan fikr odatda O'zbekistonda 2008-yillardan beri ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi. Ko'pgina bolalar ijtimoiy tarmoqlardagi burgerlar yoki nonushta uchun tortlar to'yimli ekanligi haqidagi noto'g'ri reklamalarga ishonishadi. Masalan, Toshkentdagi *Burger King* va *KFC*da ovqatlanish trend va hatto hashamatga aylandi. Misollar shuni ko'rsatadiki, yurtimizda tegishli oziq-ovqat va marketing qoidalarini yo'qligi sababli, ko'plab yolg'on va noto'g'ri tarjima qilingan atamalar jiddiy sog'liq muammolariga olib keldi. Shunday qilib, semizlik zamonaviy jamiyatimizda katta muammoga aylanmoqda, bu ham qaysidir jihatdan noto'g'ri ovqatlanishga borib taqaladi.

Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlari nomi va ular bilan bog'liq matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilish masalalari nechog'lik

zarur ekanligi va adekvat tarjimani berish muammolari hali hanuz dolzarb ekanligini ta’kidlashimiz zarur. So‘nggi paytlarda ommalashib borayotgan chet el mahsulotlari, sog‘likka foydali ekanligi ta’kidlanayotgan hashamatli yorliqdagi mahsulotlar salomatligimiz uchun qanchalik foydali yoki zararliligi undagi tarjimaga ham bog‘liqdir.

Gastronomik turizmda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish ko‘p jihatdan oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini adekvat tarjima qilishga, shuningdek, restoranlar va umumiy ovqatlanish joylarida ingliz tilidagi matnlarga qo‘yiladigan til talablariga bog‘liq. Milliy oshxona nomi matnlarini tarjima qilish metodologiyasini o‘rganish zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Ovqatlarning nomlari, milliy o‘ziga xoslik belgilari sifatida, odamlarni nima is’temol qilishlari bilan ularga baho berish mumkin. Brilya -Savaren: “Menga nima yeyayotganingizni ayting, men sizga kimligingizni aytaman”[2] – deb yozgan edi. Ushbu aforizm biz iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari kimligimizni aniqlab berishi mumkinligini aniq ko‘rsatib berdi. Aslida, har bir millat ma’lum bir taom bilan assotsiatsiya qilinadi. Misol uchun Italiya deganda *pitsa (pizza)*, Yaponiya deganda *sushi* ko‘z oldimizga keladi.

Odatda tarjima nafaqat lingvistik faoliyat, balki madaniy faoliyat hamdir[3]. Bundan tashqari, Nida “Til tuzilishidagi farqlardan ko‘ra, tarjimon uchun madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar tarjima jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keltiradi” – deb ta’kidlaydi[4]. Stovianova fikriga ko‘ra menyularni tarjima qilishda: transliteratsiya (transliteration), o‘zlashtirma (calque) tarjimasi va tavsiflovchi (descriptive) tarjima usulari keng qo‘llaniladi. Taom retsepti tarjimasida sarlavha, ya’ni taom nominantining tarjimasi muhim o‘rin tutadi. Aslida, ko‘pgina tilshunoslar taom nominantlarini milliy realiyalar qatoriga kiritadilar.

Taom nomlarini tog‘ri tarjima qilishda, avvalambor, ikki tilda ham ularning yasalishi, leksik-semantik xususiyatlarini ko‘rib chiqish lozim. Shundan so‘nggina taom nomlarini, retsept va menyularni to‘g‘ri tarjima qilish mumkin.

Taom nomlarini tarjima qilish jarayonida tarjimaning turli usullaridan foydalanish juda muhim. Tarjima usullari tarjima sifatini oshirish va asliyat tilidan tarjima qilinayotgan taom asl nomlarining ma'no-mazmunini saqlab qolish uchun yordam beradi. Bu esa restoran menyulari va retsept kitoblari tog'ri tarjima qilinishiga yordam beradi.

Tarjimaning mukammal bo'lishida ekvivalentlik muhimmi yoki adekvatlik, degan savol tarjimashunoslikda katta bahslarga sabab bo'lib kelmoqda[5]. *Ekvivalent* lotincha “*aequivalens*” so'zidan olingan bo'lib, “teng kuchli” degan ma'noni anglatadi. *Adekvat* so'zi ham lotincha “*adaequatus*” so'zidan olingan bo'lib, “to'la mos”, “bir-biriga aynan o'xshash” kabi ma'nolarni anglatadi[6]. Ayrim tarjimashunoslar fikricha, ekvivalentlik tarjima qilinayotgan til meyoriga qat'iy amal qilgan holda asosiy mazmunni uzatishdir[7]. Y.Y.Nayda “The Theory and Practice of Translation” kitobida ekvivalentlikni formal va dinamik kabi ikki asosiy turga ajratadi. Formal ekvivalentlikda taqdim etilayotgan axborot nasriy janrda bo'lsa, nasr, she'riy janrda bo'lsa, o'sha janr qoidalariga to'la muvofiqlashtirilgan holda uzatilishi muhim. Dinamik ekvivalentlikda esa ma'no jihatdan umumiy yaqinlikka e'tibor qaratiladi[8].

Sharq va G'arb madaniy aloqalari tarixiga nazar tashlar ekanmiz, qadimdan millatlararo totuvlik va do'stona aloqalar rivojida tarjimaning o'rni qanchalik katta ekanligining guvohi bo'lamiz. O'tmishdagi tarjima sohasidagi yutuqlarni sarhisob qilib aytish mumkinki, bugunga kelib, zamon ruhidan kelib chiqqan holda tarjimaga katta talablar qo'yilmoqda. Tarjima faoliyatining tasavvur qilib bo'lmas darajada keng rivojlanishi unga bo'lgan qiziqishni faqatgina yangicha o'y bilan emas, balki uni ilmiy bir tizimga solish hamda yozuvchi, adib va olimlarning tanqidiy fikrini inobatga olib, shu sohada yig'ilgan katta tajribalarni umumlashtirishni talab qiladi. Tarjima tarixini yaratishdan maqsad faqat tarjimachilik sohasida mavjud an'analarni o'rganish va boy madaniy-ma'naviy merosning tarkibiy qismi sifatida taqdim etish uchungina zarur emas, balki mumtoz tarjima-ning o'ziga xos xususiyatini, realistik tarjima tamoyillari o'rtasidagi asosiy

belgilarni farqlash, xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, bizning davrimizda keng quloch yozgan badiiy ijodning bu sohasida ro'y berayotgan adabiy novatorlik mazmunini idrok qilish, chinakam badiiy tarjima yaratish evolyutsiyasi va istiqbolini aniqlash, hamma davrlarda badiiy tarjimaning asosiy illatlaridan biri bo'lib kelayotgan, bizning davrimizda ham yuz berayotgan ikki asosiy xavf – formalizm va asarni butunlay o'zgartirib yuborish hollarini o'rganish va uni bartaraf qilish yo'llarini qidirib topishdan iborat[9]. Bugungi kunda har bir tarjimon tarjima qilinadigan asar yoxud materialni qo'lga olar ekan, avvalo, o'sha tarjimaning jamiyat tarixi, madaniyati, adabiyoti va ushbu asarga tegishli har bir detalini chambarchas o'rganib chiqishi lozim. Isaak Zinger: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lishi kerak[10], – deb ta'kidlaganda, qanchalik haq ekanligini tarjima tahlillari yaqqol ko'rsatib turibdi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik va adekvatlik masalalarida shakllangan umumiy qarashlar, asosan, tarjima jarayonida til va adabiyot normalarining teng darajadagi ishtirokini tan olishdan nariga o'tmadi, balki yangi tadqiqotlar ushbu qarashlarni ilmiy asosda tadqiq qilishda namuna bo'lar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Michael Cronin (2015) The moveable feast: translation, ecology and food, The Translator, 21:3, 244- 256, DOI: 10.1080/13556509.2015.1103094
2. <https://ru.wikipedia.org>
3. Odilova G. Problems of translation and comparative stylistic analysis of the Uzbek and English national food nominees. Philology Matters: Vol. 2019 : Iss. 2 , Article 20.
4. Toury, G. (2004). Probabilistic Explanations in Translation Studies. Translation Universals., p. 15-32.
5. Одилова Г. К. Глутоник дискурс асослари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2020. – Б.67.
6. Словарь иностранных слов. – М., 1979. – С. 17.
7. Бу ҳақда қаранг: Бархударов Л. С. Язык и перевод // Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 2007. – С. 240.
8. Бу ҳақда қаранг: Nida, Eugene A, Charles.R. Taber. The Theory and Practice of Translation. – Leiden.: Brill. 1969. – 185 p; Найда Ю. Я. К науке как переводить // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. Сборник статей. – М.: Международные отношения, 1978. – С. 115.
9. Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 8.
10. Саломов Ғ. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси // Таржима санъати. – Тошкент, 1978. – 4-китоб. – Б. 66.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

11 (32)
2025-yil, noyabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni

№0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 13,375 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22